“Соз”андада – яратувчи, “чолғучи” миллий мусиқа чолғуларидан бирида машқ қилувчи мусиқачи; машшоқ, навозанда деган маъноларни англатади. Созандалик – мусиқа ижрочилиги санъатининг қадимий турларидан бири бўлиб инсон ҳаёти, маънавияти ва руҳияти ривожига бекиёс мадад берувчи куй яратувчисидир. Мусиқий жанрлар ичида энг мураккаби созанда томонидан бирор чолғу асбобида ижро этиладиган чолғу мусиқасидир.

Хар бир миллатнинг мусиқа ижрочилигига ўзига хос миллий мусиқий садоланиш қоидалари, миллий мусиқий ижро тузилмалари, ижрочилик мактаблари мавжуд. Айрим бир чолғу асбоблари борки, уларни тузилши ва кўриниши бир хил бўлсада бошқа халқларнинг мусиқа чолғулари ижролари ва садоланишлари билан бир-биридан фарқ қиласди. Чолғу асбобларининг садоланиши ва унда ижро этиладиган мусиқий асарларнинг ижроси ҳамда оҳангни уни қайси миллатга мансублигидан дарак беради.

Халқ чолғулари асрлар давомида тараққий топиб, узоқ йиллар давомида ривожланиб, мусиқий меросимизда алоҳида ўрин тутиб келган. Уларнинг аксарияти қадимги даврларда яратилган, такомиллашган ва бугунги кунгача сақланиб келинган.

Озарбайжоннинг Қорабоғ худудида, Ўзбекистоннинг қадимий шаҳарларидан бўлган Термиз яқинидаги Айритом қалъаси пештоқлари, Хоразм худудида жойлашган “Тупроқ қалъа” деворларида тасвирланган мусиқий лавғҳларда мусиқа асбобларининг тасвирлари, “Хумбуз тепа”да олиб борилган археологик қазишмалар чоғида қадимий тарихдан далолат берувчи турли хил ашёлар топилган.

Ўзбек (Хоразм) ва Озарбайжон халқларида бир-бирга ўхшаш чолғу асбоблари мавжуд. Бу чолғу асбоблар тузилиши, овоз чиқариш усуллари, ишлаб чиқариш материаллари бўйича урма, пуфлама ва торли камонли гуруҳларга бўлинади.

Урма чолғу асбоблари: нагара (ноғора), гош нагар (қўш ноғора), деф (тап). Тап Хоразмда кенг тарқалган чолғу асбоблардан. Унинг яна бир кўриниши доира деб юритилади. Тапни доирадан фарқи ундаги усул ижросида. Тапда асосан кучли ҳиссалар ажратилган ҳолда ижро этилса, доирада мумтоз куй- ашуналарга хос бўлган усуллар ижро қилинади. Доира тапга нисбатан каттароқ шаклда бўлади.

Пуфлаб чалинадиган чолғу асбоблар: Бу чолғу асбоблар қаторига зурна (сурнай), тутек (қўшнай), балабан (буламон) ва бошқалар чолғу асбоблар киради. Бу чолғу асболарни ижро услублар ва товуш чиқариш услублари деярли бир хил.

Торли ва торли тирнама чолғу асбоблар: тар, саз, уд, танбур: торли тирнама чолғуга қонун, торли-урма чолғуларга чанг ва сантурлар киради. Бу чолғуларни кўпчилги ҳозирда амалиётда мавжуд. Мулла Бекжон Раҳмон ва Мухаммад Юсуф Девонзодаларнинг 1925 йил Москвада (Араб алифбосида, эски ўзбек тилида) чоп қилинган “Хоразм мусиқий тарихчаси” рисоласида симтўр чолғу асбобининг расми берилган. Сим тўр 19 асрда Хоразмда мақом ижрочилигида машҳур чолғу асбобларидан бири бўлган. Ҳозирда амалиётда қўлланилмайди.

Ўзбек ва Озарбайжон халқларида кенг тарқалган чолғуларидан бири тор чолғу асбоби ҳисобланади. Тор Хоразмда рубоб номи билан ҳам машҳур. Рубоб мусиқий рисолалар ва бошқа манбаларда қўбиз, шаштор, панжтор, шудурғу, ишрат ёки тор деб ҳам қайд этилади. Дарвишалининг мусиқий рисоласида “Рубоб тоғликлар сози бўлиб, овози қуруқ (хушк)дир. Унинг беш тори бор:

тўрттаси ипакдан, бири эса сим, садоси (ичи, рухи) бошқа созлардан қисқарок” деган маълумотлар мавжуд.

XIX асрда Муҳаммад Раҳимхон Соний ташаббуси билан сарой созандаси Қаландар Дўнмас томонидан Озарбайжон торига ўхшаш чолғу асбоби ясалади, халқ орасида рубоб деб юритила бошлайди.

Хоразм рубоби Озарбайжон тори билан ташки кўринишидан қанча ўхшамасин, парда тизими ва ижро услуби билан фарқ қиласди. Тор Озарбайжон ва Эронда ҳам жуда машҳур чолғу асбобидир. Озарбайжонда ашула ижрочилигига тор ва овоз бир-бирига мувозий (параллел) равишда жўр бўлмайди, созанда (торчи) хонандага жўрнавоз бўлиб ижро қиласди. Торчи билан хонанда алмасиб ижро этиб, ижро жараёнида бадиҳагўйлик кенг тарқалган. Ўзбек қўшиқчилигига эса тор ва овоз параллел равишда ижро қилиниб, ҳофиз овозига суюнчиқ (ҳасса) вазифасини бажаради.

Ўтган асрнинг бошларига келиб, тор чолғу асбобида хоразмлик таниқли санъаткорлар, Шерозий ва Бола бахшилар халқ қўшиқлари ва достон ижрочилигига, устоз ҳофиз Ҳожихон Болтаев торни мақом ижрочилигига (танбур ўрнида) доимий равишда ишлата бошлаган.

1940–50-йилларда тор чолғу созини кенг оммалашувида Комилjon Отаниёзовнинг хизматлари катта бўлган. Устоз тор ижрочилигига янги ижро услублари яратиб, уни Ўзбекистон, Туркманистон ҳамда Тожикистонда расм этилишида сабабчи бўлиш билан бирга, ушбу чолғуни катта саҳна талаблари даражасида моҳирона ижро этган.

Тор қўшиқ ижрочилигига фақат жўрнавоз чолғу бўлмасдан, балки халқ куйлари ва мақомларнинг чолғу қисмларини ижро этишда ҳам созандалар ўртасида кенг тарқалган.



Зурна



Сурнай



Балабан



Буломон



Тап



Даф

Тор



Сантур



Симтүр

Озарбайжон композитори Узеир Гаджибеков ўзининг (1908 йилда ёзилган) “Лайли ва Мажнун” номли операси (мақом операси)да, ўзбек композитори Абдушариф Отажонов “Ошиқ Ғарип ва Шоҳсанам” мусиқали драмасида (1957 йилда ёзилган) тор асбобини оркестрда етакчи чолғу сифатида қўллаганлар.

XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб Россия билан Туркистон халқлари ўртасида жуда катта тарихий-маданий аҳамиятга эга бўлган муносабатлар йўлга қўйилиб савдо сотик ишлари олиб борилган. Ўша даврда пайдо бўлган савдо маҳсулотлари қаторида органун, скрипка, кларнет ва гармон каби мусиқа чолғулари бор эди. Бу чолғуларни кириб келиши қисқа давр ичida ўзбек халқи маданиятига жиддий таъсир кўрсатди ва улар халқ созандалари орасида оммалаша бошлади.



*Худойберган Деванов фотоархивида сақланаётган хивалик ва
rossиялик созандалар жамоаси*

XX асрнинг бошларига келиб гармон Озарбайжоннинг анъанавий мусиқа ижрочилигидаги, Хоразмда халқ созандалари ва халфалар ижрочилик амалиётида жорий этилиб бошлаган. Бир қатор устозлар, жумладан, Хоразмда Курбон (созчи) Исмаилов, Сафо Муғаний, Мадраҳим Шерозий, Жуманиёз (созчи) Хайитов, Хўжа (созчи) Отажанов, Фарғонада Ориф (гармон) Тошматов ва бошқаларнинг номлари (созчи номи билан) машҳур бўла бошлаган. Озарбайжонда гармон бошқа халқ чолғу асбоблари қаторида ансамблларда, хусусан, халқ сайилларида миллий рақс мусиқаларини ижро этишда қўлланилди.

Ўзбекистонда XX асрнинг 50-60 йилларида гармоннинг такомиллаштирилган турлари аккордеон ва баян чолғулари ҳам кенг тарқалиб халқимиз орасида соз номи билан машҳур бўлган.

Ўзбек давлат филармонияси қошида 1957 йили Комилжон Отаниёзов раҳбарлигидаги тузилган Хоразм ашула ва рақс ансамблида аккордеон ва баян чолғу асбоблари хонандалар қўшиғига жўр чолғу асбоби сифатида, ишлатила бошлаган. Ансамбл жамоасида Мадраҳим Шерозий аккордеон, Телман Мусаев ва Илхом Аллабергановлар баян чолғу асбоблари чалганлар.



Аккордеон чолғу асбобини Хоразмда ҳофизлар дастасида кенг тарқалишида устоз созанда Рўзмат Бекчановнинг хизматлари катта бўлган. Бугунки кунда аккордеон миллий чолғу ансамблари ва ҳофизлар қўшиқ ижро этаганларида уларни овозларига жўрнавоз чолғу асбоби сифатида қўлланилиб келинмоқда.

Озарбайжонда гармонни ишлаб чиқариш ва йиғиш билан шуғулланган усталар унинг овоз тизимини озарбайжон мусиқасининг товуш диапазонига тўлиқ мослаштирганлар. Замонавий такомиллаштирилган гармон чолғу асбоби озарбайжон халқ мусиқасини, жумладан, муғомларни ижро этиш учун жуда қулай асбоб сифатида созандалар томонидан қабул қилинган.

REFERENCES

1. Дарвеш Али Чангий. Рисолаи мусиқий. Ўзбекистон Фанлар академиясининг Шарқшунослик институти. Кўлѓезма, инв. № 468.
2. Кароматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка – Т.: 1972.
3. Матякубов О. Мақомот – Т.: 2004.
4. Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчаси – Т.: 1998.

YOSH DIRIJORLARNI TARBIYALASHDA PEDAGOGIK TAVSIYALAR

Turatov Sobirjon Turdibekovich

O‘zbekiston davlat san“at va madaniyat instituti

“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda dirijorlik san“ati bilan shug, ulanayotgan yosh dirijorlarni mustahkam bilim egasi bo, lishi uchun zarur omillar keltirilgan. Dirijorlik san“atini yuksaltirishda ular uchun qisqacha ko, rsatmalar, tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqa, san“at, dirijor, orkestr, xor, ashula va raqs, ansambl, kompozitor, partitura, partiy.

ABSTRACT

The factors that are necessary for young conductors who are currently engaged in the art of conducting in order to acquire thorough knowledge are given. They are given brief instructions and recommendations for the development of the art of conducting.

Keywords: music, art, conductor, orchestra, choir, song and dance, ensemble, composer, score, part.

Musiqa ijrochilik san“ati ichida eng yosh va murakkab san“at deb dirijorlik san“ati mutaxassislar tomonidan ko, p marotoba e“tirof etiladi. Dirijorlik san“ati asli Yevropoda shakllanib, bir qancha dirijorlar mutaxassis sifatida namoyon bo, ldi. Ulardan IX asr oxiri XX asr boshlarida X.Rixter, G.Maler (Avstriya), A.Nikish (Vengriya), F Veyngartner, K.Muk, R.Shtraus (Germaniya), SH.Lamure, E.Kolonn (Fransiya), B.Valter, V.Furtvengler, O.Klemperer (Germaniya), A.Toskanini (Italiya), SH.Myunsh (Fransiya), G. fon Karayan (Avstriya), L.Stokovskiy, Y.Ormandi, L.Bernstain (AQSH), G.Abendrot, K.Zanderling (Germaniya) kabilar birinchilardan bo, lib dirijor sifatida tanilib chiqqan[3]. Shuning uchun bo, lsa kerakki yevropada har xil davlatlarda dirijor so, zi o, z ma“nosiga ega. Masalan, nemislar “Dirident”, italyanlar “Diridente”, fransuzlar “Shef orkestre”, inglizlar “Konduktor” deydilar. Har qaysi tilda ham bu so, z rahbar, boshliq, direktor ma“nosini anglatadi.[2] Dirijor rahbarlik qiladigan jamoalar xor yoki simfonik orkestr emas balki, harbiy, kamer, xalq cholg, ulari, jaz, estrada-simfonik kabi orkestrlarga, opera guruhlari, shuningdek ashula va raqs hamda vokal-cholg, u ansambollarida ham badiiy rahbar sifatida ish yuritishi mumkin. Ushbu jamoalarda u o, zining rahbarligini shug, ullanish

jarayoni va konsert ijrochiligidagi namoyon etadi. Shunday qilib, dirijor bu– orkestr jamoasining rahbaridir.

Dirijorlik san“ati O,zbekiston hududiga XX asrning boshlarida kirib kelgan bo,lsa, bevosita unda harbiy, damli cholg‘ular, simfonik orkestrlari hamda xor bilan xalq cholg‘ulari orkestrlarining o,rni beqiyosdir. To,xtasin Jalilov, Dolni Zokirov, Muxtor Ashrafiy, Bahrom Inoyatov, Fazliddin Shamsutdinov, Abdug,ani Abduqayumov, Dilbar Abdurahmonova, Ergash Toshmatov, Zohid Xaqnazarov, Botir Rasulov, Farux Sodiqovlar va boshqa ustoz dirijorlar mohirlik bilan ushbu san“atni o,zlariga kasb qilib o,zlashtirib, ijrochilik maktablarini yarata olishgan. Dirijorlik maktablarini yaratishda bevosita ular asosan dirijorning vazifalariga ahamiyat berishgan. Hozirgi kunda ta“lim jarayonida ustozlarning saboqlaridan va ularning tajribasidan kelib chiqqan holda yosh dirijyorlarni tarbiyalashda ular uchun muhim bo,lgan vazifalarni tavsiya etmoqchimiz. Masalan yosh dirijorlar birinchi navbatda o,zining konsert dasturini tuza olishi, bunda asarlarning ketma-ketligini aniq tartibga solish, dirijor tanlangan asarni o,z jamoasiga mosligini, asar bo,yicha orkestr tarkibidagi ijrochilar mahoratini aniqligini, bunda solist partiylarini mahorat egalariga to,g,ri taqsimlashi, orkestrning umumiyligi ijrochilik pozitsiyasini o,zida taqsimlash, musiqiy tafakkurini orkestr sozandalariga dirijorlik mahorati ila uni yetkazish, dirijor va orkestr o,rtasidagi ansamblni tashkil eta olish vazifalari nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, repetitsiya va konsert jarayonida tartib – sozandalar o,rtasidagi intizomni mustahkamlash, ijrochilikda ansambl uyg,unligi ta“minlash. Dirijor orkestrni o,z irodasiga bo,ysundira olishi va barcha musiqachilarining musiqani yakdil his qilishini ta“minlashi, ularni birlashtirib, yuzta turli shaxsdan o,zining har bir harakatiga qarab ish tutuvchi yagona jamoa, organizm shakllantirishdan iborat. Unda repetitsiya jarayonida o,zini qo,lga ola bilish qobiliyati, bor mahoratni ishga solish, mavjud bilimlardan to,g,ri foydalanishdir. Unda ijrochining ijodiy harorati, ya“ni uning artistik temperamenti xususiyatlari va undan foydalana olish qobiliyati musiqa ijrochisiga ta“sir qilmay qolmaydi. Ijro jarayonida ana shu “ijodiy harorat chegaralari” juda aniq belgilanishi lozim. Jumladan, o,z vaqtida Sharl Myunsh: “Agar dirijor ichki hissiyot kuchiga, orkestr a“zolari va tinglovchilarini sehrlab qo,yishga qodir ohanraboga ega bo,lmasa, unda xatto 15 yillik mehnat va o,qish jarayoni ham insonning dirijor bo,lishtiga yordam bera olmaydi”, – deya e“tirof etgan. Shuning uchun ham dirijor ijro etilayotgan asarni juda yaxshi bilishi, nota materialini yaxshi yodlab va o,rganib olishi kerak. Biroq, kompozitorning badiiy maslagi va maqsadlarini tushunib, ochib berish uchun uning nota yozuvini zamirida yotgan tub ma“noni chuqur anglashi lozim.

Uchinchidan, turli orkestr, xor va boshqa o,zi rahbarlik qilayotgan jamoalarning cholg,ularining va inson ovoz xususiyatlarining tabiatini puxta o,zlashtirish orqali yaxshi dirijor eshitish qobiliyatini va har qanday cholg,ularga xos jilvalarni (musiqiy matn) chuqur his etish xususiyatini o,zida shakllantirishi lozim. Shu o,rinda cholg,ularning o,ziga xos xarakteri, tembri va cholg,uning eng qulay ijrochilik intonatsion pozitsiyasi, ijrochilikda texnik xususiyatlarini bilishi zarur. Agarda partiturani o,zlashtirish jarayonida dirijor cholg,ularga taqsimlangan nota matnlarini aniq emasligini bilmasa, unday hollarda ijrochi sozandalarda ijrochilik mahorati pasayadi. Shuning uchun dirijor tanlangan asarni cholg,ulashtirishda va bevosita o,z bilimlarini partiturani shakllantirishda ishtirok etishi kerak. Noqulay va o,zini oqlamagan har bir narsa ijroning badiyiliginining pasayishiga olib keladi. Yaxshi dirijor bo,lib yetishish uchun ko,p narsani bilish kerak, avvalo, haqiqiy musiqachi bo,lishi kerak. Shu o,rinda taniqli dirijor Oskar Frid aytganidek, “eng nozik musiqiy tasavvurlarni ilg,ashga qodir yurak bilan tug,ilish kerak, ana shu tasavvurlarni g,oyalarga aylantirishga qodir aqlni tarbiyalash zarur, bu g,oyalarni orkestrga yetkazish uchun esa kuchli qo,lga ega bo,lish lozim”.

To,rtinchidan, dirijor o,z cholg,usini ya’ni qo,llarining xarakatini aniq ifodalay olishidir. Bunda dirijor qo,l xarakatlarining nuqtasi sari aniqligi, uning fizik holati, bunda yuqorida pastga xarakatlanishdagi tezlik ya’ni yerning tortish kuchi bilan bog,liq bo,lgan xakatlarni ifodalashi, o,ng va chap qo,lning funksional vazifalarini bajarishi natijasida orkestr sozandalariiga to,liq musiqiy tafakkurini yetkazib, asarni badiiy ijrosini ta“minlashdir. Orkestr sozandalari har biri o,z xarakteri, tabiat, fe’liga ega, ular musiqani turlicha tarzda tushunishlari, idrok qilishlari mumkin. Bunday hollarda dirijorning musiqiy tafakkurini qo,l xarakatlari uni namoyon qiladi. Natijada bir emas bir qancha cholg,ularni dirijorning o,zi chalmaydi, balki boshqalar qo,li bilan yakdil ijroni ta“minlaydi.

O,ng va chap qo,l vazifalari to,g,risida mashhur dirijorlar quydagicha ta’rif beradi. “O,ng qo,l takt belgilaydi, chap qo,l esa o,ziga xos xususiyatlar va o,zgarishlarga ishora qiladi. O,ng qo,l – aqlniki, chap qo,l yurakniki va o,ng qo,l doimo chap qo,l nima qilayotganini bilishi kerak” – deb yozgan edi Sharl Myunsh, Artur Nikish esa: “O,,ng qo,l kesadi, chap qo,l esa– chizadi”.

Beshinchidan, orkestr oldiga chiqishdan avval, dirijor partiturani birinchi notadan so,nggi notasigacha, sinchiklab o,rganib, uni yodlab olishi lozim. Dirijorlik pultida juda ko,p mashhur dirijorlar partituranidan foydalanadilar. Ba’zilar esa, yoddan dirijorlik qilib, muxlislarning alohida e’tiborini tortib, olqishiga sazovor bo,ladil. O,quv jarayonida dastlabki dirijorlik kasbini o,zlashtirayotgan talabalar uchun partitura bo,lishi shart. Chunki ularda ijrochilik mahoratini to,g,ri va aniq ifodalanishini dirijor muntazam ravishda nazorat qilib turishi kerak bo,ladil. Shu

munosabat bilan XIX asarning taniqli dirijori Gans Fon Byulov dirijorlarni ikki toifaga ajratadi. Unda birinchisi yoddan partiturasiz dirijorlik qilish bolsa, ikkinchisi bevosita partitura qarab dirijorlik qilishdir. Bu ikkala holatda ham dirijor orkestrni to,gi boshqarishiga aminmiz.

Xulosa o‘rnida, dirijorlik kasbi – og‘ir jismoniy mehnat hamdir. Bunda dirijordan har bir repetitsiya jarayoni va konsert chiqishlarida undan ulkan jismoniy va ruhiy kuch hamda matonat talab etadi. Shu bois dirijor, sportchi yoki balet artisti kabi mustahkam salomatlik, jismoniy quvvat, iroda kuchi, o‘zini tuta bilish qobiliyati va o‘z tanasini mukammal boshqara olish xususiyatiga ega boishi lozim. Mashhur dirijor, ustoz Ergash Toshmatov “haqiqiy san‘atkor, avval o‘zi ijro etgan asarlarni boshqatdan ijro etganida undagi badiiy obrazga yangi boyoqlar baxsh etuvchi qirralar olib kiradi” deydi. Artur Nikish “agar siz bitta asarni bir yil davomida har kuni repetitsiya qilsangiz ham, uning har bir ijrosi katta improvizatsiya boishi kerakligini unutmang” deydi. Bu ikkala mashhyor ustoz dirijorlarning fikri asosida shuni aytish lozim-ki, dirijor o‘z musiqiy faoliyati davomida musiqiy adabiyotlarni chuqur o‘rganib borishi kerak. Shaxsan o‘ziga nima yoqishidan qat‘iy nazar, dirijor har qanday millatga, uslubga, davrga mos musiqiy adabiyotni, ayniqsa zamонави musiqiy adabiyotni yaxshi bilishi lozim. U ushbu san‘atni chuqur anglashi uchun va davomiyligini ta‘minlash maqsadida hamda o‘z malakasini oshirishda konsertlar, opera teatrlariga borib turishi va tanishishi, dirijorlarning ijro mahoratlarini tahlil qilishi darkordir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu vazifalarini o‘zida mujassam eta olgan dirijor, u haqiqiy san‘atkor, artist, musiqiy rejissyor, boilib shaklanadi. Orkestrning muntazam shakllanishida, sozandalarning mahoratini doimo oshirib borishi, ularni har xil harakterdagi asarlarni ijro qilishi, musiqiy didini shakllantirishi, eng kerakligi ansambl boilib ijro qilishida ularni tarbiyalashi eng muhim omil hisoblanadi.

REFERENCES

1. Azimov K. O‘zbekiston dirijorlari. T. 2001.
2. Toshmatov E. Dirijorlik san‘ati. T. 2008
3. Umarov SH. Dirijorlik. T. 2019

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA O‘RGANILISHI

Xurshid Beknazarov

Ozbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasiga katta oqituvchisi,
Toshkent davlat pedagogika universiteti (PhD) mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ozbekistondagi oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek xalq cholg‘ularini o‘rgatilishi va soha rivoji bo‘yicha olib borilayotgan ishlar hamda yechimini kutayotgan muammo va yechimlar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: madaniyat, san‘at, musiqa, cholg‘u, kadrlar, mutaxassis, mashg‘ulot, mahorat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается преподавание узбекских народных инструментов в высших учебных заведениях Узбекистана и проводимая работа по развитию отрасли, а также проблемы и решения, которые необходимо решить.

Ключевые слова: культура, искусство, музыка, музыкальный инструмент, кадры, специалист, подготовка, мастерство.

ABSTRACT

This article discusses the teaching of Uzbek folk instruments in higher education institutions in Uzbekistan and the work being done to develop the industry, as well as the problems and solutions that need to be addressed.

Keywords: culture, art, music, instruments, personnel, specialist, training, skill.

Musiqa azaldan kuchli vosita sifatida ta’lim-tarbiyaning barcha tizimlarida keng qo’llanilgan. Musiqa insonlarning ongi va ruhiyatiga chuqr ta’sir qiluvchi, ularda yuksak ma‘naviy madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi

sifatida qaralganligi bois unga katta e‘tibor berilgan. Mamlakatimizda madaniyat va san‘at rivoji bo_yicha chiqarilayotgan qator qaror va farmoyishlar ham bejizga emas.

O_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-sonli –O_zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo_yicha harakatlar strategiyasi to_g_risida”gi Farmoni, 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-sonli –Bolalar musiqa va san‘at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo_yicha 2016-2020-yillarga mo_ljallangan Davlat dasturi to_g_risida”gi, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli –O_zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to_g_risida”gi, 2022-yil 2-fevraldagagi –Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo_shimcha chora-tadbirlar to_g_risida”gi PQ-112-sonli Qarorilari madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish davlat miqyosida e‘tibor qaritilayotganligidan dalolat. Shu bilan birga O_zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalg etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko_nikmalarini shakllantirish yoshlar o_rtasida kitobxonlikni targ_ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag_ishlangan videoselektor yig_ilishida ilgari surgan 5 ta muhim tashshabus bo_yicha olib boriladigan ishlar ko_lami qancha keng ekanligini ko_rsatib turibdi.

Ma‘rifatparvar alloma Abdulla Avloniyning –Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan so_zlari nechog_li xaq ekanligini hammamiz yaxshi anglab turibmiz. Tarbiya bo_lmas ekan ta‘lim xam bo_lmaydi chunki bu ikkilasi bir biriga chambarchas bog_liq. O_zbekistonda ta‘lim dastlab –ustoz-shogird” an‘anasi asosida olib borilgan bo_lsa bugungi kunda barcha ta‘lim muassasalarda –ustoz-shogird” an‘anasi bilan birga ta‘lim va tarbiyani uyg_unlashtirgan xolda yoshlarga bilim berilib kelinmoqda. Bunday mas‘uliyatli vazifa esa albatta o_qituvchilar zimmasida. Shu boisdan Respublikamizda so_ngi yillarda o_qituvchilar mavqiyini ko_tarish uchun talaygina ishlar amalga oshirilmoqdaki bu esa o_z samarasini berida albatta.

Bugungi kunda yurtimizda har bir soha bo_yicha o_rta maxsus va oliv ta‘lim muassasalarida o_qituvchi kadrlar tayyorlanmoqda. Musiqa ta‘limi bo_yicha ham pedagogika universitetlarida mutaxassislar tayyorlanib umumiy o_rta ta‘lim maktablarini kadrlar bilan ta‘minlab kelinmoqda. Xech kimga sir emaski ta‘lim va tarbiyada musiqaning o_rni beqiyos shu sababdan azaldan musiqaga alohida e‘tibor berishgan. Dunyoda qadim tarixga va juda boy musiqiy merosga ega xalqlardan biri

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta‘lim uzviyilagini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

bu - o_zbek xalqidir. Buni birgini musiqiy cholg_ulari misolida xam ko_rishimiz mumkin masalan; doira, nog_ora, qayroq, nay, qo_shnay, surnay, karnay, sibizg_a, sopolnay, changqobuz, do_mbira, dutor, tanbur, rubob, ud, g_ijjak, chang, qonun... Bu ruyxatni I.Petrosiyans boshchiligidagi o_zbek xalq cholg_ularini qayta tiklash va rekonstruksiyadan keyin yaratilgan cholg_ular bilan xam boyitish mumkin.

O_zbek halq cholg_ularining tarixiy ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqalishiga arxeologik qazilmalar natijasida topilgan madaniy boyliklar, terrakota¹ lardagi tasvirlar bunga guvohlik berib turibdi.

Cholg_ularning kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, dastlabki cholg_ular sifatida ibtidoiy jamoa tuzumida mehnat qurollari, hayvonlarning terisi yoki o_z tanasiga urib, oyog_i bilan ritm berish natijasida yuzaga kelgan urma shovqunli cholg_ularni aytib o_tish mumkin. Undan so_ng damli cholg_ular va torli cholg_ular vujudga kelganligi xususidagi ma‘lumotlarni musiqaga oid ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda ko_rishimiz mumkin.

Bugungi kunda o_zbek xalq cholg_ulari respublikamizda mavjud bolalar musiqa va san‘at mакtablarida, ixtisoslashtirilgan musiqa va san‘at mакtablarida, o_rta maxsus musiqa va san‘at kollejlarida shu bilan birga barkamol avlod ijodiyot mакtablari va madaniyat uylarida tashkil etilgan to_garaklarda o_rgatilib kelinmoqda. Oliy ta‘lim muassasalaridan O_zbekiston davlat konservatoriysi va O_zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti o_zbek xalq cholg_ularini o_rgatish uchun asosiy kadrlarni tayyorlab kelgan bo_lsa bugungi kunga kelib musiqa va san‘at sohasida mutaxassis kadarlarini tayyorlaydigan oliy ta‘lim muassasalari soni sezilarli darajada oshdi. O_zbekiston davlat konservatoriysi, O_zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali, Yunus Rajabiy nomidagi O_zbek milliy musiqa san‘ati instituti, O_zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, O_zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining Farg_ona mintaqaviy filiali, O_zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining Nukus filiali shu bilan birga O_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi –2019-2020 o_quv yilida O_zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o_qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to_g_risida”gi PQ-4359-sonli qaroriga asosan Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Guliston davlat universitetida, Qoraqalpoq

¹ Terrakota (ital. terra — yer, tuproq, cotta — qizdirilgan) — tor ma’noda — loydan ishlanib xumdonda pishirilgan sirlanmagan va rang berilmagan mayda haykalchalar; keng ma’noda — loydan tayyorlanib, maxsus xumdonlarda qizdirilgan badiiy va amaliy ahamiyatga ega sirlangan sopol buyumlar (idishlar, ko‘za, haykalcha, o‘yinchoq, koshinvab.).

davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika institutlarini sanib o‘tish mumkin.

Shu tariqa cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha) va Kasb ta‘limi: cholg‘u ijrochiligi ta‘lim yo‘nalishlari sohasi bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega bo‘lish istagida bo‘lgan abiturentlarni respublika bo‘ylab to‘liq qamrab olish imkoniyati oshirildi.

Bu albatta o‘zbek xalq cholg‘ularini o‘rganishda, uni targ‘ib etishda, malakali kadrlarni yetishtirib chiqarish va balalar musiqa va san‘at mакtablarini oliy ma‘lumotli kadrlar bilan ta‘minlash uchun katta imkoniyat bo‘ldi. Chunki bugungi kunda umumta‘lim va bolalar musiqa va san‘at mакtablarida oliy ma‘lumotli kadrlar yetishmasligi muammozi ko‘p yillardan beri yechimini kutayotgan muammolardan biri edi.

Respublika bo‘ylab universitetlarda yangi ta‘lim yo‘nalishlarning ochilgani, oliy ma‘lumotli kadrlarni tayyorlashi yaxshi albatta ammo viloyatlarimizda talabalarga dars beradigan malakali kadrlar yetishmasligi yanabir muammoni keltirib chiqardi. Uni yechimi sifatida viloyatlarda ko‘p yillardan beri faoliyat yuritib kelayotgan madaniyat va san‘at kollej (hozirgi kunda ixtisoslashtirilgan mакtab)larida faoliyat yuritib kelayotgan malakali mutaxassislarni oliy ta‘lim muassasalariga jalb etish bo‘ldi. Bu harakatlar xozirgi kunda eng to‘g‘ri yechim mening nazarimda...

Masalaning yana bir tomoni borki u xam bo‘lsa o‘quv soatlari. O‘quv rejada kiritilgan mutaxassislik fanlariga ajratilgan soatlarning yetarli emasligi, yakka dars mashg‘ulotlari yakka tarzda emas ikki va undan ortiq talabalar bilan mashg‘ulot olib borilishi talabalarni fanni o‘zlashtira olmayotganligini ko‘rsatmoqda.

Bu kabi muammoni pedagogika universitetlarida xam ko‘rishimiz mumkin.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va viloyatlardagi pedagogika universitetilarining “Musiqa ta‘limi” ta‘lim yo‘nalishida taxesil oladigan talabalarga xam o‘zbek xalq cholg‘ularini o‘rganish uchun o‘quv rejalarida dars soatlari ajratilgan. Ammo 2017-yildagi vaqt miyorlariga asosan yakka dars shaklida emas ansambel shaklida o‘tilishi talabalarning o‘zbek xalq cholg‘ularini yetarli darajada o‘rgana olmayotganligiga, oqibatda bironta cholg‘uni mukammal ijro eta olmay oliy ta‘lim muassasasini bitirib ketayotganligini ko‘rish mumkin. Eng yomoni qo‘lida oliy ma‘lumotli diplomi bor kadrning umumiyligi o‘rta ta‘lim mакtablarida

faoliyat yuritib, –Musiqa madaniyatı” fanidan dars berib musiqa cholgularini ijro eta olmasligi, darslikda keltirilgan qo_shiqlarni o_quvchilarga o_rgata olmasligi.

Bu bilan yetishib chiqayotgan mutaxassislarning barchasi shu axvolda deyishdan yiroqman, afsuski bunday kadrlar xam borligini inkor xam eta olmaymiz.

O_zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagı –Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo_shimcha choratadbirlar to_g_risida”gi PQ-112-sonli Qarorida madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish bo_yicha ko_pgina topshiriqlar va vazifalar qo_yilgan bo_lib ular ijrosi bo_yicha tegishli ishlar amalga oshirilsa soha rivoji yanada yuqoriga ko_tarilishi ko_ramiz albatta.

Qarorda qayd etilgan - musiqa san‘ati bo_yicha professional ta‘lim hamda oliy ta‘lim to_g_risidagi hujjatga ega bo_lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholgularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassislarni asosiy ish joyidan bo_sh vaqtida u yerdagı mehnatga haq to_lash shartlarini saqlab qolgan holda o_rindoshlik asosida umumiy o_rta ta‘lim muassasalari musiqa fani o_qituvchisi va musiqa yo_nalishidagi to_garak rahbari lavozimiga to_liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi;

- Musiqa fani o_qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholgularida kuy ijro etishga o_rgatish xalq ta‘limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg_ulot olib borish uchun madaniyat va san‘at sohasi vakillari shartnoma asosida jalg etiladi;

kabi topshiriqlar amalda joriy etila boshlansa o_quvchilar va o_qituvchilar uchun ham milliy cholgularni o_rganishga juda katta imkoniyat yaratiladi. musiqa sohasida taxsil olayotgan talaba ham o_z ustida ishlab bilimini oshirishga, cholgularni mukammal o_rganishga intili. Chunki ertaga ishlaydigan joyiga borib uyalib qolmasligi uchun xozirdanoq harakat qiladi.

Oliy ma‘lumotli diplomli bo_lish ba‘zi mutaxassislar uchun muhim axamiyat kasb etmaydi. Ko_p yillardan beri umumiy ta‘lim maktabida ishlab xamkablari, o_quvchilar mexrini qozongan yetuk mutaxassis o_qituvchilarimiz xam borki ular ma‘lum sabablarga ko_ra oliy ma‘lumotli bo_la olmagan. Ammo ular o_quvchilarga musiqaga bo_lgan qiziqishini o_yg_atá olib, tayyorlab viloyat va respublika tanlovlari qatnashtirib yuqori o_rinlarni olayotganligi ham sir emas. Nazarimda ana shunday kadrlar PQ-112-sonli qarorning 2-a bandida Xalq ta‘limi vazirligiga qo_yilgan –Umumiy o_rta ta‘lim muassasalarida musiqa fani o_qituvchilariga bo_lgan talab va

Cholg‘u ijrochiligidá musiqiy ta’lim uzviyiliginí ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

kelgusidagi ehtiyojni muntazam ravishda tahlil qilib borsin, zaruratga kora, Madaniyat vazirligi bilan birgalikda musiqa fani oqituvchilarini tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalariga buyurtmalar berib borsin” topshirigi ijrosida imtiyozli maqsadli tarzda sirtqi yoki kechki oqishlarda oqishi maqsadga muvofiq.

YOSH AVLODNI MILLIY MUSIQA VOSITASIDA TARBIYALASH

F. Xakimova

“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi mudiri, dotsent v.b.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy musiqa va xalq qo’shiqlari vositasida yosh avlodni tarbiyalash, ularning ma’nnaviyatini oshirish xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyat, barkamol, ta’lim-tarbiya, avlod, meros, etnomadaniyat

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена воспитанию подрастающего поколения через национальную музыку и народные песни, подчтию их морального духа.

Ключевые слова: Культура, духовность, развитие, образование, поколение, наследство, этнокультура

ABSTRACT

The article is devoted to educating the younger generation through national music and folk songs , raising their morale

Keywords: Culture, spirituality, competent, education, generation, heritage, ethnoculture

Mustaqillik yillarda yurtimizda katta bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda, madaniyat va san’at sohalarida ham salmoqli o’zgarishlar yaqqol ko’zga tashlanmoqda. O’sib kelayotgan yosh avlodni, yoshlarimizni har taraflama sog’lom, bilimli, madaniyatli va barkamol shaxs bo’lib yetishishlari, ma’nnaviy boy va keng dunyoqarashga ega bo’lishlari davlatimizning doimo diqqat-markazidadir.

Yosh avlodni ta’lim-tarbiyasida, ma’nnaviy-ruhiy kamolotida an’anaviy musiqadan samarali foydalanish alohida o’rin tutadi.

Musiqiy ta’lim-tarbiyaning maqsadi yosh avlodni milliy musiqa boyligimizni chuqur idrok eta oladigan va milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan, nafaqat o’z milliy an’analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan xabardor hamda ularni hurmat qiladigan komil inson bo’lib voyaga yetkazishdan iboratdir.

O’zbek xalqining har bir xonardonida dutor, doira yoki boshqa milliy cholg’usi bo’lishi, bu milliy musiqa merosimizga bo’lgan e’tibordir.

Ma‘lumki, kundalik hayotimizni bezaydigan milliy qo‘shiqlarimiz shu bilan birga serjilo kuylarimiz mavjud. Ularni tinglaganimizda dillarimiz zavqqa to‘ladi, hissiyotlarimiz yanada jo,sh uradi. Musiqa insonga ma‘naviy ozuqa berish bilan birga inson tarbiyasini oshirishda muxim axamiyatga ega. Shuning uchun inson dilining nozik torlarini chertuvchi ohanglar bejiz yangramaydi. Musiqiy merosimiz rivojini ustoz-shogirdlik mактабининг о‘зига xos uslubiyotlarini yaratgan ustozlarimiz hoji Abdulaziz Abdurasulov, usta Olim Komilov, o‘zbek musiqashunos olimi akademik Yunus Rajabiy kabi san‘atimizning buyuk siymolarisiz tassavur eta olmaymiz. An‘anaviy kuy-qo‘shiqlarimizni avloddan-avlodga o‘tishida ustoz murabbiylarning xizmatlari tahsinga loyiqlik. Bizning kelajagimiz bo‘lmish farzandlarimiz uchun yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, jamiyatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shevchi, yurt taraqqiyotiga fidoiy, barkamol farzandlar bo‘lib yetishishida ta’lim dargohlarining o‘rnini beqiyosdir.

An‘anaviy xalq qo‘shiqlarining umrboqiyligi, ulardagi ma‘naviy-axloqiy niyatning pokligi, musiqiy ohanglarning uzviyiligidadir.

Ularda insoniy kechinmalar, ma‘no va iltijolar andishaga boy, hayotiy va samimiyligi, shuning uchun tinglovchiga zavq bagishlaydi, ko‘nglini ko‘taradi. Bunday ma‘naviy go‘zallik taronalari xalq musiqasining ajib va o‘lmas an‘anasiga aylangan.

Shuningdek, an‘anaviy xalq kuy-qo‘shiqlari soddaligi, xalqchil mo‘jaz shakli, obrazlarning serqirra ma‘nodorligi va nafisligi bilan ajralib turadi.

An‘anaviy xalq musiqasining inson ma‘naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini tadqiq qilish quyidagi xulosalarga olib keladi. An‘anaviy xalq, musiqasi asrlar osha avloddan-avlodga o‘tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning fikri-o‘yi, dardi, orzusi-yu, donishmandligini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘zining an‘anaviyligi, oddiyligi va buyukligi, ta’sirchanligi, ko‘plab badiiy merosga boyligi bilan millatning nafaqat sevimli san‘at turi balki etnomadaniyatshunoslikning muhim shakliga aylandi. An‘anaviy musiqanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish barkamol insonni shakllantirishda hozir ham muhim vazifa bo‘lib xizmat qiladi;

Xalq musiqasining tarixan sinalgan qamrovi ancha kengdir:

- a) ruxiy;
- b) estetik;
- v) ma‘rifiy;

g) tarbiyaviy imkoniyatlari insonni ma‘naviy jihatdan kamol topishida muhim o‘rin tutadi yaxshi samaralar beradi;

Ma‘naviy ta’sirning boy manbai hisoblangan marosim musiqasi ahloq-odob va milliy hayot tarzini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi beshik to‘yi, sochqi sochish, birinchi qadam, soch olish, sunnat to‘yi, muchal to‘yi, sovchilik, qiz oshi, nikox, to‘yi, turli o‘lanlar va yor-yorlar, laparlar, tortishmachoq, tanga sochish, oyna

ko,rsatar, yuz ochar, kelin va quyov salomlari kabilarda: Diniy marosimlardan Bibi seshanba, Bibi mushkulkushod, qurbanlik qilish, iftorlik motam (marosimlari kabilarda katta ahamiyat kasb etadi;

Marosim musiqasi badiiy-estetik manba ham hisoblanadi. Marosimlar tarkibiga kiruvchi ko,pgina folklor janrlari zamonaviy san“atning shakllanishi uchun benazir asos bo,lib qolgan. Ijro etiladigan yoki foydalaniladigan barcha xalq san“ati asarlari tinglovchi, tomoshabin va ishtirokchilarining badiiy-estetik tafakkurini shakllantirishga yordam beradi; Marosimlar tarkibida ishtirok etuvchi musiqiy asarlar an“anaviy jarayonning tarbiyaviy usullaridan, buyruq, namuna, o,rnak, nasihat, o,git, murojat, kinoya, piching, kesatiq, tanqid, ma“qullah kabilarni, shuningdek, tarbiya vositalari sifatida badiiy-estetik manbalar, dramatik holatlar, tajriba almashish, ko,nikma hosil qilish jarayonlarida zarur bo,lgan g,oyaviy jihatlarini birlashtiradi;

An“anaviy xalq musiqasida xalqning ma“naviy madaniyati durdonalari to,plangan bo,lib, hozirgi mustaqillik davrida o,zlikni anglash va milliy ongini taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avloddan-avlodga o,tib kelayotgan milliy musiqamizni, kuy-qo,shiqlarimizni, an“ana va marosim, urf-odatlarimizni, o,rganish hozirgi kunda alohida ahamiyatga egadir.

Ulardan namunalar maktablarda, Oliy va o,rtta maxsus ta“lim maskanlarida kengroq va batafsilroq o,rgatilsa, o,quv dasturlariga ko,proq kiritilsa, yoshlarni boy milliy musiqiy merosimizga qiziqtirishimiz bilan bir qatorda ularni asrab-avaylashga, kelgusi avlodga yetkazishga muvaffaq bo,lar edik.

Xulosa qilib aytganda, milliy musiqa merosimizga bo,lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish, musiqa amaliyotiga poydevor yaratish, yoshlarda milliy g,ururni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga musiqiy ta“lim-tarbiya insoniy fazilatlarni tarbiyalab, yosh avlodda bir qator hayotiy malaka, jumladan, idrok va sezgirlik, chaqqonlik va shijoat, yaratuvchanlik va ijodkorlik kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.B.Saidiy. Cholg‘ushunoslik va cholg‘ulashtirish asoslari darsligi. “Musiqa” nashriyoti. Toshkent.,2016.
2. Sh.Raximov, A.Saidov. “Cholgu ansambl”. T., 2012.
3. Sh.Raximov, Sh.S.Yusupov. “Cholgu ijrochiligi”. T.,2012.
4. M.A.Ilxomov. Cholg‘u ijrochiligi. ”Mehnat nashriyoti”, T., 2010.

SAN’ATGA E’TIBOR – MILLATGA E’TIBOR

Islamov Dilmurod Muxutovich

Ozbekistonda xizmat korsatgan artist,

Ozbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi professori

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda san‘at va badiiy ijod orqali yoshlarimizning ruhiyati, ma‘naviy dunyosini shakllantirish muhim vazifalardan biri boilib kelmoqda. Hozirda yurtimizda har bir soha qatorida madaniyat va san‘at sohalariga ham davlat siyosati darajasida e’tibor berilmoqda. Ushbu maqolada bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqa san‘ati, iqtidorli yoshlar, ko‘rik-tanlovlari, musiqa cholg‘ulari, ijodkorlik.

АННОТАЦИЯ

Сегодня одной из важнейших задач является формирование психики и духовного мира нашей молодежи через искусство и творчество. В настоящее время в нашей стране, наряду со всеми сферами, культуре и искусству уделяется внимание на уровне государственной политики. В данной статье описывается работа, проводимая в этом направлении.

Ключевые слова: Музыкальное искусство, талантливая молодежь, конкурсы, музыкальные инструменты, творчество.

ABSTRACT

Today, one of the most important tasks is the formation of the psyche and spiritual world of our youth through art and creativity. At present, in our country, along with all spheres, attention is paid to culture and art at the level of state policy. This article describes the work carried out in this direction.

Keywords: Musical art, talented youth, competitions, musical instruments, creativity.

Xalqimiz madaniy hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham shundan dalolat beradi.

Ma‘lumki, kuy-qo, shiqqa, san‘atga muhabbat xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u bo, lmayan, musiqaning hayotbaxsh ta’sirini o, z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag, a bo, lmaydi.

Ajdoddlardan me‘ros milliy musiqa va tasviriy san‘atni asrab avaylash va yanada rivojlantirish, shubhasiz, bugungi kunda bolalar musiqa va san‘at matablarida tahsil olayotgan o, quvchilar, ularga ta’lim berayotgan o, qituvchilar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Ana shunday mas‘uliyatli va sharaflı vazifani amalga oshirish uchun mustaqilligimiz sharofati bilan barcha sohalar qatori musiqa va san‘at matablari faoliyatini takomillashtirishga ham davlatimiz tomonidan yuksak e‘tibor qaratildi. Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 2008-yilda Bolalar musiqa va san‘at matablarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo, yicha 2009-2014-yillarga mo, ljalangan Davlat dasturi qabul qilindi. Dastur doirasida o, tgan yillar davomida bolalar musiqa va san‘at matablarini barpo etish, mavjudlarini kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta‘mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash borasida keng ko, lamli ishlar amalga oshirildi. Joriy yilda ushbu dastur ijrosi yakunlanib, mamlakatimiz bo, yicha barcha musiqa va san‘at matablari rivojida muhim va katta bosqich yakunlanadi. Bu ta’lim muassaslarida zamonaviy, xalqaro talablar darajasidagi shart-sharoitlar yaratilmoqda. Qolaversa, musiqa va san‘atga ixtisoslashgan akademik litseylar, shuningdek, sohadagi oliy ta’lim muassasalari faoliyati ham bir-biriga muvofiqlashtirilib, yagona, uzuksiz musiqa va san‘at ta’lim tizimi shakllandi. Davlat dasturining ijrosi samarasi o, laroq mamlakatimiz musiqa va tasviriy san‘ati tarixida yorqin sahifa ochilib, yuzlab iste‘dod sohiblarining ulg, ayishiga, madaniyatimiz taraqqiyotiga mustahkam poydevor qo, yildi.

Dastur keng qamrovli bo, lib, unda, birinchidan, yangi zamonaviy maktab binolarini bunyod etish, ikkinchidan, ularni milliy va zamonaviy musiqa cholg‘ulari bilan ta‘minlash, uchinchidan, yangi o, quv dasturlar, darsliklar, uslubiy adabiyotlar yaratish va nihoyat, to, rtinchidan, o, qituvchilar malakasini oshirish va ularni ma‘naviy-moddiy rag, batlantirish, matablarni malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash kabi oliy maqsadlar mujassamlashtirilgan.

Yangi ta’lim-tarbiya jarayoni uchun barcha qulayliklarga ega musiqa va san‘at matablarining ikki namunadagi loyihalari ishlab chiqilib, respublikamizdagagi aksariyat ta’lim muassasalari ana shu asosda qayta bunyod etildi.

Ta’lim sifatini oshishi barobarida natijalar ham yuksaldi. Yuzlab iste‘dodli yoshlarimiz xorijiy davlatlarda o, tkazilgan turli xil nufuzli xalqaro tanlovlarda

ishtirok etib, o,ż san“atlarini namoyish qilishmoqda. Bu esa farzandlarimizning hech kimdan kam emasligini yaqqol ko,rsatib turibdi.

Mamlakatimizning o,żida o,tkazilayotgan musiqa va san“atga doir tadbirlarning saviya darajasi ham ortib, aytish mumkinki, xalqaro talabalar miqyosiga ko,tarilmoqda. Yurtimizda o,tkaziladigan tanlovlarning tuman, shahar va viloyat bosqichlarida minglab yosh iste“dodlar ishtirok etib kelishmoqda. Shularni inobatga olgan holda aytish mumkin-ki, bugungi kunda bemalol aytish mumkinki musiqa va san“at maktablarida ijodkorlik, yangilanish va yuksalish jarayoni kechmoqda.

Yana o,n - o,n besh yildan musiqa va san“at maktablarini tamomlab, san“atda o,ż yo,lini topgan san“atkorlarimiz milliy musiqa va san“atimizni durdona asarlar bilan yana boyitishlari, uning obro,, va nufuzini jahon bo,ylab yoyishlari shubhasiz.

Amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining naqadar yuksakligini anglash uchun chorak asr kechmishga chekinib, o,sha vaqtdagi ahvolni yana bir bor eslab qo,yish foydadan holi bo,lmaydi.

Mustaqillik arafasida musiqa va san“at maktablari o,ż holiga tashlab qo,yilgan, nochor, ayniqsa, milliy san“atimiz kelajagi uchun shart-sharoit yo,q edi. Musiqa va san“at yo,nalishidagi maxsus maktablar barmoq bilan sanarli darajada kam, borlari ham boshqa tashkilotlarga qarashli bo,lgan binolarda ijarada turardi. Aksariyat tumanlarda esa na musiqa, na san“at maktabi ochilmagan, o,ż binosiga ega maktablarning qariyb hammasi o,fgan asarning 40-50 yillardida hashar yo,li bilan xom g,ishtdan tiklangan edi. Davr talablari darajasida yondashilganda, 90 foiz maktablar qayta qurishga muhtoj edi. O,quv dasturlari “markaz”dan yuborilar, shu bois unda milliy san“atimizga ikkinchi darajali, keraksiz narsaday qaralardi. Aksariyat hollarda musiqa cholg,ularini ota-onalar farzandlari uchun o,zlari xarid qilib kelardilar. Ko,rinib turibdiki, bunday sharoitda tahsil olgan o,quvchilarining bilim darajasi ham shunga yarasha bo,lgan. Birgina misol, 1990 yilda respublika bo,yicha ushbu maktablarning iqtidorli o,quvchilarida atigi uch nafargina xalqaro tanlovlarda qatnashgan.

Maktablarda tarbiyalanuvchilar o,ż san“atlarini namoyish etishlari uchun risoladagiday sahna, tomoshabinlar uchun qulay o,rindiqlar qo,yilgan. Xonalar har bir san“at turining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan, ikki qavatlil eshiklar o,rmatilgan, asbob-uskuna, musiqa cholg,ulari bilan ta“minlangan. Maktab binolari ham chiroyli, muhtasham bo,lib, mamlakatimizning istalgan tumaniga borsangiz hudud ko,rkiga ko,rk qo,shib turganligiga guvoh bo,lasiz. Avvallari musiqa maktabi qayerdaligini aholini qo,ya turing, ayrim ta“lim xodimlarining o,zlari ham aniq aytib berolmasdilar. Endilikda bu maktablar shahar va qishloqlarimizning ko,rki va faxriga aylangan.

Yangi maktablarning yana bir muhim jihatni, avallari maktablar san“ati yoki musiqaga yo, naltirilgan bo, lsa, endilikda barcha maktablarda har ikki yo, nalist ham qamrab olingan. Qolaversa, mamlakatimizning eng chekka tumanlarida ham, markaziy shaharlarda ham musiqa va san“at maktablaridagi shart-sharoit bir xil – yuqori darajada, bir-biridan kam emas.

Albatta, bundan ko, zlangan asosiy maqsad ta“lim sifati va mazmunini oshirishdir. Dasturda ayni shu masalaga jiddiy e“tibor qaratilgan, uzoqni ko, zlangan, puxta rejalar ishlab chiqilgan. Shu bois, u qisqa muddatda o, z samarasini bera boshladi. Endilikda bu muassasalari musiqa va san“at maktabi deb atala boshlandi. Musiqa yo, nalistlarida keng va shinam an“naviy ijrochilik, estrada xonandaligi, o, zbek cholg, ulari, fortepiano, zarbli va damli cholg, ular, orkestr, xor ijrochiligi, xoreografiya sinflari, san“at yo, nalistida esa tasviriy san“at, haykaltaroshlik, yog, och o, ymakorligi, amaliy san“at, badiiy kashtachilik, ganchkorlik, misgarlik kabi yo, nalistlar joriy etildi. Alovida konsert zallari, muhtasham sahna o, quvchilarga o, z iste“dodlarini to, liq namoyon etishlari uchun katta imkoniyat bermoqda. Maktablarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, milliy va zamonaviy musiqa asboblari, konsertlar o, tkazish uchun zamonaviy texnik jihoz va uskunalar mayjud.

Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san“ati navqiron avlodimizning yuksak ruhida kamol topishida boshqa san“at turlariga qaraganda ko, proq va kuchliroq ta“sir ko, rsatmoqda.

San“at inson tabiatidagi eng go, zal tuyg, u va ezgu niyatlarining nozik ifodasisidir. Ma“naviy olamimizning bir qirrasida charaqlab turguvchi bu yorug, , nur odamlarga nafosat, latofat, fasohat ilmidan saboq beradigan go, yo, va aksincha, razolat va qabohatdan uzoqlashtiradi. Shoirlarimiz aytganidek, kuy va qo, shiq kirgan uyga qayg, u yo, lamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma“naviyat – yengilmas kuch” – Toshkent: “Ma“naviyat” nashriyoti, 2008-y.
2. Islomov D. “Doira san“ati darg, alari” – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2019-y.
3. Islomov D. “Moziydan sado” – Toshkent: “Ekstremum press” nashriyoti, 2015-y.
4. Islomov D. “Sharq musiqasi tarixidan” – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2017-y.
5. Toshmatov. O., “Cholg, ushunoslik” – Toshkent, 2006-y.

DOIRA IJROCHILIGI RIVOJIDA TA’LIM BOSQICHLARI O‘RTASIDAGI UZVIYLIKNI TA’MINLASH

Qudratilla Qobilqoriyev

O‘zbekiston davlat san“at va madaniyat instituti
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasи o,qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada doira ijrochiligi rivojida ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash muammolari haqida so,z boradi.

Kalit so‘zlar: doira ijrochiligi, bolalar musiqa va san“at maktablari, uzviylik, san“at va madaniyat maktablari, ta’lim bosqichlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются проблемы обеспечения преемственности между этапами обучения в развитии исполнительство дойры.

Ключевые слова: исполнительство дойры, детские школы музыки и искусство, зависимость, школы искусств и культуры, этапы обучения.

ABSTRACT

This article discusses the problems of ensuring continuity between the stages of training in the development of doyra performance.

Keywords: doyra performance, children’s schools music and art, competition, schools of music and art, the stages of education.

Hozirda respublikamizda musiqiy ta’lim sohasida mutaxassislarni tayyorlash uch bosqichli tizim asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Ularning birinchisi mактабдан tashqari ta’lim bosqichi bo‘lib, asosan bolalar musiqa va san“at maktablarida musiqiy ta’limning tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha boshlang‘ich bilim, malaka va ko`nikma hosil qilishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchi yoshlarning bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida madaniyat markazlari, “Barkamol avlod” yoshlar ijodiyot markazlari tashkil etilgan. Lekin ulardagi to`garaklar dasturi o‘qishning keyingi bosqichini davom ettirish imkonini bermaydi.

Bolalar musiqa va san“at maktablarini qurish va bu orqali o`sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama ma“naviy-axloqiy tarbiyalashning bir-biriga bog`langan yaxlit tizimini shakllantirish, bolalarning ijodiy salohiyatini yanada keng ochib berish, musiqa va san“atning boshqa turlarini chuqurroq tushunishi hamda

ularga nisbatan mehr-muhabbat uyg`otish, milliy hamda jahon musiqiy merosini o`rganishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko`plab qarorlar qabul qilindi. Bunga asosan, bolalar musiqa va san`at mакtablarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash hamda foydalanish samaradorligini oshirish, ularni yangi avlod zamonaviy o`quv uskunalari va anjomlari, shu jumladan multimedya shaklidagi o`quv adabiyoti va metodik qo`llanmalar, mahalliy va xorijiy kompozitorlar ijodiga doir nota to`plamlari va klavirlar, shuningdek sifatli ko`rgazmali materiallar bilan ta`minlash kabi vazifalar belgilab berildi.

Ikkinchи bosqich O`rta maxsus kasb-hunar ta`limi (hozirda kasbiy ta`lim) tizimida ixtisoslashtirilgan san`at va madaniyat mакtablari, akademik litseylar, maxsus mакtab-internatlarida o`quvchilarga o`rta maxsus ma`lumot beruvchi kichik mutaxassislar tayyorlash orqali amalga oshirib kelinmoqda.

An“anaviy dutor cholg,usi ijrochiligin shakllantirishda o,quvchilar mahorati va madaniyatini oshirishda tengdoshlari bilan taqqoslash va birgalikda ansambl bo,lib ijro etish bilan xam yaxshi natijalarga erishish mumkin. An“anaviy ijrochilikda kuylarni maromiga yetkazib ijro etishda, nolalarni ustida ishslash har bir zarb chertimlarga alohida e“tibor berish kerak. Musiqa ta’limida kuyga o,zgacha go,zallik beruvchi bezak va qochirimlar mavjud. Jumladan, forshlaglar, melizm, molish kabi bezaklar bo,lib, ular asosan chap qo,l barmoqlari bilan bosilgan bir pardadan ikkinchi pardaga sirg,alish harakatida bajariladi. Bu bezaklarni qo,llashda ijrochidan kata mahorat talab etiladi.

Musiqa ijrochiliginning asosiy tayanchlaridan biri ritm, usullardir. Dutor cholg,usida usullar kuy bilan hamohanglikda keladi bunda o,quvchi nafaqat kuy ijrosida balki usullar, terma zarblarni ham mukammal darajada o,rganishi kerak. Bunda asosiy tayyorlov mashg,ulot jarayonida metranom va jo,rnavoz bilan hamohanglikda ishlashi zarur.

Hozirgi kunda Bolalar musiqa va san“at makatabida an“anaviy dutor cholg,usini o,rgatishda quyidagi zamonaviy texnologiyalardan ham unumli foydalansha maqsadga muvofiq. O,qituvchi dars jarayonida o,quvchiga an“anaviy ijrochilikdagi sifatli audio, video fayllar bilan, darsni yanada qizg,in o,tishini ta’minlab berishi kerak.

O,quv jarayonida an“anaviy ijrochiligidagi kuzatiladigan kamchillikklardan biri, ayrim o,quvchi yoshlar, musiqa nazariyasi va nota yozuvini bilmaydiganlari ham uchraydi. Musiqa ta’limida ko,p ma“lumotlar va darsliklar musiqa nazariyasi, nota yozuvi bilan saqlangan. Shunga asoslanib an“anaviy ijrochiligidagi nota yozuvini o,qib ijro qilishni Bolalar musiqa va san“at maktabidan har bir dars o,quv mashg,ulot jarayonida o,rgatilsa o,rinli bo,ladi. Nota yozuvini o,qib ijro qilaolmasligi,

musiqaning nazariyasini bilmasligi, kelajakda o,quvchilarning savg, odsiz bo,lishini anglatadi.

Bolalar musiqa va san’at mакtablarida tаhsil оlayotgan o’quvchilarning barchasi ham san’at yo’lini tanlamaydi. Ammo ular boshqa kasbda bo’lsalarda musiqadan uzoqlashmay u bilan hamohang hayot kechirishadi. Zero musiqa bilan shug’ullangan odamdan yovuzlik chiqmaydi degan gap zamirida ham haqiqat bor.

Alisher Navoiy o’z asarlarida “Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o’z-o’zidan qanoat tuyg’usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi” deb yozadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O,zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-sonli qarori.
2. O,zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yildagi 17-noyabrdagi PQ-3391-son qarori.
3. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 6-aprelda imzolangan “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o’tkazish to‘g‘risida”gi qarori.
4. J.K.Rasultoyev “O,zbek Dutor ijrochiligi” Toshkent “O,qituvchi” 1997
5. N.M.Turgunova “Cholg‘u ijrochiligi” (dutor) o,quv qo,llanma. Toshkent-2020

DUTOR BAS CHOLG‘U IJROCHILIK SAN’ATI TARIXI

Mamirjonova Feruzabonu Abdullajon qizi

O,zbekiston davlat konservatoriysi “Cholg‘u ijrochilik” fakulteti “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” yo,nalishi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: professor Z.Z. Turapov

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dutor bas cholg‘usi kelib chiqishi, takomillashtirilishi xususida hamda ijrochilik maktabi shakllanishi, ijro dasturlari, orkestr va ansambl ijrochiligidagi o,rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Xalq cholg‘ulari, turdosh cholg‘ular, dutor bas, tessitura, mezrob, ko,p ovozlik, jo,rnavozlik, yakkanavozlik, kompozitor, ansambl, orkestr.

ABSTRACT

This article discusses the origin and development of the dutar bass, as well as the formation of the school of performance, the role of performance programs, orchestral and ensemble performance.

Keywords: Folk instruments, related instruments, dutar bass, tessitura, mezrob, polyphony, chorus, solo, ensemble, orchestra.

Musiqa san“atning noyob turlaridan biri bo‘lib, juda qadimiy tarixga ega. Bu san“at turi barcha davr daholari e“tiborini o,ziga jalb qilib kelgan. Jumladan o“z zamonasining buyuk faylasuflaridan biri Arastu musiqa san“ati haqida quyidagi fikrlarni keltirib o“tgan: «Musiqa ko,ngilga axloqan muayyan ta“sir ko,rsatuvchi quvvatga ega. Musiqa shunday xislatga ega, u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo,shilmog,i lozim» - deb ta“kidlaydi.

O,zbek xalqi o,ziga xos milliy an“ana va qadriyatlar bilan sug,orilgan go,zal hamda benazir musiqa san“atiga egadir. Musiqa san“atining xalq orasida keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lgan cholg‘u musiqasi haqida gap borar ekan. Musiqiy cholg‘ular inson ma’naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita ya’ni xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalgan. Milliy cholg‘ular uzoq yillar mobaynida og,zaki, yozma manbalar zamirida avloddan-avlodga o,tib shakllanib, takomillashib kelmoqda. O,zbek xalq cholg‘ulari tarixiga razm solar ekanmiz, juda ko,p musiqashunos olimlar, mutafakkirlar o,z risolalarida milliy cholg‘ularimiz va ularning shakllanishi borasida keltirib

o‘tganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, ilk uyg‘onish davri qomusiy olimlari Abu Ali Ibn Sino (Kitob ush Shifo), Al Xorazmiy (“Mafotih al-ulum” ikkinchi maqolasining VII bobi “Musiqa haqida”), Abu Nasr Farobiy (“Musiqa haqida katta kitob” risolasining ikkinchi kitobi), Safiuddin Urmaviy (“Risolatun ash-Sharafiya”, “Kitab ul-advar”), Abdurahmon Jomiy (“Risolai musiqiy”), Darvesh Ali Changiy (“Tuhfatus-surur”), Zaynulobidin Husayniy (“Qonuni ilmi va amali musiqiy” - “Musiqaning ilmi va amaliy qonunlari” asarining oxirgi boblari,) va boshqa musiqiy olimlar tomonidan yozilgan risolalarda IX-XVII asr musiqa cholg‘ulari haqida bayon etilgan.

Milliy cholg‘ularda ijrochilik imkoniyatlarini yanada kengaytirish borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Cholg‘u ijrochilik amaliyotida yakkavozlikdan tashqari ko‘p ovozli jamoalarmi tashkillashtirish go‘yalari ilgari surildi va shu g‘oya negizida N.N.Mironov an‘anaviy ansamblida ko‘p ovozlilik uslubini kiritishga harakat qildi, lekin o‘zbek xalq cholg‘ular asosan diatonik tovush qatorda bo‘lganligi bois, cholg‘ularni qayta ishlash va takomillashtirish zarur edi. A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh ustalar V.V.Andreyev (rus musiqachisi, mohir balalaykachi, rus xalq balalaykasini qayta ishlab, katta-kichik turlarini yaratgan folklorshunos olim)ning tajriba va ijodiy yutuqlariga tayangan holda ilmiy tadqiqot ishlarini boshladilar.

Tadqiqotlardan maqsad:

- cholg‘ularning texnik imkoniyatlarni oshirish;
- diapazonini kengaytirish;
- o‘zbek mumtoz musiqa namunalari bilan bir qatorda o‘zbek va jahon kompozitorlarning turli janrlardagi ijod mahsulini ijrochilik amaliyotiga tadbiq qilish;
- cholg‘ularning turdosh namunalarini qayta ishlash;
- cholg‘u ijrochiligidagi ko‘p ovozli jamoalarmi tashkil etish ko‘zda tutilgan edi.

Takomillashtirish uchun ilk bor dutor cholg‘usi tanlab olindi va yangi turdosh namunalari Usta Usmon Zufarov tomonidan shakllantirildi. Turdosh oila namunalari yordamida ko‘p ovozli ansambl va orkestr ijrochiligidagi barcha registr ovozlarining ishtiropi ta‘minlandi. Natijada turdosh oila namunalaridan dutor prima, sekunda, bas va kontrabas cholg‘ulari qayta ishlandi, dutor alt va tenor cholg‘ulari esa takomillashtirildi. Shu nuqtai nazardan, dutor bas cholg‘usi aynan shu ilmiy-amaliy tadqiqotlar mahsuli ekanligini bilishimiz mumkin. Dastavval cholg‘u ko‘p ovozli jamoalar ijrosi uchun mo‘ljallangan. Kosasi katta, dastasi yo‘g‘on, diapazoni kichkinaligi sababli ijrochilik imkoniyatlari cheklangan edi. Shu boisdan cholg‘u ustida yanada takomillashtirish ishlari olib borildi. 1950-yilning boshlarida tashkil etilgan bir qancha ijodiy jamoalar sa‘y-harakati natijasida ijrochilik imkoniyatlari

kengaytirilgan va yuqorida keltirilgan texnik noqulayliklar bartaraf etilgan dutor bas cholg,usining yangi takomillashgan namunasi yuzaga keldi.

Dutor bas cholg,usi 3 qismdan iborat, bosh qismi, dasta qismi va kosa qismlaridir. Bosh qismida torlarini ushlab turuvchi qulqlari va yuqori xarrak, dasta qismida tovush hosil qiluvchi 24 ta pardalar joylashgan va pardalarni aniqroq anglash uchun 2, 5, 7, 10, 12, 14, 17, 19, 22, 24 pardalar oq doirachalar (turli naqshinkor bezaklar) bilan belgilangan. Kosa qismida esa rezonator teshikchasi, ovoz o,tkazuvchi qopqoq va ijro paytida qopqoqga zarar yetmasligi uchun ustiga qalqon o,rnatilgan. Torlarni ma’lum bir balandlikda ushlab turuvchi xarrak hamda ularni qulqlar bilan birlashtiruvchi ilgak o,rnatilgan. Dutor basning to,rt torlari kvinta intervali oralig,ida sozlanadi. Birinchi tori kichik lya tovushiga sozlanadi, ichak yoki kapron bo’lishi mumkin. Ikkinci tori kichik oktava re, uchinchi tori katta oktava sol, to’rtinchchi tori katta oktava do tovushiga sozlanadi va ushbu torlar metalldan yasaladi. Torlarning sifatliligi cholg,uda tovush hosil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Cholg,u ovozining yoqimli hamda ijrochi talabiga mos ravishda jaranglashi ham aynan shunga bog,liq. Dutor bas cholg,usining tessitura kichik oktava re tovushidan ikkinchi oktava re tovushigacha hisoblanadi. Cholg,u mizrob yordamida chalinadi. Mizrob bu ovoz chiqarish vositasi bo’lib, torli sozlarni chertib chalishda qo’llaniladigan maxsus moslama, u cholg,u torlaridan kelib chiqib turli shakllarda bo,ladi. Yog‘och, qattiq teri, suyak, hayvonshoxi, metallardan yasaladi.

Cholg“u ijrochiligi san“atida shuningdek musiqiy ta’limda dutor bas cholg,usi o,z o,rni, o,z muxlislariga ega bo,lishida ustozimiz Ashot Konstantinovich Nazarovning amalga oshirgan ishlarini alohida ta’kidlab o,tishimiz lozim. Dutor bas cholg,u ijrochilik san“atini shakllanib borishida, ijrochilik mifikatini tashkillashtirish, munosib ijrochilarни yetishtirish, ta’lim berish metodlari to,g,risidagi o,quv qo,llanma va darsliklar, ijro dasturlarni shakllantirishda oliy ma’lumotli mutaxassis O’zbekiston davlat konservatoriyasining dotsenti A.K.Nazarovning mehnatlari tahsinga sazovor. Dutor bas maxsus sinfi Toshkent Davlat konservatoriyasida (hozirgi kunda O’zbekiston davlat konservatoriysi) 1948-yilda ochilgan. A.K.Nazarov ushbu sinfni tugatib, 1960-yildan boshlab dutor bas sinfida dars bergen. O’zbekiston davlat konservatoriyasida 42 yillik murabbiylilik faoliyati mobaynida “O’zbek xalq cholg,ulari yo’nalishi, dutor bas cholg,u ijrochiligi bo,yicha 60 dan ziyod oliy ma’lumotli sozanda-ijrochilarini tarbiyalab yetishtirgan. Bulardan Turg,un Pattaxov (marhum), O,tir Oripov (marhum), Baxtiyor Ziyayev, Sadulla Muqimov, Muhammadjon Badelov, Zulkorbek Turopov, Sherzod Umarov, Sirojiddin Muhammadiyev, Farrux Irisov, Dilshod Hakimov, Dilshod Madiyev, Mirzaxon Jo,rayev, Valijon Dadaxonov, Abduvoxid Xaliquov, Tal’at Tatirov, Mashhurbek Turdiboyev va yana bir qancha sozandalar ustozdan olgan saboqlariga tayangan

holda respublikaning turli san“at dargohlarida muvaffaqiyatli mehnat qilib kelmoqdalar. Hozirgi kunda marhum ustoz O“zbekiston davlat konservatoriyasining dotsenti A.K.Nazarovning ilmiy va ijodiy isharini shogirdlaridan biri O“zbekiston davlat konservatoriyasining professori Z.Z.Turapov davom ettirib, dutor bas ijrochiligi shakllanishiga munosib hissa qo,shib kelmoqda.

Xo,sh, dutor bas cholg,usining ko,p ovozli jamoalardagi o,rni qay darajada? 1938-yil oxirida A.I.Petrotsyans rahbarligida takomillashtirilgan va qayta ishlangan cholg,ular ishtirokida ko,p ovozli ansambl va orkestr tuzilgan. Ushbu cholg,u orkestr yoki ansamblning pastki registri ovozini mustahkamlab, asosi, tayanchi bo,lib xizmat qiladi va jarangdor, to,liq ohang beradi. Dutor bas cholg,usi faqatgina jo,rnavoz vazifasida emas balki, asar mohiyatidan kelib chiqib asosiy (solo) partiyani ham ijo etish mumkin. Kichik va o,rta orkestrlarda 2-4 tagacha, katta orkestrlarda 4-6 tagacha dutor bas ijrochisi bo,lishi orkestrda o,zgacha sado beradi. Xalq cholg,ulari orkestr tarkibidagi guruhlar 5 ta bo,lib, dutor bas cholg,usi torli-chertma (mizroblı) cholg,ular guruhiga mansubdir. Ushbu guruh tarkibida: rubob prima, qashqar rubobi, afg,on rubobi, tanbur, dutor alt, dutor bas va dutor kontrabas ham bor. Dutor bas cholg“usi torli-kamonli cholg“ulari guruhidagi g“ijjak(qobuz) bas cholg“usi bilan ko“p jabhalarda o“xshashligi sababli asosan bir xil vazifani bajaradi. Masalan ushbu cholg“ular kvinta soziga sozlanadi, qolaversa ularning diapozonlari ham bir xildir. Dutor bas, dutor kontrabas, g,ijjak (qobuz) bas, g,ijjak (qobuz) kontrabaslar ko,p ovozli ansambl va orkestrlarning tayanchidir. Hozirgi kunga kelib, O,zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi xalq cholg,ulari orkestri, “Sug,diyona” xalq cholg,ulari kamer orkestri, O,zbekiston davlat konservatoriysi talabalar orkestrlari va respublikamiz miqyosidagi ta“lim muassasalari orkestr jamoalarida dutor bas cholg“usi o,z o“rniga ega.

Uzluksiz musiqiy ta“lim muassasalarida tahsil olish ijrochini mukammal bilimlarga ega bo,lishining asosiy omilidir. Bolalar musiqa va san“at maktablari, ixtisoslashtirilgan san“at va madaniyat maktablari, san“at oliygoharida ham ushbu cholg,u bo,yicha ta“lim yo,lga qo,yilgan. Bundan ko,rinib turibdiki, dutor bas cholg,usi nafaqat orkestr tarkibida jo,rnavozlik jihatlari, balki yakkanavozlik xususiyatlari bilan ham namoyon bo,ldi. Ijrochilik mahoratini sozandalar amaliy mashqlar, tinimsiz o,z ustida ishslash, ijodiy izlanishlar orqali shakllantirish mumkin. Ijrochilik mahorati deganda faqat texnik mashqlar ko,nikmasi emas, badiiy asarlarni ijro qilish, ularni mohiyatini anglash ham tushuniladi albatta. Cholg,u ijrochilik san“atida bastakorlik, kompozitorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy O,zbekiston kompozitorlari dutor bas uchun yozayotgan asarlari ushbu cholg,u ijrochiligining yangi qirralari, ijrochilik imkoniyatlarini ochib bermoqda. So,ngi yillarda yaratilayotgan ko,p qirrali asarlar ijrochilik mahorati shakllanishi

uchun xizmat qilmoqda. Jumladan M.Bafoyevning dutor bas va fortepiano uchun maxsus yozgan “Konserti”, “Eronning sehrli samosi”, M.Otajonovning “Balkan ohanglari”, “Naqsh”, J.Jo,rayevning dutor bas va xalq cholg,ulari orkestri uchun maxsus yozilgan “Konserti”, O. Abdullayevanining dutor bas va xalq cholg,ulari orkestri uchun maxsus yozgan “Konserti”, Sh.Sobirovning “Talqin” kabi asarlarda milliylik va zamonaviylik ohanglari mujassamlashtirilgan. Bastakorlik namunalari ham dutor bas cholg,usida o,zgacha jarangi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Shu o,rinda ta“kidlash joizki, ustoz Z.Z.Turopovning “Dutor bas” o,quv qo,llanmasida “Gulbahor va Tanovar”, “Sarbozcha”, “Qari Navo”, “Navro,zi Ajam”, “Chapandozi Qalandar”, “Nasri Segoh”, “Ufori Nasri Segoh” kabi mumtoz asarlarning dutor basga moslashtirilgan ko,rinishi, ularning doira usullari va o,ziga xos ijro uslublari, ifoda vositalari to,g,risida ma“lumotlarga ega bo,lismiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mukammal cholg‘u ijrochisi va mutaxassisib bo“lib yetishish uzlusiz musiqiy ta“lim tizimi bilan bevosita bog“liqdir. Uzlusiz musiqiy ta“lim tizimi bosqichlari quyidagilardir:

- bolalar musiqa va san“at maktablari,
- ixtisoslashtirilgan san“at va madaniyat maktablari,
- musiqa va san“at oliygochlari
- oliy ta“limdan keyingi ta“lim

Har bir bosqichning o,ziga xos maqsad va vazifalari mavjud. Misol uchun, bolalar musiqa va san“at maktablarining “Xalq cholg,ulari” yo,nalishidagi yosh ijrochilarga cholg,u asboblarining tarkibiy tuzilishi, ijrochilik holati, ijro uslublari, ijro madaniyati kabi tushunchalar orqali amaliy mashg,ulotlar olib boriladi. Lekin ushbu yo,nalishning “Dutor bas” sinfiga qabul qilingan ilk ijrochilar uchun bu cholg,uda ijro etish bir qancha qiyinchiliklar tug,dirishi ehtimoldan holi emas. Chunki ijrochilikka qadam qo,ygan kichik yoshdagi ijrochi uchun dutor bas tuzilishi (kosasi, dastasi) kattalik qiladi, qolaversa metalldan ishlangan torlarida tovush hosil qilish anchagina qiyinlashadi. Shu sababdan bo,lsa kerak, bolalar musiqa va san“at maktablarida dutor bas sinfi yetarlicha rivojlanmagan. Taklif sifatida shuni kiritmoqchimanki, dutor bas cholg,usini bolalar musiqa va san“at maktabi o,quvchilari uchun biroz ixchamlashtirilgan ko,rinishi cholg,u ustalari bilan birgalikda ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinsa, yosh musiqachilarining dutor bas cholg,usini ijro qilishdagi yuqorida keltirib o“tilgan muammolar bartaraf etiladi. Albatta bu kelgusida dutor bas ijrochilik mahoratini yanada rivojlanishi uchun zamin yaratgan bo,lar edi.

Mamlakatimizda san“at sohasini yanada rivojlantirishga doir bir talay ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 02.02.2022 yildagi PQ-112-soni “Madaniyat va san“at sohasini yanada rivojantirish to“g“risida”gi

qabul qilingan qarori milliy musiqa cholg‘ularni ijro qilishga qaratilgan yuksak e‘tibordan dalolatdir. Zero, musiqa san‘atining rivoji o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy yetuklik sari yetaklaydi.

REFERENCES

1. Toshmatov O., Beknazarov X. Cholg‘ushunoslik. – T.: Darslik 2015.
2. Nazarov A.K. “Bas dutor”. –T.: Darslik 1983
3. Odilov A. “Cholg‘ushunoslik”. – Samarqand 2012.
4. Turopov Z.Z. “Dutor bas cholg‘u ijrochilik san‘ati tarixi”. Maqola.T.: “Musiqa” nashriyoti. 2021.
5. A.I.Petrosyants. "Инструментоведение".– Т.: "O'qituvchi" nashriyoti 1980
6. Rahimov SH. “Cholg‘ushunoslik”.– T.: “Musiqa” nashriyoti 2010.
7. Gienko B.F. “Instrumentovka” o‘zbek xalq cholg‘u orkestri uchun–T.: “O,qituvchi” nashriyoti. 1970
8. Solomonova T.E. “O‘zbek musiqasi tarixi”.–T.:“O,qituvchi” nashriyoti 1981.
9. Umarov Sh. “Drijorlik”. –T.: O,quv qo,llanma 2019.
10. Turopov Z.Z. “Dutor bas”. – T.: O,quv qo,llanma 2004.
11. O‘zbekiston davlat konservatoriysi “Milliy cholg‘u ilmiy ishlab chiqarish ekspemtal laboratoriysi” arxiv hujjatlari.
12. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5849580>

ИСТОРИЧЕСКИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ СТАНОВЛЕНИЯ ЭТНОСОЛЬФЕДЖИО В УЗБЕКИСТАНЕ

Мустафаева Эльмаз Шакировна

магистрант II курса кафедры теории музыки, отдела «Музыкальное искусство»
Государственная консерватория Узбекистана

mustafaeva_elmaz922@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В предлагаемой статье идет речь о историческом и теоретическом становлении курса Этносольфеджио в Узбекистане. Рассматриваются исторические предпосылки зарождения курса, также анализируются учебные пособия по Сольфеджио, включающие в себя образцы узбекского музыкального фольклора и классической профессиональной музыки.

Ключевые слова: народные музыкальные образцы, музыкальный слух, развитие этнослуха .

АННОТАЦИЯ

Тавсия этилган маколада Узбекистонда Этносольфеджио курсининг тарихий ва назарий шакилланиши хакида суз олиб борилади. Курснинг келиб чикишининг тарихий шартлари куриб чикилади, шунингдек, фольклор намуналарига асосланган Сольфеджио буйича укув кулланмалар тахлил килинади.

Калит сўzlари: Халқ мусикий намуналари, мусикий эшитиш, этник эшитишни ривожланиши.

ABSTRACT

The proposed article deals with the historical and theoretical development of the Ethnosolfeggio course in Uzbekistan. The historical prerequisites for the origin of the course are considered, as well as study guides on Solfeggio, which include samples of Uzbek musical folklore and classical professional music.

Keywords: folk music samples, musical hearing, development of ethnic hearing.

Интерес и внимание к народному искусству, в том числе и к музыкальному фольклору, в последнее время в нашей стране еще более возрос. На сегодняшний день сохранение и пропаганда подлинно национальных

истоков, является государственной важностью. Заслуживает особого внимания, принятное 17 ноября 2017 года ПП № 3391 постановление « О мерах по дальнейшему развитию Узбекского национального искусства маком»[1], вместе с тем введение в учебный процесс ДШМИ новейшей дисциплины «Азбука макома». К тому же, создание при центрах культуры, детских школах музыки и искусства и других образовательных учреждениях секции по искусству бахши. Все эти попытки, безусловно, применяются для сохранения и развития национальных узбекских традиций и музыкальных культур нашего народа.

Также, немаловажное значение к привитию интереса к народной музыке, воспитание нравственно-эстетических качеств молодого поколения в духе национального колорита имеет курс этносольфеджио. Этносольфеджио – это дисциплина, которая дает знания начал традиционной музыкальной культуры и воспитывает музыкальный слух на основе народных истоков.

Главной задачей курса, является развитие музыкального мышления на народном материале, сосредоточенное на развитие этнослуха и этноинтонации. «Под этноинтонационным слухом понимается слух, воспитанный на музыкально-слуховых представлениях, типичных для конкретного этноса», а «под этноинтонированием понимается реализация музыкально-слуховых представлений, присущих тому или иному этносу, в своём исполнении».[10, с. 99]

Предпосылки зарождения курса «Этносольфеджио» в отечественной системе обучения связано с именами таких исследователей как, Елена Романовская и Ильяс Акбаров. Хотя в 30 годах XX века курс не трактовался как «Этносольфеджио», но все-таки предпосылки использования народных образцов на уроках Сольфеджио имело место быть. Огромен вклад в развитии и сохранения национального фольклора Е.Романовской, она собрала и нотировала огромное количество узбекских народных песен и мелодий. Кроме того, на основе материалов, записанных на музыкально-этнографических экспедициях, в 1940 году создала учебное пособие «Сольфеджио». Также, созданный в 1938 году в соавторстве с Ил.Акбаровым учебник «Нота саводи» направлен на формирование «этнического» музыкального слуха и адресован для учащихся начальных и средних классов музыкальной школы. Основное внимание Ил. Акбара было направлено на воспитание музыкального слуха учащихся, ориентированного на народную музыку. Он стремился вовлечь в музыкальное искусство каждого ребенка, как школьного, так и дошкольного возраста, и воспитать в нем любовь к традиционному исполнительству.

В связи с политической обстановкой 1940-50-х годов в Узбекистане произошла серьезная модификация в системе музыкального образования.

Музыкально-культурное воспитание стала опираться на европейские и русские музыкальные материалы, что собственно, привело к смещению аспекта в детском обучении. То есть, на протяжении нескольких лет музыкальные способности, в частности музыкальный слух учеников воспитывался на основе европейских музыкальных образцов. В практическом обучении в ДШМИ базовое значение приобрели учебники «Сольфеджио» российских авторов А.Островского, В.В.Хвостенко, основу которых составляли произведения зарубежных и русских композиторов.

Только лишь спустя 30 лет в 1971 году для музыкальных школ и учебных заведений был создан учебник «Сольфеджио» И.Хамраева, куда входили как народные музыкальные образцы, так и фрагменты из произведений отечественных композиторов. До сегодняшнего дня этот учебник является базовым в развитии национального фольклорного мышления.

С момента обретения страной независимости стало уделяться пристальное внимание нашим духовным ценностям, традициям и национальному музыкальному наследию. Главной целью отечественной педагогики стало – воспитание мышления учащихся в национальном духе, чему в большой степени способствовало обучение молодого поколения на основе народных образцов.

Решение этой задачи было предпринято в учебном пособии «Сольфеджио» для учащихся академических лицеев и колледжей, созданным в 2004 году Н.Раджабовой. В пособие вошли образцы узбекских народных мелодий, также фрагменты из произведений узбекских композиторов. Замечательным в этом учебнике является использование свойственного традиционной музыке ритмического сопровождения мелодии – Усуля. При исполнении мелодии ученик не диригирует, а простукивает ритмическую пульсацию – усуль. Такой прием усиливает национальный колорит исполнения, что способствует развитию этноинтонации и этноритма.

Кроме того, в целях повышения внимания к народным музыкальным образцам, а также профессиональной музыке устной традиции О.Ибрагимовым и Р.Юнусовым для учащихся ДШМИ и студентов средне-специального образования в 2004 году было создано учебное пособие Сольфеджио. Учебник включает в себя образцы узбекского музыкального фольклора, классической профессиональной музыки, также фрагменты из произведений узбекских композиторов. Различные по жанровому наклонению музыкальные образцы (кушик, ёр-ёр, алла, лапар, ялла, сувора, ашула, катта ашула, маком и дастан) расширяют границы познания жанровой системы узбекской традиционной музыки и исполнение их способствует развитию этнослуша и этноинтонации.

Всем известно, что предмет «Сольфеджио» способствует формированию не только музыкально слуховых способностей, навыков точного интонирования, а также воспитывает и чувство ритма. С целью развития у учащихся чувство этноритма, т.е. понимание ритмических структур народных образцов в 2011 году С.К.Матякуба создает учебное пособие «Макомные ритмы на уроках сольфеджио». Сегодня пособие широко применяется на уроках «Этносольфеджио» студентами Узбекского национального института музыкального искусства имени Ю.Раджаби, Государственной консерватории Узбекистана, с целью формирования этно-ритмических навыков. Несмотря на то, что учебник предназначен для студентов ВУЗа, на наш взгляд, не сложные примеры можно применять в качестве дополнительного источника на уроках сольфеджио в ДШМИ для познания ритмических структур традиционной музыки. Последовательным продолжением исследований по макомному Сольфеджио является учебное пособие «Макомное сольфеджио» С.Я.Матякубовой.

В целях реализации задач, изложенных в указе первого Президента Республики Узбекистан И.А.Каримова «О мерах подготовки Государственной программы, предусмотренной на 2009 - 2014 годы по улучшению деятельности и укреплению материально технической базы музыкальных школ и школ искусств». В 2012 году О. Абдуллаева создает учебное пособие «Сольфеджио» для детских школ музыки и искусства, куда вошли образцы узбекской народной музыки, произведения отечественных композиторов, также мелодические примеры самого автора. В отличие от предыдущих пособий музыкальные образцы учебника разделены по классам и распределены по тематическому плану учебной программы «Сольфеджио» для детских музыкальных школ и школ искусств. Автор адресует пособие в первую очередь учащимся отделений « Узбекских народных инструментов» и «Традиционного исполнительства», однако на сегодняшний день учебник широко применяется всеми отделами ДШМИ и способствует развитию национального мышления учащихся.

Также в целях исполнения выше изложенных задач, по инициативе профессора Государственной консерватории Узбекистана Азимовой А.Н. в 2016 году были выпущены на узбекском языке учебно-методические пособия «Сольфеджио» для ДШМИ. Это «Сольфеджио» для 1 класса А.Азимовой и Н.Бахтияровой, «Сольфеджио» для 2 класса А.Мансурова и Д.Пайзиевой, «Сольфеджио» для 3 класса Ф.Мухтаровой и Н.Султанбаевой, «Сольфеджио» для 4 класса А.Азимовой и З.Баделовой, «Сольфеджио» для 5 класса А.Азимовой и М.Тургунбаевой. Основанные на программе, утвержденной 2012 году министерством народного образования Республики Узбекистан, учебные

пособия предназначены для учителей и учащихся 1,2,3,4,5 классов ДШМИ с 7-летним этапом обучения и отличаются от предыдущих тем, что в них даны все практические и теоретические упражнения, необходимые в процессе урока. С целью формирование мышления учащихся на основе национальных музыкальных образцов, в учебниках широко используются примеры устного и профессионального народного творчества, которые являются частью сокровищницы нашего традиционного наследия. Также, чтобы не воспитывать детский слух в одном направлении, в учебниках приводятся примеры из произведений европейских композиторов.

В последние годы Этносольфеджио в нашей стране становится объектом научного исследования. В 2011 году была защищена магистерская диссертация Д.А.Абзаловой «Этносольфеджио назарияси ва амалиёти». Изданы научно - методические статьи Мелькумовой Э.И. «Современные тенденции преподавания курса «Сольфеджио» в профессиональном музыкальном образовании», Матякубовой С.К. «О преподавании макомного сольфеджио».

Также следует отметить, что сегодня Этносольфеджио как практическая дисциплина включена в учебную программу студентов Государственной консерватории Узбекистана, Узбекского национального института музыкального искусства имени Ю. Раджаби в целях развития навыков исполнения народных музыкальных образцов, формирования национального мышления.

Исходя из выше рассмотренных концепций, можно прийти к выводу, что этномузикальное направление является главной частью музыкального образования, способствует сохранению и развитию музыкальной культуры этноса в целом. Использование элементов Этносольфеджио в образовательной деятельности расширяет музыкальный кругозор обучающихся, развивает умение правильного интонирования в народном стиле, повышает заинтересованность в сохранении и пропаганде национальных традиций

Список литературы

1. Постановление президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию Узбекского национального искусства маком» // Народное слово – (ПП №3391) - 2017г.
2. Абдуллаева О., Сольфеджио. Т., 2012
3. Азимова А., Бахтиёрова Н. Сольфеджио. Учебно-методическое пособие для 1 класса. Т.,2016
4. Азимова А., Баделова З. Сольфеджио. Учебно-методическое пособие для 4 класса. Т.,2016

5. Азимова А., Тургунбаева М. Сольфеджио. Учебно-методическое пособие для 5 класса. Т., 2016
6. Иброхимов О., Юнусов Р. Сольфеджио. Т., 2004
7. Мансуров А., Пайзиева Д. Сольфеджио. Учебно-методическое пособие для 2 класса. Т., 2016
8. Матякубова С.К. Макомные ритмы на уроках сольфеджио. Т., 2011
9. Мухтарова Ф. Султанбоева Н. Сольфеджио. Учебно-методическое пособие для 3 класса. Т., 2016
10. Пивницкая О.В. Фольклорное сольфеджио: особенности трактовки учебного материала и основные методы его освоения // Музыкальное искусство и образование 2016
11. Романовская Е.Е. Сольфеджио Т., 1940.
12. Ражабова Н.Ф.. Сольфеджио 2-издание. Т., 2004

ЭСТРАДА-ЖАЗ ИЖРОЧИЛИК ТАЪЛИМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИГА БИР НАЗАР

Дадажонова Юлдуз Атабековна

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Санъатшунослик
институти(ЎзРФАСИ) таянч докторанти
bazarbekova96@list.ru

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақола эстрада-жаз ижрочилик таълимининг вужудга келиши ва унинг босқичма босқич ривожланишининг тарихий панорамасига бағишенгандан.

Калит сўзлар: эстрада-жаз таълими, ижрочилик, биг-бенд, джем-сейшн.

ABSTRACT

This article is devoted to the historical panorama of the emergence of pop-jazz performing education and its gradual development.

Keywords: pop-jazz education, performing, big band, jam session.

Эстрада-жаз таълими дунёга биринчи бўлиб жаз мусиқисининг тарқалиши унинг услубларининг кўпайиши ва ҳар бир заминда ўзининг янги кўринишлари ва услубларининг яралиши орқали кириб кела бошлаган. Жаз мусиқасининг ривожланиш даврларининг ҳар бирида ёш мусиқачиларни ўқитиш услубларининг турли ҳил методлари қўлланилган.

Жаз таълимининг биринчи кўринишлари ноодатий кўринишда бўлган. Уларни мана бу қимсларга ажратишимиш мумкин:

1. Эшитиш орқали
2. Асосан ўзини ўзи ўргатиш
3. Джем-сейшн¹лар орқали
4. Пластинка ёзувларини тинглаш орқали.

Жаз узоқ вақтлардан бери дунёга ўзининг ешитиш анъанаси сифатида маълум ва машхур. Янги Орлеанда пайдо бўлган илк жаз таълими айнан нота ўқий олмайдиган мусиқачилар орасида пайдо бўлгани хаммамизга маълум. Ҳудди бизнинг анъанавий ижрочилигимиз каби эшитиш орқали устоз-шогирд анъаналари орқали мусиқачилар таълим олишган. 20 асрларда ўқувчилар катта синф ўқувчиларидан ешитиш орқали жазнинг илк жанрларини ўрганишган.

¹ Джем-сейшн- танланган мавзу бўйича биргаликда кетма кет индивидуал ва умумий импровизация. Мусиқачилар йигилиб, маҳсус тайёргарликсиз ва ҳеч қандай келишувларсиз, ёки қатнашаётган барчанинг тайёр бўлгандарнинг ижро этиши мумкин бўлган мусиқа кечалари.

Бундай ўрганиш усулида таълим олган йирик жаз намоёндаларидан бири бу Луи Армстронг ҳисобланиб, устози Джо Оливердан тинглаш орқали билим олган. Бунинг асосий сабабларидан бири, жаз мусиқасида ҳали методик қўлланмаларнинг йўқлиги ва таълим системасининг тизимлаштирилмаганлигидадир.

Жаз мусиқасининг илк машхур ижрочилари, қўпроқ афроамерикаликлардан бўлган бир қатор мусиқачилар (масалан, Бадди Болден², Джо Оливер³, Джелли Ролл Мортон⁴, Бэнк Джонсон) кейинги авлод мусиқачилари учун наъмуна сифатида сермазмун ижод қилишди. Уларнинг ижодлари ўзини ўзи ўргатиш орқали пайдо бўлди. Кейинги авлод ижрочилари уларни яхшилаб тинглаб ўрганишди. Жаз соҳасидаги таълим фаолияти асосан диққат билан тинглаш ва услубнинг асосий жиҳатларини мақсадли ёдлашдан иборат эди.

1910- йилларнинг охири ва 1920- йилларнинг бошларида жаз шимолга Чикаго ва Нью- йоркка тарқала бошлади. Бу ривожланган шахарларда жаз мусиқасининг тарқалиши янада ривожланишига сабаб бўлди, чунки ижрочилар учун кенг аудитория ва овоз ёзиш студияларига яқинроқ эди. 1920 йилларда Чикагода янги орлеан анъанавий жази жуда кенг тарқалди. Нью йоркда эса Биг бенд яъни жамоавий импровизация услуби пайдо бўлди. Биг бенд жамоалари жаз таълимининг янги босқичини бошлаб берди. Чунки мазкур жамоалар жаз мусиқасига аранжировка ва композиция атамаларини олиб кирган. Биг бендларнинг таълимга қўшган яна бир катта ҳиссаларидан бири бу ишдан ташқарида ташкил этиладиган джем-сейшнлардир. Улар жаз соҳасида илк “тайёргарликка” эга гурухли таълим фаолияти бўлиб хизмат қилди. Мазкур джем-сейшнлар мусиқачиларнинг бир биридан ўрганишига ёрдам берди, бундан ташқари уларда янгича аранжировкалар яратилар ва ушбу аранжировкалар кейинчалик энг машхур асарларга айланар эди. Мазкур джем-сейшн жаз импровизациясини ривожлантиришга ҳам катта хисса қўшган. Мусиқачилар бир бирларини тинглаш орқали импровизация тилини бойита боришган. Джем-сейшнлардаги импровизация жараёнлари орқали яралган услубларнинг мавжудлиги унинг аҳамиятини оширади, бундай услублардан энг машхури би-боп услубидир. Илк би-боп услуби ижрочилари Чарли паркер, Диззи Гилеспи ва Телониус Монкларнинг виртуоз импровизациялари орқали услугуб яралиб, кейинги давр мусиқачиларига катта таъсир кўрсатган.

² **Бадди Болден-** афро-америкалик корнетист. Замондошлири уни Янги Орлеандан пайдо бўлган жанр регтайм ва кейинчалик жаз номи билан машхур бўлган “жасс” мусиқасининг ривожланишидаги асосий шахс сифатида машхур бўлган.

³ **Джо Оливер-** жаз мусиқасининг ярим афсонавий пайдо бўлишидан олдинги тарихи ва жаз пайдо бўлган илк даврлар тарихини боҳлаб турувчи афроамерикалик корнетист. Машхур Луи Армстронгнинг устози.

⁴ **Джелли Ролл Мортон-** америкалик жаз мусиқачиси, пианист, кўшикчи, композитор, ансамбл раҳбари. Анъанавий жазнинг энг муҳим вакилларидан биридир.

Яна бир ноодатий жаз таълимининг илк кўринишларидан бири бу мусиқачиларнинг пластинка ёзувлари орқали таълим олишганларидир. Ўша даврда пластинкалар “методик қўлланма” вазифасини бажарган. Жаз таълимини анъанавий усулда ўрганишнинг иложи йўқлиги сабабли, овоз ёзувларидан фойдаланиш муҳим омиллардан бўлган. Жаз мусиқасинин пластинкаларга ёзиш 1917 йилдан бошланган. Ёзувларга бўлган талаб жуда катта бўлган.

1930- 1940- йилларда консерваторияларда классик таълим олган ва шунинг билан жаз мусиқасини ижро этадиган мусиқачилар катта шахарларда жаз таълимини бериб боришган. Уларни жаз инструкторлари деб аташган. Шундан сўнг илк методик қўлланмалар чоп этила бошланди. Буларнинг бири 1935 йилда чоп этилган Норберт Блейхуфнинг “Замонавий аранжировка ва композиция” китобидир. Бундан ташқари “Down beat” журналида илк жаз сололари нашр этила бошлаган. Хайнрик Шилленгер ўзининг Бостондаги Шилленгер уйида импровизация ва аранжировкадан дарс берган.

Жаз таълимининг ривожланишига жуда катта ҳисса қўшган 20- 30 йиллар жаз мусиқаси “пионер”ларидан Лен Боуден ҳисобланади. Лен Боуден афро-америкалик ҳарбий ҳизматчи мусиқачиларни жаз гурӯҳларида рақсбоп мусиқа ижро этиш учун ўқув машғулотлари олиб борган. Иллинойс штатидаги Буюк Кўл дengiz стансияси расмий жаз педагогикасини туғилган жойларидан бири ҳисобланади. Лен Боуден ўзининг фаолияти орқали биринчи бўлиб жаз мусиқачиларини ўқитишининг, ҳозирги кунда ҳам асосий фундаментал ҳисобланган жаз ўқув дастурларини белгилаб берган. Булар :

1. Ансамбл тажрибаси
2. Ташкилотчилик
3. Импровизация
4. Машқ қилиш техникаси

Ўрта мактаб ва коллежларда илк жаз-бендлар синфдан ташқари тарзда катта оркестрлар қошида ташкил этила бошлайди. 1941 йилда илк бор жаз тарихи курсини Манхеттендаги “Ижтимоий тадқиқотлар янги мактаби” таклиф қилди. Ушбу курслардан Леонард Фезер, Роберт Гоффин ва Маршал Стернслар жаз мусиқасини академик мусиқа нуқтаи назардан ёндашдилар. Уларнинг маърузалари жаз мусиқаси бўйича биринчи илмий семинарлардан бири эди.

Алабама штати университети, Тенесси штати университети, Уилберфорс университети, Шимолий Техас университети, Беркли мусиқа колледжи ва Лос-Анжелос коллежлари биринчилардан бўлиб жаз ансамбли, импровизация ва аранжировка дарсларини ўзларининг ўқув дастурларига киритишган. 1947 йилда эса Шимолий Техас университети расмий равишда дунё бўйича биринчи

бўлиб жаз мусиқаси бўйича илмий даража таклиф қилган университет ҳисобланади.

Иккинчи жаҳон урушидан сўнг урушда қатнашган мусиқачиларга олий маълумот бериш қарори кучга киради, уруш даврида жаз мусиқаси билан танишган ва ижро этган мусиқачилар айнан шу йўналишда ўқишини давом эттиришни хоҳладилар. Талабнинг кучайгани сабабли бир неча университетлар, масалан Шимолий Техас унверситети, Беркли мусиқа коллежи ва Маями университетлари жаз таълимидаги таклиф қилишади ва бу йўналишда кейинчалик энг олди университетларга айланишиди.

1950 йилларда жаз таълими соҳасида улкан ривожланиш қузатилади 30 га яқин коллеж ва университетлар ўзларининг ўқув дастурларига жаз таълимидаги киритадилар. Инструмент ишлаб чиқарувчи компаниилар мактаб жаз фестивалларига ҳомийлик қилиб жаз мусиқасининг ривожига катта ҳисса қўшадилар. Жаз мусиқасининг ривожланишига унинг таълимидаги тизимлаштиришга катта ҳисса қўшган омиллардан бири бу- талabalарга жаз мусиқасини ўргатадиган ёзги лагерларнинг ташкил этилишидир.

1960 йилларга келиб эса эстрада-жаз таълимидаги таклиф қилаётган колледжлар ва мактаблар сони кўпайди. Мазкур йилда 5000 та жаз оркестрлари ташкил қилинган бўлса, 70 йилга бориб 15000 тани ташкил қила бошлади. Талабалар оркестрларига эндиликда талабаларнинг ўзи эмас балки ўқитувчилар раҳбарлик қилишни бошладилар. Профессионал жаз ижрочилари жаз таълими билан шуғулланишни бошладилар. Мастер-класслар ўтказдилар, методик қўлланмалар ёзишни бошладилар. Ушбу изланишлар жаҳондаги жаз мусиқасига бўлган қизиқиши ортириб, ижрочиларнинг янада ўқув дастурларига талабини кучайтириди. 1968 йилда Мет Беттон Жаз ўқитувчилари миллий ассотсиатсиясини ташкил қилди. Мазкур ассотсиатсияни ташкил қилишдан асосий мақсад жаз мусиқасига оид бўлган ресурсларни бирлаштириш, стандартларни белгилаш, маълумотларнинг ҳақиқийлигини текшириш ва жаз таълими билан шуғулланиб келаётган ўқитувчи ва талабаларга ёрдам бериш эди. Ташкил қилинган йили аъзоларнинг сони 100 тадан кам бўлган бўлса, 1990 йилда 31 та мамлакатдан 8000 дан ортиқ жаз ўқитувчилари талабалар ва ижрочиларни ташкил этиб, Халқаро Жаз ўқитувчилари ассотсиатсиясига айланди. Ушбу ассотсиатсия жаҳонда эстрада-жаз мусиқаси ватани бўлмаган давлатларда ҳам жаз ижрочиларнинг кўпайишига ва ушбу мусиқа санъатининг кенг тарқалишига катта ҳисса қўшди. Ўзининг йилига ўтказиладиган конференциялари орқали жаз мусиқасига оид илмий изланишлар салмоғини кенгайтира олди.

Жаҳонда эстрада-жаз таълимининг вужудга келиши ва уни оддий оммавий мусиқадан профессионал мусиқа санъати даражасига айланганини босқичма босқич кузатар эканмиз, босиб ўтилган машаққатли йўлда таълимининг ўрни бекиёслигини кўрамиз. Эстрада-жаз мусиқаси яралган илк даврларида унинг кенг омма учун тушунарсиз бўлганигина унинг серқирра келажагини олдиндан қўра олишга тўсиқ бўлди. Эстрада-жаз ижрочилик таълимининг вужудга келиши ва тизимлаштирилиши ҳозирги кунга келиб мазкур мусиқа турининг дунёга кенг тарқалиши ва кўплаб профессионал ижрочиларни беришга сабаб бўлиб келмоқда.

REFERENCES

1. Верменич Ю. Джаз: История.Стили. Мастера. – СПб: Лань, Планета музыки, 2011.
2. Провозина Н.М. Истории джазовой и эстрадной музыки.- Учеб.пособие. Ханты- Мансийск, 2006.

DUTOR ANSAMBLARI UCHUN O’QUV USLUBIY QO’LLANMALARI VA DARSLIKLARI TANQISLIGI MUAMMOSI, ADABIYOTLAR TAHLILI

Latofat Nuriddin qizi Mo’manova

O’zbekiston davlat konservatoriysi magistranti
Respublika musiqa va san“at kolleji o“qituvchisi
mominovalatofat@gamil.com

ANNOTATSIYA

Dutorda ansambl ijrochiligi xalqimizning boy ma’naviyati, qadriyatlarini o’zida mujassam etgan san’at turlaridan biridir. Mazkur maqolada so“nggi yillarda “Ansambl ijrochiligi” faniga bag“ishlangan adabiyotlarni o“rganib, dutor ansambl ijrochiligi risolalarning tanqisligi muammoosi, kamchiliklari, afzalliliklarini ilmiy asoslaymiz va tahlil qilamiz.

Kalit so’zlar: sozandalik, qonunchilik, qo’llanmalar, darsliklar, ansambl, dutor, muammo.

ABSTRACT

Ensemble performance on the dutar is one of the types of art that embodies the rich spirituality and values of our people. In this article, we will study the literature on the topic "Ensemble performance" in recent years, scientifically substantiate and analyze the problem of deficiency, advantages and disadvantages of the manual on ensemble performance on the dutar.

Keywords: music, legislation, textbooks, ensemble, dutar, problems.

Musiqa madaniyati o“quvchilarning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g“urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o“stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, musiqa janrlari ichida eng murakkab ammo ko“ngilning istalgan burchagiga yetib bora oladigan xususiyatga ega bo“lgan turi bu sozandalik, ya“ni xalq cholg‘u asboblarida chalishdir. Sozandalik – o“zbek musiqa ijrochiligi san“atining qadimiy turlaridan biri bo“lib, insoniyat hayoti, ma“naviyatimiz ruhiyati va rivojiga beqiyos madad beruvchi omildir. Sozandallik shu boisdan ham uzoq o“tmishdan o“ziga xos an“analar vujudga kelgan. Bu an“analar xalq orasida ardoqlanib, turli ko“rinish, uslub va yo“nalishlarda rivojlanib, avlodlardan avlodlarga o“tib, o“z ma“naviy salohiyatini saqlab kelmoqda. Boshqacha qilib aytganda, sozandalik san“ati – jonli jarayondir. Ayniqsa ular

ansambl bo‘lib ijro etganda bor ma‘naviy go‘zalligini namoyon qiladi. Albatta sozandalar uchun poydevor bo‘lib xizmat qiluvchi moddiy manbalar, risolalar, adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalarning o‘rnini ahamiyatlidir.

XX asrga qadar yozilgan risolalar soni cheksizdir. Lekin ularni o‘rganish mobaynida rivojlantirish, yangi texnologik metodlar yaratish, innovatsion risolalarni ko‘paytirish zamon talabi darajasiga ko‘tariliyapti. Bugungi kun zamon zayli bilan ta‘lim va tarbiya tizimida chuqur islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham 2022-yil 2-fevraldagisi “**Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora – tadbirlar to‘g’risida**” ((Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 07/22/112/0099-son) PQ-112 02.02.2022) qarorida aynan madaniyat va san‘at sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy manbalarni yaratishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ham ko‘zda tutilgan. Ijrochilik an‘analariga asoslanib yaratilgan adabiyotlarda aynan nazariy, tarixiy, an‘anaviy, uslubiy hamda tahliliy jihatlari yoritib boriladi. Quyida sozandalar ansambl uchun mustaqillik yillarda chop etilgan shunday o‘quv qo‘llanma va darsliklarni sanab o‘tamiz.

O.A.Asaidov hamda Sh.N.Rahimovlarning “Cholg‘u ansambl” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasi (2011), Abduvahob Sahiyevning “Milliy cholg‘u ansambllari uchun asarlar” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi (2016), Zulxorbek Turapov “Ansambl sinfi” (xalq cholg‘ulari) o‘quv qo‘llanmasi (2007) va “Ansambl sinfi” darsligi (2019), Ahadjon Mamadaliyevning “Ansambl sinfi” (o‘zbek xalq cholg‘ulari) o‘quv qo‘llanmasi (2019), Azizov Orifjon G‘anievichning “Cholg‘uchilar ansambllarini tashkil etish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi (2019), Mirzayev O‘ktam Oripovichning “Cholg‘u ijrochiligi va ansambl” o‘quv qo‘llanmasi (2019), Komiljon Mirzayevning “Sozandalar ansambl” (2020) va boshqalar. Ularning mohiyati shundan iboratki, o‘quvchilarning iste’dodini, madaniy saviyasini, ijrochilik maxoratlarini, eshitish qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish bilan birga badiiy didini shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirish, milliy va jahon musiqalarining yuksak namunalari bilan tanishtirish hamda ijrochi – sozandalarni tarbiyalash kabi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yadi. Shunday ekan, ularni kamchiliklardan holi va zamon talablariga mos tarzda, o‘quvchi, talabalar uchun tushunarli va sodda tilda bayon etilishiga e‘tibor qaratish lozim. Bu adabiyotlar ansambllar tarixi, ilk ansambllarning tashkil etilishidan tortib, eng mashxur ansambllar va ansambl tarkibi ijro uslublarigacha yoritib berilgan. Ba‘zi adabiyotlarda ansambl cholg‘ularining ko‘rinishi fotosur‘atlarda aks ettirilgan, strukturaviy tuzilishi, ijro postanovkasi, tovush chiqarish usullari hamda ansambllardagi ahamiyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mavjud. Muhimi, turli cholg‘ular ansambllari uchun yozilgan o‘zbek va jahon kompozitorlari asarlari keltirilgan. Ammo aynan dutor ansambllari ijrochiligi uchun adabiyotlar ro‘yxatini sanash,

dutorchi sozandalar uchun achinarli hol. Va holangki, O‘zbekistonda dutorchilar ansambl bir turdag'i cholg‘u ansamblari ichida eng ko‘p tarqalgan ansambl turidan hisoblanadi. Endi aynan dutor ansamblari to“g“risida yoritilgan adabiyotlarni ko‘rib chiqamiz.

2002-yil **BOQIJON RAHIMJONOV** muallifligida “**DUTORCHILAR ANSAMBLI**” darsligi yaratildi. Ushbu darslik “G“ofur G“ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi” tomonidan nashr qilingan bo‘lib, musiqa va san“at kollejlari hamda litseylari uchun mo‘ljallangan.

Annotatsiyaga ko‘ra, darslik xilma-xil dutorlardan tuzilgan ansambllar uchun mo‘ljallangan. U uslubiy va amaliy qismlardan iborat. Uslubiy qism dutor zarblari, pozitsiya va applikatura, turli usullarda gammalarni o‘zlashtirishga bag‘ishlangan. Amaliy qismda esa ansambl mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish uchun 18ta asar izohlari bilan berilgan.

Amaliy qismda o‘zbek xalq kuyi “Yallama yorim”, V.N. Vasilev “Bolalar ashulasi”, o‘zbek xalq kuyi “Qari Navo” va hokazo kuylar dutor oilasi - dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor bas uchun, Xoji Abdulaziz Abdurasulov “Bozurgoniy”, o‘zbek xalq kuyi “Sharop I”, “Ajam I tarona” kabi asarlar unison dutorchilar ansambl uchun kiritilgan.

Darslikning kamchiliklari juda kam. Masalan, dutor zarbidani “oddiy zarb” belgisi muallif tomonidan yangilik sifatida pastga (V) tepaga zarbi (^) sifatida kiritilgan. Ammo bu darslikkacha va darslikdan keyin ham barcha adabiyotlarda bir xil pastga (II) tepaga (V) zarbi belgisi qo‘llanilib kelgan. Shu tomonlama o‘quvchida “pastga tepaga” oddiy zarbi belgisi shtrixlarni o‘zlashtirishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Qolaversa yangilikka o‘ch bo‘lgan Boqijon Rahimjonov o‘zining bir necha kashfiyotlari bilan ham mashxur. U dutor oilalarini rekonstruksiya qilish borasidagi urinishlaridan kopchilik xabardor. Ya‘ni, dutor cholg‘usini kosa qismini yassi ko‘rinishda takomillashtirib yedirilib ketadigan yog‘och lad pardalari o‘rniga metal lad pardalalar o‘rnatib chiqqan. Natija juda ham ijobjiy bo‘lmadi. Chunki yassi kosali dutorlarni ushslash juda qiyinchilik tug‘diridi. Qolaversa, metall ladlar chap qo‘l barmoqlarini hamda ladga yaqin chalinganda o‘ng qo‘l barmoqlarini shikastlab ijrochida yomon tessurotlar qoldirishiga olib keldi. Balki bu kashfiyot ijobjiy natija berishi uchun usta dutorchilardan boshqacharoq material, boshqacharoq andozalar talab qilish kerakdir. Ammo Petrosyans tomonidan takomillashtirilib, bugungi ko‘rinishga kelgan dutorlarni ham kuchli va chiroqli tovush notasini chiqarib chalish darajasiga yetkazsa bo‘ladi. Albatta bu dutor primalarda biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Soz jihatdan to“g“ri sozlanadigan va oktava tovushlarini o‘rnida toza chiqaruvchi dutor prima cholg‘usini ijrochi tomonidan ortiqcha fizik tovushlarsiz,

musiqiy tovushlarda ijro qilinishi ijrochining texnik mohirligidan dalolat beradi. Shunday ekan, B.Rahimjonovning ixtiolaridan xavaskorona o‘rganuvchilar foydalanib, kuylar ijro qilishsa bo‘ladi. Ammo doimiy shug‘ullanuvchilarga bu cholg‘u biroz qiyinchilik tug‘dirishini inobatga olishimiz zarur.

Rekontrusiya qilingan dutor oilalariga to‘xtalanimizda dutor orkestrlarini ham izohlab o‘taylik. **Dutor ansamqli** va **dutor orkestrlarining** farqi nimada? Ikkalasi ham dutor oilalaridan tashkil topgan bo‘lsa, ikkalasi ham bir ovozli, ham ko‘p ovozli asarlarni ijro eta oladi. Ularning farqi shundaki, dutor ansamblida 1ta dutor bas bo‘lsa, dutor orkestrida bu raqam 4tagacha yetishi mumkin. Ya‘ni, orkestrlarda bir xildagi cholg‘uning o‘zi bir nechtagacha ko‘p bo‘lishi mumkin. Bu esa ko‘p ovozli kuylarni bir xil ijrosini ta‘minlash uchun dirijor talab qiladi. Ansambl esa o‘zining kichik tarkibligi, kam sonli cholg‘ulari bilan orkestrdan ajralib turadi.

2004-yilda **MANZURA AKMALJONOVA**ning “**DUTOR ORKESTRI**” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasi “G“ofur G“ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” tomonidan chop etildi. Musiqa va san‘at kollejlari uchun mo‘jallangan.

Annotatsiyaga ko‘ra, mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma ikki qismidan iborat. Birinchi qismda “Dutor orkestri bilan tanishibgina qolmay, dutor tarixi, uning turlari, takomillashuvi va buning natijasida orkestr cholg‘ularining paydo bo‘lishi haqida so‘z boradi. Ko‘povozlik jamoa talablariga javob bergan, tovush bo‘yoqlarining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan dutor orkestrini tashkil qilish, dastur tanlash va mashg‘ulotlarni qanday olib borish haqidagi ko‘rsatmalar ushbu qismning asosiy maqsadidir.

Ikkinci qism dutor orkestri uchun moslashtirilgan va cholg‘ulashtirilgan o‘zbek xalq kuyi “Rajabiy” (V.Rahimjonov yozib olgan), tojik xalq kuyi “Tog‘navosi” (A. Lenskiy qayta ishlagan) qoraqalpoq xalq kuyi “Nozli” (G.Mushel qayta ishlagan), M.Moshkovskiy musiqasi “Ispancha raqs”, rus xalq kuyi “Kamarinskaya” (I.Feoktistov qayta ishlagan)nota matnlaridan iborat. Darslik musiqa va san‘at kollejlari uchun dirijyorlik va orkestr sinfiga oid manba sifatida tavsiya etiladi.

Manzura Akmaljonovaning boshlagan ishi juda o‘rinli bo‘lgan edi. Va holangki, bugungi kunda musiqa maktabalaridan tortib, kollejlar, oliy ta‘lim muassasalarida dutor chalishga ishtiyoqi va iqtidori baland o‘quvchilarning soni juda ko‘p. Xalq cholg‘ulari yo‘nalishiga topshiruvchi abituriyentlarning 50 foizi dutor mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishni xohlaydi. Ammo dutor cholg‘usi kollejlarda ham, oliy ta‘lim muassasalarida ham soni bor sifati yo‘q darajaga yetib boryapti. Chunki dutorchchi yoshlar bilan shug‘ullanadigan, ularni ansambllarda, shu bilan birga orkestrlardagi o‘rni va ahamiyatini yuzaga chiqaruvchi omillar juda kam. Orkestrda har bir cholg‘u tarkibida 3 yoki 4 tadan cholg‘uchi bo‘lsa, dutorchilar tarkibi 10ta, ba‘zan esa ularning soni 20, 30 tadan ortyapti. Hattoki, bu tarkib o‘quvchilarni dars

paytida olib o‘tirishga majbur bo‘lgan dirijor o‘qituvchining “me‘dasiga tekkan” degan gaplar ham qulog‘imizga chalinadi. Bu esa juda achinarli holat. Demak, biz bu masalaga yechim sifatida o‘quv tarifikatsiya rejasiga “Dutorchilar orkestri” darslarini alohida kiritishimiz zarur. Bu esa dutor orkestri sinfi orqali dutorchi ijrochilar sifat darajasini oshirishiga ishonamiz.

Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, Respublikamizda mustaqillik yillarida ansambl ijrochiligi fanidan salmoqli adabiyotlar yaratilganligini ko‘rshimiz mumkin. Albatta, bu quvonarli hol. Ammo har bir fan ma’lum ta’lim darajalaridan iborat bo‘lganidek, ansambl ijrochiligi ham bundan mustasno emas. Ko‘rganingizdek, dutor ansambl ijrochiligiga oid adabiyotlarni shakllantirish ehtiyoji oldimizga ko‘ndalang chiqib turibdi. Sozandalar ansambl ijrochiligi uslubiy qo‘llanmalarning aksariyati oliy ta’lim muassasalari uchun tayyorlangan. O‘rta ta’lim bo‘g‘inida ansambl ijrochiligi fanini o‘qitish uslubiyoti masalasi hali o‘z yechimini topganicha yo‘q. Yuqorida o‘rganilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar musiqa kolleji va litseylarida ansambl ijrochiligi fani bo‘yicha yanada chuqur yoritilgan adabiyotlar yaratilishiga asos bo‘lishi shubhasizdir.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son
2. Raximjonov B. “Dutorchilar ansamбли”. Darslik. G‘ofur – G‘ulom nash. T. 2002-yil
3. Akmaljonova M. “Dutor orkestri”. O‘quv qo‘llanma. G‘ofur – G‘ulom nash. T. 2004-yil
4. O.A.Asaidov va Sh.N.Rahimovlar. “Cholg‘u ansamбли”. T. 2011.
5. Abduvahob Sahiyev. “Milliy cholg‘u ansambllari uchun asarlar”. O‘quv-uslubiy qo‘llanmasi. T.2016
6. Zulxorbek Turapov “Ansambl sinfi” (xalq cholg‘ulari) o‘quv qo‘llanma. T. 2007
7. Zulxorbek Turapov “Ansambl sinfi” darsligi T. 2019.
8. Ahadjon Mamadaliyev “Ansambl sinfi” (o‘zbek xalq cholg‘ulari) o‘quv qo‘llanmasi. T. 2019

CHOLG‘U IJROCHILIGIDA MUSIQIY TA’LIM UZVIYLIGINI TA’MINLASH MASALALARI VA YECHIMLARI

Qilichov Otamurod Zokirovich

O,zbekiston davlat san“at va madaniyat instituti

Kasb ta“limi xalq ijodiyoti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: professor v.b. Rajabov Hikmat Jumayevich

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada musiqa san“atining inson hayotidagi o,rsni, cholg,u asboblari, musiqa o,qituvchisiga qo,yiladigan talablar, qadimda va hozigi kunda musiqaga bo,lgan e“tibor hamda talab xususida so,z boradi.

Kalit so‘zlar: musiqa, cholg,u, xonanda, jo,rnavoz, musiqa o,qituvchisi, pedagogika.

ABSTRACT

This article discusses the role of music in human life, musical instruments, requirements for a music teacher, attention and demand for music in antiquity and modernity.

Keywords: music, instrument, singer, journalist, music teacher, pedagogy.

O,zbek xalq cholg,ulari rang-barang tarzda, o,ziga xos va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg,ulari shakllanib, asrlar osha rivoj topib kelgan. O,tmishga nazar tashlasak, mutaffakirlarimizdan al-Farobiy o,zining “Katta musiqa kitobi”da, Safiuddin Urmaviy musiqiy risolasida, Ahmadiy “Sozlar munozarasi” asarida, Zaynulloiddin Husayniy “Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy” risolasida, Abdurahmon Jomiy “Musiqiy risola”larida musiqiy cholg,ularni o,rganib, tadqiq etish masalalarining turli jihatlarini o,zlarining asarlarida bayon etganlar. Muhtaram yurtboshimiz ham musiqa sohasiga to,xtalganlarida: “Bilasizlarmi, madaniyat bilan yaqin bo,lgan insonning dunyoqarashi madaniyatli bo,jadi. Uning umri uzoq bo,jadi. Har bir katta korxonada ham mana 10 million investitsiya olib kelyapti. Lekin, 10 million investitsiya olib kelganda bitta cholg,u ansambli qilsa bo,jadimi? Bitta maqom ansambli qilsa bo,jadimi? Shanba kuni ashula eshitadigan kun qilib qo,ygin o,sha yerda. Ashula bilan seni ishingda 10 baravar baraka bo,jadi. Madaniyat bilan seni o,sha korxonangda 10 baravar yangi-yangi rejalgarda kirishadi. Odamning chehrasida mehr paydo bo,jadi”, degan fikrlarni bildirganlar.

O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim mакtablarida musiqa ta’lim-tarbiyasi Konsepsiyasining alohida bir bobи zamonaviy musiqa o,qituvchisi va uning kasbiy sifatlari majmuiga bag,ishlanadi. Hujjatda ta’kidlanishicha: “Hozirgi zamon musiqa o,qituvchisi yuksak madaniyatli, o,z kasbiga cheksiz sadoqat, ilg,or pedagogik tafakkur egasi bo,lmog,i lozim”. U o,zining uzlusiz kasbiy va madaniy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo,lishi shart. U musiqa, nafosat (estetika), pedagogika va psixologiya-fiziologiya fanlaridan, xususan musiqa o,qitish uslubiyotidan kompleks tarzda chuqur bilim va malakalar egasi bo,lmog,i darkor. Ayniqsa, musiqa o,qituvchisi ixtisosida zarur meyorida cholg,uchilik, xonandalik, xor dirijerlik va musiqa nazariyotchiligi sifatlari mujassam bo,lmog,i lozim. Hozirgi musiqa o,qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg,or tajribalar shaydosi, izlanuvchan va ijodkor bo,lib, musiqa o,qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog,i lozim. U musiqa ta’lim-tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog,lab, boyitib olib borishi darkor. Izlanuvchan va ijodkor o,qituvchining ilg,or tajribasi va kashf etgan yangi usullari maktabdagи musiqa ta’lim-tarbiyasini doimiy ravishda takomillashtirib rivojlantirishning asosiy tayanchi va ilhom manbaidir. Bilimdon va tajribakor musiqa o,qituvchisi san“at ziyolisi sifatida maktabda musiqiy-ma“rifiy ishlarning sarkoridir”.

Darhaqiqat, musiqa sohasi va aynan cholg,u ijrochiligi bu bugungi kunda dolzarb masalardan hisoblanadi. Musiqa ta’limi o,zining bir qator xususiyatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Chunonchi, unda bir necha kasbiy faoliyatlar (musiqa san“ati bo,yicha) malakasi, ko,nikma hamda bilimlar majmui uyg,unlashgan bo,lishi talab etiladi. Oddiy san“at yo,nalishi bo,yicha qaraladigan bo,lsa ham har qanday cholg,uchi – san“atkor maktabda musiqa darslarini olib borolmaydi. Musiqadan yangi dastur va davlat ta’lim standartlari talablari darajasda darslarni olib borish uchun o,qituvchi avvalo, pedagogika, pisixologiya, bolalar yosh fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasi (musiqaning elementar nazaryasi, musiqa asarlari tahlili, garmoniya, solfedjiyo, musiqa o,qitish metodikasi) musiqaning amaliy sohalari (vokal kuylash, dirijorlik, cholg,u asboblarida ijro etish), o,z o,rnida rejissiorlik, aktiyorlik, raqs san“atidan zaruriy bilim, malakaga ega bo,lishi kerak. Ya“ni, musiqa o,qituvchisi birgina dars jarayonida ham cholg,uchi, ham xonanda, xor-dirijori, jo,rnavoz, musiqa nazariyachisi va uslubchisi, mohir tashkilotchi, senariychi sifatida ish ko,rsatishiga to,g,ri keladi.

Musiqiy cholg,u asboblarining turlari juda ko,p. Bularga misol keltiradigan bo,lsak, bularga qayroq, sibizg,a, chanqovuz, nog,ora, bulomon, qayroq, safoil, chindovul, sagat, surnay, karnay, do,mbira va boshqa cholg,u asboblari kiradi. Yuqorida sanab o,tgan musiqiy cholg,ular qadimdan to,y-u tomoshalarda, bazmlarda,

sayllarda xalqimiz tomonidan ijro etilib, bugungi kungacha yetib kelgan. Bundan tashqari o‘zbek xalq cholg‘ulari beshta guruhga ajratiladi, bular:

- ✓ Puflama cholg‘ular guruhi
- ✓ Urma torli cholg‘ular guruhi
- ✓ Mezrobli cholg‘ular guruhi
- ✓ Urma zarbli cholg‘ular guruhi
- ✓ Kamonli cholg‘ular guruhi

Bu guruahlarga esa bir nechta cholg‘u asboblari kiradi. Ularning turlari ham juda ko‘p. Musiqiy cholg‘ularning ta’rifi, ya’ni shakllari, tuzilishlari, tarkibiy jihatlari, ijrochilari bilan bog‘liq ma’lumotlar, asosan o‘rtta asrlardan boshlab, badiiy adabiyotlar hamda musiqiy risolalarda yoritila boshlangan. Buyuk allomalarimiz asarlarida ham o‘zbek xalq milliy cholg‘ulariga qay darajada to‘xtalgani barchamizga sir emas. Shuning uchun ham qadimdan bizgacha yetib kelayotgan va milliyligimizning saqlanib qolishiga yana bir sababchi bo‘layotgan xalq cholg‘ularimizni kelajak avlodga ham meros qilib o‘rgatib, qoldirishimiz har birimizning muqaddas va o‘zbek xalqi oldidagi burchimizdir desak, mubolaga bo‘lmaydi. Buning uchun ta’lim va tarbiya berishni bolajonlarmizning yoshligidan boshlashimiz zarurdir. Yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishda yetuk kadrlarni tayyorlash ham asosiy vazifalardan biridir. Maktablarda o‘quvchilarga darslarni sifatlari olib borishda eng ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib olib borilsa, oldimizga qo‘yilgan buyuk vazifalardan birini bajargan bo‘lardik. Musiqa o‘qituvchisi har bir darsga mustaqil va ijodiy yondoshmog‘i kerak bo‘ladi. Uning ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsga ssenari muallifi, uning ijrochisi va rejissori sifatida ham ish tutadi. Shu bois musiqa darsi san‘at darsi ham deb ataladi. Maktab hayotida musiqa o‘qituvchisining faoliyat mavqeい keng va ko‘p qirralidir. Sinfdan tashqari musiqa darslarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini (uchrashuvlar, bayramlar, ma’ruza konsertlar, ko‘rik-tanlovlarga tayyorgarlik va qatnashish, “Alifbe” bayramlarini o‘tkazish, musiqa haftaliklari va hakazo) uyushtirish bevosita musiqa o‘qituvchisining zimmasidagi vazifalardir. Shu bilan birga maktabdan tashqari ta’lim muassasalari (bolalar musiqa maktablari, o‘quvchilar ijodiyot markazlari, bolalar teatrлari, xor etyudlari kabilalar) bilan doimiy aloqadorlikda bo‘lib, iqtidorli, musiqiy qobiliyatli o‘quvchilarni ularga jalb qilish va ularning faoliyatidan maktab hayotida o‘z o‘rnini bilan foydalanish ishlari ham musiqa o‘qituvchisi zimmasiga mas‘uliyatli vazifalarni qo‘yadi. Musiqa fani bo‘yicha Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari ham hozirgi kunda umumtalim maktablarida faoliyat ko‘rsatadigan o‘qituvchilardan o‘zining ta’limiy va tarbiyaviy ishlari mazmuni va qo‘llaydigan ish uslublarida yangilanish jarayonini talab etadi. Shuningdek, musiqa o‘qituvchisi tayyorlashga yo‘naltirilgan oliy ta’lim tizimidagi

musiqiy-pedagogik ta’lim fakultetlarida ham bo,lajak o,qituvchilarni kasbiy tayyorgarligiga ushbu talablar nuqtayi nazaridan yondashishni taqozo etadi. Bu talablar chiqarilayotgan darsliklar, qo,llanmalar, tavsiyanomalar, o,quv-metodik adabiyotlarda keng ma’noda yoritilmoqda. Musiqa fani bo,yicha o,quv dasturlarining yana bir o,ziga xos xususiyati shundan iboratki, umumta’lim maktablarining “musiqa madaniyati” fanining asosi bo,lgan musiqa savodxonligini tarkib toptirish lozim bo,lgan, qator musiqiy qonuniyatlar, jumladan, musiqa nutqi, musiqaning ifoda vositalari, musiqa shakllari, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi, musiqaning zamonaviyligi kabilar chuqur, mukammal o,rganilishi kerak. Demak, musiqa fani dasturlari mazmunida dars o,tish uchun musiqa o,qituvchisi o,zining musiqiy-nazariy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi kerak bo,ladi. Chunki, mamlakatimizda o,shib kelayotgan yosh avlodni ona vatanimizga, millatimizga va milliy qadiriyatlarimizga, barqaror qiziqish va mehr-muhabbatli qilib tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi bo,lgan badiiy-estetik tarbiya masalalarini, ya’ni insonni ma’naviy, ma’rifiy jihatdan barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlatimiz tamonidan qo,yilgan katta mas’uliyatni musiqa o,qituvchisining oldiga dolzarb vazifa qilib qo,ymoqda. Musiqa ta’limi va tarbiyasini samaradorligini ta’minlashda o,quvchi-yoshlarning musiqa sanatiga va u orqali hayotga bo,lgan qiziqishini uyg,otishda musiqa ta’limi va o,qituvchilarning mavqeyi juda yuqori va g,oyat mas’uliyatlidir. Shu aytilganlarga asoslanib musiqa o,qituvchilarni yangi milliy asoslarda ishlab chiqilgan dasturlar bo,yicha ish faoliyati mazmunini quyidagicha izohlash to,g,ri bo,ladi: O,qituvchi umumta’lim maktablarida musiqa bo,yicha ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishi va uning samaradorligini ta’minlash uchun o,quvchi-yoshlarni musiqa madaniyatini har tamonlama tugal shakllantirishi, ularni musiqa san’atining turli sohalaridan xabardor qilib borishi, musiqani ongli idrok qilishi, o,z tushunchalarini ifodalay olishi, eng oddiy musiqa qonuniyatlarini tushinib, unga baho bera oladigan qilib tarbiyalashi, o,quvchilarni musiqa bo,yicha bilimlarini mustahkamlab borishlari uchun o,z ustlarida ishlash ko,nikmalarni o,stirishlariga erishishi va shu asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etmog,i lozim. Musiqa o,qituvchisining pedagogik mahorati. O,quvchilarning aqliy va axloqiy kamolotida musiqa o,qituvchisi shaxsi alohida o,rin tutadi. Uning dunyoqarashi keng, qalbi pok, shirinso,z, bolajon bo,lmog,i lozim. Bunday fazilatlarni har qanday shaxsda ham tarbiyalab bo,lmaydi. Pedagogik mahorat yoki san’at – bu qandaydir qo,l bilan tutib bo,lmaydigan, fahm-farosat bilan amalga oshiriladigan jarayon, izlanishlar, kechinmalar, ko,pdan-ko,p kundalik ishlar, bolalar bilan olib boriladigan daqiqalar demakdir. Bu – bilimlarning ilmiyligi, tarbiyadagi muammolarni yechishga qodirlilik, bola shaxsiga e’tibor bilan yondashish, rivojlangan tasavvur va hokazolar yig,indisidir. Hozirgi zamon musiqa

o,qituvchisining ijodiy faoliyatida pedagogik mahorat quyidagilarda yaqqol namoyon bo,,ladi:

- musiqa tarbiyasida yangi usul va vositalarni izlashda, ularni an“anaviy usullar bilan mohirona bog,,lab olib borishda;
 - hayot va musiqa san“ati o,rtasidagi bog,,liqlikni ko,rsata olish va o,rgatishda;
 - musiqaning mazmuni va ma“nosini bolalarga yetkazishda, fanlararo aloqani amalga oshirishda;
 - musiqa o,qituvchisining o,z ustida doimo ishlashi va ijodiy izlanishida.
- O,qituvchining yuqori professional tayyorgarligi musiqa darslarining takomillashuvida hamda musiqa san“atining tarbiyaviy potentsialini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. O.,Asqarova. Qoraboeva Z. Pedagogik mahorat asoslari. Muammoli ma“ruzalar matni. Namangan, 2005
2. M.G.ofurov. Cholg,u ijrochiligi. Toshkent, 2015
3. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva. Musiqa o,qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. Oliy va o ,rta maxsus o ,quv yurtlari talabalari uchun o ,quv qo,llanma. Toshkent, 2014.

MUSIQA TA’LIMIDA CHOLG‘U IJROCHILIGINING UZVIYLIK MASALALARI

Shukurjonova Xusnora Farhod qizi

O‘zbekiston davlat konservatoriysi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” ta’lim yo‘nalishi
1- bosqich magistranti

Ayxodjayeva Shahnoza

Ilmiy rahbar: O‘zbekiston davlat konservatoriysi dotsenti, san‘atshunoslik fanlari
nomzodi
E-mail:xusnorashukurjonova8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ijrochilik san‘ati doimiy rivojlanib boruvchi jarayondir. Boshqa sohalar singari cholg‘u ijrochiligi ham yildan - yilga rivojlanib bormoqda. Cholg‘u ijrochiliginin o‘qitishda musiqiy ta’lim tizimining uzviy ravishda olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Musiqa ta’limini tizimli tashkil etilishi ijrochining mohir sozanda sifatida rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Cholg‘u ijrochiligi, musiqiy ta’lim, bolalar musiqa va san‘at maktablari, o‘rta maxsus bilim yurtlari, oliy ta’lim muassasalari, dutor, sozanda, o‘quvchi, kompozitor, ansambl, orkestr.

ABSTRACT

Performing arts is an ever-evolving process. Like any other field, instrumental performance is developing from year to year. An integral part of the music education system is important in teaching instrumental performance. The systematic organization of music education is a key factor in the development of the performer as a skilled musician.

Keywords: Instrumental performance, music education, children’s music and art schools, secondary special schools, higher education institutions, dutar, musician, student, composer, ensemble, orchestra.

Musiqa ta’lim tizimidagi uzviylik sozandaning mukkammal bilim olib, yetuk mutaxasis bo‘lib shakllanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayon bolalar musiqa va san‘at maktablari, o‘rta maxsus musiqa bilim yurtlari hamda oliy ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik madaniyatining o‘sishi, jahon klassik kompozitorlari asarlarining o‘zlashtirilishi, O‘zbekiston kompozitorlarining xalq cholg‘ulari uchun maxsus asarlar yaratishi o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san‘atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo‘ldi. Shu bilan birga yuqori malakali ilmiy - pedagogik va ijrochi kadrlarni tayyorlash masalasi ham kun tartibiga qo‘yildi. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent (hozirgi O‘zbekiston) davlat konservatoriyasi faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. 1948-yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliv o‘quv yurtlarida, shu jumladan M. Ashrafiy nomidagi Toshkent (hozirgi O‘zbekiston) davlat konservatoriyasida ham xalq cholg‘ulari ijrochiligi bo‘yicha ta’lim berish boshlandi. O‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limiga rahbarlik qilish, o‘quvchilarni saralab yig‘ish, o‘quv rejalarini tuzish A.Petrosyans tomonidan amalga oshirilgan. Bilim yurtida o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligi bo‘yicha professional ta’limni yo‘lga qo‘yishda V.Uspenskiy, M.Ashrafiy, A.Petrosyans, I.Blagoveshenskiy, B.Gienko, G.Sobitovlarning xizmatlari beqiyosdir.¹

Ijrochilik san‘ati doimiy rivojlanib boruvchi jarayondir. Musiqiy ta’lim tizimining barcha bosqichlarida sozandaning ijrochilik mahorati rivojlanishi uchun nazariy hamda amaliy bilimlarni talab darajasida o‘zlashtirishi, olgan bilim va ko‘nikmlarini to‘g‘ri shakllantira olishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu ma‘ruza orqali musiqiy ta’lim tizimining turli bosqichlarida dutor ijrochiligini o‘qitish masalalarini ko‘rib chiqamiz.

Ma‘lumki, professional musiqiy cholg‘uda ijro etishni o‘rganish maktab yoshidan boshlanadi. Yosh avlodning kelajakda yetuk sozanda sifatida kamol topishi uchun uning musiqa maktabida oladigan bilim va ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, bino mustahkam bo‘lishi va uzoq yil xizmat qilishi uchun uning poydevori mustahkam bo‘lishi lozim. Musiqa maktabi ham sozanda uchun poydevor vazifasini bajaradi. Musiqa maktabining asosiy vazifasi yosh avlodni musiqa va san‘atning boshqa turlariga yo‘naltirish va qobiliyatlarini to‘g‘ri shakllantirishdan iborat. Bu yerda bolalarning milliy qadriyatlarimiz va an‘analarimizga nisbatan hurmati, e‘tibori yanada rivojlanadi. Ma‘naviy saviyasi, estetik didi shakllanishni boshlaydi. Bir qarashda u san‘at bilan birgalikda atrofdagilar bilan muloqot, jamoa bilan munosabat, sahna madaniyatini o‘rgana boshlaydi. O‘z cholg‘usiga nisbatan muhabbati paydo bo‘jadi. Tabiiyki, ijrochilik san‘atining rivojlanishi bolalar musiqa va san‘at maktablarida o‘qitish uslubiga, ijrochilik amaliyotiga ham ta’sir o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bugungi kunda bolalar musiqa va san‘at maktablarida o‘qitish uchun yangi-yangi asarlarga ya‘ni repertuarga bo‘lgan ehtiyoj ortmoqda. Bugungi kun

¹ A.Tashmatova “Ijrochilik san‘ati tarixi”. “Musiqa nashriyoti” T., 110-b.

ta’lim tizimi talab darajasiga javob beradigan o,quv qo,llanmalari, darsliklar yaratish ushbu ehtiyojlarning oldini olish uchun xizmat qiladi.

Bolalar musiqa va san“at mакtablarida o,qitish uslubiyoti o,quvchiga cholg,u haqida ilk ma“lumotlarni berish, cholg,uda ijro holati (postanovka)ni to,g,ri qo,yish hamda nazariy bilimlarni asta-sekinlik bilan o,rganishdan boshlanadi.

O,quvchini musiqa maktabiga qabul qilish imtihonlarida uning iste“dodi, eshitish qobilyati, eslab qolish qobilyati, ritm xissi sinovdan o,tkaziladi. Tabiiyki, ba“zi bir o,quvchilarda ritm his qilish qobilyati pastroq bo,lishi mumkin, ba“zilarida esa eshitish qobilyatida kamchiliklar bo,ladi. Ana shu kamchiliklarni to,g,irlash, musiqiy qobiliyatni rivojlantira olish kerak. Ya“ni ritm his qilish qobilyati pastroq o,quvchi bilan o,qitish jarayonida ko,proq ritm ustida ishlash maqsadga muvofiqdir. Dars mashg,ulotlarida o,qituvchi qarsak chalish orqali turli xil ritmlarni chalib berishi va o,quvchidan ushbu ritmnini takrorlashni talab qilishi uning ritm his qilish qobiliyatini asta - sekinlik bilan rivojlanishiga turtki bo,ladi. Albatta ushbu jarayonda oddiy, sodda ritmdan asta-sekin murakkabga o,tish kerak.

Dastlabki dars mashg,ulotlarida o,quvchiga o,z cholg,usining kelib chiqish tarixi, cholg,uning tuzilishi, ushbu cholg,uda ijro etgan mashhur ustoz - sozandalar, cholg,uning o,quv jarayonidagi ahamiyati, uning orkestrda tutgan o,rni haqida umumiyl tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir. Cholg,uda ijro holati (postanovka)ni to,g,ri shakllantirish muhimdir. Ilk mashg,ulotlardan o,quvchining to,g,ri o,tirishiga alohida e“tibor berish kerak. O,tirish holatida yuzaga keladigan kichik bir xato ham o,quvchining ijro mahoratining past bo,lishiga hamda gavdaning rivojlanishiga ham salbiy ta“sir ko,rsatadi. Bunda ahamiyat beradigan asosiy vazifa o,quvchiga to,g,ri o,tirishni o,rgatayotganda uning bo,yi, qo,l – oyoqlarining uzunligini hisobga olgan holda postanovka qo,yishdir. Ya“ni har bir o,quvchining individual holatidan kelib chiqqan holda uni sozanda sifatida to,g,ri rivojlantirish bu ustozning muhim vazifikasi hisoblanadi. Musiqa maktablarida cholg,uni ijro etish bilan birgalikda musiqa nazariyasi hamda solfedgio fanlari o,qitiladi. Ushbu fanlarni mukammal egallash ijrochi uchun muhim. Musiqadagi nazariy fanlarni puxta egallamaslik ijrochining kelajakdagi bilim olishiga salbiy ta“sir ko,rsatadi.

Ijrochiga cholg,uda ijro etish ko,nikmalari bosqichma – bosqich o,rgatib boriladi. Bolalar musiqa va san“at mакtablarida har bir cholg,uda o,qitish uchun o,quv dasturi mavjud. Massalan dutor cholg,usi uchun ishlab chiqilgan dasturni ko,rib chiqaylik. Ushbu dastur U.K.Rahmatullayeva (Toshkent shahar Uspenskiy nomidagi RIMAL dutor sinfi o,qituvchisi), N.Atayeva (23-son BMSM dutor sinfi o,qituvchisi), F.Rasulova (22-son BMSM dutor sinfi o,qituvchisi)lar tomonidan tuzilgan bo,lib, mazkur dastur 2015-2016-yillarda bolalar musiqa va san“at maktablarining xalq cholg,ulari bo,limi o,quvchilari tomonidan sinovdan (aprobatsiyadan) o,tgan.

Dasturning aprobatsiyasi yakunlari Respublika ta’lim markazi qoshidagi “Musiqa madaniyati va san“at” Ilmiy–metodik kengashida muhokama etilib, amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Ushbu o,quv dasturi dutor cholg‘usida o,qitishning maqsad vazifalari, mazmun mohiyatini belgilaydi. Dasturning maqsadi o,quvchilarning iste“dodini, madaniy saviyasini, dunyoqarashini kengaytirish, milliy va jahon musiqa namunalari bilan tanishtirishdan iborat.

Mazkur o,quv dasturi bolalar musiqa va san“at mактабларining besh yillik ta’lim yo,nalishiga mo,ljallangan bo,lib, bu davr ichida o,quvchi imkonimiz boricha musiqa ijrochiligining professional mahoratini egallashi va notaga qarab ijro etish malakasini hosil etishi ko,zda tutilgan. Dasturda uslubiy ko,rsatmalar hamda sinflar kesimida o,quvchilar ijro etishi uchun tavsiya etilgan namunaviy asarlar ro,yxati keltirilgan.

Dutor sinfida mashg,ulotlar har bir o,quvchi uchun tuzilgan shaxsiy ish reja asosida olib boriladi. O,qituvchi o,quvchining badiiy va texnikaviy malakalari o,sishini muntazam kuzatib borishi lozim.

O,quvchining musiqiy bilimini oshirish maqsadida musiqa asarlarini varaqdan o,qish mashg,ulotlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Notani varaqdan o,qish mashg,ulotlari o,quvchining nota o,qish tezligi oshishiga yordam beradi. Notani varaqdan o,qish orkestr, ansambl sinflarida ham kerak. Ushbu mashg,ulotni puxta egallash o,quvchining kelajakdagi bilim olishiga albatta ijobiy yordam beradi.

Shunday qilib o,quvchi bolalar musiqa va san“at maktabida cholg‘u ijrochiligi bo,yicha egallagan bilim va ko,nikmalari ta’lim tizimiga muvofiq quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- o,z cholg‘usi va ularning oilalari haqida to,liq ma“lumotga ega bo,lish;
- o,z cholg‘usi oilalarining tovush tembrini farqlay olish;
- turli janrdagi texnik va kompozitorlar asarlaridan namunalarni idrok etgan holda ijro eta olish;
- yakka va ansamblida jo,rnavoz bo,la olish;
- musiqiy asarlarni notadan o,qiy olish;
- xalq musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo,lish;
- musiqaga oid atamalarni bilish;
- musiqa ifoda vositalarini bilish;
- jahon xalqlari musiqa namunalari va kompozitorlari asarlaridan namunalar ijro eta olish;

Yuqoridagi talablarni puxta egallash o,quvchining keyingi ta’lim bosqichlarida bilim olishi uchun poydevor hisoblanadi.

Bolalar musiqa va san“at maktabini bitirgan o,quvchi keyingi ta“lim bosqichiga yo,ł oladi. Bu bosqich o,rta maxsus bilim yurtlaridir. O,rta maxsus bilim yurtlarida ta“lim berish jarayonlarida o,quvchini kasbga yo,naltirishning ilk bosqichlari boshlanadi. O,rta maxsus bilim yurtlarida o,quvchini ham mohir sozanda sifatida, ham pedagog sifatida rivojlantirish masalasi yotadi. Bolalar musiqa va san“at maktabidan farqli ravishda o,quvchi o,rta maxsus bilim yurtida professional ijo etish ko,nikmalarini hamda o,z ustida mustaqil ishslashni o,rganadi. Yuqorida aytib o,tilganidek har bir o,quvchining o,zlashtirish imkoniyatlari birdek emas. Ta“lim jarayonida ana shu jihatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Demak o,qituvchi ijrochining bolalar musiqa va san“at maktabidagi bilim va ko,nikmalarni qay darajada o,zlashtira olganligini hisobga olgan holda ish olib borishi maqsadga muvofiq. Albatta ijrochining bilim va ko,nikmalarni o,zlashtirishi hamda mohir sozanda bo,lib yetishishida ustozning ahamiyati katta. Shunday holatlar ham kuzatiladiki, musiqa maktabida bilimlarni o,rtacha o,zlashtirgan, ijo imkoniyatlari ham talab darajasida bo,łmagan o,quvchilar o,rta maxsus ta“limda bilimlarni a“lo darajada o,zlashtirib, ijrochi sifatida ham ijo imkoniyatlari rivojlanib, yuqori natijalarga erishishi mumkin. Bu albatta o,rta maxsus bilim yurtidagi ta“lim berish sifatiga hamda mutaxasislik o,qituvchisining pedagogik mahoratiga borib taqaladi.

Demak o,rta maxsus bilim yurtidagi ta“lim tizimini ham dutor cholg,usi misolida ko,rib chiqamiz. Aksariyat hollarda musiqa maktabini tamomlab, o,rta maxsus bilim yurtlariga ta“lim olishni davom ettirishga kelgan o,quvchilar ijrosida ba“zi bir kamchiliklar kuzatilmoxda. Masalan ijo holati (postanovka)da kuzatiladigan kamchiliklar, nota o,qish tezligining rivojlanmaganligi, jo,rnavoz bilan ishslash ko,nikmalarining shakllanmaganligi hamda musiqiy-nazariy fanlarni yetarli o,zlashtirilmaganligi. Dastlabki darslarda o,quvchining musiqa maktabida olgan bilimlari, ijo imkoniyatlari, ijo qilgan asarlari repertuari, o,z cholg,usi haqidagi bilimlarini tekshirib olish maqsadga muvofiq. O,quvchining ijo imkoniyatlari, o,rganib chiqqandan so,ng dars mashg,ulotlari ana shu imkoniyatlarni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Avvaliga o,quvchidan murakkab bo,łmagan kichikroq asarlarni ijo qilishi tavsiya qilinadi. Asta – sekinlik bilan asarlar murakkablashib boradi. Musiqiy asarni yod olishda o,quvchiga frazaga bo,lib ishslashni o,rgatish kerak. Bu asarni oson yod olishga katta yordam beradi.

Dutor cholg,usi shtrixlarga juda boy cholg,udir. Masalan, bilak zarb, chertma zarb, terma zarb, teskari zarb, tremolo, rez, pitsikato, flajeletto kabilari. Bitta asar ijrosida xilma – xil shtrixlarni qo,llashimiz mumkin. Bu asarni mazmun jihatidan boyishiga yordam beradi. Shuning uchun o,quvchiga dutor alt cholg,usida turli xil shtrixlarni o,rgatib, ana shu shtrixlar asosida gamma chalish vazifasi qo,yilsa, bu o,quvchining o,ng qo,l imkoniyatlarining rivojlanishiga turtki bo,ładi. Ijrochilik

imkoniyatlarini rivojlantirishda o,ng qo,l va chap qo,l ijrosini birdek rivojlantirish kerak. Chap qo,l imkoniyatini o,stirish uchun ko,p xromatik mashqlar ijro etish kerak. Ushbu mashg,ulotlar albatta ijobiy natija beradi.

Yana bir ahamiyat beradigan jihat o,quvchiga o,z cholq,usini sozlashni o,rgatish. Bunda eshitish qobilyati muhim ro,l o,ynaydi. Eshitib sozlash orkestr , ansambl darslarida juda ham muhim. Konsert dasturlari bo,ladimi, yoki turli xil ko,rik tanlovlardan sahnada asar ijro etishdan oldin birinchi navbatda cholq,uning sozi tekshiriladi. Agar o,quvchining eshitish qobilyati yaxshi bo,lsa cholq,usini mustaqil sozlay oladi. Kuy mohirona ijro etilmasisin, agar cholq,u sozlanmagan bo,lsa asar mazmun mohiyatini yo,qotadi.

Mohir sozanda bo,lishni istgan ijrochi ko,p o,z ustida mustaqil ishlashi kerak. Har kuni cholq,usida ijro etishi, nafaqat musiqiy asar ustida ishlashi, avvalo mashqlar, gammalar ko,p chalish kerak.

Hozirgi kundagi talablar shuni ko,rsatadiki yurtimizda oliy ma'lumotli mutaxasislarga bo,lgan talab yildan - yilga oshib bormoqda. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, ayni paytda yoshlar oliy ta'lim muassasalarida bilim olishga intilmoqda.

Respublikamizda madaniyat va san“at sohasida ta’lim beradigan qator oliy ta’lim muassasalari mavjud. Xususan O,zbekiston davlat konservatoriysi, O,zbekiston davlat san“at va madaniyat instituti, Yunus Rajabiy nomidagi o,zbek milliy musiqa san“ati instituti, O,zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy Estrada san“ati instituti va boshqalar.

Oliy ta’limda ijrochi boshlang,ich va o,rta maxsus ta’limda egallagan bilim va ko,nikmalarini, ijro mahoratini mustahkam bir yo,lga soladi. Oliy ta’limda cholq,u ijrochiligidagi ko,proq ahamiyat beriladigan jihatlar asarni ijro etishda ko,proq badiiylikka, mazmun mohiyatiga e’tibor qaratiladi. Dutor cholq,usi ijrochiligidagi oliy ta’lim bosqichida ba’zi muammolar mavjud. Xususan repertuar masalasida yetishmovchiliklar kuzatilmoqda. Ayniqsa dutor alt cholq,usida ijro qilish uchun asarlar yetishmaydi. Ushbu kamchilikni hisobga olgan holda, o,zbek kompozitorlarimiz asarlar yaratishmoqda. Mohir ustoz sozandalar do,mbrada ijro etiladigan qozoq xalq kuylarini dutor alt cholq,usi uchun moslashtirishmoqda. Dutor va do,mbra cholq,ulari tuzilishi va ijro uslubi jihatidan juda yaqin. Biroq repertuar hali ham yetarli deb bo,lmaydi. Kompozitorlardan dutor cholq,usi uchun yangi asarlar yozish taklifi berilmoqda.

Oliy ta’limda talaba professional ijrochi bo,lib yetishishi ta’limning maqsadidir. Asarni mohirona ijro qilish uchun bir qancha talablar mavjud. Murakkab asarlarni mohirona ijro etish bu faqat asarni tez tempda ijro etish degani emas. Asarni ijro etishda uning badiiy jihatlari ham katta ahamiyatga ega. Oliy ta’limga kelgan

talabalarda asarni ijro etishda badiiylik tamoyillarining yetishmasligi ko,p kuzatilmoque. Musiqiy asarni ijro qilishni o,rganishni boshlashdan avval asarning mazmunini tushunib yetish kerak. Buning uchun asarning kompozitori, yozilgan davri, janri, shakli bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi.

Xulosa o,rnida shuni aytib o,tish joizki musiqiy ta’lim yo,nalishidagi uzviylikda kuzatilayotgan umumiy kamchiliklar quyidagi jihatlarda kuzatilmoque: asarni talab darajasida ijro qila olmaslik, ijro holatidagi kamchiliklar, asarda badiiylik yetishmasligi, musiqiy nazariy fanlarning puxta egallanmaganligi, nota o,qishdagi kamchiliklar. Bu nimaga borib taqaladi? Albatta o,quv jarayonida tizimli standart dastur mavjud emasligiga taqalmoqda. Ta’lim muassasalarida o,quv qo,llanma va adabiyotlarning viloyatlar kesimida teng taqsimlanmaganligi, chekka joylarda o,quv qo,llanmalarning yetishmasligi ta’lim tizimining hozirgi zamon talablariga mos ravishda rivojlanishiga salbiy ta“sir ko,rsatmoqda. Musiqa ta’lim tizimida o,qitish jarayonida o,quvchini bir bosqichdan keyingi ta’lim bosqichiga o,tib, ta’limni uzviy davom ettirishida uni to,g,ri yo,naltirish, qobilyatlarini inobatga olgan holda dars jarayonlarini tashkil etish, sozanda sifatida rivojlantirish unga ta’lim berayotgan o,qituvchilarning pedagogik mahoratiga, va albatta ta’lim muassasasining ta’lim berish sifatiga borib taqaladi. O,quv jarayonini tizimli tashkil etishda ta’lim muassasalarining o,zaro muloqotda bo,lib turishi ta’lim sifatiga ijobiy ta“sir ko,rsatadi. Misol uchun o,rta maxsus bilim yurtlari o,quvchilari tomonidan bolalar musiqa va san“at maktablarida turli xil ijodiy konsertlar, mahorat darslarining tashkil etilishi o,sha yerda ta’lim olayotgan o,quvchilarga juda katta ijobiy ta“sirini ko,rsatadi. Bola ijrochilarning ijro mahoratini kuzatar ekan o,zi ham kelajakda ana shunday ijro mahoratiga ega bo,lishi kerakligini tushunadi. Ijrochilarning ijro mahoratiga havas qilgan holda o,zi ham ana shunday ijrochi bo,lishga intiladi.

Shunday qilib ijrochi musiqiy ta’limning har bir bosqichida o,rgatiladigan bilimlarni talab darajasida o,zlashtirishi, o,z ustida muntazam ishlashi, ijrosi sifatida to,g,ri yo,naltirilishi uning kalajakda mohir sozanda bo,lib yetishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. A.Tashmatova – “Ijrochilik san“ati tarixi”
2. U.Yunusov – “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” (Dutor)
3. O.Nazarov – “Qashqar rubobi” (bolalar musiqa va san“at maktablari uchun o,quv qo,llanma)
4. U.Rahmatullayeva, N.Atayeva, F.Rasulova – Dutor (bolalar musiqa va san“at maktablari uchun o,quv dasturi)

BOSHLANG‘ICH MUSIQIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA HAMKORLIK MASALALARI

Jonibekov Saidbek

Kasb ta’limi: Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)
ta’lim yo,nalishi 3-kurs talabasi

O’razali Toshmatov

Ilmiy rahbar: professor

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanda rivojlantirish to‘grisida”gi Qaroriga Qarori ijrosini ta’minlashdagi muammolar va ularni hal etishda oliv ta’lim muassasasi va umumta’lim maktablari o‘rtasida hamkorlikni tashkil etish yo‘llari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa, qaror, soha, madaniyat, orkestr, hamkorlik, darslik, to“garak, musiqa cholg‘usi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье обсуждаются вопросы внедрения в жизнь Постановления Президента Республики Узбекистан от 2 февраля 2022 года «О дальнейшем развитии сфер культуры и искусства» и организации совместных усилий высших учебных заведений и школ Республики во имя достижения поставленных задач.

Ключевые слова: музыка, решение, поле, культура, оркестр, сотрудничество, учебник, группа, музыкальный инструмент.

ABSTRACT

This article discusses the implementation of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 2, 2022 “On the further development of the spheres of culture and art” and the organization of joint efforts of higher educational institutions and schools of the Republic in order to achieve the set goals.

Keywords: music, decision, field, culture, orchestra, cooperation, textbook, circle, musical instrument.

Musiqa inson hayotining ajralmas bir qismidir. Inson tug‘ilar ekan uning qulog‘iga chiroyligi qiroat bilan azon aytildi. Butun umri, tug‘ilishdan to o‘limgacha musiqa bilan hamohang tarzda kechadi. Hattoki muqqadas dinimizdagi Qur‘oni Karim ham qiroat bilan o‘qiladi. Inson bir vaqtning o‘zida musiqaning ham yaratuvchisi, ham tinglovchisidir. Shuning uchun ham eng mukammal musiqa xalq kuylari, qo‘shiqlari va ularga suyangan xolda yaratilgan musiqiy asarlardir. Jannatmakon yurtimizda yashab kelayotgan insonlar ham milliy kuy-qo‘shiqlarimizsizni yaratib, undan ilhomlanib kelish, tabiiy bir xol.

So‘ngi yillarda Hukumatimiz tomonidan boshqa sohalar qatori san‘at va madaniyat yo‘nalishida ham soha rivoji uchun bir qator qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 2-fevraldagagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanda rivojlantirish to‘grisida”gi Qaroriga muvofiq olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlarini ko‘rsatish darajasini oshirish, Pespublikaning barcha hududlarida teatr, sirk томошалари va boshqa turdagи ommaviy madaniy konsert tomoshalarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, talim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatini shakllantirish, yosh iste‘dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator chora tadbirlar amalga oshirish belgilangan.

Xususan, umumiy o‘ta ta’lim muassalarida o‘quvchilarga mazkur qarorning 1-ilovasidagi ro‘yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida ijro eta olish ko‘nikmalarini shakllantirish va bu haqida shahodatnomaga tegishli qayd kiritilishi ko‘zda tutilgan. Musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soatida hamda unga qo‘srimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish bo‘yicha to‘garaklar va fakultativ darslar o‘tkazilishi re‘jalashtirilmoqda. Ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlashda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining tegishli ta’lim yo‘nalishlari va kafedralarda amaliy yordamni tashkil etish imkoniyati mavjud. Masalan, institut rahbariyati tomonida 10 kilometr radiusdagi maktablar qamrab olinib, maktablarga sig‘imi jihatdan 2 yoki 3 nafar yuqori kurs talabalarini yo‘nalishiga qarab biriktirish, bu orqali talabaning malakaviy bilim va ko‘nikmalari oshirish, doimiy ish joyi va moddiy jihatdan o‘zini ta‘minlashiga erishish mumkin.

Mazkur Qarorga asosan maktablarda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan musiqa fani o‘qituvchilari va to‘garak rahbarlari 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab Qarorning 1-ilovasida keltirilgan milliy cholg‘ularidan kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lishi majburiy norma sifatida belgilanmoqda. Bu jarayonga ham O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi” йўналишини bitiruvchi kurs talabalarini jalb etish mumkin. O‘quv re‘jasidagi bo‘yicha har semestrda talaba mutaxassislik cholg‘usidan tashqari yana bir qo‘chimcha cholg‘u ijrochiligini

o‘zlashtirishi lozim. Taklif sifatida hamma cholg‘uga emas, qiziqishga qarab maxsus cholg‘usidan tashqari 2 ta cholg‘ u tanlash va 4 yillik bakalavriat bosqichida ularni mukammal o‘rganishiga erishish kerak. Axir bitta cholg‘uning ustasi bo‘lish uchun ko‘p yillar kerak boladi. O‘qituvchi o‘quvchiga o‘rgatish uchun bilim manbai(bazasi) yetarli bo‘lishi kerak.

Qarorga ko‘ra Musiqa fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholg‘u” shiori ostida cholg‘ u ijrochiligi dars mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yiladi. O‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko‘ra milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish, tasviriy san‘at, hunarmandchilik yo‘nalishlarida amaliy togaraklar tashkil etish ham ko‘zda tutilgan. Ushbu bandga izoh tariqasida maktablarda togaraklarini tashkil etish va tom manoda dars xonasini musiqa jihozlari (electron doska va kamida 4 ta milliy cholg‘usi va fortepiano) bilan ta‘minlash talab etiladi.

Musiqa san‘ati boyicha professional ta‘lim xamda oliv talim to‘g‘risidagi xujjatga ega bo‘lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg‘ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutahassislarni asosiy ish joyidan bo‘sh vaqtda u yerdagi mehnatga xaq to‘lash shartlarini saqlab qolgan holda o‘rindoshlik asosida umumiyl o‘rta talim muassalari musiqa fani o‘qituvchisi va musiqa yo‘nalishi to‘garak rahbari lavozimiga to‘liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi. Bu yo‘l bilan bir tomondan, musiqa sohasida ta‘lim berish imkoniyatiga ega mutahassislar qo‘sishimcha ish bilan ta‘minlansa, ikkinchi tomondan malakali mutahassislar maktabdagi ta‘lim jarayoniga jalg‘ etilishi natijasida ta‘lim sifati ortadi. Buning yana bir quvonchli tomoni shuki, professional musiqiy ta‘lim yo‘nalishini bitirgan bakalavrular faqat bolalar musiqa san‘at mакtablariga yoki san‘at kollejlarida dars berish xuquqiga ega bo‘lgan bo‘lsa, kelajakda ular umumta‘lim mакtablarida ham qo‘sishimcha ravishda ishslash xuquqini qo‘lga kiritadi. Professional ta‘lim tizimida bakalavriat 1 2 3 kurslarni amaliyotini umumta‘lim mакtablarida ham o‘tishi faqatgina bitiruvchi 4 kurs bundan istisno. O‘quv yili mobaynida yuqorida izohda keltirilgani qamrab olingan mакtablar bilan hamkorlik qilgan holda o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini institut hududida to‘garaklar ochgan holda band qilish, bu bilan bevosita institutning mutahassislik xonalarida (cholg‘ular yetarli xolatda) dars o‘tish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Prezidentning qarorining ijrosini ta‘minlashda bir qator muamolarga duch kelish mumkin. Xozirda umumta‘lim mакtablarida ancha yillardan buyon o‘z yechimini topmagan **kadrlar** masalasi turibdi. Ushbu muamoni yechishda proffesional musiqiy ta‘lim yo‘nalishi ko‘paytirish institut sig‘imini inobatga olgan xolda qabul sonlarini oshirish, sirtqi va kechki ta‘lim yo‘nalishlarini ko‘paytirish va bakalavriat talabalarning salohiyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Yana bir e‘tobrli jihatni umumta‘lim mакtablarini milliy cholg‘ular bilan ta‘minlash masalasi turibdi. Hozirgi vaqtida

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyiliginini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

Respublikamizda 9 mingdan oshiq maktablar mavjud. Ularni hech bo‘lmaganda 3 tadan cholg‘u asbobi bilan ta’minlanganda 27 mingdan oshiq milliy cholg‘ular kerak bo‘ladi. Bunday katta hajimdagi moddiy ba’zani ta’minlash uchun milliy cholg‘u ishlab chiqaradigan fabrika zarur va albatta maktab darsliklariga qarab dasr amalliyotini o‘tish uchun o‘quv qo‘llanmalar materiallar zarur. Har bir muamoga sinchklab qarasak muamollar asta sekin o‘z yechimini topa boshlaydi. Boshlang‘ich ta’limda musiqamimg o‘rniga alohida e‘tibor qaratsak o‘sib kelayotgan yosh avlodda milliy kuy qo‘shiqlarga mehr paydo bo‘ladi, shu jumladan xalqimizning milliy kuy qo‘shiqlarga oldingiday mehr-muhabbati qaytadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 02-fevraldagisi PQ-112 sonli qarori. (03.02.2022) www.lex.uz
2. O‘rozali Toshmatov - Cholg‘ushunoslik; Toshkent-2004
3. O‘rozali Toshmatov, Sobirjon Turatov - Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi; Toshkent-2016
4. Feruza hakimova - Xalq cholg‘ularini o‘rganish; Toshkent-2022

CHOLG'U IJROCHILIGIDA MUSIQIY TA'LIM UZVIYLIGINI TA'MINLASH MASALALARI VA YECHIMLARI

Mohinabonu Asqarova

“Kino, televide niye va radio san'ati” fakulteti Professional ta'limga xalq ijodiyoti cholg'u ijrochiligi ta'limga yo'naliishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash ko'zlanayotgan maqsadimizdir.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning ta'limga tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu imkoniyatlardan foydalanib aynan hozir kerakli bilm-ko'nikmalarni o'zimizda hosil qila olishimiz hamda kelajagda vatan ravnaqiga foyda keltiruvchi inson bo'lib shakllanishimiz o'zimizning qo'limizda!

“Hozirgi vaqtida oldimizda naqadar ulkan vazifalar turganini barchamiz yaxshi tushunamiz. Biz Vatanimizning buyuk kelajagini birgalikda barpo qilamiz, ko'zlangan maqsadlarimizga albatta erishamiz!”

Sh.Mirziyoyev

Barchamizga ma'lumki poytaxtimiz Toshkent shahrida deyarli barcha sohada faoliyat olib boruvchi, oily o'quv dargohlari mavjud. Ular orasida O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti o'zining alohida o'rniga ega. Hozirgi kunda bizning oliydargohda 4 ta fakultet bo'yicha talabalar o'z qiziqqan yo'naliislari asosida ta'limga oladilar.

- 1.Teatr san'at
- 2.Kino televide niye va radio san'ati
- 3.Kutubxona va axborot faoliyati
- 4.Xalq ijodiyoti

Bugungi kunda har bir fakultetlar ish faoliyatini a'llo darajada olib bormoqda desak mubolaga' bo'lmaydi. Jumladan bizning “Kino, televide niye va radio san'ati” fakultetida ish olib borayotgan har bir ustoz va muallimlar o'z ishlariga sadoqat va

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyiliginini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

ma’siliyat bilan yondashib, talabalarga ta’lim berib kelishmoqda. Shu jumladan, “Cholg‘u ijrochiligi” yo’nalishi ustozlari ham. Shu kungacha bizning ustozlar qo’lidan qanchadan-qancha san’at darg’alari, xalq xizmatidagi san’atkorlar uchirma bo’lishgan. Bizning yo’nalishda hozirgi kunda ko’p yillik tajribaga ega bo’lgan mahoratli ustozlar ta’lim berib kelishmoqda. Xikmat Rajabov, O’rozali Toshmatov, Dilmurod Islomov, Komiljon Shermatov, Yusuf Voxidov, Xurshid Beknazarov, Feruza Hakimova kabi ustozlarimiz bunga yaqqol misol bo’ladi. Ushbu ustozlarning qo’llarida ta’lim olish albatta biz uchun faxrdir. Bugungi kunda kafedramiz qoshida “Talabalar orkestri” tashkil etilgan bo’lib, unga dotsent Xikmat Rajabov boshchilik qilib kelmoqda.



Dars jarayonida orkestr ko’plab O’zbek hamda jahon xalqlari asarlarini ijro etishadi. M.Leviyev “Vals”-Mahallada duv-duv gap, D.Zokirov “Ko’rmadim”, F.Alimov “Zebomisan yo”, X.Rajabov “Guli bodom”, X.Rajabov “Naqshi noz”, F.Alimov “Kansert”, O’zbek xalq kuylari “Alla”, “Buxorcha”, “Dildor”, “Xorazmcha”, Xachaturyan “Vals”, Bethoven “Virus”, A.Ismoilov “Oh kim ishq”, D.Zokirov “Ey sabo”, A.Nazarov “Taronalar bazmi” kabi ko’plab asarlar shular jumlasidandir.

Institutda qanday tadbir bo’lib o’tishidan qat’iy nazar orkestr jamoasi o’z chiqishlari bilan kansert dasturlaridan alohida o’rin egallaydi. Shu bilan birga “Talabalar orkestri” shu kungacha bir necha marotaba yakka kansert dasturlarini ham tomoshabinlarga havola etishgan. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad, tomoshabinlarni madaniy, estetik hordiq bilan ta’minlashdan iboratdir.



Musiqa bu qalb taskinidir. Agarda u jonli tarzda ijro etilgan musiqa bo’lsa shak-shubhasiz tinglovchini hayollar og’ushiga yetaklaydi. Ijro etilgan milliy asarlarimiz esa milliyligimizni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuni aytib o’tish joizki 2021-yil tashkil etilgan “Mahallada duv-duv gap” loyihasida ustozlar hamda ular boshchiligidagi talabalarimiz “Orkestr”, “Ansambl” ijrosida hamda yakka ijrochi ko’rinishida faol ishtirok etdilar.

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyiliginini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

Shuni alohida ta’kidlab o’tish joizki kafedramiz o’qituvchi va talabalari turli xil xalqaro festival, ko’rik tanlovlarda ishtirok etib kelishadi. Uzoqqa bormaylik, yaqindagina ya’ni 2021-yil 14-15-dekabr kunlari Qozog’iston Respublikasining Kostanay shahrida o’tkazilgan “Turki alemi” Xalqaro xalq cholg’ulari orkestr va ansamblari festivalida kafedramiz o’qituvchi hamda talabalaridan tuzilgan ansambl yurtimiz nomidan ishtirok etib, o’zbek milliy san’atini namoyish etib kelishdi. Bundan tashqari 2021-yil 24-26-noyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Qozon shahrida o’tkazilgan Xalqaro yoshlar musiqa festivalida kafedramizning ikki nafar namunali talabalari: Sardorbek Rashidov hamda Xolmirzayeva Niginalar ishtirok etib, o’z san’atlarini namoyish qilishdi!

Shu kungacha orkestr jamoasi bir qancha ijodiy safarlar uyushtirib kelmoqdalar. Bunga misol qilib yaqindagina Sirdaryo viloyatidagi 1-sonli BMSM ga tashrifni aytib o’tishimiz mumkin.



Ushbu tashrifdan maqsad, o’zaro hamkorlikni yo’lga qo’yish, hamda musiqa maktabida ta’lim olayotgan jazzi bolajonlarda ko’nikma va malakalar hosil qilishdan iboratdir. Shu bilan bir qatorda musiqa maktabida yetuk va malakali ustozlarimiz tomonidan mahorat darslari ham olib borildi.



Darhaqiqat ushbu maqolam musiqa hamda cholg‘u ijrochiligi san’atining bir bo’lagi orkestr to’g’risida bo’lar ekan, avvalambor ushbu maqolani o’qiydigan, xalq cholg‘ulari orkestri haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lmagan mushtariylar uchun ozgina ma’lumot berib o’tmoqchiman. Orkestr o’zi nima?

Orkestr- yunoncha so’zdan olingen bo’lib, orchestra-yunon teatrinda sahnaning old maydonchasi degan ma’noni bildiradi. Orkestr bu turli cholg‘u asboblarini ijro etuvchi sozandalardan tuzilgan hamda sarlarni birligida jamoaviy tarzda ijro etuvchi sozandalar jamoasidir. Orkestr ansamblidan drijiyor tomonidan boshqarilishi va ba’zi partiyalar yakka sozlarda emas, balki sozandalar guruhi tomonidan ijro etilishi bilan farqlanadi. Sozlarning turlari va tuzilishiga ko’ra, orkestrlar simfonik orkestr, xalq cholg‘u asboblari orkestri, kamer orkestri, puflamalar orkestri, torli cholg‘ular orkestri, Estrada orkestri, jaz orkestri va boshqa turlarga bo’linadi. O’zbekistonda orkestrlarning deyarli barcha turlari mavjud. Bizning Cholg‘u ijrochiligi kafedrasi qoshida tuzilgan Xalq cholg‘ulari talabalar orkestri mavjud. Agar musiqa, ijod, ijodkorlik orkestrlarning har bir turi haqida so’z olib boradigan bo’lsam tabiiyki siyohdon siyohlari ham ozlik qiladi. Shuning uchun hozir xalq cholg‘ulari orkestri haqida qisqacha ma’lumot berib o’tmoqchiman.

Musiqa sohasidan xabari yo’q soha vakillari hayolida, xalq cholg‘ulari orkestri o’zi nima u qanday tuziladi degan savol tug’ilishi tabiiy hol. Demak xalq cholg‘ulari orkestri o’zi nima, u qanday tashkil etiladi?

Xalq cholg‘ulari orkestri- orkestr turi; ko’p ovozli musiqa asarlarini ijro etish uchun moslashtirib qayta ishlangan milliy sozlardan iborat. Turli cholg‘ular guruhidan tashkil topishi mumkin. Turli xalqlarda keng tarqalgan milliy chol’gu ansambllar tarkibida oiladosh cholg‘ular guruxlarining mavjudligi, garmoniya va polifoniya uslubidagi asarlarning muayyan kuy yo’llarini ijro etish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

O’zbekistonda birinchi Xalq cholg‘ulari orkestri 1937-yilda N.Mironov tashkil etgan “Nota orkestri” dir. Mazkuz jamoa O’zbek davlat filarmoniyasining ashula va raqs Katta ansambl sozandalardan qaror topdi. Tarkibi ananaviy xalq cholg‘ulari,

fortepiano, truba, trombonda iborat bo’lib, repertuaridan qayta ishlangan “Qarinavo”, “Segoh” kabi o’zbek mumtoz kuylari hamda chet el kompozitorlarining ommabop musiqa namunalari o’rin olgan. 1938-yilda O’zbek davlat filarmoniyasi qoshida O’zbek xalq cholg’ulari orkestri tashkil topdi. Asoschisi- A.Petrosyans. Mazkur jamoa tarkibibiga dasatlab, an’anaviy , so’ngra qayta ishlangan hamda yangitdan yaratilgan sozlar kiritilgan. Repertuaridan: M.Buruxonov, S.Aliyev, S.Gabrielyan, B.Giyenko va boshqa tomonidan qayta ishlangan o’zbek xalq kuylari, O’zbekiston kompozitorlari yozgan uvertyura, rapsodiya, poema, konserv va simfoniya kabi yirik shakldagi asarlar hamda chet el mualliflarining ommabop musiqa asarlari o’rin olgan.

1957-yil o’zbekiston radiosи qoshida Xalq cholg’ulari orkestri tashkil etildi. Asoschisi, birinchi badiiy rahbari va bosh driyori-D.Zokirov . Ijro uslubida ko’p ovozli musiqa tamoyillari bilan milliy musiqa an’analari uyg’unlashgan. Orkestr tarkibida sozanda sifatida faoliyat ko’rsatgan bastakorlar: M.Mirzayev, F.Toshmatov, K.Jabborov, S.Kolonov, X.Jo’rayev va boshqalar orkestr uchun ko’pgina asarlar yaratishgan. Repertuaridan, D.Zokirov, T.Jalilov, S.Yudakov, S.Hayitboyev, M.Bafayev va boshqa o’zbek kompozitrolari asarlari asosiy o’rin olgan.

Va nihoyat 1991-yil “So’g’diyona” o’zbek xalq cholg’ulari kamer orkestri tashkil topdi. Asoschisi –O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist, professor Feruza Abduraximova. Repertuaridan qayta ishlangan o’zbek kuylari hamda zamonaviy o’zbek kompozitorlari asarlari o’rin olgan. Mazkur jamoa chet el mamlakatlari, masalan; AQSH,Ispaniya, va boshqa ko’plab davlatlarda gastrol safarlarida bo’lgan.

Modomiki orkestr xaqida gap borar ekan, driyor haqida ham to’xtalib o’tishimiz darkor.

Driyor-fransuz tilidan olingen bo’lib, driger-yo’naltirish, boshqarish, rahbarlik qilish degan ma’noni bildiradi.

Driyorlik- musiqa ijrochiligi san’atining murakkab turi, musiqa asarini ijroga tayyorlash jarayonida hamda bevosita tinglovchi- tomoshabinlar oldida ijrochilar , masalan, orkestr, xor, ansambl, opera, balet jamoalari va boshqalarga rahbarlik qilish. O’zbekistonda ilk driyorlar orasidan F.L.Leysek, N.Mironov, V.Uspenskiy ba boshqalar bo’lgan. O’zbek davlat filarmoniyasi, Navoiy nomidagi opera va balet teatri, Muqimiy nomidagi o’zbek musiqali drama teatrida simfonik orkestrlari tashkil etilgach, N.Olimov,A.Kozlovskiy, M.Ashrafiy, B.Inoyatov, M.Nasimov, T.Sodiqov, F.Shamsutdinov, A. Abduqayumov, D.Abdurahmonova, Z.Haqnazarov, G’.To’laganov, N.Xalilov, H.Shamsutdinov, B.Rasulov va boshqa driyorlar yetishib chiqdi.

Bugungi kunda bizning oliydargohda ham shunday xalq cholg’ulari orkestri tashkil etilgan.

Darhaqiqat, bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonda har bir soxaning o'z kamchiligi bor. Axir aytishadilarku ish bor joyda kamchilik bo'ladi. Bizning oliygoh har tomonlama talablarga javob beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Lekin, shuni aytib o'tishim kerakki ayrim soxamizga bog'liq ayrim kemtikliklarni aytib o'tmasdan iloj yo'q. Chunki bu kamchiliklar ta'lim olayotgan talabalarning kelajakdagi faoliyatiga hamda yaxshi pedagog bo'lib yetishishiga o'zining yaxshigina ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shuningdek O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti "Kino, televideniye va radio san'ati" fakulteti Xalq ijodiyoti: professional ta'lim cholg'u ijrochiligi yo'nalishida ham ayrim kamchiliklar mavjud deb aytib o'tmog'imiz darkor. Barchamizga ma'lumki, Cholg'u ijrochiligi kafedrasi qoshida "Talabalar orkestri" tashkil etilgan. Ushbu orkestr tuzilishidan ko'zlangan asosiy maqsad shundan iboratki, dars mobaynida talabalar yakka, mutaxassilik va guruhli darslarda olgan bilimlaridan tashqari milliy, jahon, klassik, estrada, maqom va boshqa turdag'i ko'plab asarlarni ijro etishadi hamda bilmagan narsalarini o'rganishadi. Shuningdek talabalar o'zлari ijro etadigan cholg'u asboblarining ijro etilishi, tuzilishi, va aynan qaysi asbob qanday kuylarda ijro etilishi haqida bilib olishlari mumkin. Lekin afsus bilan shuni aytib o'tamanki, bugunki kunda orkestr jamoamiz to'liq tarkibda bo'lsada, biroq ayrim cholg'u asboblarini yetishmasligi ijod jarayonimizga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayabdi.

Misol qilib aytadigan bo'lsam, biron bir asarni ijro etmoqchi bo'lsak, u asar talab darajasida chiqishi uchun bizga qaysidir cholg'u yetishmay turadi. Albatta bu kemtiklik ijod qilayotgan ijodkorning ishiga va asarning to'liq shakllanishiga o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ayni damda biz uchun asosan urma zarbli cholg'u asboblar turiga kiruvchi; litavra, dovul, nog'ora, ksilafon kabi orkestr ijrosida o'z ovozi bilan alohida o'rinni oladigan cholg'u asboblari yetishmaydi. Ushbu cholg'ularning yo'qligi nafaqat orkestr uchun, balki yakka dars mashg'ulotlari olib borilishi uchun ham zarur deb o'ylayman. Axir Oliy ta'limga qadam qo'ygan har bir talaba bitirar chog'ida professional pedagog bo'lib yetishib chiqmog'i lozim.

Murojaat o'rnida Madaniyat hamda Oliy ta'lim vazirligi bu masalaga ijobiy yondashib, ko'rib chiqishlarini iltimos qilib qolamiz.

Oliygohimizning yuqorida keltirib o'tilgan kerakli cholg'u asboblari bilan ta'minlanishi albatta o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

REFERENCES

1. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birlgilikda barpo etamiz." O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev
- 2.B.Abdumannon "Xalq cholg'u asboblarining shakllanishi"
- 3.Internet sayti: www.Ziyouz.com

MUSIQIY TA’LIMDA DUTOR BAS IJROCHILIGINI O’RGATISH MASALALARI

Panjiyev Umidjon

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Professional ta’lim: Xalq ijodiyoti
(cholg‘u ijrochiligi) ta’lim yo‘nalishi
1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi o,qituvchisi Qudratilla Qobilqoriyev

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dutor bas cholg‘usi va undagi ijrochilikda uchrayotgan muammolar o,rganilib, ularni bartaraf etish bo,yicha takliflar berib o,tilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa cholg‘ulari, dutor bas, diatonik, xromatik, rekonstruksiya, cholg‘ular tuzilishi, o,quv adabiyotlari.

ABSTRACT

This article discusses the problems of the dutar bass and its performance, also suggests ways to solve them.

Keywords: musical instruments, dutar bass, diatonic, chromatic, reconstruction, structure musical instruments, educational literature.

“O‘zbek xalq cholg‘ulari xilma-xil bo‘lib, xalqimiz tomonidan ardoqlab kelinadi. Ular damli, urma torli, mezrobli, zarbli, kamonli cholg‘ulardir”.

O‘zbek milliy cholg‘ulari asosan diatonik tovushqatorda bo,lib, unda kompozitorlar, jahon xalqlarining musiqiy asarlarini ijro etish imkoniyatini oshirish maqsadida rekonstruksiya qilish masalasi ilgari surildi. Undan asosiy maqsad tovush (ohang) xususiyatlarini yaxshilash, cholg‘ularda yangi texnik imkoniyatlar yaratish, (tovush tusi) nozikliklariga erishgach, 12 bosqichli ravon sur’atlarga bo,lingan xromatik tuzilmalarni joriy etish, tovush qatorlarni kengaytirishdir.

O‘zbek xalq cholg‘ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish, ularni yevropa tovush qatori tizimiga o,tkazish ustida A.I.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh ustalar V.V.Andreyevning tajriba va ijodiy yutuqlariga tayanib ish olib borishdi. Usta Usmon Zufarov ko,plab dutor va tanbur, g,ijjaklarning turdosh oilalarini yaratgan bo,lsa Matyusuf Xarratov changning yuqori registrini qo,shimcha torlar va xaraklar hisobiga kengaytirdi. Yunus Rajabiy Usta Usmon Zufarov bilan hamkorlikda dutor-bas, g,ijjak-bas, g,ijjak-alt, namunalarini yaratdilar. Cholg‘ularni takomillashtirish natijada xalq cholg‘ularimiz diatonik tovushqatordan xromatik tavush qatorga o,tkazildi.

Buning natijasida:

chang cholg,usi asosida chang-pikkolo, chang-prima, chang-tenor, bas chang; qashqar rubobi asosida prima rubob, rubob-metssosoprano, rubob-alt, afg, on rubobi; dutor cholg,usi asosida dutor-prima, dutor-sekunda, dutor-alt, dutor-tenor, dutor-bas, dutor-kontrabas; g,ijjak cholg,usi asosida g,ijjak-alt, g,ijjak-bas, g,ijjak-kontrabaslar yaratildi.

Yangi musiqa cholg,ulari avvaliga A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida tashkil qilingan o,quv cholg,u orkestr sinfida sinaldi. Keyinchalik O,zbekiston Davlat filarmoniyasi orkestrida cholg,ularni rekonstruksiya qilish tajribaxona vazifasini o,tadi.

O‘zbek dutorini takomillashtirish natijasida uning yangi turlaridan biri dutor bas cholg,usi bunyodga keldi.



DUTOR BAS – dutorning kattalashtirilib ishlangan turi bo,lib, mezrob yordamida ijro qilinadi. “Mazkur cholg,u kosadan, pardali dastadan va burama quloqli bosh qismdan iboratdir. Kosa bo‘lak-bo‘lak yupqa yog‘och qovurg‘alar birikmasidan hosil bo‘lgan. Kosaning ustki yassi tomoniga rezanator teshikchali ovoz o‘tkazuvchan yog‘och qopqoq ustidan “qalqon” deb nomlangan yog‘och qatlami yopishtirilgan. Yog‘och qopqoq ustida pardalar uzra torlarni ma’lum balandlikda saqlab turuvchi xarrak qo‘yilib, u ishchi torlarning quyi chegarasi hisoblanadi va torlarning to‘lqinlanishini ta’minlaydi”. [1.B.6]

“Dutor basning to,rtta tori bo,lib, birinchi tori kichik oktavaning “lya” tovushiga, ikkinchi tori kichik oktavaning “re” tovushiga, uchinchi tori katta oktavaning “sol” tovushiga, to,rtinchi tori katta oktavaning “do” tovushiga sof kvinta oralig,ida sozlanadi. *Lya* tori ichak yoki kaprondan qilingan bo,lib, qolganlari metaldandir.

I	II	III	IV
lya kichik oktava	re kichik oktava	sol katta oktava	do katta oktava

Dutor-basda xilma-xil interval, uchtovushlik va to,rttovushlikakkordlarini qiyinchiliksiz ijro etish mumkin. Uning ijro usullari – tremolo, stakkato, shuningdek, bosh barmoq bilan chalinadigan pitssikato. Orkestr va ansambl tarkibida dutor-bas, asosan, pastki registr tovoshlarini ijro qilib kelmoqda ”.

Dutor bas torlarining yo‘g‘onligi:

Asosi O‘rami


Birinchi tor (ichak yoki kapron) 1,2 mm

Ikkinci tori 0,40 mm 0,40 mm.

Uchinchi tori 0,50 mm 0,40 mm.

To‘rtinchi tori 0,50 mm 0,70 mm.

Dutor basning diapazoni katta oktavaning “do” tovushidan ikkinchi oktavaning “lya” tovushigacha.



Dutor bas cholg‘usining partiyasi partiturada dutordan keyingi, bas (fa) kalitida yoziladi.

Dutor bas cholg‘usi uchun o‘quv-pedagogik va badiiy material qilib, asosan, violonchel uchun yozilgan pyesalar foydalanilmoqda. Cholg‘uning tuzilishi va sozlanishidagi jarangdorlik va ijrochilik imkoniyatlaridagi ba’zi bir o‘xshashliklar bu repertuarning dutor basga ham ortiqcha qiyinchiliksiz moslashtirishga imkon yaratadi.

Dutor bas cholg‘usi xalq cholg‘ulari orkestri va ansamblarida qo’shimcha ovoz, garmoniya vazifalarini bajarib kelmoqda. Ammo dutor bas cholg‘usining kamchiliklari ham yo,q emas.

Fikrimcha dutor bas cholg‘usini musiqa muktab o‘quvchilariga moslab kichikroq ko‘rinishda va simlarini ham ularga moslab takomillashtirish lozim. Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish dutor bas cholg‘usining yanada ommalashuviga sabab bo,ladi. Shu bilan birgalikda muktab o‘quvchilarini uchun anchagina qulaylik yaratiladi hamda ularning ijolariga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Yana bir muammolardan biri bu dutor bas cholg‘usining mutaxassislari kamlidir. Kuzatuvlarim natijasida guvohi bo,ldimki, ba’zi musiqiy ta’lim muassasalarida dutor bas cholg‘usi mutaxassislari yetishmasligi sababli boshqa cholg,ui mutaxassislari mazkur cholg,udan saboq berib kelmoqdalar. Bu holat bo,la jajak dutor bas ijrochilari saviyasiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Ushbu yo,nalishida uchrayotgan yana bir dolzarb masalalardan biri dutor bas cholg‘usi haqidagi o,quv adabiyotlari hamda mazkur cholg‘us uchun mo,ljallab yozilgan musiqiy asarlarning yetishmasligidir. Hozirda guvohi bo‘layotganimizdek musiqa maktablarida ijro qilingan asarlarni kollejlarda ham ijro qilinishi, kollejda ijro qilingan

asarlar esa oliv o‘quv yurtlarida ham ijro qilinmoqda. Bu ham hal etilishi kerak bo, ligan muammolardan biridir.

Yuqoridagi kamchilik va muammolarni bartaraf etgan holda dutor bas cholg, usini yanada ommalashtirish va undagi ijrochilikni takomillashtirish mumkin.

REFERENCES

1. Nazarov A. “Bas dutor darsligi” Toshkent: “O,qituvchi” nashriyoti, 1983-yil.
2. Toshmatov O,, Beknazarov X. “Cholg,ushunoslik” (darslik), Toshkent: “TURON-IQBOL” nashriyoti, 2018-yil.
3. Turapov Z. “Dutor bas”, Toshkent: 2004-yil.
4. Turatov S. “Xalq cholg,ularini o,rganish” Toshkent: 2015-yil.
5. Xakimova F. Maxsus cholg,u Toshkent: “Navro,z nashriyoti”, 2019-yil.
6. Yusupov Sh, Rahimov Sh “Cholg,u ijrochiligi” Toshkent: “Musiqa” nashriyoti 2011-yil.

SINF VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQA TARBIYASI TIZIMI

Kozimjonova Moxigul

O‘zbekiston davlat konservatoriysi

“Cholg‘u ijrochiligi” fakulteti 1-bosqich talabasi

moxigulkozimjonova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Darslardan tashqari o‘quvchilarni musiqa mashg‘ulotlariga jalb qilishdan maqsad, ularning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishlarini ta‘minlashdan iboratdir. Havaskor sozanda bo‘lsa ham o‘zi uchun qaysidir cholg‘uni o‘rganib qo‘ysa foydadan xoli bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar: musiqa, tarbiya, estetika, musiqa qiziqish, to‘garaklar, tadbir, ansambl, orkestr.

АННОТАЦИЯ

Целью привлечение учащихся к урокам музыки во внеурочное того чтобы они продуктивно провидили свободное время. Даже если вы музыкант-любитель вам будет полезно научиться самостоятельно играть на нелюбимых инструментах.

Ключевые слова: музыка, образования, эстетика, музыкальный интерес, кружки, мероприятие, ансамбль, оркестр.

ABSTRACT

The purpose of engaging students in music lessons outside of classic is to ensure that they spend their free time productively. Even if you are an amateur musician, it will be useful for you to learn some instruments for yourself.

Keywords: music, education, aesthetics, music interest, clubs, event, ensemble, orchestra.

Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi o‘quvchilarni iloji boricha ko‘proq ommaviy va to‘garak ishlariga jalb etib, ularni dunyoqarashini har tomonlama o‘stirish, tabiatda, Ona vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshirishdir. Mazkur darslardan tashqari , ommaviy va to‘garak ishlarini olib boriladi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikki shakli mavjud, jumladan:

- 1.Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli
- 2.Musiqa tarbiyasining to‘garak shakli

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy o‘quvini tekshiruvidan o‘tkazmay, yalpi tarzda jalg etishni taqozo etadi. Bu ijodiy uchrashuvlar, teatr va konsertlarga sayohat, qo‘sish bayramlari, "Musiqa haftaligi", "O‘zbekiston vatanim manim", "Ilhom chashmasi" ko‘rik-tanlovlardan, bastakorlar bilan uchrashuvlar, "zoom" platformasi orqali online chet ellik musiqa namoyondalari bilan uchrashuvlar tashkil etish kiradi. Bularning har biriga bolalarni yoshi, qiziqishiga qarab, oldindan tayyorlab borilishi kerak. Bu tadbirlarni har birini yuksak did bilan badiiy-musiqiy bayram ruhini kasb etishi lozim.

Musiqa madaniyati o‘qituvchisining ommaviy ishlar rejasи, mакtab ma’muriyati tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Ommaviy, musiqiy ishlar rejasи, musiqa o‘qituvchisi va mакtab ma’naviy-ma’rifiy ishlar mudiri bilan hamkorlikda, o‘quvchilarining yoshiga, qiziqishiga qarab, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarni xisobga olgan xolda tuziladi. Bunda o‘quvchilarining musiqiy o‘quvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqiy mashg‘ulotlarning har biri aniq ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirilmog‘i lozim. Bunda har bir mashg‘ulot turiga qarab, uni asosiy maqsadi, xususiyati, repertuar mazmuni, mакtab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar xisobga olinib, o‘quvchilarni jalg etiladi. To‘garak ishlarini esa, ish rejasini musiqa o‘qituvchising o‘zi, o‘z xohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O‘qituvchi to‘garak ishlariga o‘quvchilarni musiqiy qobiliyati, xohish-istagi, qiziqishi, ovoziga qarab tanlab oladi va turli to‘garaklar tuzadi. Haftasiga 2-3 bor to‘garakni guruhlarga bo‘lib ishlaydi.

To‘garak ishlarining asosi musiqa darsidir. To‘garak ishlariga qobiliyatli, qiziquvchan, musiqa darslarida aktiv qatnashadigan o‘quvchilar tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati, qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqa to‘garagiga jalg etiladi. To‘garak faoliyati faollashtiradigan narsa - bu mакtab sahnasidir. O‘quvchilar tadbirlarda, qo‘sishlar, raqslar ijro etib, mакtab jamoasi oldida e’tibor qozonib, tuman, shahar, Respublika ko‘rik-tanlovlarida qatnashadilar. Bu ularni o‘z mehnatidan zavqlanishi xis-tuyg‘ularini Ona-vatanga muhabbat, musiqa san’atiga hurmat, do‘stlari orasida mehr-muhabbat tuyg‘usini oshirib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o‘qituvchi o‘z imkoniyatlariga qarab turli to‘garaklar tuzish mumkin:

1. Xor
2. Ashula va raqs ansamblari
3. Vokal ansamblari
4. Cholg‘ular ansamбли (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar, changchilar)
5. Raqs ansamбли
6. Orkestrlar (damli cholg‘ular, xalq cholg‘ulari orkestri,)
7. Yakkaxon qo‘sishlar

8. An'anaviy xonandalik

Maktabdan tashqari musiqiy tarbiya shakliga bolalar musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, bolalar teatrlari, muzeylar kiradi. Mazkur muassasalarga qatnashadigan bolalar ham o‘qituvchi nazoratida bo‘lib, maktab hayotiga, ularning faol qatnashuvlarini ta’min etishi lozim. Maktab hayotida boshlang‘ich sinf musiqa o‘qituvchisining o‘rni beqiyosdir. Musiqa darslaridan tashqari, zamon talabiga mos ravishda tadbirlar tayyorlab, o‘quvchilarga san’atga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. L. Qo‘ldoshev “Maktabda xor to‘garagi” T. 1975.
2. O. Fayziyev va boshqalar. “O‘zbekiston maktablarida nafosat tarbiyasini tashkil etish bo‘yicha metodik qo‘llanma” T. 1992.
3. N. Norxo’jayev “Qo‘schiqlar to‘plami”. T. 1996.

STUDY OF MUSIC TERMS IN COMPILING A DICTIONARY

Aripova Gulnoza Tulkunovna

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Teacher of the Department of World Languages and Literature

E-mail: aripova-gulnoza@mail.ru

ABSTRACT

This article describes the work of compiling a dictionary. Before compiling a dictionary, it is necessary to study the history of the development of lexicography from the past to the present and the work of our scholars who have made a significant contribution to lexicography. Eastern thinkers made a great contribution to the development of lexicography. Of course, the names of such great men will be honored forever

Keywords: national musical instruments, dictionary, lexicography, oriental scholars, works, dutar.

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада лугат тузиш иши ҳақида сўз юритилади. Лугат тузишдан аввал лексикографиянинг ўтмишдан то ҳозиргача ривожланиб келиш тарихини ва лугатшуносликка катта ҳисса қўшган алломаларимизнинг ишларини ўрганиб чиқиш даркор. Шарқ мутафаккирлари лексикографиянинг ривожланишига катта ҳисса қўшган. Албатта, бундай буюкларнинг номи абадий хурматда бўлади.

Калит сўзлар: миллий мусиқа чолғулар, лугат, лексикография, шарқ алломалари, асар, дутор.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается работа по составлению словаря. Перед составлением словаря необходимо изучить историю развития лексикографии от прошлого до настоящего и работы наших ученых, внесших значительный вклад в лексикографию. Восточные мыслители внесли большой вклад в развитие лексикографии. Конечно, имена таких великих людей будут чтиться вечно.

Ключевые слова: национальные музыкальные инструменты, словарь, лексикография, мыслители востока, произведение, дутор, чанг.

Musical instruments are the material and spiritual wealth of nations. Each nation has its own national heritage, traditions that have emerged over the years through national melodies, and appropriate musical instruments created by the national spirituality of the people. It should be noted that the world of Uzbek musical instruments is spiritually and materially rich and diverse. In addition, if spirituality of a nation is higher, its history and corresponding heritage is greater.

Indeed, our ancestors and our people, have left us a rich cultural heritage for centuries. Over the centuries, in different oases of the republic, depending on the lifestyle, living conditions, climate, colorful folk songs have been created, musical instruments have appeared. Studying and applying them to life, passing them on to the next generation is one of the urgent tasks for us.

The vocabulary of any language which compiled by people whether historical or modern reflected in the colorful dictionaries. Today, the level of development and perfection of a particular linguistics is measured by the type, quantity and quality of dictionaries created in the same language. As the vocabulary of a language is constantly evolving, new words enter it, and some words become obsolete. The study and analysis of the scientific aspects of such a situation requires great perseverance from linguists. The lexicography department of linguistics is the science that studies these words.

Lexicography [Greek] dictionary theory and dictionary work; lexicography [Ўзбек тилининг изоҳли луғати 1981:430].

We know how difficult is to compile a dictionary. Therefore, before compiling a dictionary, it is compulsory to study the history of the development of lexicography from the past to the present and the work of our scholars who have made a significant contribution to lexicography. Eastern thinkers made a great contribution to the development of lexicography. Certainly, the names of such great people will be honored forever.

As an example I would like to mention the name of our ancestor Alisher Navoi. Alisher Navoi wrote his work on linguistics "Muhokamat ul-lug'atayn" in 905 AH and 1499 AD. The significance of this book, created by the great artist at the end of his life, is incomparable. The purpose of A. Navoi's writing "Muhokamatul-lug'atayn" is his great service in the history of Uzbek linguistics, the principles of Navoi's interpretation, the issues of comparative-typological study of languages belonging to different families. [Qosimjon Sodiqov2017:4]

A. Navoi's views on the origin of world languages are well covered in Muhokamatul-lug'atayn. Related to his thought, Allah has put a person on a higher position by his speech than all beings.

A. Navoi considers Turkish, Persian and Hindi as the oldest languages. They were distributed among the descendants of Noah's three sons, Japheth, Shem, and Ham [Qosimjon Sodiqov 2017:8-9].

Indeed, when we get acquainted with the work of A. Navoi "Muhokamat ul-lug'atayn", we can see that with this work the great artist opened the field of typological study of languages in world linguistics and their comparative study. According to scientists, if this work is still being studied and researched, it will be possible to work on many unexplored scientific innovations.

Another oriental scholar was our ancestor Mahmud Qashgari, who began writing the golden book of the Turkic peoples “Devonu lug'otit turk” almost 1,000 years ago and completed it after two years of hard work. This dictionary not only describes the words and their meanings, but also contains extensive information such as the history, customs and geographical location of the Turkic peoples. However, it is one of the first bilingual (Turkish-Arabic) dictionaries.

Related to reports, Mahmud Kashgari proved that the importance of the Turkic language is no less than the Arabic language. “Devoni lug'atit turk” is still a unique source in the study of the history of the Turkic peoples. The name of the great scientist, Turkish lexicographer, grammarian and dialectologist Mahmud Kashgari is valuable for all people interested in the history of the Turkic peoples.

Mahmud Zamahshari is also one of our scholars who made a great contribution to the development of lexicography. He studied the practical and theoretical aspects of lexicography with his work "Asos ul baloga" and a dictionary of four languages (Arabic, Persian, Uzbek, Mongolian) entitled "Muqaddimat ul-adab".

Uzbek national musical instruments have been developed since ancient times, so before compiling a dictionary of national musical instruments, we need to study the history of these musical instruments. As a result of research, we have witnessed that national musical instruments are also reflected in the works of oriental scholars.

We know that Uzbek national instruments have developed over the centuries. Famous poets in the past have also repeatedly mentioned musical instruments in their works. Among our scholars, Al-Farabi (IX century) in his book

"Katta musiqa kitobi", Safmddin Urmavi (XII century) in his musical treatise, Abdulkadir Maroghi (XIV century) in his treatise "Jami al-alhon fi-ilm al musiqiy", Zaynullobbiddin Husseini (15th century) in the pamphlet “Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy”, Darvesh Ali Changiy (XVII century) in his treatise "Musiqiy risola" gave information about musical instruments.

As we study the Eastern thinkers, we can see that their contribution to the art of national music as well as lexicography is incomparable.

However, Gulchekhra Ergasheva writes in her monograph that the history of musical words in the original documents and sources is covered only in short lines, on plates. Since there were no means of recording music at that time, there is no clear idea of the resonant characteristics of musical instruments of the past. Although the scientific treatises of music of medieval Eastern scholars on music, the works of art created by poets mention the names of musical instruments and the environment they create, there is very little information about the process of their creation and artistic possibilities [Gulchekhra Ergasheva 2012].

Thanks to the miniatures and poetry of the East in the XIV-XVII centuries, it is possible to get general information about all musical instruments that existed in the territory of Uzbekistan at that time.

During the IX-XI centuries the great scientists of Central Asia - Farobi, Ibn Sino, Al-Kharezmi developed a perfect music theory of their time. In those days, the science of music was accepted as an integral part of the science of mathematics. The works of great scholars provide valuable information about musical instruments.

Related to Fitrat's words, our literature is connected with East Islamic literature, as our music is connected with East Islamic music. Among our old tunes exist "rok" and "qator-sorang" tunes. "Rock" means "maqom" in Hindi. "Sorang" is one of the Indian instruments. This shows that our music is influenced by many ancient (not only Arabic-Iranian) and even Indian music [Fitrat, 1993: 5].

According to Hafiz Darvesh's words in Fitrat's book named "Uzbek classical music and its history", the following instruments were widely used in the Uzbek music world in his time: ud, qonun, tanbur, chang, nay, rubob, qubuz, gjijak, ishrat, kungura, setor, ruhafzo , surnay, balabon, nog'ora and doyra. This number is definitely a big proof for the richness of the music.

In Uzbek musicology, a number of scientific and practical studies have been conducted over the past hundred years on the study of national instruments. Likewise, a number of scientific articles and literatures based on the history and performance of an instrument have been published. The study of the history of national musical instruments will serve to further enrich our dictionary.

The results of the research led us to the conclusion that it is important to have a complete and detailed knowledge of the Uzbek national musical instruments, study carefully the given definitions by various scholars. Moreover, when compiling dictionaries in a certain field, firstly we have to study lexicography, the research of oriental thinkers and their researches. The most interesting thing is that our scholars have mastered not one, but several areas perfectly. That is why the works of our great scholars are still being studied. Also, in creating a bilingual dictionary of musical

terms in Uzbek and English, it is necessary to collect detailed information about each musical instrument, its history and work with experts in this instrument.

REFERENCES

1. Fitrat. O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. 1993.P.5
2. Rasulov J.K. O’zbek dutor ijrochiligi. T.: - 1997. P. 6
3. Семёнов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке дарвеша Али. Из-во АН Уз.Т.:1946г. – С. 89
4. O’zbek tilining izohli lug’ati. M.: 1981.P. 241.
5. Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. Alisher Navoiyning Muhokamatu-l-lug’atayn asari. – Т.: 2017.
6. Azatgul Tashmatova. Musuqiy cholg’ular muzeyi katalogi. Toshkent. 2006.
7. Botir Matyakubov. Xorazm musiqiy tarixchasi.-T.: 2014
8. Gulchehra Ergasheva. Chang cholg’usida ijrochilik san’ati/monografik ocherklar/Toshkent: Musiqa, 2012.

II SHO‘BA

AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV

AMALIY MASHG‘ULOTLARDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH

Xakimov Orifjon Boboramazonovich

Termiz davlat universiteti o’qituvchisi

orifjon526@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada amaliy mashg’ulotlarda mustaqil ta’limni tashkil etish bo’yicha talabalarga yo’l-yo’riqlar berilgan.

Kalit so’zlar: Amaliy mashg’ulot, mustaqil ta’lim, pomidoro usuli, kredit-modul.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлены рекомендации для учащихся о том, как организовать самостоятельное обучение с помощью практических занятий.

Ключевые слова: Практические занятия, самостоятельное изучение, метод помидоро, кредитный модуль.

ABSTRACT

This article provides guidance to students on how to organize independent learning through hands-on activities.

Keywords: Practical training, independent study, pomidoro method, credit module.

Barchaga yaxshi ma’lumki, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qaroriga asosan “Oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish to’g’risidagi nizom”ga asosan yurtimizdagи barcha oliy ta’im muassasalari kredit-modul asosida o’qitish tizimiga o’tkazilgan. Kredit-modul tizimi asosida o’qitishning asosini talabaning mustaqil ish mashg’ulotlarini to’g’ri tashkil qilish yotadi.

Mustaqil mashg’ulot sinfda o’tilgan darsning bevosita davomi bo’lib, ular bir-biri bilan bevosita bog’liq. Shu sababli mustaqil mashg’ulotning qay darajada samarali bo’lishi sinfda o’tilgan darsning mazmuniga bog’liq.

Talaba mutaxassislik fani o’qituvchisining ko’rsatma va fikrlariga ko’r-ko’rona ergashib bo’ysinishi emas, balki biror masala yuzasidan o’zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildira olishi kerak.

O’qituvchi rahbarligida o’tiladigan darsning ahamiyati katta. Talabaning mustaqil mashg’ulotiga sarf bo’layotgan vaqtini bekor o’tkazmasligini o’rganib borish kerak. Buning ushun talabaga mustaqil mashg’ulotni qanday tashkil qilish, nimalarga ko’proq e’tibor berish kerakligini tushuntirish lozim. Vaqtdan unumli foydalanish mustaqil ishslashning asosiy prinsiplaridan biri bo’lishi zarur. Asosiy prinsiplaridan yana biri mashg’ulotning muntazamligidir. Ijroni o’rgatishning dastlabki davridan boshlab talabada muntazam mustaqil ishslash ko’nikmasini hosil qilish zarur.[1.1.]

Odatda, muntazamlilikka erishish qiyin bo’lsa ham, bunday mashg’ulotlar astasekin odat tusiga kirib borishi maqsadga muvofiqdir. Ayrim talabalarning uyga berilgan vazifani tayyorlamaslik hollarini ham uchratamiz. Ko’p hollarda uy vazifasi tayyor emasligining sababi talabaning darsga bo’lgan yomon munosabati yoki dangasaligida emas, balki vazifani oxirigacha tushunib yetmasligi, musiqa asarini o’rganishga qanday yondashish kerakligini bilmasligidadir. Shu sababli mustaqil ishslash uchun berilayotgan vazifa o’quvchiga batafsil tushuntirilishi, talabaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirilishi lozim.

Ba’zi talabalar mustaqil mashg’ulot paytida berilgan musiqa asarini boshidan oxirigacha ko’p marotaba takrorlayveradilar. Bunda musiqa asarining ma’nosи va o’ziga xos xususiyatlari to’la va aniq tahlil qilinmaydi. Asar o’qituvchi oldida ijro etib bera olish uchungina yuzaki takrorlanadi. Mustaqil shug’ullanishdagи mashg’ulotlarning kamchiliklaridan yana biri talabalar vazifani tayyorlash jarayonida o’z ijrosini nazorat qila olmaslidir. Masalan, musiqa asarining matni yoq olinishida biror nota no’to’g’ri o’rganiladi va buni talabaning o’zi sezmaydi. Yoki ma’lum bir ijro usuli noto’g’ri bajariladi va bu ham talabaning nazaridan chetda qoladi. Bunday kamchilik dars paytida o’qituvchi tomonidan bartaraf etiladi.

Ijro paytida o’zining harakatlari, tovushlarning to’g’riligini nazorat qilish ko’nikmasi talabalarda o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi, balki reja asosida olib borilgan mashg’ulotlar evaziga erishiladi. O’z-o’zini nazorat qilishning ijrochi uchun ahamiyati juda katta, u orqali ijrodagи kamchiliklarga barham berish mumkin.

Mustaqil mashg’ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo’ladi? Mustaqil mashg’ulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq bo’lsa, talabaning vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg’ulot qanday kechishidan qat’i nazar, uni

ma’lum reja asosida olib boorish yaxshi natija beradi. Quyida mustaqil mashg’ulotlarning taxminiy tuzilishi va vaqtini keltirilgan:

1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa.
2. Yangi berilgan vazifani o’zlashtirish 15-20 daqiqa.
3. Dam olish uchun 5 daqiqa.
4. Oldin o’rganilgan vazifalarini takrorlash 20-25 daqiqa.

Keltirilgan vaqt me’yori taxminiy bo’lib, uni belgilashda talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining katta-kichikligiga qarab kamaytirish yoki aksincha, ko’paytirish mumkin.

Mustaqil mashg’ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etadi. Bu bir qarashda kamdek ko’rinishi mumkin. Ammo mashg’ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko’zlangan natijaga bemalol erishish mumkin.

Musiqa asarini yod olishni har bir sozanda qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Bu borada hamma uchun yagona ko’rsatma bo’lishi qiyin. Ba’zida sozandalarda nota matnini ko’rib eslab qolish qobiliyati kuchli bo’lsa, boshqalarida eshitib eslab qolish qobiliyati kuchli bo’ladi. Shu sababdan ham asarni yod olish ishida ularning uslublari turlicha bo’ladi. Muhimi musiqa asari qaysi bir uslub bilan yod olinishidan qat’i nazar, u sozandaning yodida mustahkam o’rnashib qolishidir.

Hozirgi paytda oliy o’quv yurtlarida o’zlashtiriladigan ma’lumotlar miqdorining ortib borishi, kam vaqt sarf qilib, ko’proq natjalarga erishishni taqozo qilmoqda. Talabalarning mustaqil mashg’ulotlari muvaffaqiyatli bo’lishiga o’qituvchi rahbarligida sinfda darsni shu mustaqil mashg’ulotga yaqinlashtirib o’tish yordam beradi.

Uy vazifasini bajarishning bir qator muhim tomonlari bo’lib, bularni talaba esda tutishi zarur. Musiqa asari talaba tomonidan avvalo to’g’ri tushunilishi, ya’ni asar mohiyati to’g’ri ochilishi asosiy vazifa qilib qo’yilishi kerak. Asar ma’nosini to’g’ri tushunishda ijro uslublarining tanlanishi, belgilarga rioxaya qilish, applikaturaning to’g’ri qo’yilishi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega. Talabaning mustaqil mashg’ulotlari paytida uning diqqat-e’tibori, albatta, biror aniq vazifani bajarishga qaratilishi kerak. Aks holda mashg’ulotlar quruq, ma’nosiz kechib, hech qanday natijaga erisha olmaslik mumkin.

Ba’zi talabalar musiqa asarini o’zlashtirish davrida nota matniga ko’proq e’tibor qaratib, ijroning ifodali bo’lishi kerakligini unutib qo’yadilar. Bu kamchilikning oldini olish maqsadida talabaning diqqat markazida doimo ijro ni ifodali bajarish vazifasi turishi shart. Boshqacha aytganda, talabalar asar matnini o’zlashtirishda qancha kuch sarf qilishsa, ijroning ifodali chiqishiga ham shuncha e’tibor berishlari kerak.

Talaba biror xatoga yo’l qo’ygan paytda, shu bo’lakni vazmin tezlikda diqqat bilan qayta takrorlashi kerak. Talaba biror xatoga yo’l qo’ygan paytda, shu bo’lakni vazmin tezlikda diqqat bilan qayta takrorlashi kerak. Shunda yo’l qo’yilgan xatoning sababini to’g’ri aniqlab, shu xatoga boshqa yo’l qo’ymaslik choralarini ko’radi. Talabalar ijrosidagi xatolar ham bir-biridan farq qiladi. Ayrim holatlarning qaytarilishi talabalarda odad tusiga kirib, asarning ma’lum qismida xato deyarli har safar takrorlanaveradi. Bunga sabab noto’g’ri tanlangan applikatura, ijro usuli yoki boshqa bir kamchilik bo’lishi mumkin. Bunday xatolarning kelib chiqish sababini to’g’ri aniqlash uni bartaraf etishning garovidir. Xatolar tasodifiy xarakterga ega bo’lsa ham, ularga yo’l qo’ymaslik lozim. Xatolar qanday bo’lishidan qat’i nazar talaba o’zining mustaqil mashg’uloti paytida ularni bartaraf etish choralarini topishni o’zining asosiy maqsadlaridan biri qilib qo’yishi kerak.

Cholg‘u ijrosi bilan shug’ullanishi natijasida talaba ham aqliy, ham jismoniy charchashi sababli uning dam olishiga biroz vaqt ajratilishi kerak. Aks holda ijroning sifati yomonlashib, xato va kamchiliklarga yo’l qo’yilishi mumkin.

Talabaning mustaqil ishini masofaviy tarzda tashkil qilishda iloji boricha uning qurilmasiga moslashish maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda ko’pchilik talabalar android tizimida ishlovchi mobil qurilmalarga ega bo’lganliklari sababli android tizimiga mos dasturlardan foydalanish talaba uchun har tomonlama qulay hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ta’lim olishlarida, umuman barcha sohada inson o’zini nazorat qilishi mumkin bo’lgan bir uslub haqida gaplashamiz. Ta’lim olish sohasida dangosalikni yegish haqida ko’pchilik o’ylaydi yoki qanday qilib qanaqadir ishlarni tezroq bajarish va bitirishga urinish mumkin.

1980-yillarda Franchesko Cherillo ismi bir talaba shu masalaning yechimini topgan.[3.1.] Bu masalaning yechimini nomi “pomidoro” edi. Pomidoro usuli juda ham ajoyib usul, haqiqatdan ham o’ylab qarasa shunchalik oddiyki, qoyil qolasiz, qanday qilib siz bu haqda ilgari o’ylamagansiz. Bir narsani yaxshi tushunib olish kerak, pomidoro usuli orqali nafaqat siz qanaqadir muammoni yechishingiz mumkin, dangosalik bilan bog’liq bo’lgan muammoni balki vaqt ni sezishni boshlaysiz, ya’ni pomidor usuli vaqtlarni boshqarish usulidir. Pomidor usulining asosiy mazmuni: bir narsani o’zingiz uchun uqib oling, o’qimang balki uqib oling, ishlatilgan bilimgina kuchga ega. Shunchaki bilib qo’ygan bilan ish bitmaydi. Bilganlarini amalda qo’llay olish zarur. Bilimni integratsiya qilish, ya’ni ishlatish jarayonida siz qandaydir natijaga erishishingiz mumkin. Shuning uchun pomidor usulidan har doim mustaqil mashg’ulotlarni olib borish davomida foydalanish lozim.

Pomidor usuli nimalardan iborat? Birinchi o’rinda pomidor usulini yaxshilab tushunish uchun siz insonning miyasi, konsentratsiyasi diqqat e’tibori qanday qilib

ishlashini tushunib olishingiz kerak. Insonning diqqat e’tibori judayam tarqoq bo’ladi. Mabodo biror bir ish qilib o’tirgan bo’lsangiz kimdir sizni chalg’itib yuborsa, yana o’sha ish bilan chuqur shug’ullanishni boshlappingiz uchun sizda taxminan 15 daqiqa vaqt ketadi. Bu judayam ko’p vaqt. Tasavvur qiling kitob o’qib o’tiribsiz, har 10 daqiqada kimdir sizni chalg’itadigan bo’lsa kitobdan o’qigan birorta bilim sizning miyangizda saqlanmaydi. Shuning uchun ham pomidor usuli orqali siz bu narsani bartaraf etishingiz mumkin.

Pomidor usulining birinchi qadami bu tayyorgarlik. Tayyorgarlik nimadan iborat. Ya’ni bu yerda mustaqil mashq qilishga tayyorgarlik nazarda tutilmoxda. Demak, mustaqil mashg’ulotni olib borishdan oldin qolganlarni, ya’ni uydagilarni yoki ijarada turadigan xonadoshlar, yoki talabalar turar joylaridagi sheriklarni ogohlantirish nazarda tutiladi. Bundan kelib chiqadigan xulosa mustaqil mashg’ulot olib borilayotgan vaqtda sizga halaqit berilmasligi lozim. Mustaqil mashg’ulotni boshlashdan oldin siz uyingizdagilarga aytishingiz kerak, men shug’ullanayapman, menga halaqit bermang. Sizni chalg’itib yuborishi natijasida siz o’z mashg’ulotingizdan chalg’ib ketib yana qaytib bu ishga kirishib ketolmasligingiz mumkin. Tez charchab qolishingiz mumkin. Hammani ogohlantiring men bandman, 25 daqiqa yoki bir soat band bo’laman, menga tegmanglar, biror kishi kelib meni chaqiradigan bo’lsa men yo’qman. Keying navbatda telefoningizni o’chirishingiz yoki “bezovta qilmang” rejimiga qo’yishingiz mumkin. Sizni hech kim bezovta qilmaydi.

Ikkinci qadam bu taymer. Taymer pomidor usulining asosi hisoblanadi. Taymerni siz 25 daqiqaga yoqib qo’yishingiz kerak. Bu yerda shartli refleks degan narsani yaxshi bilib olishingiz kerak. Shartli refleks nima degani. Misol uchun siz qaysidir uyga borib kaltak yegan bo’lsangiz o’sha uy bilan bog’liq yomon xotiralar qolib ketgan bo’ladi. Ya’ni refleks hosil bo’lgan bo’ladi. Pavlov degan kishi itga ovqat berishdan oldin doim chiroqni yoqqan keyin taomni bergen. Keyinchalik shu darajada shartli refleks hosil bo’lganki, itning miyasida chiroqni yoqqandan keyin so’lak oqishni boshlagan. Itni oldida ovqat qo’yilmasa ham og’zidan so’lak oqishni boshlagan. Mustaqil mashg’ulot olib borishda ham shunday holat yuz beradi. Siz taymerni bosishingiz bilan shug’ullanishni boshlang, 25 daqiqa to’xtamasdan shug’ullanishingiz kerak. Agar haqiqatdan ham 25 daqiqa chalg’imasdan shug’ullansangiz sizning o’sha 25 daqiqangiz o’ta to’liq ishlatilgan bo’ladi va ko’zlangan maqsadga erishasiz. Bu narsa sizga vaqtingizni sezishga o’rgatadi. 25 daqiqa vaqtini bosishingiz bilan shu ishga chuqur shung’ib vaqtdan unumli va sifatli foydalanishni boshlaysiz, ya’ni vaqtingiz tugab borayotganligini ko’rib tez va sifatli shug’ulanishni boshlaysiz.

Uchinchi qadam chalg’imaslik. Biror kishi oldingizga kelib gapirsa, chalg’imaslik kerak. Siz uydagilarni ham dos’tlaringizni ham shunga o’rgatishingiz kerakki, ishlab o’tirib nimadir bilan bandmisiz, ular sizni chalg’itmasligi kerak. Yana shu joyda bir narsani aytib o’tish kerak, taymer ishlab boshlagandan keyin vaqt kamayib ketavergani natijasida kishida psixologik bosim ta’sir qilib vaqt tugaguncha ulgurishim kerak, degan fikrda taymersiz ishlaganga qaraganda tez va samarali ish olib boriladi. Vaqt tugab borgani sari vaqt sizni shoshiltirishni boshlaydi. Taymer qo’yib ishlaganda, taymer qo’ymay ishlaganga qaraganda ko’proq narsa qilishga ulgurasiz. Bu tabiiy holat. Ya’ni taymer effekti yuz beradi. Tezroq va tezroq harakat qilishni boshlaysiz.

To’rtinchi qadam dam olish. Dam olish taxminan 5 daqiqa bo’ladi. Dam olish degan haqiqiy dam olish tushuniladi. 25 daqiqa taymerda shug’ullanish tugagandan so’ng 5 daqiqa haqiqiy dam olish kerak, telefonda rasm yoki telegramga kirish, telefizor tomosha qilish emas, balki miyani dam oldirish kerak. 5 daqiqalik dam olish tugagandan so’ng keyingi 25 daqiqalik pomidorga o’tiladi.

Beshinchi qadam katta dam olish. Bu taxminan 4 ta pomidordan keyin 30 daqiqaga dam olasiz. 1 ta pomidor 25 daqiqani tashkil qiladi. Har bir pomidordan keyin 5 daqiqadan dam olinadi. 4 ta pomidordan keyin katta dam olish 30 daqiqalardan bir soatgacha dam olinadi, yoki butunlay pomidorni tugatishingiz mumkin.

Mana shu pomidor usulini qo’llaganingizdan keyin siz o’zingizda juda katta foydali ish koefsentingiz oshganini his qilasiz. Bu usul orqali siz qisqa vaqt ichida ko’p ishchi bajaradigan bo’lib qolasiz. Aynan 25 daqiqa siz uchun shartli refleks bo’lib qoladi. Har doim bu usulni ishlatib borgan sari taymerni bosishingiz bilan sizning diqqat e’tiboringiz, xotirangiz kuchli ishlaydigan bo’lib qoladi. Bu usulni har kuni ishlatish lozim. Bundan tashqari yana bir narsani tushunish kerakki, bir kunda nechta pomidor bajarish kerak, bu sizning o’zingizga havola. Kunlik 4 ta pomidordan keyin dam olish esdan chiqmasdan, yana ishtiyoq kelaversa pomidorlar soni oshiraverish mumkin. Shuni sezasizki, pomidor usulida ishlashni boshlaganingizdan keyin ishga kirishib ketasiz, miyangiz ishga shung’ib ketadi, uni to’xtatish judayam qiyin bo’ladi. Bir narsani tushunishingiz kerak, pomidor usuli orqali siz dangalikdan qutulasiz va vaqtingizni unumli o’tkazishni o’rganasiz.

Yana shuni tushunish kerakki, vaqt bu tiklanmaydigan resurs. Shuning uchun vaqtdan unumli foydalanishda pomidor usulidan samarali foydalanish va boshqalarga ham yetkazish tavsiya etiladi. Xulosa qilib aytganda, talabalarning bilim olishida o’z xohishi bilan harakat qilishi yuqori samara beradi.

Foydalanimanadabiyotlar

1. F.Xalilov va boshqalar. “Maxsus cholg’u” Toshkent, Ilm-Ziyo, 2016.
2. R.Abduazimov “Cholg’u ijrochiligi” Toshkent. “Musiqa” 2016.
3. Dovranbek Turdiyev youtube kanali.

NAY IJROCHILIGI XUSUSIDA USLUBIY KO’RSATMALAR

Vohidov Yusufjon Qodirovich

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti

“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasи o‘qituvchisi

vohidovyusufjon@bk.ru

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda nafaqat musiqa yo‘nalishida tahsil olayotgan, balki umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qiyotgan yoshlarimizning ham musiqiy savodxonligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu qatorda esa musiqa o‘qituvchilariga bo‘lgan talab yanada ortadi. Bu esa cholg‘u ijrochiligi ta’limi sohasida yanada ko‘roq izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Ushbu maqolada nay cholg‘usi ijrochiligin bolalarga o‘rgatishda ahamiyat qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar xususida so‘z boradi. Shuningdek, nay ijrochiligini o‘rgatish borasida bir nechta uslubiy ko‘rsatmalar haqida ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: nay, cholg‘u, ustoz, o‘quvchi, ijro apparati, ijro nafasi, lablar, til, asar.

АННОТАЦИЯ

Сегодня особое внимание уделяется музыкальной грамотности не только нашей молодежи, обучающейся по музыкальным направлениям, но и обучающейся в общеобразовательных школах. При этом спрос на учителей музыки еще больше возрастет. Это требует дальнейших исследований в области обучения игре на инструменте. В данной статье рассказывается об аспектах, которые необходимо учитывать при обучении детей игре на инструменте най. Также приводится информация о нескольких методических указаниях по обучению игре на нем.

Ключевые слова: най, инструмент, учитель, ученик, исполнение, дыхание исполнения, губы, язык, произведение.

ABSTRACT

Today, special attention is paid to the musical literacy not only of our young people studying in musical directions, but also studying in secondary schools. At the same time, the demand for music teachers will increase even more. This requires further research in the field of learning to play the instrument. This article describes

the aspects that need to be taken into account when teaching children to play the nai instrument. There is also information about several guidelines for learning to play it.

Keywords: nay, instrument, teacher, student, performance, performance breath, lips, tongue, work.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga binoan 2022/2023-o‘quv yildan boshlab umumiy o‘rtalama ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o‘rgatiladi va bu ularning shahodatnomasida qayd etiladi. Musiqa fani o‘qituvchilarining milliy cholg‘ularidan kamida bittasini, 2023/2024-o‘quv yildan boshlab esa kamida uctasini chala olish mahoratiga ega bo‘lish majburiy hisoblanadi.

Mana shu qarordan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchi o‘zining qiziqishidan kelib chiqqan holda o‘zi o‘rganishni istagan cholg‘uni tanlaydi. Nay cholg‘usini o‘rganishni istagan o‘quvchilarni san‘at olamiga yetaklash, o‘zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalarining yuksak namunalaridan keng bahramand qilish, estetik bilimlar targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni amalga oshirish muhimdir.

Dars jarayonida o‘quvchilar ijrochilik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga nay cholg‘usining tarixiy manbalari, o‘rganiladigan har bir asarning rivoyati, cholg‘uni mohirona ijro etgan mohir sozandalar, bastakorlar va nay yasovchi ustalar haqidagi bilimlarni ham berish lozim. O‘quvchilarning nay cholg‘usida ijrochilik darajalari bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari ta’lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topgan. Nay cholg‘usining barcha o‘ziga xos hususiyatlarini bilish va boshqa milliy sozlarimizning tovush tembrlarini farqlashni o‘rgatish ham muhim sanaladi.(1,7) Qolaversa, turli janr va murakkablikdagi texnik asarlaridan namunalarini badiiy va ohang jihatdan mukammal, mazmunan idrok etgan holda ijro eta olish, yakka va ansamlda jo‘rnavoz bo‘la olishi, musiqiy asarni notadan o‘qiy olish, kuyga tavsif berish, xalq musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo‘lish, musiqaga oid atamalarni bilish, musiqaning ifoda vositalarini bilish, ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlay olish, musiqa janrlarini bilish va ijro uslubidan ularni farqlay olish, har bir mahalliy uslubda o‘ziga xos ijrochilik uslublari va cholg‘u turlarini bilish o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini yanada oshiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslubidagi xalq kuyi namunalaridan ijro eta olish, milliy musiqa amaliyotida o‘zbek xalq ommaviy va kasbiy musiqa janrlarining mahalliy uslub variantlarini tinglab ajrata olish, uch voha (Xorazm

maqomlari, Shashmaqom, Farg‘ona-Toshkent maqomlari) maqomlaridan, O‘zbek bastakorlarining asarlaridan namunalar ijro eta olish esa bolalarning o‘zbek mumtoz musiqasini nafaqat anglash, balki his eta olish imkonini tug‘diradi.(2,14)

O‘quvchilarning nay cholg‘usida ijrochilikni o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu boradadarslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, sintezatorlar hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Shuningdek, darslarda “Ustoz-shogird an“analari”dan keng foydalaniladi.

Dars o‘tish murakkab ijodiy mehnat jarayon, aslida. O‘qituvchi tushuntirish ishlarini nayda ijro etib ko‘rsatish bilan uzviy bog‘langan holda olib borishi dars o‘tish shakl va uslubiy jihatdan to‘g‘ri ekanidan dalolat beradi.(3,7) Shunda o‘quvchining darsga bo‘lgan diqqat va e‘tibori to‘la jalb etiladi hamda unga qiziqishi ortadi.

Dars jarayonida o‘quvchiga ojro jarayonida qomatni qanday tutish lozimligi haqida albatta tushuntirilishi kerak. Nay cholg‘usini chalishda qomatni tutish deyilganda ijrochining gavda holati, cholg‘uni ushlay olish va tovushni chiqarish yo‘li tushuniladi. Bunda yelkalar sal kerilgan tirsaklar bir oz ko‘tarilgan holda tutilishi lozim, aks holda, ko‘krak qafasi siqilib, nafas olish qiyinlashadi. (4, 27) Bu esa salomatlikka va o‘sib rivojlanayotgan organizmning to‘g‘ri shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nay cholg‘usini ushlaganda qo‘llar holati tabiiy, erkin bo‘lishi lozim, shundagina har qaysi barmoqning yengil harakat qilishi uchun imkoniyat yaratiladi. Tovushni tembr jihatdan to‘g‘ri hosil qilish uchun ma‘lum qoidalarga rioya qilish zarur. Tovush hosil qilishda lablarga o‘ta zo‘r bermaslik, puflab chiqarilayotgan havoning kuchi muayyan balandlikdagi tovush uchun zarur normada bo‘lishi va bunda havo oqimi lablar oraligini kengaytmasligi kerak.

Puflab ijro etiladigan cholg‘uda ijro etayotganda nafas olish va nafas chiqarish goh bir tekis, goh asta tezlashib, goh esa ohista sekinlashib boradi. Bu ijro etilayotgan asarning xarakteriga, kuyning ma‘lum qismlari va ohangiga bog‘liqdir. Nafasning eng to‘g‘ri uslubi diafragmatik yoki ko‘krak qorin uslubidir. Bu uslub uchun yelkani ko‘tarmasdan va bo‘yin mushaklarini zo‘riqtirmasdan nafas olinishi lozim. Bu holda diafragma faol ishlaydi va nafas kengayadi.

Ijrochilik nafasini to‘g‘ri bajarish shartlari aniq va oddiy bo‘lib, bu shartlar diafragma, pastki va o‘rta qovurg‘alarning faolligi hamda nafas olganda yelkalarning qimirlamasligidan iborat. Nafas musiqaviy ifodalikning eng muhim vositalaridan biridir. U ijrochida qanchalik taraqqiy etgan bo‘lsa, uning kuyga mosligi va tovush sifati yorqin, tiniq va xilma-hil bo‘ladi. Nafas olish malakasini har tamonlama

taraqqiy ettirish va undan musiqiy ifoda vositasi sifatida barcha turdag'i ijro usullarini keng o'rghanish mumkin.

Nay cholg‘usida texnik ijrochilik mahoratini rivojlantirishda milliy pardalar asosida tuzilgan gamma, arpedgio, turli mashq va mashqlarni muntazam ravishda o'rghanib borish katta ahamiyatga egadir. Gamma, arpedgio va mashqlar ustida ishslashda ijrochilikning sifatiga, mayin xarakatiga va uning yumshoq ijrosiga, tovushning nafisligiga, ritmni aniq his etishiga, musiqiy ohang (intonatsiya) aniqligiga va sadolanayotgan milliy ohangning sifatiga e'tibor berish zarur. (5,17)

O'quvchi uchun o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quv materialini chetlab o'tmay, balki bunday qiyinchiliklarni engishga ko'nikma hosil qilish, o'zlashtirishda yaxshi natijalarga olib keladi. Faqatgina yengil o'quv materiallari ustida ishslash esa o'quvchining murakkab texnik ijrochilik ko'nikmasining rivojlanishiga yo'l qo'yaydi, ma'lum darajada uning umumiyligi ijrochiligining rivojlanishini cheklab qo'yishi mumkin. Har bir o'quvchining asosiy imkoniyatiga qarab o'qituvchi unga aniq vazifa berishi va uning bajarilishini muntazam tekshirib bormog'i lozim.

Musiqa asarini o'rghanishga kirishishdan avval o'rghanilayotgan asarni tahlil etish yuzasidan o'tkaziladigan muntazam mashg'ulotlar o'quvchining ijrochilik kamolotida katta rol o'ynaydi. Masalan: yangi asarni o'rghanishdan avval o'quvchini musiqa asarining kelib chiqish tarixi yoki afsonasi, ijrochilar haqida, kalit oldi belgilari, qaysi tonallikda yozilganligi, asarning musiqiy bezaklari, uning dinamik belgilari bilan tanishtiriladi. Musiqa asarining murakkab joylari o'quvchiga tushuntiriladi. Umuman, yangi asar berilayotgan vaqtida o'qituvchi avvalam bor ushbu asarni o'quvchiga o'zi ijro etib berishi yoki magnit yozuvlarini eshittirishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matyakubov B. Damli va zarbli cholg‘ularda chalishni o'rnatish uslubiyati.-T., «Musiqa» 2009.
2. Omonullaev D.F va boshqalar “Birinchi sinfda musiqa darslari”, o'quv uslubiy qo'llanma. T., 1987,
3. Omonullaev D.F va boshqalar “Ikkinchi sinfda musiqa darslari”, o'quv uslubiy qo'llanma. T., 1988.
4. Petrov P., Matyoqubov B. Cholg‘ushunoslik va cholg‘ulashtirish. –T., «Turon-Iqbol», 2006.
5. Nigmatov R. Damli cholg‘ular ansamblari. «Nishon-Noshir» –T., 2013.

MUSIQIY-NAZARIY FANLARNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV

A’zamjonova Nozima Yusufovna

Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi,
Musiqa-nazariyasi bo‘limi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlod taribyasida, uni shaxs sifatida barkamol bo‘lib yetishishida musiqiy-nazariy fanlarning roli va ahamiyati, darskarda innovatsion usullarning qo‘llanilishining ijobiy natijalari xaqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Inson, shaxs, tarbiya, ta’lim, musiqa, dars, mashg‘ulot, san‘at, pedagogika, innovatsiya, texnologiya.

АННОТАЦИЯ

В статье описываются роль и значение музыкально теоретических дисциплин, эстетического воспитания в формировании и развитии национальной гордости и национального мышления у учащейся молодёжи.

Ключевые слова: Человек, личность, воспитание, обучение, музыка, урок, занятие, искусство, педагогика, инновация, технология.

ABSTRACT

This article provides analytical information on the role and importance of music in the upbringing of the younger generation, its development as a person, from ancient times to the present day.

Keywords: Man, person, upbringing, education, music, lesson, occupation, art, pedagogy.

Xalqimiz asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to‘pladi, uni takomillashtirdi va ijtimoiy hayotida turli vositalar orqali kelajak avlodga meros qoldirdi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-g‘oyaviy tarbiyalashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. O‘zbekistonda uzlusiz ta’lim tizimi asosida shaxsni rivojlantirishda juda katta e’tibor berilib kelinmoqda. Bu o‘rinda shubhasiz musiqa darslarida e’tibor tubdan takomillashtirilib, uni yanada rivojlantirish masalasiga e’tibor o‘zgacha tus oldi. Kelajak avlodni barkamol inson etib tarbiyalashga alohida urg‘u berilishi juda ham ahamiyatli va quvonarli holdir.

Ma‘lumki , har bir dars mavzusini o‘rganishda o‘ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to‘g‘ri keladi. O‘qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo‘ljallash kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi fanning o‘ziga xos tomonlarini, o‘quv jarayonini va sharoitini, o‘quvchularning ehtiyoji va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatoladigan texnologiyalarni tanlash lozim. An‘anaviy ta‘lim o‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga o‘rgatadi, unda o‘qituvchi shaxsi asosiy o‘rinni egallagan bo‘lib, o‘quvchi esa bu jarayonning passiv ishtirokchisi bo‘lib kelgan. Ilmiy texnika revolyutsiya davrida o‘quvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ilmiy axborot xajmining keskin oshib ketishi bilan an‘anaviy ta‘lim kam samarali bo‘lib qoldi. Ana shuning uchun kelish davri interaktiv metodlar , innovatsion pedagogick va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga kiritishga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishga, mustaqil o‘rganish, taxlil qilish va olingan bilimlardan o‘zlari xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Innovatsion texnologiyalar inglizchadan “innavaton” yangilik kiritish – pedagogik jarayon, ya‘ni o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati o‘zgarish, yangilik kiritish, o‘quv jarayonida interaktiv metodlardan to‘liq foydalanishni o‘z ichiga oladigan vositalar esa o‘quvchining birgalikda faoliyat orqali ta‘lim mazmuniga ta‘sir ko‘rsatadigan vositalarni o‘z ichiga oladi. Bunday hamkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchining bilim olish ishtiyoqini muntazam oshirib boorish;
- O‘quvchining xar qanday muammoga ijodiy yondashuviga o‘rgatish;
- Pedagog va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro hamkorligini ta‘minlash;
- O‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmasdan, ijodiy fikrlashi va izlanishiga imkon yaratish.

Bu jarayonda kafolatlangan natijaga erishish oqituvchi bilan o‘quvchining xamkorligida faoliyati, o‘quvchining ijodiy ishlash, mustaqil fikrlashi, izlanishi, taxlil qilishi va xulosalay olishi, o‘quvchining o‘zig ava guruhga, guruhning o‘quvchiga baho berishiga imkon yaratilishi bilan bog‘liq.

Ta‘limni tashkil etishning noan'anaviy shakllarining xilma-xilligi turli xil faoliyat turlari uchun keng sharoitlarni yaratadi, bu nafaqat o‘quvchining aqliy jarayonlarining butun majmuasini o‘z ichiga olishga imkon beradi, asosiy ta‘lim doirasini kengaytirishni, balki maxsus kasbiy bilim va ko‘nikmalarni olishga imkon beradi. Ayniqsa, musiqiy ta‘limni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, ta‘lim tizimiga ilg‘or innovatsion va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish muhim davlat ahamiyatiga molik masalalardan biri sifatida kun tartibida turibdi. Musiqiy-nazariy fanlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish Pedagogik

texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o,quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo,lishlarini taminlaydi.

XXI asrda yangi texnologiyalar paydo bo,lishi munosabati bilan o,qitish uslubiyotiga yondashuv o,zgardi, o,qishni rivojlantirish masalalari eng muhim mavzulardan biri bo,ldi. O,quvchilarни ommaviy estetik tarbiyalash o,quv dasturlariga, o,qitish usullariga boshqacha, yangicha yondashuvni talab qiladi. Musiqiy nazariy fanlar o,qituvchilarning vazifasi bu jarayonni o,quvchilar uchun ijodiy va qiziqarli qilishdir.

Innovatsion ta’lim uslublari, multimedya va texnologiya vositalarining paydo bo,lishi, rivojlanishi, takomillashishi rivojlanayotgan jamiyat, yangi avlodning talab va ehtiyojlari bilan bog,liq. Ta’limning an“anaviy shakllari bilan bir qatorda, o,quvchilarga qisqa vaqt ichida minimal harakat bilan moslashishga imkon beradigan innovatsion usullar mavjud. Ta’lim tashkil etishning noan“anaviy shakllarning xilma xilligi turli xil faoliyat turlari uchun keng sharoitlarni yaratadi, bu nafaqat o,quvchining aqliy jarayonlarining butun majmuasini o,z ichiga olishga imkon beradi, asosiy ta’lim doirasini kengaytirishni, balki maxsus kasbiy bilim va ko,nikmalarni olishga imkon beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarga, ilg,or pedagogik va axborot texnologiyalarga talab ortib bormoqda. O,quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim tizimining sifatini yaxshilash, o,quvchilar bilimini kengaytirish, dunyoqarashini chuqurlashtirish, ko,nikma va qobiliyatlarni yaxshilashga yordam beradi. Innnavatsion, pedagogic va axborot texnologiyalardan foydalanish o,quvchilarni bilimlarini kengaytirishga, bilim olishga qiziqishni oshirishga ishtiyoqni kuchaytiradi, darslarni tahlil qilish va xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Musiqiy ta’limga yangicha yondashuvlar, shuningdek, o,quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mutlaqo boshqacha, eng samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Musiqqa inson tafakkurining o’ziga xos turi bo’lib, asosiy vazifani - inson bilan aloqa qilish funktsiyasini bajaradi. Bunday darslarda ma’naviy, amaliy, ijodiy, individual dunyoqarash ustunlik qiladi, ya’ni avtoritar yondashuv va tegishli o’qitish usullaridan voz kechadi. Musiqqa nazariyasi, solfedjio va garmoniya fanlarda innovatsion texnologiyalarni qo’llash mumkin va zarurdir. Yangi texnologiyalardan foydalanish musiqiy nazariy darslarini boyitadi va yangilaydi. Pedagogik fan va amaliyotning hozirgi rivojlanish bosqichida shaxsni shakllantirish muammolari dolzarbdir. Faqat mustaqil, ijodiy, ijtimoiy mas’uliyatli inson hayotiga va uning atrofidagi dunyoga ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha olingan bilimlarni tushunish, tajriba qilish va qo’llash ko’plab amaliy mashg,ulotlarda

amalga oshiriladi. Bugungi kunda musiqiy ta’lim sifatiga qaratilayotgan e’tibor o’qituvchilardan ko’proq ishlashga va texnologiyalardan foydalanishga bo’lgan ehtiyojni oshirmoqda. Ta’lim jarayonida ilg,or pedagogik usullarni qo,llash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shuningdek elektron manbalardan, o,quv va multimedia taqdimotlaridan foydalanish davr talabi ekanligini ta’kidlaymiz. Pedagogik texnologiyalarning xilma-xilligi ularni birgalikda ishlatishga, mavzular va bo’limlar bo'yicha o'qituvchiga eng munosibini tanlashga imkon beradi.

Multimedia (multimedia – ko,p muhitlilik) vositalari bu texnik va dasturlar to,plami bo,lib, u insonga o,zi uchun tabiiy bo,lgan juda turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiyalarni ishlatgan holda zamonaviy texnologiya bilan muloqatda bo,lib biror axborotni insonga odatdagidan ko,ra ko,proq qilish imkonini beradi. Musiqa nazariyasini o'qitishda multimedia manbalari an'anaviy ravishda quyidagilarga bo'linadi:

- Musiqiy multimedia texnik jihozlari
- Musiqiy dasturiy ta“minot
- Kompyuterli va Mobil ilovalar (ma'lumotnoma, lug'at, o'yin, o'quv dastur)

Texnologik taraqqiyot to'xtamaydi va inson mehnatini engillashtirish uchun doimiy ravishda rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan o'qitishning yangi bosqichi bevosita texnologiyalar bilan bog'liq. Texnologiyalar va musiqada innovatsiyalarning qo'llanilishi tufayli musiqiy ta’lim yanada qulay va qiziqarli asboblar bilan boyitilmoqda. Chunki taraqqiyot, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, musiqa nazariyasini o'qitishning hozirgi bosqichida innovatsion texnologiyalar va multimedia manbalaridan foydalanish muhimligini ta’kidlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1."Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo,yicha xarakatlar strategiyasi" to,g,risida Uzbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi farmoni.
2. Akbarov I.A. Musiqa lug,ati.- T.: O,qituvchi, 1997.
3. Апраксина О.А. Методика музыкального воспитания в школе. Учебное пособие. - М.: Просвещение, 1983.
4. Ардабаева Б.К., Белошическое Е.В., Дандыбаева Г.Т., Мишутина Е.И. Методические рекомендации по организации и планированию экспериментальной работы в организациях образования // Костанай, 2009 г.
5. Raximov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. (Ma'lumotnoma), Toshkent, "Musiqa", 2007.

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyiliginini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

6. Raximov Q. Musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami. Toshkent, "Ozbekiston", 2006

MUSIQA TA’LIMINI O’QITISHDA INTEGRATSIYALASHGAN METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Voxidov Qobil Qodirovich,

Qarshi davlat universitetining, Pedagogika instituti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Musiqa o‘qituvchilarini talabalarni jalb qilish uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishda texnologiyadan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Bir paytlar biz akustik asboblar, qalam va qog‘ozni asosiy o‘quv quroli deb hisoblagan bo‘lsak, endi iPad va ta’lim dasturlari kabi texnologiyalar yordamida talabalarni musiqani ijodiy o‘rganishga jalb qilish mumkin. Maqolada ham musiqa ta’limining integratsiyalashuvi va buning samaradorliklari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: musiqa ta’limi, talaba, integratsiya, metod, ta’lim, ko‘nikma.

Ma‘lumki, musiqa ta’limi boshqa fanlar qatorida axborot texnologiyalari IT bilan chambarchas bog‘lanib o‘rganilmoqda. Musiqa o‘qituvchilarini IT texnologiyalarini yanada murakkab va foydalanuvchilarga qulay texnologiyaga ega bo‘lganligi sababli ham undan talabalarning o‘rganishi va faolligini oshirish uchun foydalanmoqda.

Darxaqiqat, musiqadan o‘quv vositasi sifatida foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘qituvchiga va ma’lum auditoriyaning resurslariga qarab farq qilsa-da, musiqa ta’limi vositalari va texnologiyasining umumiy evolyutsiyasi bir nechta asosiy tendentsiyalardan dalolat beradi. Musiqa texnologiyasi odatda musiqani keng miqyosda baham ko‘rishga undadi. Bu tendentsiyani Soundtrap yoki Google Classroom kabi musiqa va ta’lim vositalarida, shuningdek, YouTube va boshqalar kabi kengroq multimedia ijtimoiy platformalarida ko‘rish mumkin.

Musiqa ta’limi vositalari paydo bo‘ldi, ular auditoriyada o‘rganishni muayyan ko‘nikmalar bilan to‘ldirish uchun qo’shimcha amaliyotni taklif qiladi, masalan, talabalarga tovush balandligini moslashtirishni o‘rganishga yordam beradigan quloqni o‘rgatish ilovalaridir. Ushbu vositalar o‘z-o‘zidan o‘rganish imkoniyatini ochib beradi va o‘qituvchilarga boshqa asosiy ko‘nikmalarga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Texnologiya shunchaki vositadir va ma’lum bir kontekstda ma’lum bir natijaga erishish uchun undan foydalanish mumkin bo‘lgan turli usullarni tushunmasa, vosita foydali bo‘lmaydi. Agar musiqa o‘qituvchilarini texnologiyani o‘qitish, o‘rganish va baholashga samarali integratsiyalashmoqchi bo‘lsa, muayyan texnologik vositalarni tushunishdan ko‘ra ko‘proq narsa talab qilinadi. Natijada, talabalar bilan

texnologiyadan foydalanishni o'rganishda musiqa o'qituvchilari maqsadli o'quv maqsadlari, ko'rib chiqilayotgan texnologiyaning afzallikkleri va cheklovleri, qo'llanilishi kerak bo'lgan o'qitish va o'qitish strategiyalari va kontekstni hisobga olishlari juda muhimdir.

Talabalarni jalb qilish va musiqa yaratish va ishlab chiqarishning turli jihatlarini o'rgatish uchun maqsadli va strategik musiqa o'qituvchilari o'z ta'limini oshirishlari mumkin.

Misol uchun, raqamli media ko'plab rassomlarning musiqalarini yaratish, ishlab chiqarish va tarqatish usullarini o'zgartirdi. Ba'zi tadqiqotchilar buni YouTube kabi platformalarning afzalliklarini, shuningdek, rasmiy ta'lim sharoitida o'rganishni to'ldirish uchun norasmiy musiqa ta'limidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish uchun ishlatgan.

Biroq, texnologiyani o'qitishga integratsiya qilishning eng yaxshi usuli maqsad va talabalarining ehtiyojlariga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Misol uchun, agar ko'plab talabalar ma'lum bir mahoratni egallashga qiyonalayotgan bo'lsa, boshqa o'qituvchilarning video darslarini ko'rsatish darsni chuqurlashtirishga yordam beradi. Auditoriya uchun nima eng mos kelishini aniqlash uchun biroz tajriba kerak bo'lishi mumkin, lekin texnologiyani o'zlashtirish aniq maqsad va doimiy takomillashtirish fikrlash oxir-oqibatda talabalar o'rganish yo'llarini yaxshilash mumkin.

Texnologiya musiqa va musiqa darslarini o'zgartiruvchi va boshqalar bilan kengroq miqyosda baham ko'rishga imkon berish imkoniyatiga ega. Aqli musiqa o'qituvchilari o'z talabalarining musiqa yaratish, ijro etish va tinglashdagi faolligini oshirish uchun ushbu imkoniyatlardan foydalanadilar.

Musiqa janrlarining keng doirasini qamrab olishdan tashqari, dasturning o'quv rejasi musiqa auditoriyaidagi musiqa ta'limi psixologiyasi, o'quv dizayni va texnologiyasi bo'yicha ilg'or tushunchalarni o'rganadi. Fakultet tarkibiga professional musiqachilardan tortib xalqaro miqyosda tan olingan musiqa ta'limi tadqiqotchilari va mualliflarigacha bo'lgan turli xil professional yo'nalishdagi o'qituvchilar kiradi.

Mulohaza va takliflar

Musiqa ta'limi talabalarimiz uchun foydali bo'lislining 5 ta eng muhim sababi:

- Musiqa ta'limi dasturi o'z talabalariga estetik tajriba beradi.
- Musiqa ta'limi talabalarga "hayotiy qadriyatlar"ni singdiradi. Ulardan ba'zilari o'z ichiga oladi; intizom, hamkorlik, ijtimoiy ko'nikmalar va yaxshi xarakterni shakllantiradi.
- Musiqa texnologiyasi, musiqa tarixi, musiqa nazariyasi va musiqa madaniyati haqidagi bilimlar boshqa o'quv fanlari bo'yicha ham bilimlarni mustahkamlaydi.

- Musiqa ko'pincha maktab ruhi tuyg'usini yaratadi, bu esa o'z navbatida talabalarga o'zini o'zi qadrlash tuyg'usini beradi, bu deyarli har doim ijobiy munosabatni aks ettiradi.

San'atni targ'ib qilish - bu bizning talabalarimiz hayotning barcha jabhalarida eng zo'r bo'lishlari kerak.

Kompozitsiyani o'rganayotgan odam - bu o'ziga xos musiqa yaratishni xohlaydigan va shu bilan birga ko'p hollarda mustaqil faoliyatga qaror qiladi. Gap kontsert zali uchun mustaqil yangi asarlar, medial kontekstdagi musiqa yoki chiqarilgan ovozli vositadagi badiiy bayonot haqida bo'ladimi, bastakorlar doimo bir xil darajada yuqori badiiy va texnik talablarga duch keladigan juda ambitsiyali muhitda bo'lishadi.

Musiqa ta'limini egallashda metodlar va ularning ahamiyati

Taqlid o,quvchining ohang, ritm, metr, temp va dinamika repertuarini shakllantiradi. Talabalar kelajakda yanada murakkab mashg'ulotlarda foydalanish uchun "asbob qutisi" uchun asosiy musiqa materiallarini o'zlashtiradilar.

Qidiruv metodi-talabalar taqlid qilish orqali olgan bilimlarini tushuna boshlaydi va hatto qo'llay boshlaydi. Ular ohanglarning harakatini, ritmlarning mazmunini, metrning harakatini eshitadilar va ular kirish imkoniga ega bo'lgan har qanday asbob yoki ovozning tembrini o'rganadilar. Orff Instrumentarium tadqiqot uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi.

Improvizatsiya-tadqiq qilish va taqlid qilishdan so'ng, talabalar nafaqat tushunishadi, balki ritm va balandlikning, shakl va dinamikaning va hokazolarning mumkin bo'lgan ba'zi kombinatsiyalarini musiqiy doirada qo'llashlari mumkin.

МУЗЫКАЛЬНО-КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ КАК ФУНДАМЕНТ ПРОФЕССИОНАЛИЗАЦИИ СОВРЕМЕННОГО МУЗЫКАНТА

В. М. Закирова

PhD, старший научный сотрудник ИИАНРУз

Институт искусствознания Академии наук Республики Узбекистан

z.venera-10@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada XXI asrda professional musiqa ta'limining ajralmas qismi sifatida ijrochilik fakulteti talabalarining musiqiy-tanqidiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun musiqiy tanqid asoslarini o'rganishning mavjud tajribasini qayta ko'rib chiqib, uni ijrochilik fakultetining o'quv dasturlariga fan sifatida kiritish lozim. Hozirgi kunda ijrochilik fakultetlarida mazkur fan mavjud bilmagani sababli uni zamonaviy ijrochilarda tanqidiy tahlilni takomillashtirish maqsadida maxsus kurslar va amaliy mashg'ulotlar bilan to'ldiriladigan asosiy fan sifatida joriy etish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, ijrochilik, musiqiy tanqid, o'z-o'zini tanqid qilish, musiqiy-tanqidiy fikrlash.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена проблеме формирования и развития музыкально-критического мышления у студентов исполнительских факультетов как неотъемлемого условия получения профессионального музыкального образования в XXI веке. Для реализации поставленных задач предлагается пересмотреть существующий опыт изучения музыкальной критики как специальной дисциплины, изучаемой на музикоедческом факультете, но практически отсутствующей в учебных программах других отделений, и внедрить ее в качестве базового предмета, дополненного спецкурсами и практическими занятиями с целью совершенствования критического анализа у современных музыкантов-исполнителей.

Ключевые слова: музыкальное образование, исполнительство, музыкальная критика, самокритика, музыкально-критическое мышление.

ABSTRACT

The article is devoted to the problem of the formation and development of musical-critical thinking among students of performing faculties as an essential

condition for obtaining professional musical education in the 21st century. A number of conditions must be met in order to implement the tasks set: to revise the existing experience of studying music criticism as a special discipline, to introduce it as a basic subject, supplemented by special courses and practical exercises, to improve critical analysis among modern music performers.

Keywords: musical education, performance, musical criticism, self-criticism, music critical thinking.

Узбекское музыкальное образование находится сегодня в центре повышенного контроля. Назрела реальная необходимость в пересмотре и обновлении существующих нормативов в системе подготовки профессиональных кадров. На это нацелено и Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию сферы культуры и искусства» (ПП-112 от 02.02.2022 г.) (1), так как без высококвалифицированных специалистов невозможно проводить культурно-массовые и концертно-зрелищные мероприятия, вести научно-просветительскую работу, приобщая широкие массы к музыкальной культуре.

Вместе с тем в последние годы стала очевидной тенденция активизации исследовательской деятельности среди музыкантов-исполнителей как особой формы их творческой реализации. Все чаще студенты исполнительских факультетов участвуют с докладами в научно-практических конференциях, выступают на радио и телевидении, дают интервью прессе. Однако делается все это, преимущественно, по наитию, то есть, не подкрепляясь изучением теоретических основ одной из фундаментальных дисциплин в музыковедении – музыкальной критики. А ведь именно она направлена на обучение музыканта «искусству суждения», на умение избирательно подходить к любой информации, вычленяя для себя главное, ценное, избегая от заблуждений и ошибок. Овладение базовыми навыками сравнения, анализа, обобщения, оценки явлений музыкальной действительности, в том числе и личного опыта, позволяют сформировать универсальную творческую личность, способную успешно реализовываться как в концертно-педагогической, так и в научно-просветительской сферах.

Следует отметить, что необходимость дополнения учебного процесса дисциплиной «Музыкальная критика», включающей целый комплекс практических занятий, не получала должного освещения в теоретических трудах. При этом важность данного вопроса в процессе комплексной подготовки и профессионального обучения музыкантов-исполнителей очевидна. Она позволит повысить профессиональную подготовку и в области

музыкознания, создавая платформу для формирования и развития музыкально-критического мышления. «Ведь особая сложность философского осмыслиения музыки заключается в том, что каждый тип культуры или конкретная историческая эпоха, определяющие стиль и мышление философа, помогают осмыслиению различных явлений в музыкальной науке в соответствии с той системой ценностей, которая определяет мировоззренческую позицию педагога» (2, 250).

Проблема развития критического мышления у музыкантов-исполнителей актуальна не только для отечественного образования, она затрагивается в работах педагогов-практиков соседних государств. Так, например, в Казахстане создана целая научная Школа доктора педагогических наук, академика МАНПО, профессора, заведующей кафедрой теории и методики обучения музыке Р.Р. Джердималиевой, последователями которой подготовлено немало трудов по музыкальной педагогике. Во многих из них особое внимание уделено вопросам формирования мировоззренческой ориентации, диалектики научного и художественного мышления, развития ценностных ориентаций (3).

Целый комплекс методических рекомендаций по формированию музыкально-теоретического мышления на примере учащегося-пианиста приведен в работе азербайджанского ученого С.А.Исмайловой (4). На основе музыкально-педагогической практики исследователь разработала систему специальных методов, направленных на эффективное развитие у учащихся навыков самооценки и элементов критического мышления. Среди них метод собственного анализа проделанной домашней работы, своих ошибок, исполнительских трактовок как способа стимулирования творческой инициативы, метод исполнительского сопоставления-сравнения, самостоятельной оценки достигнутого и другие. Обобщая данные методические приемы, автор делает следующий вывод: «Умение самостоятельно мыслить, рассуждать, избирать тот или иной вариант действий на основе осмысленно принятого решения не может возникнуть спонтанно, оно формируется в процессе целенаправленной работы с помощью конкретных приемов, которые в комплексе и могут представлять специальную методику формирования музыкально-критического мышления учащихся» (4).

Предложенные методические приемы, на наш взгляд, вполне эффективны как на начальном этапе получения музыкального образования, так и в процессе совершенствования профессионального мастерства в высшей школе. Однако, когда речь идет о высшем образовании, возникает необходимость подключения специальных занятий по музыкальной критике для студентов исполнительских факультетов. Это связано с тем, что современная система музыкального

образования предполагает овладение студентами не только исполнительским искусством, но освоение музыкально-теоретических дисциплин. Важное место при этом следует уделять развитию критического анализа, владение которым поможет им в учебном процессе. В частности, научит работать с научной литературой, писать анонсы, рецензии, критические заметки, научные статьи, а также готовить доклады для участия в научно-практических конференциях.

Кроме того, в соответствие с учебными программами, каждый выпускник бакалавриата и магистратуры, готовясь к государственному экзамену, должен представить выпускную квалификационную работу или магистерскую диссертацию, соответственно. Для осуществления этой задачи требуется продолжительная, серьезная подготовка. В связи с этим, видится целесообразным дополнить теоретические предметы, такие как гармония, полифония, анализ музыкальных форм, отдельной дисциплиной «Музыкальная критика» и спецкурсами, направленными на совершенствование их знаний и навыков в написании научно-публицистических, музыкально-критических работ. То есть дисциплина «Музыкальная критика» должна стать одной из базовых в учебном процессе музыкантов-исполнителей, а не ограничиваться «предметом по выбору», который посещают единицы исключительно по собственной инициативе.

Главное, что для внедрения занятия по музыкальной критике в учебном процессе уже заложен фундамент. Начиная с 1972 года, когда вышло Постановление Центрального комитета Компартии Узбекистана «О литературной художественной критике» (январь 1972 г.), задача развития критического мышления, «глубокого анализа явлений, тенденций и закономерностей современного художественного процесса» (5, 11) того периода являлась одной из важнейших в отечественном музыкознании. Шла целенаправленная работа по решению отдельных теоретических вопросов, связанных с внедрением музыкально-критического подхода к осмыслению наиболее заметных событий и процессов, происходящих в культурной жизни страны. Выход в свет «Музыкальной критики в Узбекистане» С.Векслера знаменовало тот факт, что эта область музыковедения состоялась как сложившаяся часть той серьезной исследовательской работы, проводимой в республике.

С течением времени возникла реальная необходимость подготовки специалистов в сфере музыкально-критического анализа, в связи с чем было принято решение о создании отдельной самостоятельной кафедры «Музыкальной критики» на музыковедческом факультете консерватории. Инициатором этого выступила известный музыковед В.З.Плунгян – автор

множества трудов, в том числе и музыкально-критических, воспитавшая несколько поколений музыковедов, активно проявлявших себя и на поприще музыкальной журналистики. Руководил кафедрой профессор Т.Б.Гафурбеков, внесший заметный вклад в отечественное музыкознание, в том числе и в развитие музыкально-критического мышления как у музыковедов, так и у исполнителей. Сегодня кафедра «Музыкальной критики» вновь воссоединилась с кафедрой «Истории музыки», на которой изучается ряд дисциплин, связанных с музыкальной критикой, телерадио журналистикой, лекторской практикой.

Накопленный опыт будет чрезвычайно полезен и в занятиях со студентами исполнительских факультетов. Поэтапное и всестороннее овладение «искусством суждения» подготовит платформу для дальнейшего развития их научного потенциала уже на уровне докторских исследований, где умение аналитически сравнивать различные явления в музыкальной культуре, обобщать, классифицировать, давать критическую оценку являются ключевыми, без которых работа над диссертацией невозможна.

Наконец, совершенствование музыкально-критического мышления необходимо и в педагогической деятельности, как залог высокого профессионализма, важного подспорья в работе со студентами, при разработке и создании специальных учебно-методических пособий, учебников и программ. Но, что особенно важно, оно поможет развить в себе навык самокритики, который в балансе с объективностью и взвешенностью будет положительно сказываться на творческом росте, повышении собственного мастерства, позволит еще глубже и тоныше осознавать себя как части уникальной и самобытной национальной музыкальной культуры, которую создаем мы сами, своим трудом и талантом.

Список используемой литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию сферы культуры и искусства» от 02.02.2022г. № ПП-112. – [Интернет ресурс] Электронный доступ: <https://www.lex.uz/docs/5849582?ONDATE=03.02.2022%2000>
2. Оспанова Т.У. Особенности музыковедческой подготовки на современном этапе // Современное музыкальное образование — 2014: Материалы XIII Международной научно-практической конференции. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2014. — 572 с.
3. Колесникова Г.А. Исследовательские аспекты педагогики музыкального образования Казахстана (на примере деятельности научной школы Джердималиевой Р.Р.) // Вестник КазНПУ, 2015. – [Интернет ресурс]

Электронный доступ: <https://articlekz.com/article/19617> Дата обращения: 07.04.2022 г.

4. Исмайлова С.А. Разработка системы методов по формированию музыкально-критического мышления учащегося-пианиста // актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, 2010. – [Интернет ресурс] Электронный доступ: <https://cyberleninka.ru/article/n/razrabortka-sistemy-metodov-po-formirovaniyu-muzykalno-kriticheskogo-myshleniya-uchaschegosya-pianista/viewer> Дата обращения: 01.04.2022 г.
5. Вызго Т.С. Узбекское музыкознание на современном этапе // Узбекская музыка на современном этапе. Сб. ст. – Т.: Изд-во лит. и искусства им. Г.Гуляма, 1977. – С. 5-16.

CHOLG‘U IJROCHILIGIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Xudoyqulova Nilufar Xo‘jamurod qizi
O‘zDSMI “Musiqiy-nazariy fanlar”
kafedrasi o‘qituvchisi
xbnn4@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi o‘rnini, ularning ijobiy va salbiy ta’siri haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, maqolada fortepiano musiqasi janrlarida yaratilgan asarlarning e’tiborga molik jihatlarini inobatga olgan holda hamda fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, talaba ijro dasturidan o‘rin olgan badiiy namunalarni samarali yod olishdagi mantiqiy, motorik (harakat), eshitish, vizual (ko‘rish) va emotsiyonal xotira turlarining ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Sintetik qobiliyat, xotira, musiqiy xotira, mantiqiy, motorik (harakat), eshitish, vizual (ko‘rish), emotsiyonal xotira turlari, ijro dasturi, pyesa, etyud, polifoniya, ekspozitsiya.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИНСТРУМЕНТАЛЬНОМ ИСПОЛНИТЕЛЬСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль, положительные и отрицательные влияния информационных и коммуникационных технологий в образовании на сегодняшний день. Также в статье рассматриваются виды логической, моторной, слуховой, зрительной и эмоциональной памяти при эффективном запоминании музыкальных произведений с учетом особенностей, специфики жанра фортепианной музыки которые входят в программу студенческого исполнительства.

Ключевые слова: Синтетическая способность, память, музыкальная память, логическая, моторная (двигательная), слуховая, зрительная, виды эмоциональной памяти, исполнительская программа, пьеса, этюд, полифония, экспозиция.

THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN INSTRUMENTAL PERFORMANCE

ABSTRACT

This article discusses the role, positive and negative effects of information and communication technologies in education today. The article also discusses the types of logical, motor, auditory, visual and emotional memory in the effective memorization of musical works, taking into account the features and specifics of the piano music genre that are included in the program of student performance.

Keywords: Synthetic ability, memory, musical memory, logical, motor (motor), auditory, visual, types of emotional memory, performing program, play, study, polyphony, exposition.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ta’limga, xususan Oliy ta’limga jiddiy e’tibor qaratilayotgani bejiz emas albatta. Zero, har bir davlat rivojlanish bosqichida bilimli va malakali, zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo,lgan yoshlarga ehtiyoj sezadi. Chunki, yuksak marralar sari jadal rivojlanib borayotgan Yangi O,zbekiston taraqqiyotiga Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olgan yuqori kompetentli, malakali kadrlar, axborotlashgan zamonda fan-texnika taraqqiyotiga albatta o,z xissalarini qo,shadilar.

Barchamizga ma’lumki, XXI asr yuksak axborot-texnologiyalar davri bo,lib, O,zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish, ta’lim jarayoni sifati va natijadorligini oshirish maqsadida axborot telekommunikasion texnologiyalaridan samarali foydalanish yuzasidan keng ko,lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O,zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O,zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya”si to,g,risidagi PF-5847-sonli Farmoniga ko,ra “Ta’lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish”, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo,yicha qo,shimcha chora-tadbirlar to,g,risida”gi PQ-3775-son qarorida innovatsion va texnologik g,oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo,llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o,qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish; o,quv mashg,ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo,naltiradigan o,qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish kabi vazifalarga e’tibor qaratilgan¹.

Hozirda IT texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib borib kun sayin rivojlanmoqda. Shunga ko,ra oliy ta’lim professor-o,qituvchilar va talaba yoshlardan ham axborot-texnologiyalardan foydalana olish va uni o,quv jarayonida

¹ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)

tadbiq eta olish talab etilmoqda². Informatsion texnologiyalarning ta’limdagi, xususan oliy ta’limdagi ta’siri yuqori boilib, ular orqali talabalarning kreativ va tizimli fikrlashiga molik ahamiyati borligini texnolog olimlar e’tirof etishgan³.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarining ta’limdagi ahamiyati qanchalik muhim va zarur boimasin yoshlarga bu vositalardan ratsional foydalanishni har doyim eslatib turishimiz zarur. Chunki, raqamli vositalardan ongsiz ravishda besamar, nazoratsiz foydalanish diqqatga va ayniqsa xotiraga zarari borligi sohaga oid bir qancha tadqiqotlarda asosli ta’kidlangan⁴.

Musiqa ta’limini egallashda asosiy va eng muhimi jihat katta hajmdagi ma’lumotlarni egallash va yodda saqlash, oquv dasturiga mos keladigan ijo repertuarini o’zlashtirish, amaliy ko’nikmalarga ega bolishdir.

Cholg‘u ijrochiligi darslarida aksariyat talabalar uchun murakkab vazifalardan biri semestr ijo dasturida oqin olgan yangi musiqiy asarlarni tez va sifatli yod olishdir. Tarkibiga ko’ra mushkul bolegan musiqiy asarlarni yod olib, ularni xotirada saqlab va ma’lum vaqtda xotirada tiklash bu nihoyatda murakkabdir. Chunki xotira – “in’ikos etilgan narsa va hodisalarni yoki o’tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur boleganda tiklashdan iborat psixologik jarayon”dir⁵.

Ma’lumki, xotiraning obrazli, emotsiyal, mantiqiy, motorik, vizual, hissiy kabi turlari mavjud. Musiqiy xotira esa eshitgan va esda saqlab qolningan musiqiy matinni izchil ifoda etishdir. Tarkibiga ko’ra musiqiy xotira murakkab sintetik qobiliyat boilib, xotiraning bir qancha turlarini, jumladan mantiqiy xotira, motorik, ya’ni harakat xotirasi, eshitish xotirasi, vizual (ko’rish) xotira va emotsiyal xotira turlarini o’zida mujassamlashtiradi⁶. Shundan kelib chiqqan holda musiqiy asarni o’rganish jarayonida sezgi, hissiy va aqliy faoliyat qanchalik yuqori bolsa, u shunchalik tez o’zlashtiriladi. Demak, asar matnini yod olishda imkon qadar ko’proq xotira turlaridan foydalanish zarur.

Biz bilamizki, nota matnlari tarkibiy jihatdan polifonik, gamofon-garmonik boilib, ular o’ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Musiqiy asarni tahlil qilish jarayoni asar mohiyatini anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. O’rganilayotgan asar matni albatta batafsil tahlil qilinganidan so’ng yod olinishi kerak. Xususan, G.M.Sipinning “Fortepianoda chalishni o’rganish” (“Обучение игре на фортепиано”) qo’llanmasida musiqiy asarni yod olishning samarali uslublari

² Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. – М.: Академия, 2005. С 11.

³ Аллаярова С. Ахборот-коммуникация технологиялари олий талим сифати ва самародорлигини ошириш омили. Замонавий таълим. 2020, 4 (89). 10-19 б.

⁴ Japhet E. Lawrence, Usman A. Factors that influence teachers adoption and integration of ICT in teaching/learning process // Educational Media International. February 2018, 55(4):1-27. DOI:10.1080/09523987.2018.1439712

⁵ Хотира – нерв тизими хусусиятларидан бири бўлиб, ташки олам воқеалари ва организм реакциялари ҳақидаги ахборотни узок саклаш ҳамда уни онг фаолиятида ва хулк, хатти-харакат доирасида қайта тиклаш қобилиятида намоён бўлади. Каранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9 жилд – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», Давлат илмий нашриёти, 2000. 241 б.

⁶ Алексеев Д.Е. Методика обучения игре на фортепиано. – М.: Музыка, 1978. С. 34.

yoritilgan. Uning ta’kidlashicha, musiqiy asarni yod olish jarayonida puxta o,ylangan, mantiqli uslublarga badiiy intelektual, hissiy aktivlikni birlashtirgandagina to,,liq o,zlashtirish mumkin⁷.

Cholg‘u asarni o,zlashtirishda dastlab uni rasional⁸ bo,laklarga taqsimlab olib, uning tonal va garmonik jihatdan modulyasiyalangan sekvensiyalarni hamda takrorlanuvchi o,xshash jumlalarini aniqlab intonatsiyasi ustida ishlash, so,ng bir-biriga qo,shib yaxlit epizod (hajman yirik bo,lgan musiqiy lavha) holida asar matnini yodlash tavsija etiladi. Bunday amaliyat nazarimizda, talabalarda o,rganilayotgan asar matnni “uzoq muddatli” xotirada saqlanishiga faol xizmat qiladi. Shu bilan birga, musiqiy matnni tezroq o,zlashtirib yod olishda vizual xotiraning ham o,rni bor. Shuni alohida ta’kidlab o,tish kerakki, vizual xotira ichki eshitish xotirasi bilan chambarchas bog,liq bo,lib, u xotira usuli bilan asar matni tahlil qilib chiqilgandan so,ng, kuy yo,llarini ichki eshitish xotira turini “ishga” solgan holda yod olish lozim. Ta’kid joizki, shu uslubda yod etilgan musiqiy asarni ijro etish jarayonida albatta, uning matni ijrochi talabaning ko,z oldida namoyon bo,ladi.

Xotiraning emotсional turi esa kechinma xotirasi sifatida obyektiv voqelikning ta“sirida o,rganuvchi ongida kechgan his-tuyg,ular va hissiyotlarni yodda saqlaydi. Aynan emotсional xotira turi orqali musiqiy asarning badiiy obrazi ijroda “hosil” qilinadi. Hissiy kechinmalar emotсional xotiraning muhim omili bo,lib, u o,z navbatida musiqiy va hissiyotli ijroning poydevoriga aylanadi.

Shuni ham aytib o,tish kerakki, asarning vertikal garmonik yo,lini ichki eshitish qobiliyati bilan tinglash, kuy yo,llarini xirgoyi qilish asarni puxta yod olishda samarali uslublardandir.

Musiqiy asar tahlilidan so,ng uning umumiy shakli aniq bo,lgandagina ijro va oldindan taqsimlab olingan qismlarni yod olishga “kirishiladi”.

Asar puxta yod olinishi uchun tempning ham ahamiyati katta. Bu jarayonni muallif tomonidan belgilangan tempda emas, avval mo,tadil sur“atda amalga oshirish kerak. Chunki tafakkur qilish imkonи yuqori tempda susayadi va o,z-o,zidan asar yuzaki yodlanadi. Yod olingan jumlani qayta-qayta takrorlab, ongda saqlanganligiga ishonch hosil qilingandan keyin boshqa parchani yod olishga kirishiladi. Yangi ikkinchi jumla shu tariqa o,zlashtirilgandan so,ng birinchi jumla bilan qo,shgan holda ijro etiladi. Pirovardida shu jarayon bilan o,rganilgan va yod olingan jumlalar mustahkam xotiraga jamlanishiga ximat qiladi.

Musiqiy xotirani rivojlantirishga oid quyidagi muhim qoidalarni xulosa o,rnida aytib o,tish joizdir. Cholg‘u ijrochiligi mashg,ulotlari bilan muntazam, ma“lum bir vaqtida shug,ullanish musiqiy asarni yod olishning asosiy shartlardan biridir. Bundan

⁷ Цыпин Г.М. “Обучение игре на фортепиано” – М.: Просвещение. 1984. С. 111.

⁸ Ratsional – oqilona, maqsadga muvofiq. Qarang: Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: “Оникс”; 2005. С. 875

tashqari, matn tahlilida applikatura, ya’ni barmoqlar joylashuvini aniqlab olib, har doim ularni bir xilda chalish, yod olingan asar ijrosida “uzulishlar” bo,masligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, asar ijrosi uchun muhim bo,lgan jihat badiiy obrazni ifoda vositalari orqali yod olinishi ham zarur. Musiqiy matnni o,xshash, bir xil jumlalarini aniqlab, ularni solishtirish va yaxlit epizodlarni belgilab olish orqali uni qisqa vaqtda puxta yod olishga erishiladi. Musiqiy asarni yoddan ijrosida kutilmagan “uzilish” bo,lsa darhol to,xtab, nota matnida aynan o,sha taktlardagi nomukammal o,rganish sabablari aniqlanadi. Bunda, aniqlangan jumlanı yanada mo,tadil tempda *forte* chalish orqali ijrodagi “uzilish” sabablari bartaraf etiladi va mukammal ijroga erishiladi. Musiqiy matn to,liq o,zlashtirilgandan keyingina asarning badiiy obrazi ustida ishlanadi.

Musiqiy asarlarni yod olishda har bir pedagog-cholg,uchi aynan shu tamoyillarni inobatga olib, ulardan ta“lim jarayonlarida foydalansa, va eng muhimi, mazkur tizimni o,quvchi-talabalarga “yuqtira” olsa cholg,u ijrochiligi mashg,ulotlarida natijadorlik oshadi hamda darslar ijobiy, samarali bo,jadi deb o,ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. – М.: Академия, 2005. С. 11.
2. Allayarova S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oliy talim sifati va samaradorligini oshirish omili. Zamonaviy ta“lim. 2020, 4 (89). 10-19 b.
3. Japhet E. Lawrence, Usman A. Factors that influence teachers adoption and integration of ICT in teaching/learning process // Educational Media International. February 2018, 55(4):1-27. DOI:10.1080/09523987.2018.1439712
4. O,zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9 jild – Т.: «O,zbekiston milliy ensiklopediyasi», Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 241 b.
5. Алексеев Д.Е. Методика обучениуа игре на фортепиано. – М.: Музыка, 1978. С. 34.
6. Цыпин Г.М. “Обучение игре на фортепиано” – М.: Просвещение. 1984. С. 111.
7. Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: “Оникс”; 2005. С. 87
8. Qonun hujjatlari ma“lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)

AMALIY DARSLARDA ART PEDAGOGIKANING O‘RNI

J. G‘. Turatov

O‘zbekiston davlat san“at va madaniyat instituti
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada amaliy dars jarayonlarida metodik material sifatida badiiy terapiya, badiiy ta’lim va badiiy pedagogika amaliyotida qo’llaniladigan metod va vositalardan foydalanish uchun kerakli maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlari: art pedagogika, badiiy pedagogika, badiiy pedagogik faoliyat, san“at, san“at vositasida ta’lim, ta’lim jarayoni, “badiiy-pedagogik faoliyat”, “badiiy-pedagogik o‘zaro ta’sir”, “badiiy-pedagogik jarayon”, “badiiy-pedagogik ta’minot”, “badiiy-pedagogik vositalar”.

Shaxsning shakllanishi, uning ijodiy salohiyatining rivojlanishi, shaxsning o‘zini o‘zi anglashi ko‘plab omillarga bog,liq bo,lib, ular orasida uning hissiy farovonligi muhim o,rin tutadi. Shu sababli, hozirgi vaqtida maktab o‘quvchilarini badiiy va badiiy-ijodiy faoliyat (vizual, musiqa, teatr va o,yin) orqali rivojlantirish va tarbiyalash tizimida badiiy pedagogika (art pedagogika) kabi yangi yo,nalishga qiziqish bejiz emas. San“at pedagogikasini o,rganish va tadqiq etishning dolzarbliji uning mamlakatimizda faol rivojlanayotgan psixoterapiya bilan chambarchas bog,liqligi bilan belgilanadi. Shu bois keyingi paytlarda uning yangi usullari, shakllari, texnologiyalari va modellari yaratilmoqda.

San“at pedagogikasi - bu nazariya va amaliyotning rivojlanishini ta’minlovchi ilmiy bilimlarning ikki sohasi (san“at va pedagogika) sintezi.

San“at pedagogikasi rivojlanishida nuqsonlari bo,lgan o‘quvchilarga dars jarayonida maʼlumotlarni tez va oddiy uslub va metodlar orqali o,rganishni hamda badiiy rivojlanishini o,rgatadi.

San“at pedagogikasi - pedagogika fanining mustaqil sohasi bo,lib, u san“at vositasida inson tarbiyasi va rivojlanishi qonuniyatlarini o,rganadi. San“at pedagogikasi umumiyligi pedagogika bilan umumiyligi yakuniy maqsadlarga ega.

Art pedagogikaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u rivojlanuvchi va tarbiyaviy salohiyatga ega bo,lgan badiiy va badiiy ijodiy faoliyat vositalari bilan ishlaydi. U badiiy ta’lim va tarbiyaning o,rnini bosmaydi, balki ularni to,ldiradi va rivojlanish, o,qitish va tarbiya jarayoniga yangi o‘ziga xos yo,nalish beradi.

Art pedagogikaning asosiy tushunchalari “badiiy-pedagogik faoliyat”, “badiiy-

pedagogik o,żaro ta“sir”, “badiiy-pedagogik jarayon”, “badiiy-pedagogik ta“minot”, “badiiy-pedagogik vositalar”ni o,ż ichiga oladi. Keltirilgan tushunchalar pedagogik muammolarni hal qilishda san“at vositalaridan foydalanadigan mutaxassisning amaliy faoliyatini tavsiflash imkonini beradi. San“at pedagogikasi uchun “badiiy pedagogik faoliyat” tushunchasi umumlashtiruvchi bo,lib, san“at vositalaridan foydalangan holda kasbiy niyat va maqsadlarni amalga oshirish uchun pedagogik harakatlarning butun majmuasini aks ettiradi.¹

San“at pedagogikasi ta“lim doirasida nafaqat badiiy ta“limni, balki san“at yordamida tuzatish va rivojlanish jarayonining barcha tarkibiy qismlarini ham ko,rib chiqishga imkon beradi. Tuzatish ishlarida san“atning muhim rolini xorijiy pedagogika vakillari E.Segin, J.Demor, O.Dekroli, shuningdek, L.S.Vigotskiy, A.I.Graborov, E.A.Ekjanova, T.S.Komarova va boshqalar ta“kidlab o,tishgan.²

San“at pedagogikasi – o,quvchi shaxsiga samarali tarbiyaviy ta“sir ko,rsatish maqsadida turli san“at turlarini o,quv jarayoniga integratsiyalashgan holda qo,llashga asoslangan ilmiy-pedagogik yo,nalishdir. Shu sababli san“at pedagogikasi o,quv jarayonida tasviri san“at vositalaridan foydalanishni, o,qituvchi va talabaning birgalikdagi badiiy ijodini, turli xil o,quv va darsdan tashqari tadbirlarda birgalikda ishtirokini nazarda tutadi.

Badiiy pedagogikaning (san“at pedagogika) vazifa va funksiyalari ta“limning mavjud dasturlaridan sezilarli farq qiladi, chunki maqsad bolani rasm chizishga o,rgatish emas, balki o,zini ifoda etish, o,ż-o,zini bilish, muloqot ko,nikmalarini egallash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Art pedagogika o,quvchilarda tasavvurni, e“tiborni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, o,ż his-tuyg,ularini va kayfiyatini erkin ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga, jamoada ishslashga yordam beradi.

Art pedagogikada didaktik maqsadlardan ko,ra ta“lim va rivojlanish maqsadlari ustunlik qiladi. Ijodiy faoliyat jarayonida o,qituvchi va talabaning o,zaro hamkorligi o,quvchining hissiy va shaxsiy rivojlanishi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, o,zini o,zi bilish, o,zini o,zi takomillashtirish, o,zini o,zi ochish, o,zini rivojlantirish va o,zini o,zi rivojlantirish jarayonlariga yordam beradi hamda amaliy tarzda amalga oshiradi.

Boshqa tomondan, badiiy pedagogik usullardan foydalanish o,qituvchiga bolalarni yaxshiroq tushunishga, ularning shaxsiy va ijodiy imkoniyatlarini, psixologik xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi. O,qituvchi uchun bu mifik o,quvchilarini rivojlantirish va tarbiyalash jarayonining samaradorligini oshirishga

¹ Сергеева Н.Ю. Арт-педагогика и арт-терапия: к вопросу о разграничении понятий. 10.03.2016

² Савлухинская Н.В., Павлова М.С. Теория и методика применения арт-педагогических технологий в работе с детьми // Современные проблемы науки и образования. – 2016. – № 3.;

imkon beradigan juda muhim ma’lumotdir.

Badiiy pedagogik usullar tasviriy san“at darslarida yoki musiqa darslarida o,quv jarayoniga kiritilishi mumkin. Tasviriy san“at darslarida birinchi sinfdan to oxirgi sinfgacha bo,lgan har bir darsda u yoki bu badiiy pedagogik metodlar bo,lishi mumkin. Shunday qilib, san“at (musiqa) o,qituvchisi dars davomida dam olish, stress, charchoqni va asabiyashishni yengillashtirishga, materialni idrok etishga, u yoki bu o,quv va tarbiyaviy ishlarni bajarishga yordam beradigan badiiy materiallardan foydalanadi.

Bunda barcha badiiy pedagogik texnikalar kontrastga: kuchlanish va yengillik dialektikasiga asoslanadi. Masalan, nafas olishni normallashtirish uchun kirish qismini nafas olish mashqlari bilan boshlash va tugatish kerak. Kattaroq ta“sirga erishish uchun nafas olish mashqlari ijobiy tasvirlar bilan birga bo,lishi mumkin. Masalan: “Tasavvur qiling, siz o,rmon chetida, quyoshda charog,on kunda cho,milayapsiz! Siz bu o,rmon hididan nafas olasiz va barcha yomon o,y-xayollaringizni nafas orqali chiqarib, dam olasiz!”³ Bu metod bir lahzalik relaks (dam olish) natijasida bolalarning yoshiga, qiziqishlariga va hokazolarga mos ko,plab ijobiy tasavvurlarni topishga yordam beradi.

Musiqa mashhg,ulotda raqs mashqlaridan ham foydalanishingiz mumkin. Mavzuga, darsning amaliy qismining xususiyatiga qarab siz raqs mashqlarini ham, musiqiy hamrohlikni ham o,zgartirishingiz mumkin. Agar amaliy qism bolalardan his-tuyg,ularning portlashini, yorqin ijodiy tasvirlarni, tasavvur parvozini va hokazolarni talab qilsa, unda musiqa ham, harakatlar ham mos bo,lishi kerak. Yoki aksincha, agar darsning asosiy amaliy qismi diqqatni jamlash va xotirjamlikni talab qilsa, u holda musiqaga ritmik harakatlar xotirjam bo,lishi kerak. Darsning badiiy-pedagogik qismini yakunlash uchun, yuqorida aytib o,tilganidek, nafas olish, dam olishni tiklash uchun mashqlar zarur.

Badiiy-pedagogik mashqlarni bajarish jarayonida eng muhim moment - o,qituvchi doimiy ravishda bolalarning harakatlarini qandaydir ijobiy tasvirlar bilan kuzatib boradi, ular bolalarda dars mavzusini idrok etish, yakunlash uchun ma’lum bir kayfiyatni shakllantirishga qaratilgan (ijodiy vazifa va boshqalar). Ushbu ijobiy tasvirlar mashqlar paytida improvizatsiya sifatida paydo bo,lishi mumkin yoki o,qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanishi mumkin, lekin ular bolalarga erkin xayol qilish va ularni mazmun bilan to,ldirish imkoniyati beriladigan ramka xarakterida bo,lishi kerak. Ehtimol, natijada, ijodiy vazifa tugaguniga qadar, bolalar o,zlarining individual badiiy qiyofasini shakllantiradilar, ular ijodiy ishlarga o,tadilar.

Musiqa darslarida ham badiiy pedagogik usullardan foydalanishda ham cheklovlar yo,q. Ularni dars konspektiga yozish unchalik qiyin emas, chunki hissiy

³ Лебедева Л. Д. Практика арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. СПб.: Речь, 2003. 254 с.

idrok asosida qurilgan musiqa darsining o‘zi o‘z mohiyatiga ko‘ra badiiy-pedagogikdir. Shuning uchun diqqatni didaktik maqsadlardan rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlarga o‘zgartirish kerak va darsni badiiy pedagogik texnikaga to‘liq bog‘lash mumkin.

Urib chalinadigan cholg‘ularni ijro qilish mustaqil usul sifatida badiiy pedagogikada va musiqa terapiyasida qo‘llaniladi. Musiqiy ritm (musiqa ostidagi harakatlar), ashula ustida ishslash nafas olish (bir xil nafas olish mashqlari), aslida qo‘shiq aytish badiiy pedagogikaning mustaqil usullaridir.

Hammamizga ma‘lum, endigina ijrochilik sohasiga kirib kelgan o‘quvchini biror cholg‘uga qiziqtirish, cholg‘uni o‘rgatish o‘qituvchi uchun katta mahoratni talab qiladi. Ijrochilikda ham aynan badiiy pedagogikaning (san‘at pedagogika) yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan usullaridan endigina ijrochilik sohasiga kirib kelayotgan o‘quvchilar bilan ishslashda, ularning ijrochilik mahoratini, sahma va jamoa ijrochiligi qobiliyatlarini yanada o‘shtirishda foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta‘kidlash mumkinki, art pedagogika har tomonlama o‘rganish va izlanishni talab qiluvchi yangi, qiziqarli, istiqbolli yo‘nalishdir. Badiiy pedagogik usullardan foydalanishda tasviriy va musiqa san‘ati o‘qituvchilarining xohish-istiklaridan tashqari hech qanday to‘siq yo‘q. Maktabdagagi boshqa darslarda ham badiiy pedagogikadan foydalanish ortiqcha bo‘lmaydi, faqat ularni qanday va qayerda qo‘llash maqsadga muvofiqroq bo‘lishini o‘ylab ko‘rish kerak. Badiiy pedagogika darslarini faqat sinfdan tashqari ishlar tizimiga va qo‘srimcha ta‘limga bog‘lash yaramaydi. U har qanday ta‘lim muassasasining o‘quv ishlarining tuzilishiga juda mos keladi.

Xozirgi kunga kelib art pedagogikasi respublikamizda mavjud oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim jarayonlariga kirib kelmoqda. Bu ta‘lim jarayoniga o‘ziga xos yangi, integral metodlarni shakllantirishga albatta yordam beradi. Art pedagogikasini ta‘lim jarayoniga fan sifatida o‘tilishi uchun albatta biror o‘quv qo‘llanma yoki darslik bo‘lishi zarur. Shu bois xozirgi kunda professor olimlarimiz tomonidan jaxon ta‘limi o‘rganilib, o‘quv qo‘llanma va darsliklar ishlab chiqilmoqda.

O‘ylaymizki, jaxon artpedagogik tajribasidan kelib chiqib, respublikamizda mavjud barcha ta‘lim muassasalarida (mutaxassislik hamda yo‘nalishilardan kelib chiqqan holda, umumta‘lim, o‘rta ta‘lim, oliy ta‘lim) art pedagogikani fan sifatida joriy qilinsa, yuqoridagi keltirilgan ijobiy artpedagogik natijalar o‘z tasdigini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Natalya Yuryevna Sergeyeva, Art-pedagogika i art-terapiya: k voprosu o razgranichenii ponyatiy. 10.03.2016.
2. Savluchinskaya N.V., Pavlova M.S. Teoriya i metodika primeneniya art-

Cholg‘u ijrochiligidä musiqiy ta’lim uzviyiliginı ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

pedagogicheskix texnologiy v rabote s detmi // Sovremenniye problemi nauki i obrazovaniY. – 2016. – № 3.;

URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=24509> (data obrasheniya: 02.12.2021).

3. Lebedeva L.D. Praktika art-terapii: podxodi, diagnostika, sistema zanyatiy. SPb.: Rech, 2003. 254 s.

**TINGLOVCHILAR ORASIDA O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULAR
ORKESTRI VA ANSAMBL IJROCHILIGI TARG‘IBOTI MASALALARI**

Sadullayev Nodirbek Allamberdiyevich
O‘zbekiston davlat konservatoriysi 1 kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek milliy cholg‘ular orkestri va ansmbly ijrochiligi tarqqiyoti, uning o‘ziga xos yutuqlari haqida so‘z boradi. Unda yo‘nalishning istiqboli va mavjud muammolarining tahlili, ularning yechimlari haqida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘povozli musiqa, ijrochilik san’ati, ijro repertuari, targ‘ibot, milliy cholg‘ular orkestri, art marketing, tinglovchi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится об исполнительном искусстве оркестра, национальных инструментов, о составе ансамбля и собственном им исполнений. В нём анализ будущих направлений и существующих проблем, их решения и выводы.

Ключевые слова: многоголосная музыка, исполнительское искусство, репертуар, оркестр национальных инструментов, арт маркетинг, слушатель.

ABSTRACT

This article discusses the development of the Uzbek national orchestra and ensemble performance its specific achievements. It contains an analysis of future directions and existing problems, their solutions and conclusions.

Keywords: Polyphonic music, performing arts, performance repertoire, promotion national instrument of orchestra, art marketing, listeners.

Zamonaviy tinglovchi uchun bugun misli ko‘rilmagan darajada imkoniyatlar mavjud. Internet tarmoqlari dunyoning hohlagan mamakati ijrochiliarining har qanday ijrolarini taqdim eta oladi. Turli mamlakatlarning minglab turdagи musiqiy audio-video ma’lumotlari barchasi zamonaviy tinglovchi uchun muhayyo. U hohlagan narsasini tanlab eshitma oladi. Aynan mana shu omil zamonaviy yoshlarimizning musiqiy didi, musiqiy tafakkuri va dunyoqarashlari shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib borayotganligi sir emas. Buning o‘ziga xos ijobjiy va salbiy jihatlari ham hammaga ma’lum. Bunday holatda milliy musiqa ijrochiligidan yoshlarimizning ijrochiligi qiziqerishini qozonishiga yordam berilishi kerak.

to‘g‘ri rivojlantirish, uni turli salbiy oqibatlardan himoya qilish masalasi ham yo‘q emas, albatta. Buning uchun birinchi navbatda internet tarmoqlarida berib borilayotgan musiqiy audio-video yozuvlarining sifati, uning mazmun-mohiyati, ularning milliy xususiyatlarimizga mosligi, bugungi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati kabi jihatlarga e’tibor qaratmoq zarur deb hisoblaymiz.

XX-asrning boshlariida kirib kelgan ko‘povozli musiqa ijrochiligi o‘tgan asr mobaynida o‘ziga xos tarzda rivojlanib, takomillashib, ijrochilik san’atida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘ldi. O‘tgan davrga nazar tashlaydigan bo‘lsak bu yo‘nalishning qo‘lga kiritgan bir qancha yutuqlarini kuzatishimiz mumkin. Dastlabki katta ansambl 1936 yili To‘xtasin Jalilov tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, 1937 yilda esa M.Mironov tomonidan milliy cholg‘ulardan katta orkestri tuziladi, keyinchalik A.I.Petrosyans tomonidan bu orkestr takomillashtiriladi va natijada bu orkestr filarmoniya qoshidagi T.Jalilov nomidagi katta orkestrga aylanadi. O‘zbekiston radio komiteti qoshida Doni Zokirov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri faoliyat olib borgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin ijrochilik san’atiga dadil qadamlar bilan kirib kelgan «Sug‘diyona» o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri bu yo‘nalishdagi ishlarni jadallashtirishga o‘z hissasini qo‘shdi.

Bundan tashqari mana shu davrda teatr san’ati va musiqali drama janrining rivojlanishida ham ko‘p ovozli cholg‘u musiqasining ham o‘ziga xos yo‘lini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol qilib Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrining orkestri, viloyatlardagi musiqali drama teatrlarida faoliyat olib borayotgan orkestr va ansambllarning faoliyati natijasida ko‘p ovozli musiqa san’ati rivojlanib bordi. Bugungi kungacha rivojlanib kelgan bu san’at turining hozirgi ahvoli qanday? Uning istiqbollari qanday? Uni yanada takomillashtirish uchun qanday vazifalar turibdi? Qanday dolzarb muammolar mavjud? Shu kabi bir qancha savollarga javob topish bugungi kundagi ijrochilik san’atidagi dolzarb masalalardan deb hisoblayman.

Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekistonda orkestr ijrochiligi targ‘ibotida filarmoniya qoshidagi T.Jalilov orkestri va avvalgi O‘zbekiston radio komiteti qoshidagi D.Zokirov nomidagi orkestr xamda “Sug‘diyona” orkestri jamoalari xizmatlari katta. Shunga qaramay mustaqillik davrining dastlabki yillarda filarmoniya qoshidagi va radio komitet qoshidagi orkestrlar faoliyatida biroz turg‘unlik xolati kuzatilganligi bois aynan shu davrda tashkil topgan “Sug‘diyona” kamer orkestri birdaniga xalq orasida tanilib o‘ziga xos yutuqlarga erisha boshladи. “Katta jamoalar o‘z dolzarbligini yo‘qotgan bir paytda, “Sug‘diyona” o‘zining yengil ko‘tarilishi bilan o‘zbek musiqasini ommalashtirish chegaralarini kengaytirib Yevropa va Osiyo bo‘ylab konsertlar bera boshladи” va nafaqat O‘zbekistonda balki xorijiy davlatlarda ham o‘zbek musiqasini targ‘ibot qilishga ulgurdi va bunga muvaffaq bo‘ldi. Professor Odiljon Nazrovning “Maqsad sari yo‘l” kitobida

ta’kidlanishicha “Sug‘diyona” orkestrining bugungi kundagi repertuarida 1000 dan ortiq asarlar mavjud. Shu o‘rinda bir narsaga to‘xtalib o‘tsak “Sug‘diyona” orkestrining muvaffaqiyatiga nima sabab bo‘ldi, menimcha orkestrning xalqona yo‘lni tanlagani, orkestr jamoasidagi sozandalarning xam ko‘p ovozli ham milliy yo‘nalishda ijro eta olishlari, konsert dasturlarini shu ikkita yo‘nalishda teng olib borilganligi va repertuarning yangiligi, hamda, aynan xalqqa yaqin bo‘lgan asarlarni qayta moslashtirilganligi deb bemalol aytishimiz mumkin. Yana bir muhim omil estrada yo‘nalishiga xos bo‘lgan asarlarni kirib kelishi, ya’ni xalq qabul qiladigan asarlarni topib tanlab bu yo‘nalishda o‘ziga xos izlanishlar olib borilganligi orkestr muvaffaqiyat sabablaridan biridir.

Orkestr va ansamblarning tinglovchilar orasida yanada ommalashishida 1996 yildan boshlab Toshkentda “Toshkent bahori” keyinchalik 2001 yildan boshlab “Navro‘z Sadolari” deb nomlangan dastlab respublika keyinchalik xalqaro miqyosdagi o‘tkaziladigan festivallarning ahamiyati katta bo‘ldi. Buni bu festivallarda yildan yilga ishtirokchilarning ko‘payib borishi, ijro repertuarlarining o‘zgarib murakkablashib borishi, jamoalarning soni ortishi, yosh dirijyorlarning yetishib chiqishi va keyinchalik viloyatlarda ham davom ettirilishini kuzatish mumkin. Nukus shahrida Nesipbay Alekeyev tomonidan tashkil etilgan “Jaslar”orkestri, Andijonda tashkil etilgan “Tarona” orkestri, Buxoroda Dilmurod Hamroyev, Qarshida Gulnoza Hamrayeva, Farg‘onada Dilorom Alimova tomonidan tuzilgan ko‘p ovozli ansamblar va ularni viloyat tadbirlariga jalb etilishi ham ko‘p ovozli ijrochilik targ‘ibotini ko‘rinishi deb aytishimiz mumkin. Ko‘povozli ijrochilik targ‘ibotida O‘zbekiston davlat konservatoriyasida yangi tashkil etilgan kamer orkestrlar va O‘zbekiston davlat Madaniyat va San’at institutida uch-to‘rttadan o‘quv orkestrlarining viloyat va tumanlarga borib konsertlar berib kelayotganini ham alohida ta’kidlash mumkin.

Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz joizki targ‘ibot qilish uchun har xil tashviqot va reklama vositalaridan foydalanish bugungi kunda keng yo‘lga qo‘yilgan. Jahan tajribasida prodyusserlik faoliyatları va buni tizimga solib konsertlar tashkil qilish yo‘nalishi allaqachon paydo bo‘lgan va ingliz tilida “art marketing” deb atalib allaqachon fan darajasiga yetgan. Bugungi zamonaviy shou biznes va ijrochilik san’atining eng mashhur vakillarining jahon miqyosida ommalashishida art marketingning o‘rni juda katta. Mamlakatimizda ham asta-sekin art marketing tizimi yo‘lga qo‘yilib bormoqda. Prodyuserlik, art menejment sohasi shakllanib san’at yo‘nalishida yaratilayotgan mahsulotni tinglovchilar, ya’ni iste’molchilarga yetkazishda zamonaviy tarzda yetkazib berish ishlari shakllanmoqda. Albatta bunday yo‘nalishda ishslash bugungi kunda har qanday mahsulot targ‘ibotining asosi bo‘lib ulgurgan. Shunday bo‘lsada, san’at sohasi ham o‘z mahsuloti sifati ustida ishlashi,

eng muhimmi, uning mazmun mohiyatiga ko‘proq e’tibor qaratishi, yaratilayotgan asarlar eng avvalo bizning milliy an’analarimiz, qadriyatlarimiz talablari asosida bo‘lishiga jiddiy e’tibor qaratishimiz zarur. Chunki, san’at omma ongiga tez ta’sir qiladigan muhim vositalardan biri. Aynan, shu sababdan ham biz yoshlarimiz tarbiyasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri jiddiy ta’sir etish kuchiga ega bo‘lgan bu muhim vositaga e’tibor bilan yondoshishimiz lozim.

Ushbu maqolamizda ko‘p ovozli musiqaning targ‘iboti xaqida so‘z yuritar ekanmiz, bugungi kunda buning uchun hukumatimiz tomonidan ancha yaxshi sharoitlar yaratilgan alohida ta’kidlash muhim. Mamlakatimizda dunyoning uncha muncha davlatida bo‘lмаган BMSMLar soni va ularning faoliyati, o‘quvchilarni qamrab olganligi, ularga eng zamonaviy shaklda ta’lim-tarbiya berib kelinayotganligini e’tirof etish joiz. Bunday sharoitlarda mutaxassislardan muntazam o‘z ustida izlanib, tinmay ijod qilish, tinglovchilarni sifatlari mahsulot – ya’ni, mazmunli musiqiy asarlar bilan ta’minlash talab etiladi. Shunday bo‘lsada, bugun konservatoriya, San’at va madaniyat instituti, universitetlarning musiqa yo‘nalishlarini tamomlagan orkestr va ansambl ijrochisi uchun viloyatlarda ish o‘rinlari yetarli emasligi achinarli. Viloyat markazlaridagi musiqali drama teatrlarida orkestr tarkibi uchun yetarli shtatlar mavjud emasligi natijasida spektakllar fonogrammalar orqali sahanalashtiriladi. Vaholanki, agar mavjud teatrlarga orkestr shtatlari berilsa qanchadan qancha yoshlar ish bilan ta’minlanishi bilan birga ko‘p ovozli musiqa taraqqiyotiga o‘ziga xos turki vazifasini o‘tagan bo‘lardi. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, milliy cholg‘ularda ko‘p ovozli musiqani tinglovchilar orasida targ‘ibot qilish uchun butun bir kompleks harakatlar qilinishi, ijrochilarimizning darajasini o‘sirish, jahon tajribasi bilan almashish, cholg‘ulashtirishning yangi yo‘nalishlarini topish, yangi cholg‘ularni jalb qilish, hamda, turli ifoda vositalari orqali biz tinglovchilar orasida ko‘p ovozli orkestr va ansambllarning targ‘ibotini yo‘lga qo‘yishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O.Matyoqubov. “Dodekogramma”, “Istiqlol”, T.,2005
- 2.O.Nazarov. “Maqsad sari yo‘l”, “Ilm-ziyo-zakovat”, T., 2021
- 3.III.Умаров “Рождение оркестра Узбекских народных инструментов ”2018
[https . Ws-conference.com](https://Ws-conference.com)
- 4.K.Olimboyeva,M.Axmedov. “O‘zbekiston xalq sozandalari”,T., 1959

ЗАМОНАВИЙ ИЖРОЧИЛИККА ЭЪТИБОР

Сайдакулова Гулшона Одилжон қизи
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Чолғу ижрочилиги” кафедраси 1 курс магистри

АННОТАЦИЯ

Аннотацияда мавзу бўйича тарихан долзарблиги, келиб чиқиши, тарқалиши, амалиётда қўлланилиши ҳамда ижрочиликдаги ютуқ ва камчиликлар бўйича сўз юритилади. Мақола илмийликка ёндашиб ёзилди. Керакли адабиётладан фойдаланилди.

АННОТАЦИЯ

В аннотации обсуждаются историческая актуальность, происхождение, распространение, практическое применение, достижения и недостатки темы. Статья написана с научным подходом. Использована необходимая литература.

ABSTRACT

The annotation discusses the historical relevance, origin, distribution, practical application and achievements and shortcomings of the topic. The article was written with a scientific approach. Necessary literature was used.

Санъат энг қадим замонлардан бошлаб бадиий шаклланган инсоният, унинг дунёқараси ва қиймат тизими ҳисобланади. Санъат гўзаллик изловчи ҳамда қалбларни жумбушга келтирувчи машақкатли касблардан биридир. У гоҳ юксалади, гоҳ доимий бир маромда туради, яъни санъатнинг қайси тур вакили бўлмасин ушбу касб йўлида доимий изланишларда бўлиши ва барча жабҳаларини ўрганиб боришда қийинчиликларга учраши аниқдир.

Қадим замонлардан санъатга бўлган эҳтиёж, киши билиб билмаган ҳолда ўз ўрнига эга булган, тошларга ўйилиб ёзилган суръатлар, турли ҳил маросимлар, кўргазмали қуролларнинг барчаси бунга исбот бўла олади. Уч минг йиллик тарихга эга ижрочилик санъати ҳам ўз замонасининг энг гузал санъат турларидан бири ҳисобланган. Бунга мисол Самарқанд яқинидан топилган суюқдан ясалган найни айтишимиз мумкин.¹ Ижрочилик санъати неча асрлардан бери соҳибларини ўз қарига тортиб мафтун эттириб келган, бунда инсонлар тақдирни ёзувларга битилиб, шеър ва достонларга айланиб, халқдан –

¹ И.Каримов «Юксак маънавият енгилмас куч» Тошкент 2008й

халқга етказилиб куй-қўшиқларга уланган барча наъмуналар ижрочиликнинг пойдеворига айланиб улгурди. Буюк алломаларимиз яшаб ижод этган даврларда ҳам ижрочилик ҳамда куй-қўшиқларга бўлган эътибор жуда аҳамиятли бўлган. IX аср охри X аср бошларида яшаб ижод этгпан Абу Наср ал – Форобийнинг “Китобул мусиқий ал – кабир” китоби², ал – Форобийнинг эстетик қарашларини давом эттирган тиббиёт ҳодими, файласуф ва мусиқашунос олим Абу Али ибн Сино, Мир Алишер Навоий даври, Темурийлар даври ва бошқа кўплаб уламоларимизнинг бизга қолдирган наъмуналари бунга яққол мисол бўла олади. Кейинчалик амрлик ва хонликлар даврида аста секинлик билан санъат хазиналари кўпайиб борди.

XIX аср охирларига келиб ўзбек мусиқий маданиятида ўзгаришлар даври бошланди десак адашмаймиз. Бу Туркистон ўлкасини Россия томонидан истило қилиниши билан боғлиқдир. Бу борада икки томонлама қараш билан ўрганиш мақсадга мувофиқдир. Чунки баъзи бир ҳолларда миллий мусиқа маданиятимизга салбий таъсир этганини кузатишимиш мумкин, иккинчи томондан эса, ўзига хос ривожланиш даври бўлганлигини ҳам эътироф этмай иожимиз йўқ. Бунда нота ёзувининг кириб келиши, диёрмизда миллий мусиқа санъатимизни илмий равишда ўрганиш, фолклор ва этнография соҳасидаги ривожланишга сезиларли таъсир этди.

Бу борада В.А.Успенский, Е.Е.Романовская, Н.Н.Миронов сингари мусиқашунос ва этнограф олимларнинг меҳнатларини айтиб ўтиш зуурдир. Илөс Акбаров, Мутал Бурхонов, Юнус Ражабий, Толибжон Содиков, Мухтор Ашрафий сингари мусиқамиз устунлари улардан сабоқ олдилар.³ Бундан ташқари, жаҳон мусиқий маданиятининг дурдоналари саналмиш фортопиано сози, опера ва балет, симфоник ижро, жаҳон классик мусиқий созларининг кириб келиши мусиқий маданиятимизнинг ҳар томонлама серқирра ривожига салмоқли ҳисса қўшди. Натижада, ўзбек халқ мусиқалари, қўшиқлари, мақомлари жой олган 20 жилдан ортиқ китоблар дунё юзини кўрди.⁴

Сўнгти 120 йил ичida мусиқий маданият ва санъатимиз мураккаб, кескин зиддиятларга учраб, ижобий ва салбий кўринишларга тўла тарихий даврни бошидан кечирди. Ана шу ҳолатларга қарамай, ўтган даврлар мобайнида илм фан, санъат, жумладан, маданият ва санъат, мусиқий илм соҳасида фахрланишга арзигулик ишлар амалга оширилганлигини эҳтироф этиш зарур. Яққол мисол сифатида халқ ижодиёти, мусиқа ижрочилиги, мусиқа илми, мусиқа таҳлили сингари соҳаларни олиш мумкин.

² И.Ражабов «Макомлар масалаларига доир» Тошкент 1993

³ Ф. М. Кароматов «Узбекская музыка»Тошкент 1972

⁴ Абдуллаев А.А. санъат тарихи Т. 1991

Бугунги замон ўзбек мусиқа ижодиети серқирра ва кўлами кенгдир, хозирги кунда ранг – баранг ривожланган ва шиддатли жараён сифатида гавдаланмоқда, янгидан – янги йўналиш, шакл, жанр, услублар билан янада бойиб бормоқда. Демакки, асрлар оша бизгача етиб келган ардоқли навобахш меросимиз қатори бир неча авлод ижодкорларининг кўркам мусиқий анъаналари маданий – маънавий мулкимизга айланди. Ҳар қандай санъат тури ҳар хил воситалар орқали ҳаётий воқеликни акс эттиришга қодир экан, сўнгти юз йиллик мобайнида Ўзбекистон мусиқасининг ривожланиши нечоғлик мураккаб ва ўзгарувчан ижтимоий шароитларда кечганини яққол тасаввур қилиш мумкин. Хусусан, 20-йиллардан эътиборан композиторликка хос ифода воситаларининг изчил жорий этила бошланиши мусиқий маданиятимизда мусиқа ижодкорлигининг янги тизими барпо этилишидан далолат берди.

Ғарбий ва Шарқий Европа мамлакатлари тажрибасидан унумли фойдаланиш, ўзгача яратувчанлик қонун - қоидаларини ўзлаштириш, уни ўзбек халқ мусиқасининг бой имкониятлари билан таништириш мақсадида илғор композиторларимиз нафақат Марказий Осиё, балки Шарқ минтақаси доирасида улкан ютуқларни қўлга киритишга эриша бошладилар.

Янгича мусиқий услугда ноёб замонавий асар яратиш, жаҳон халқлари мусиқаси ривожланишини ҳисобга олган ҳолда янгидан – янги ижодий уфқларни очиб бериш билан тавсифланувчи жараёнга Ўзбекистон ўз муносиб улуши билан дадил қила олди. Касбий улғайиш босқичларини тезкорлик билан ўтаб, ҳар томонлама етуклик палласига қўтарилиши билан «ижрочилик» маҳорати бўйича ҳам дунё маданиятида ўзига муносиб ўринни эгаллашга интилиб келмоқда. Бу борада амалга оширилаётган ишлардан далил сифатида кўрисатишимиш мумкин.

Асосан XX асрнинг иккинчи ярмида вужудга келган ана шундай ижодга майиллик даражаси илгари айрича ҳолда бўлган икки тоифадаги мусиқий тафаккур анъаналарининг ўрта осиё ва ўлкамизда узвий муштараклигига эришилганлиги билан ҳам характерланади. Шу боисдан кўп овозлик услуг ила бунёд этилган турли жанрлардаги бадиий жиҳатдан баркамол, мумтоз асрлар маънавий қадриятларимизнинг жаҳоншумул салоҳиятини янада ошириди, ва ҳозирги кунга қадар тажриба алмашиб имкониятлари ҳам кенг тарқалиб бормоқда.

Бугунги кунда ижрочиликдаги юксалиш ҳар қайси ривожланган мамлакатнинг ўз қадриятларидан келиб чиқиб оммалашиши урфга айланиб бормоқда. Замонавий ижрочиликни ҳам ахборот асрининг энг самарали ва оммабоп бўлиб бориши, ўсиб келаётган ёш авлодга ўз ижодий маҳоратларини юксалтиришга замин яратилиб берииши кутилган натижаларни бермоқда.

Айнан ижрочиликда наъмуна сифатида кўрсатишимииз мумкин бўлган, ижрочиликка янги йўналишларни олиб кирган, балалайка чолғусида миллий ҳамда замонавий ижрочиликни профессионал тарзда ижро эта оладиган, ўз касбининг моҳир устаси Россиялик “Алексей Виталевич Архиповский”нинг хаёти ва иходи ҳақида тўхтилиб ўтишни лозим топдим.



Алексей Архиповский 1967 йил 15 майда Краснодар ўлкасининг Туапсе шаҳрида туғилган. Музиқа иштиёқи болалигига гармоника ва 50-йилларда аккордеон чалган отасидан ўтган. 9 ёшида бўлажак виртуоз балалайка синфидаги музиқа мактабига ўқишига кирди. Ўқиши даврида бир неча бор шаҳар ва вилоят кўрик-танловларида катнашиб, совриндори бўлган.

Музиқа мактабининг охирида у икки қисмдан иборат биринчи яккахон концертини берди. 1982 йилда Давлат музиқа университетига ўқишига кирди. Гнесинлар халқ чолғулари бўлимига, Зажигин Валерий Евгениевич синфида балалайя чолғуси бўйича ўқиган.

1985 йилда у учинчи Бутунrossия халқ чолғулари ижрочилари танловида лауреат унвонини олди. Коллежни тугатгандан сўнг, 1989 йилдан бери у В.П.Дубровский раҳбарлигидаги **Смоленск** рус халқ оркестрида солист бўлиб ишлаган. 1998 йилда Л.Зикина раҳбарлигидаги “Россия” Давлат академик рус халқ ансамблига таклиф қилинди. Ансамбл билан биргаликда у Россияда ва хорижда кўп гастролларда бўлди. 2002-2003 йиллар яккахон фаолиятини бошлайди ва ҳозирги кунгача давом этмоқда. 2011 йил 18 марта Алексей Архиповский "дунёдаги энг яхши балайкачи" номзоди Россия рекордлар китобига кирди. Турли радио ва теледастурларда ўз чиқишилар билан хаммани эътибрини қозонди. Ҳозир у Россияда кўп гастролларда ҳамда хорижий давлатларда бўлиб турибти.

Ижро хусусиятлари ва воситаларини таҳрирлаш борасида сўз юритганда, унинг ўзига ҳос гармоника чалиш техникаси мавжуддир. Балалайка

чолғусининг дастасида унинг ноёб **махорати, тремоло, фракция ва пиззикато** каби кўплаб техникаларни академик усулда эмас, балки эски мактаб ва ўзига хос усуллар билан аралаштириб қўллаши таҳсинга сазовордир.

Унинг ижрочилик санъатига янги йўналишларни олиб кириши 2000-йилларнинг бошларидан бошланган. Алексей **Архиповский** чолғунинг оҳангдорлигини ошириш ҳақида тинмай ўйлай бошлади. У таниш гитарачиларга мурожаат қилиб улардан чолғу корпусига уланган симлар билан электрон кучайтиргичлардан фойдаланиш каби акустикани яхшилаш усулини ўрганиб олди, сўнгра ўзи ижро этадиган чолғусига мослаштириди. Концертларда Алексей битта темир ва иккита нейтлон торли "электрлаштирилган", "товушли" балалайкадан фойдаланиб, овозга акс-садо эффектини қўшади. Стандарт танлаш ва қўлнинг орқа томони, бармоқларнинг ёстиқчалари, қўлнинг ташқи томони ва бўғимлари билан ижро этади. Охирги ҳолат, қўшимча равишда, тембрни ўзгартиришга имкон беради. Баъзан, ижро билан бир вақтда, балалайка танасидан даф, том-том ва ноғора товушлари чиқарилади. Унинг овоз палитраси жуда хилма-хилдир. Балалайка ёки арфа каби, ёки клавесин каби, ёки банжо каби, ёки охир-оқибат, барча замонлар ва халқларнинг барча торли асбоблари каби" янграйди. Бу мусиқа тури...Ва мен балалайка сифатида қабул қилинmasлигини жуда хоҳлайман бренд ва миллий-мафкуравий белги, лекин оддийгина янгради.

Архиповскийни электр балалайканинг отаси деб аташ ҳам мумкин, гарчи у ўзи бу сўзни ёқтираса ва сунъий товушни бостиришга ҳаракат қилди.

2007 йилдан 2017 йилгача Алексей таниқли уста Иосиф Игнатиевич Галинисдан (1882-1942) 1928 йилги балалайкасидан фойдаланган. У бу балалайкани Нечепоренкодан вафотидан кейин мерос қилиб олди. Бу Алекс ўйнаган қўлларининг иккинчи асбобидир. 2017 йил ўрталаридан бери мусиқачи ўлимидан бироз олдин "рус Страдивари" Семён Иванович Налимов томонидан Андреев билан Буюк рус оркестрини яратишга тайёргарлик кўраётган Мариино қишлоғида яратилган 1915 йилги балалайкани ижро этмоқда.

Пастки арча дарахтидан қилинган, қобиқ лакланган, йўқолган техникага мувофиқ қилинган. 2017 йилда Алексей Аркҳиповский хайриҳоҳлардан мактуб олди, унда ушбу асбоб сотувга қўйилган немис ким ошди савдоси ҳақида гапирди. Ушбу балалайка, Налимовнинг барча машхур асарлари сингари, 20-асрнинг 70-йиллари ўрталарида немис коллектсияси томонидан сотиб олинган, аммо ҳозирда фақат ушбу асбоб Россияга қайтарилиган. Алексей асбобни Бурбот деб номлади (асбобларга ном бериш мусиқачилар орасида кенг тарқалган анъанадир). Алексей доимий равишда кучайтиргичдан фойдаланганда овозни рақамлаштиришни йўқотадиган мукаммал овоз чиқарувчи асбобни қидиради. У

нафақат Россиядаги барча машхур балалайка, гитара ва акустика усталари билан яқиндан мулоқот қиласы (у мунтазам равища немис гитара устаси билан боғланади). Аммо маестронинг ўзига кўра, асбоблар ака-ука бўлса-да, улар бутунлай бошқача. Овоз тўғридан-тўғри балалайкага уланган юқоридан симлар орқали келади. Махсус пиэзоэлектрик трансдусер ва ўзининг овоз созламалари ишлатилади. Унинг замонавий ижролари бугунги қунда кўплаб мусиқа ихлосмандларни ўз устига ишлашга ва профессионал ижрога киришига илҳом бағишиламасдан қолмайди.

Ижрочиликдаги юксак маҳорати билан балалайка чолғусига ўз ҳаётини бағишилаган Архиповский тажрибасини ўзбек халқ чолғуларида қўллаш мумкинми деган савол олдинда туради десак адашмаймиз. Чунки тарихдан тажрибалар ошиб, билим ва кўникмалар ҳосил бўлиб борар экан, ҳар бир мамлакатнинг ўз санъати йўналишида бошланғич нуқтани қўйганлар йўқ эмас. Балалайка чолғусига ўхшаб кетадиган, мезроблилар оиласига кирувчи ўзбек халқ чолғуларидан бири (дутор прима) ҳам амалиётга киритилгандан сўнг ўз маҳорат борасида, ижрочилик йўналишларида ҳамда янгича талқин бўйича ўз ўрнига эга бўлиб келаётгани сир эмас.⁵

1936-37 йилларда Тошкентда ўзбек мусиқа чолғуларини такомиллаштириш устахонаси очилиб, бошқа созлар қатори нота илмига мослаштирилган ёғоч пардали, капрон торли янги дуторлар ишлаб чиқарила бошлади. Дутор прима дуторнинг кичрайтирилган тури. Бунинг қопқоғи тут ўрнига арча дарахтидан қилинади. Ипак торлари ўрнига ичак тор тортилган. Пардалар дастасини ўйиб хроматик ҳолда доимий ўрнаштирилган. Торлар кварта бўйича биринчи октавадаги **ми** ва **ля** га созланади. Ноталар скрипка калитида, эшитилишига нисбатан октава юқорида ёзилади. Хажми кичик октавадаги **ми-ля** дан биринчи октавадаги **сол** ва иккинчи октавадаги **до** га қадар. Дуторлар оиласига мансуб бу чолғу энг баланд товушга эга бўлиб, скрипка калитида ёзилади. Икки капрон ипак торидан иборат ушбу чолғу асбоби кварта оралиғида созланади. Аппликатура жиҳатидан рубоб прима фижжак асбобига ўхшаб ижро этилади. Масалан: писсикато, бидратма, стакатто ва ҳоказолар.

Дутор прима билан балалайка чолғуларининг торларида катта фарқ бўлсада, ушбу чолғуда ижро этиладиган асарлар айни бир ҳилдир, яъни бу чолғуларда кўроқ теникавий асарлар ижро этилиши, регистр (овоз) жиҳатидан юқори товушда эштилиши ҳамда ижро имконияти кенг эканлиги билан бир ҳилдир. Шунинг учун балалайка чолғуси учун ёзилган асарларни дутор прима чолғусида ижро этиш мумкинлигини амалиётдан кузатишимиш мумкин. Дутор

⁵ Дмитрий Филатов. Гений трёх струн. Art-Beat Music (8.11.2011).

ҳақида гап борганда, албаттa, унинг моҳир ижрочиларини санаб ўтиш жоиздир. Ҳозирги кунда бу дуторда малакали ўқитувчиларимиз томонидан ёш дуторчиларга ижрочиликдан сабоқ берилмоқда.

Машхур дуторчилар: Ҳ.А.Абдурасолов, Абдусоат Ваҳобов, Давлатохун Қодиров, Юнус Ражабийлар дутор чолғанларида кишилар оғир сукунатга чўмиб, олам-олам маъноли ҳиссиятлар уммонига ботар экан. Улардан кейин эса Шокир Сартарош, Ориф Қосимов, Зокиржон Обидов, Тўхтамурод Расулов, Ғулом Кўчкоров, Абдураҳим Ҳамидов ва бошқалар. Юқорида номлари зикр этилган ижрочи устозлар дутор оиласини қисман барчасида ижро этишган бўлиб, дутор чолғуси такомиллашгандан сўнг қўпроқ ижрочилик талабига қараб юқориланди десак адашмаймиз. Ҳозирда эса хизмат қилиб келаётган дуторчи устозлардан Мирсадик Эргашев, Рўзибиби Ҳожиева, Малика Зияева, Обиджон Одилов, Султон Қосимов ва бошқалар.⁶

Дутор ижрочилигидаги янгилик киритиб ўз маҳоратини кўрсатиб келаётган устозлардан “Халқаро танловлар ғолиби ҳамда “Ниҳол” давлат мукофоти совриндори” Улугбек Юнусовни айтишимиз мумкин, “Суғдиёна” камер оркестри билан кўплаб гострол сафарларида бўлиб ўз маҳратини ҳозирга қадар кўрсатиб келмоқдалар. Ижрочилик услубига ўзгача янгилик киритган десак адашмаймиз, икки киши битта дутор чолғусида ижро этиш усуллари, бир куйнинг ижро давомида дутор оиласини ижро этиб чиқиш усуллари таҳсинга сазовордир, яъни замонавий ижрочиликка янгиликларини киритиб ўз йўналишгарини эгаллаганлар.

Дутор прима чолғуси бўйича ҳам ижро этиб ўз йўналишида ижод этаётган ёшлар ҳам кўпгина, ушбу йўлда янада изланиб, жаҳон миқёсига танилиш эса бир оз куч машаққат талаб этилади. Демак балалайка чолғусида ижро этиш тажрибасини ўзбек ҳалқ чолғуси дутор прима чолғусида ҳам қўллаш мумкин эканлигига аниқлик киритиб олдик, бироқ бундай тажрибага эга бўлиш эса тинимсиз меҳнат, куч ва ғайратлиликка ундейди, ўсиб келаётган ёш авлодга бундай фазилатлар ҳос бўлиб бормоқда. Профессионалликка эришишда устозлар ўгити ҳамда тинимсиз меҳнат талаб этилади. Архиповский ижодига назар ташлай эканмиз, унинг ўз чолғусига қўйган меҳри ва изланишлари шу чўққиларга олиб чиқди десак адашмаймиз.

Юксак маҳорат, теран билимдонлик, нозик дид билан кўхна миллий анъаналарга таяниб яратилган асарларнинг умри боқийлиги билан бирга уларга замонавийлик шкуҳини мужассамлаштирган ҳолда амалиётга тадбиқ этиш бугунги кунинг энг кўп тарқалаётган янгилигига айланиб бормоқда. Ҳозирги куннинг билимга чанқоқ ёшлари айнан замонавийликка чанқоқлиги билан

⁶ А. Одилов “Ўзбек ҳалқ чолғу асборлари тарихи” Самарқанд 2005

оммага кўринишмоқда, яъни ўз устиларида қўпроқ ишлаб янгича кўринишдаги усулларни тақдим этиб келишмоқда, аммо бу миллий меросимизга бироз ярашмагандек гўё. Лекин қўплаб танқид ва тортишувлардан сўнг миллий меросимизни унитилмаслиги йўлида келажак ёш авлодга етказиш мақсадида миллий меъросимизни замонавий талқинини яратиб ижро этиш ҳам янги бир чора сифатида кўрилгани адолатли бўлмоқда.

Замонавийликка йўғирилган барча асарда ўзгача яратувчанлик мавжуддир. Шунинг учун ёшларга яратилаётган имкониятлардан унумли фойдаланиш уларнинг бурчи деб хисобласак муболовга бўлмайди. Бунда юқорида кўрсатилган профессионал ижрочи устозларни ўрни каттадир. Фикрим яъкунида замонавийликка берилган эътибордан олдин ҳар бир ижрочи анъанавий мактаб қоидаларини ўрганиб миллийликни йўқотмаган ҳолатда замонавий куйларни ижросини яратишса мақсабга мувофиқ бўлар эди. Шундай экан ижрочиликдаги барча камчиликларни бартараф этиш ва ўз чолғусига муносиб инсон бўлиш ёшларнинг бурчидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И.Каримов «Юксак маънавият енгилмас куч» Тошкент 2008й
2. И.Ражабов «Мақомлар масалаларига доир» Тошкент 1993
3. Ф. М. Кароматов «Узбекская музыка»Тошкент 1972.
4. Абдуллаев А.А. санъат тарихи Т. 1991
5. А. Одилов “Ўзбек халқ чолғу асбоблари тарихи” Самарқанд 2005
6. Дмитрий Филатов. [Гений трёх струн](#). Art-Beat Music (8.11.2011).
7. Бухоро ахборот технологиялари маркази 2019й

DOIRA IJROCHILIGINI O'RGATISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY METODLAR

Yo'ldashov Dilmurod Yusufjon o'g'li
O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti
1-kurs cholg‘u ijrochiligi magistranti
Ilmiy rahbar: **Professor Dilmurod Islomov**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularida zamonaviy ijrochilik san‘ati, doira, uning asosiy qismi, doirani chalishda qo‘llaniladigan ritm birliklari, an‘anaviy ijrochilik san‘ati, o‘quvchilarini doira ijrochiligidagi o‘rgatish, ijrochilik holati, doira chalishda barmoqlar joylashuvi, ijro texnikasi hamda qo‘llarning ijro holati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq cholg‘ulari, ijrochilik san‘ati, doira, an‘anaviy ijrochilik, o‘quvchilar, ijrochilik holati, barmoqlar, ijro texnikasi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о современном исполнительском искусстве на узбекских народных инструментах, круге, его основной части, единицах ритма, используемых при игре на круге, традиционном исполнительском искусстве, обучении учащихся исполнительному кругу, исполнительному статусу, круге. Расстановка пальцев, техника исполнения и положение рук обсуждаются.

Ключевые слова: узбекские народные инструменты, исполнительское искусство, кружок, традиционное исполнительство, учащиеся, исполнительский статус, пальцы, исполнительская техника.

ABSTRACT

This article deals with modern performing arts in Uzbek folk instruments, circle, its main part, rhythm units used in playing the circle, traditional performing arts, teaching students to perform circle, performance status, circle. The placement of the fingers, the technique of execution and the position of the hands are discussed.

Keywords: Uzbek folk instruments, performing arts, circle, traditional performance, students, performance status, fingers, performance technique.

Doira (*childirma, chirmando, doyra, daff, dapp*) — o‘zbek, tojik, uyg‘ur va boshqa sharq xalqlarining cholg‘u asbobi. Doira zarb bilan urib chalinadi. Gardishi

o‘rik, yong‘oq yog‘ochidan yasaladi. Gardishi ustidan tashqari tomondan teri bilan qoplanadi. Gardishning ich tomoniga tamburnikiga o‘xshash halqachalar osiladi.

Doira qadimiy musiqa cholg‘ularidan hisoblanadi. Markaziy Osiyo (Niso shahri, eramizdan avvalgi 2-asr)da topilgan Terrakota yodgorliklarida doirachi ayollar tasvirlangan. Doira va unga yaqin urma musiqa cholg‘ulari tojik, arman, ozar, uyg‘urlarda –dap”, –dapp”, –daff”, –def” deb nomlanadi.

XX asrda o‘zbek doira ijrochilik an‘analarini Usta Olim Komilov, T. Inog‘omov, D. Sottixo‘jayev, Rahim Isoxo‘jayev, F. Azimov, Qahramon Dadayev, O. Kamolxo‘jayev, aka-uka Islomovlar, M. Oripov, R. Otaboyev, T. Sayfiddinov, R. Samadov va boshqalar mukammallashtirgan.

Doiraning asosiy qismi (gardishi) tok zangi, so‘nggi yillarda zarang, akatsiya, lo‘lilarda tol daraxtlaridan ishlanadi. Gardishning tashqi tomoniga buzoq, toy yoki echkinining oshlangan terisi qoplanadi. Ichki tomoniga esa tamburnikiga o‘xshash ma’dandan ishlangan halqachalar osiladi. Doiraning halqasiz turlari ham mavjud.

Gardish diametri 400-510 mm ni tashkil etadi. Doirada tovush ikki qo‘l barmoqlari yordamida hosil qilinadi. Undan yakka ijroda hamda turli xil milliy cholg‘u ansambllarida jo‘rnavoz cholg‘u sifatida foydalaniladi.

Doirani chalishda qo‘llaniladigan ritm birliklari (naqralar) haqida qadimiy manbalarda yozilgan. Doira usuli odatda ikki xil zarbdan iborat. Biri - bak (baka, bako, bakka, bakko). Bak doira gardishiga yaqin joyga urilganda chiqadigan tovushdir. Ikkinchisi zarb - bum. Bumni chalish uchun barmoqlarni cho‘zib doiraning o‘rtaroq qismiga uriladi.(3)

O‘zbek xalq cholg‘ularida zamonaviy ijrochilik san‘ati o‘z taraqqiyotining ko‘p asrlik an‘analariga ega. Bu meros ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. Eramizning boshlarida turli-tuman xalq cholg‘ularidan kundalik turmushda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarida, xalq sayllarida foydalanilgan. Xalq cholg‘u asboblari asrlar davomida insonlarning ma‘naviy ehtiyojlarini qondirib, undagi ijro tadrijiy ravishda rivojlandi va takomillashdi. O‘rta asrlarda musiqa ijrochiligi bir-biridan farqli o‘laroq, uch xil mustaqil uslub kasb etadi. Ularning birinchisi Farg‘ona-Toshkent ijrochilik yo‘nalishi, ikkinchisi Xorazm ijrochilik yo‘nalishi, uchinchisi Buxora-Samarqand ijrochiligi uslubidir.

An‘anaviy ijrochilik san‘ati bugungi kunda ham tinglovchilarining e‘tiborini qozonmoqda. Shu bois musiqa madaniyatining ijtimoiy hayot bilan bevosita aloqadorligini nazarda tutgan holda, uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Musiqa ibridoij jamiyatda xalq turmushi va mehnat jarayoni bilan uzviy bog‘langan: Bunda cholg‘u asbobolari keng qo‘llanilgan. Masalan, «Navro‘z» tantanalarida cholg‘uchilar tanbur, dutor, nay, chang, rubob, doira (daf, childirma) singari cholg‘ularida ajoyib kuy va qo‘shiqlar ijro etishgan.

2. Eng qadimgi xalq og_zaki musiqiy, she‘riy ijodiyotning shakllanishi xalq cholg_zulari taraqqiyoti bilan uzviy bog_zliq bo_zlgan.

3. O_zcta asrlarda xalq cholg_zulari, turlarining paydo bo_zlishi va qo_zllanilishi jamiyat taraqqiyoti yo_znaliшining samarasini bo_zlgan.

4. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi xalq cholg_zularida ijrochilik san‘atining rivojlanishi yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit hamda Yevropa madaniyati ta’siri bilan bog_zliqdir.

5. 1917-yilgi to_zntarishdan keyingi davrda ijrochilik san‘atining rivojlanish davri.

Shunday qilib, o_zbek xalq cholg_zularining paydo bo_zlishi va takomillashishining boy tarixi bilan bog_zliq bilimlar yosh ijrochilarga yakkanavoz, 8 ansambl ijrochiligi yo_zllari va ijrochilik texnikasi imkoniyati taraqqiyoti qonuniyatlarini ochishga yordam beradi. Bu bilimlar bo_zlajak mutaxassisni mashhur xalq cholg_zuchilari, ijrochilik san‘ati ustalarining pedagogik va ijrochilik prinsiplari bilan, shuningdek, Respublika bastakorlarining o_zbek xalq cholg_zuchilari uchun yaratgan musiqiy asarlari bilan yaqindan tanishishlariga ko_zmaklashadi.

Doira ijrochiliga o‘rgatish Respublikaning oliv o_zquv yurtlarining talabalari va o_zcta maxsus musiqa bilim yurtlari o_zquvchilariga o_zbek cholg_zu ijrochiligi tarixi va nazariyasini o_zrgatish, ijodiy yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashini hamda tanlagan sohasining turli yo_znaliшlarini tushunishlari, o_z yo_zlini topa olishlari uchun xizmat qiladi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, boshlang‘ich ta‘limda bolaga turli kuy-qo_zhiqlarni o_zrgatish bilan bir qatorda, ilk darslardanoq uni cholg_zu bilan tanishtirishni boshlash kerak. Bunda doiraning tuzilishi haqida gapirib berilsa, bola uchun juda qiziqarli bo_zladi. Doirani ko_zrsatish, o_zrta, yuqori va pastki registrlarning yangrash xarakterini chalib namoyish etish, turli balandlikdagi tovushlarni tinglab ko_zrish zarur. Tovushning «past» va «baland» tushunchalarini aniqlab berish kerak bo_zladi. Ilk darslarda o_zquvchi tovushlarning nomlarini o_zrganadi. Mo_zljal sifatida doiraning «b_zak» zarbli tovushi xizmat qiladi (ikkita va uchtadan guruhlangan holda). Aynan ushbu «b_zak» zarbli tovushi yordamida o_zquvchi «b_zum» zarbli tovushni tezda topa olishiga erishish lozim. Bilimlarni mustahkamlash maqsadida uy vazifasi sifatida tovushlarni har xil ohanglarda aniqlash bo_zyicha qator vazifalar berish mumkin. O_zquvchini chalishga o_zrgatishdan avval uni cholg_zu oldida to_zg_zri, qulay va erkin o_ztqazish kerak. Bunda bolaning bukchaymasligi yoki zo_zriqib o_ztirmasligiga, ijro vaqtida yelkalarini va qo_zllarini biroz ko_ztarishiga e’tibor berish muhimdir. Tirsaklarni tanaga juda yaqin tutish ham, tashqariga qaratib burish ham ma‘qul emas. Balandligi bo_zyicha tirsaklar tahminan doira tutib turish darajasida bo_zlishi kerak. Ijro erkinligiga erishishda oyoqlarining yaxshi tayanch bo_zlishi katta ahamiyatga ega.(4)

Bundan tashqari, ijrochilik holati deganimizda, cholgu sozini qanday ushslash, uni hozirlash va chalish uchun, butun tana, bosh, qo_llar, oyoqlar, doira chalishga tayyor bo_lishi tushuniladi. Ijrochilik holati o_z ichiga butun tana, bosh, qo_llar, oyoqlar, cholg_uni ushslash, qo‘llarning doirada joylashishi vaziyatini mujassam etadi. Ijrochilik holatini boshidan to_g_ri qo_yilishi o_ta jiddiy vazifalardan bo_lib, yuksak cholg_uchilik natijalariga erishishning eng muhim garovidir.

Doira cholg_usi cholg_uchini o_ng va chap qo_llari, teriga urilishi orqali ovoz chiqariladi. Nog_ora cholg_usi cho_pni teriga urush orqali ovoz chiqaradi. Safoyil cholg_usi urma asboblar turkimiga kiradi. Silkitib asosiy zarb, ijrochining egniga tekkizish orqali chiqariladi. qayroq cholg_usi toshni temirga urish orqali ovoz chiqariladi. Olimlarning fikricha, eng muhimi ijro jarayonida cholg_uchi tana a‘zolarining hech qanday zo_riqishisiz, kuchanishisiz tabiiy vaziyatni ijrochi holatining asosi qilib olinishi zarurligi uqtiriladi.

Cholgu asbobida barmoqlar joylashuvi ularning tabiiy holatidan kelib chiqmog_i darkor. Ayniqsa doirada o_quvchi barmoqlari yarim egilgan tabiiy holatda bo_lishi, yuqoriga ortiqcha ko_tarilmasligi, yon tomonga surilib ketmasligi zarur. Sozandaning sahnadagi ko_rinishi va o_zini tutishiga ijrochilik holati salbiy ta‘sir qilmasligi kerak. Ya‘ni har xil bachkana qiliqlar, ortiqcha chayqalish yoki cholg_uni har tomonga yo_naltirish, qimirlatish, tinglovchiga yoki jo_rnavozga orqasi bilan turish kabi kishining g_ashiga tegadigan harakatlarni oldi olinishi zarur. Chunki noto_g_ri ijrochilik holatiga ko_nikish oson, ammo uni to_g_rilash ancha mushkul. Bunga misol qilib abituriyentlarning konservatoriya qilish davrini keltirish mumkin. Bu paytda turli muammolar uchraydi. Bular mezrobli, urma, kamonli, damli cholg_ularda yuqori registr 26 pardalarini ushlab tura olmaslik, labni tez charchab qolishi, tovushlarning toza emasligi, attaka paytida aniqlikning yo‘qligi va boshqalar. Ushbu yetishmovchiliklarni bartaraf qilish uchun konservatoriya professor-o_qituvchisi talabaning cholgu asbobini ushslash holati, joylashuvi va boshqa masalalarni ko_rib chiqishi kerak bo_ladi. Ammo konservatoriya ijrochilik holatini to_g_rilaydigan joy emas. Lekin konservatoriya professori talabaning rivojlanishiga uning ijrochilik holati iskanja bo_lib xalaqit berib turishiga ham qarab tura olmaydi. Shu sababdan professor talabaning oldingi o_qituvchisi qilgan xatosini to_g_rilashga majbur bo_ladi. Bunday o_zgarish qilish uchun o_qituvchi talabada quyidagi omillarning mavjudligiga amin bo_lishi kerak:

1. Yuqori darajadagi jismoniy yetuklik (birinchi navbatda tishlari, lablari va nafas organlarining sog_lomligi);
2. Yuksak musiqiy qobiliyat egasi ekanligi;

3. Mehnatsevarlik va maqsad sari intilish kabi xislatlar mavjud bo_lsa abiturient ijro holatidagi barcha yetishmovchilik va muammolar ketkaziladigan katta mehnat asab va vaqt evaziga to_g_rilanishi mumkin.(1,56)

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, doira – bu o_zbek, tojik va uyg_ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg_u asbob. Doira gardishiga buzoq yoki baliq terisi qoplanadi, qirqdan ortiq halqachalari taqilib, bular doirani chalganda qo_shimcha sado beradi. Doirada ikkita asosiy tovush bor. Biri past "Bum" ikkinchisi baland "bak" deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush «bakko» yoki "bakka" yoki "baxa" deb yuritiladi. Doira keng tarqalgan cholg_u asboblardan. Doira ijrochiligidagi raqlar o_zbek va tojik xalqlari orasida juda keng tarqalgan. Shoshmaqom doira usulisiz ijro qilinmaydi. Buxoroda har bir maqom aytuvchi hofiz maqom usullarini doirada ustalik bilan o_zlashtirgan va o_z ashulalariga jo_r bo_lgan. Doira tovushlari notada puflama va simfonik orkestrdagи urma cholg_u asboblarinikidek bir chiziqqa yoziladi. Zarbli cholg_ular eng qadimgi cholg_u asboblar turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, qo_llarini bir-biriga urishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlar bilan bog_liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o_zining tuzilishi, tovush hosil qilinishi, ijro va ifoda imkoniyati hamda chalinishi jihatidan xilma-xil zarbli cholg_ularning turlari shakllangan.

Zarb arabcha – urmoq, urish ma‘nosini bildiradi va mazkur cholg_ularda asosan qo_l, cho_p va tayoqchalar yordamida zorb bilan urish, barmoq bilan chertish, silkitish va boshqa harakatlar orqali tovush hosil qilinadi. Ularda tovush hosil qiluvchi unsur sifatida maxsus qoplama (membrana) yoki cholg_u asbobining tanasi (korpus) xizmat qilishi mumkin va bular ikki turga bo_linadi:

- Membranafon – qoplamlali cholg_ular, ularga maxsus teri qoplangan nag_ora, doiralarning turli xillari kiradi;
- Avtofon – o_zi tovush beruvchi cholg_ular bo_lib, ularning vujudiga mexanik ta‘sir qilish natijasida o_z tanasidan tovush hosil bo_ladi. Bular: turli qayroq, safoyl, va boshqalar.

Ijro texnikasi jihatidan zarbli cholg_ularning bolg_achalar yordamida, qo_l barmoqlari bilan, bir-biriga tekkazib (urib) va silkitgan holda chalinadigan har-xil turlari mavjud. Bundan tashqari, zarbli cholg_ular aniq balandlikka ega bo_lmagانلار (nag_ora, doira, qayroq, safoyl, va h.k.) turiga hamda past, o_rta va yuqori registrilarga ajratiladi. Ko_pchilik zarbli cholg_ular cho_p-tayoqchalar yordamida chalinadi. Ularni mohirona ishlata bilish zarbli cholg_ular ijrochisi mahoratining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham o_quvchilarga birinchi navbatda tayoqchalar bilan chalish mahoratini egallash eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli deyarli barcha darslik va qo_llanmalar doirada ijro texnikasi o_rgatilishi bilan boshlanadi.

Shuni ham e‘tibordan chetta qoldirmaslik kerakki, doira zarbli cholg_ular guruhining yetakchi asbobi bo_lib, uning va boshqa zarbli cholg_ularning ansamblidagi roli tobora ortib bormoqda. Bu holat ularning bajaradigan vazifasi bilan bog_liqdir. Ilgarilari doira va boshqa cholg_ular ko_pincha namoyishkorona – ko_rgazmali maqsadlarda ishlatilgan bo_lsa, hozirgi kun ansambl ijrochiligidagi ular fundament – asos hisoblangan ritmik yo_nalishni boshqarish, shuningdek, nafaqat dinamik balki, mazmunni belgilaydigan kulminatsiya va avjlarga urg_u berish, ansambl tovush bo_yoqlari jilosini o_zgartirish, o_ziga xos kuy yo_nalishini belgilash kabi murakkab vazifalarni bajaradi. Shu munosabat bilan ijrochilik vositalari yanada boyib bormoqda. Turli registrdagagi har-xil urma-zarbli cholg_ular turlari ko_paymoqda. Ularning ichida rang-barang tovush tuslarini beruvchi, kuy izchilligini ta‘minlovchi tovushqatorli majmualar qo_llanilmoqda.

Zarbli cholg_ular majmuasining tuzilishi, konstruksiyasining o_zgarishi va ansambl fakturasidagi ahamiyatiga qarab o_qitishning yangi uslublarini izlash talab qilinmoqda. Bunda qo_lning ijro holati, turli ritmik ko_rinishlar va zarb tuslarini rang-barangligiga erishishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Barcha cholg_ularda bo_lgani kabi zarbli cholg_ularda ham qo_l harakatining erkin va tabiiy holati, kam kuch sarflagan holda yuksak mahoratga erishish asosiy maqsad hisoblanadi. Bunda qo_llarning ijro holati asosiy unsurlardandir. Agar qo_l skletini ko_rib chiqadigan bo_lsak u uch qismdan tashkil topadi:

- a) yelka qismi (yelka suyaklaridan tirsakkacha);
- b) tirsak (tirsakdan bilak bo_g_inlarigacha) qismi;
- v) kist-bilak bo_g_inidir.

Bilak ham o_z navbatida uch bo_lakka ajratiladi:

- ❖ panjagacha bo_lgan qismi;
- ❖ panja;
- ❖ barmoqlardan tashkil topadi.

Barmoqlarning bosh barmoqdan boshqa barchasi uch bo_g_inli bo_lib, bosh barmoq ikki bo_g_in dan tashkil topgan. Zarbli cholg_ular ijro holatida qo_lning barcha qismlari bir-biriga bog_liq holda harakat qiladi. Ammo har bo_lagining o_ziga yarasha bajaradigan vazifasi bor. Agar yelka qismini olib ko_radigan bo_lsak, qo_lni yelkadan boshlanadigan harakatining zarbi juda kuchli bo_lib, katta kuchlanishli sadolanish uchun ishlatiladi. Tirsaklar bo_lsa, yelka bilan bilaklarni bog_lovchi bo_g_in vazifasini bajaradi va «bilak zerb»ni kuchlantirish va chuqurlashtirishda faol ishtirot etadi. Tirsak mushaklarining faolligi va to_laqonliligi natijasida tovush kuchi va bidratma (rez)ning zichligi ortadi. Lekin, tirsak mushaklarini erkin-bo_sh tutish, zo_riqtirmaslik ustoz va shogirdning doimo diqqat markazida bo_lmog_i lozim. Zarbli cholg_ularda bilak murakkab vazifani bajaradi. U doimo egiluvchan, harakatchan va chidamli

bo_lmog_i kerak. Tovush hosil qilish bilak harakatiga bog_liq bo_lib, ayniqsa panja bo_ginlarining erkinligi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda urilgan zarb qancha kuchli bo_lmasin bilak o_zining egiluvchan holatini saqlagan holda cho_plarni teri qoplamasidan orqaga qayta sakrashini ta‘minlashi lozim. Bilakning bunday «prujina» vazifasini bajaruvchanligi teri qoplamani kuchli zarb natijasida yorilishdan asraydi. Chu sababli ijrochi qo_l mushaklariga kuchni qanday taqsimlashni xayolida – tasavvurida muvofiqlashtirmog_i kerak. Faqat oqilona tutilgan yo_l ortiqcha zo_riqishdan saqlaydi.(2,72)

Asta-sekin o_quvchi kuy tizimiga nisbatan murakkab va jo_rligi rivojlangan asarlargao_tadi. Har bir yosh avlodga ta’lim berish jarayonida avvalo uning qiziqishlarini aniqlab olish zarurdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har qanday sohada bo_lmasin musiqa ijrochiligi amaliyotini o_tagan o_quvchi boshqalariga qaraganda aqli teran, fikri keng va tafakkuri yuksak darajaga yetadi. Musiqa cholg_usini xususan doira ijrochiligi aqliy faoliyatning maksimal darajada ishlatalishiga turtki bo_ladi.(5) Kuzatishlardan ma`lumki, doira cholg_usi ijrochiliginini egallagan shaxslarda dunyoqarash va tafakkurning yetuklik darajasi hamda ijodiy qobiliyatining mukammal shakllanishini ko_rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Nazarov A., –Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika hususida” Toshkent, 1995 yil 56-bet
2. Olimboeva K., Ahmedov M., –O_zbekiston xalq sozandalari” Toshkent, 1959 yil 72-bet
3. <https://uz.wikipedia.org/>
4. <https://arm.tdpushf.uz/>
5. <http://hozir.org/>

MILLIY MUSIQA CHOLG‘ULARI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Mo‘ydinov Fozilxon Nosirxon o‘g‘li

O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat Instituti, Cholg‘u ijrochiligi
mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy musiqa cholg‘ularining targ‘iboti va uning ta’lim jarayonida o‘rganilishida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: elektronik cholg‘ular, akustik cholg‘ular, axborot texnologiyalari, milliy cholg‘ular, kompyuter texnologiyalari

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы использования современных информационных технологий в пропаганде национальных музыкальных инструментов, а также применение этих технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: электронные инструменты, акустические инструменты, информационные технологии, национальные инструменты, компьютерные технологии.

ABSTRACT

This article discusses the use of modern information technologies in the promotion of national musical instruments, as well as the use of these technologies in the educational process.

Keywords: electronic instruments, acoustic instruments, information technologies, national instruments, computer technologies.

Bugungi kunda fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasi o‘larоq, insoniyat hamda jamiyat hayotida axborotning o‘rni beqiyos darajada oshdi. Ushbu jarayon shunday miqyos va darajada avj oldiki, u jamiyatning turli sohalariga - siyosat, ta’lim, iqtisod, kundalik hayot va boshqa shu kabi sohalarga sezilarli o‘zgarishlar olib keldi. Jamiyat taraqqiyoti uchun ma’lumot juda muhim ahamiyatga ega. Bu taraqqiyotning yetakchi omillaridan biri ekanligini hisobga olib, kompyuter axborot texnologiyalarini rivojlantirish hozirgi davrning eng dolzarb vazifasiga aylandi. Uning rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotda qator qulayliklarni yuzaga keltiradi. Zamon

va sohalarning rivojlanishini sezilarli darajada oshiradi. Natijada jamiyatning intellektual salohiyati yuqoriga ko’tariladi. Yuqoridagi fikrlarning barchasi bevosita ijtimoiy sohalar tizimining bir qismi bo’lgan musiqa san’atiga ham taalluqlidir. Zamonaviy musiqada nazariy ma'lumotlarni o’zlashtirish zarurati va shu kabi masalalar kompyuter axborot texnologiyalarining ushbu soha rivoji uchun naqadar kerakli ekanligini ko’rsatadi. Musiqiy san’atning axborot muammolarini tushunish zamonaviy ilm-fan uchun alohida ahamiyatga va dolzarblikka ega.

Musiqa san’ati va zamonaviy texnologiyalar o’tasidagi munosabatlar bugungi zamonaviy musiqada asosiy rolni oynaydi. Xususan, cholg’u ijrochiligi targ’iboti masalalarida ham qilinadigan ishlar talaygina. Cholg’u ijrochiligi targ’iboti va rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari kamyobligi bilan e’tiborimizni tortadi. Ushbu mavzu kompyuter texnologiyalari bilan musiqa cholg’ulari o’tasidagi aloqalarga e’tiborni qaratadi, bu musiqa san’ati va ilm-fanning rivojlanishini belgilaydi. Ya’ni, biz musiqiy ijodkorlikni ham, aniq uslublar bilan ijod bilimini ham o’z ichiga olgan ajralmas tizim haqida gapiramiz.

Mavzuning dolzarbliji shundaki, barcha sohalar qatori musiqa ta’limida ham keng ko’lamli islohotlar olib borilmoqda. Bunda ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Hozirgi kunda musiqaga ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida cholg’u ijrochiligi soxasini o’rganish va targ’ib etishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash alohida e’tiborga muhtoj. Musiqiy ta’limning quyi bosqichi - ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat mакtablarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajadasi talabga javob bermaydi. Bu esa o’z navbatida, ta’lim sifatidagi nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Masalaga ma'lum darajada sharoitning yetarli emasligi sabab bo’lsa, boshqa tomondan sohada mukammal darajada dars bera oladigan kadrlarning yetishmasligi ham bu jarayonga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Biz quyida milliy cholg’u ijrochiligi targ’ibotining rivojiga to’siq bo’layotgan jihatlariga to’xtalishga harakat qilamiz. Bizningcha, bular quyidagilarda ko’rinadi:

- milliy musiqa cholg’ularimiz va chet el musiqa cholg’ulari o’tasidagi asosiy farq elektronik va akustik yasalish turidadir. O’z navbatida, elektron cholg’u o’zgarmas soz, tovush chastotalarining dunyo standartiga to’laqonli mos kelishi, ob-havo tasiriga bardoshliligi va aksariyat musiqa cholg’ularining ko’p ovozlik hususiyatiga ko’ra milliy musiqa cholg’ulariga nisbatan ustunlik jihatiga egaligi;

- faqatgina video yozuv shaklidagi (milliy musiqa cholg’usida ijro etilgan) asarni internet tarmog’iga joylash bilan cheklanib qolishlik;

-
- milliy musiqa cholg‘ularimizning rivojlanishi va uni targ‘ib etishni ko‘zda tutuvchi ko‘rik tanlov va festivallarning yetarli emasligi;
 - yoshlarning ongida milliy musiqamizga bo‘lgan e‘tiborning sustligi yoki chet el musiqasiga ko‘rko‘rona taqlid qilishga intilishning kuchliligi;
 - milliylikka asoslangan musiqiy dasturlarning yetishmasligi, mavjudlarining esa qiziqarli emasligi va hokazo.

Hozirgi davr musiqasida foydalanilayotgan deyarli barcha musiqiy dasturlarning bazasi elektron musiqa cholg‘ulari ovozlariga tayanadi. Chunki, bunday musiqa cholg‘ularidan raqamli ovoz olish imkoniyati murakkab jarayonni tashkil etmaydi. Tasavvur qilaylik, agar bir musiqiy dastur ishlab chiqilsa-yu, uning ovozlar bazasini to‘liq milliy musiqa cholg‘ularimizning “orginal” ovozlari tashkil qilsa, ulardagi ijro imkoniyatlari to‘liq qamrab olinsa, foydalanuvchilar orasida ommalashmaydi deysizmi?

Yoki biror bir milliy musiqa cholg‘usining (tanbur, rubob, dutor) elektron shakli ishlab chiqilib, asl ovoz, o‘zgarmas soz, yasalish uchun ishlatilgan mahsulotning mustahkamligi, qo‘sishimcha protsessorlar bilan boyitilish imkoniyatlari takomillashtirilsa ommalashmaydi deysizmi?

Nega unda dunyo musiqachilari aksariyat hollarda elektron (skiripka, gitara, baraban) cholg‘ularidagi ijroni maqul ko‘rishmoqda? Yuqorida takidlagan fikrlarimizni ushbu savolga javob berish orqali isbotlaymiz.

Insoniyat mukammallik sari intilib borar ekan, kashfiyotlar, ixtiolar paydo bo‘laveradi. 1980-yillarda raqamli musiqa cholg‘ulari va multimedya kompyuterlari keng tarqalganda musiqiy ijro madaniyati o‘zining yangi bosqichiga o‘tdi. Raqamli texnologiyalar musiqa notasi va analog ovoz yozish bilan taqqoslaganda tovush bilan ishslash uchun yangi imkoniyatlari ochdi. Akustik musiqiy cholg‘u auditoriyani cheksiz kengaytirgani kabi, raqamli cholg‘ular ham asta-sekin ushbu cheksiz tinglovchilarni elektron musiqa ixlosmandlariga aylantirmoqda. Fikrimiz avvalida sanab o‘tilgan musiqa cholg‘ularining yog‘ochdan an‘anaviy ishlangan turiga nisbatan qulayliklari, ularning keng ommalashuviga sabab bo‘lmoqda deyishimiz mumkin.¹

Lekin masalaning ikkinchi tomonini yoritadigan bo‘lsak, har bir xalqning milliyligi, ma‘naviyati, qadriyatini aks ettiruvchi milliy musiqasi, milliy cholg‘ularning ovoziga hamohang tarzda ifodalanadi. Milliy akustik yasalgan sozlarning ovozidagi ta’sir kuchi, tabiiyki yasalish jarayonidagi ustuning mahorati, xalqning qadim o‘tmishi, millati haqidagi daslabki g‘oyibona malumotlarni beradi. To‘g‘ri, aynan bir millatning o‘ziga tegishli bo‘lgan musiqa cholg‘usi bo‘lmasisligi mumkin, lekin o‘sma xalqning ichida ommlashgan musiqa cholg‘usida kuy ijro

¹ “Новые информационные технологии в музыкальном образовании” кандидат педагогических наук Заболотская, Ирина Вадимовна

etilganda, bevosita shu xalq bilan bog,liq voqealari hodisalar yoki xotiralar eslanadi. Ayni mana shu jihatlarini hisobga olsak, akustik cholg`ularning elektron musiqa cholg,ularidan ustun tomonlarini ko,rishimiz mumkin. Ijro jarayonidagi sozandaning ichki his-tuyg,ulari va kechinmalarining yuzaga chiqishi akustik yasalgan cholg,uda ko,proq namoyon bo,ladi.

Bizning oldimizda turgan vazifa milliy cholg, u ijrochiligi targ,iboti va rivojlanishida kompyuter axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan ekan, barcha masala cholg`uning elektron yoki akustiklik jihat bilan bog,liq bo,lib qolmaydi. Aksincha, masalaning zamirida kompyuter axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar yotadi. Bunda ijodiy hamkorlik katta ahamiyatga ega. Yani, axborot texnologiyalari sohasining yetakchi mutaxassislari, dasturchilar bilan birgalikdagi ijodiy ishlar, (videodarslar, multimedaviy musiqiy dasturlar, ilovalar) kelajakda sohada yetishib chiqadigan mutaxassislar uchun yangiliklar, ijro mahorati ustalari va sozgarlar o,rtasidagi ijodiy hamkorlikni yo, lga qo“yish shular jumlasidandir. Maqsadimiz, musiqa sohasida yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish asosida ushbu sohada malakali kadrlar taylorlashga yordamlashish, cholg, u ijrochiligi targ,ibotini yanada kuchaytirish, ta”lim jarayonini masofaviy tashkil etish boyicha ko,rsatmalar ishlab chiqishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Maqola “Musiqa madaniyati fani o“qitishda kompyuter dasturlaridan foydalanishning nazariy asoslari” Bobir Mansurovich Ibragimov TDPU
2. ”Новые информационные технологии в музыкальном образовании” кандидат педагогических наук Заболотская, Ирина Вадимовна
3. Maqola “Musiqa darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samarasi, o,ziga xosligi va bugungi kundagi ahamiyati” A.X.Arabbayev

CHOLG‘U IJROCHILIGINI O’RGANISHDA AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY METODLAR

Mashrabboyeva Farhunda Osimovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Musiqa madaniyati” fakulteti
“Musiqa ta’limi” yo’nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqa, musiqa cholg‘u asboblari, uning turlari, an’anaviy va zamonaviy metodlar, bolalar musiqa cholg‘ulariga jo’r bo’lishi haqida yozilgan.

Kalit so’zlar: musiqa, musiqa cholg‘u asboblari, bolalar, metodlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о музыке, музыкальных инструментах, их видах, традиционных и современных методах, детском аккомпанементе на музыкальных инструментах.

Ключевые слова: музыка, музыкальные инструменты, дети, методика.

ABSTRACT

This article deals with music, musical instruments, their types, traditional and modern methods, children's accompaniment to musical instruments.

Keywords: music, musical instruments, children, methods.

Musiqa (yun. mousiche —muzalar san’ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag‘ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san’at turi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlar (masalan, ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat’iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiat (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabiy, tasavvuf arboblari — Imom G‘azoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqa tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta’sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo‘lgan protsessual

— muayyan jarayonli tabiat bilan bog‘liqdir. Musiqa asarlari mazmunida badiiy g‘oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o‘zaro munosabatlari (taqqoslanish, to‘qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonda shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko‘ra musiqa mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo‘lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo‘lgan lirika musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda ma’lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur’at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma’naviy-ma’rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtida inson faoliyatining ko‘pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o‘zaro etik va estetik ta’sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlanтирish, ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir(5).

O’quvchi yoshlarni musiqiy ta’limda cholg‘u ijrochiliga qiziqtirish to’g‘risida fikr yuritishdan avval, musiqa cholg‘u asboblari haqida to’xtalib o’tsak.

Musiqa cholg‘u asboblari -musiqiy ton yoki o‘ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma’lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo‘ljallangan cholg‘u asboblari; musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansambl, orkestr va boshqalar) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir musiqa cholg‘u asboblarning sadosi o‘ziga xos tembr, ma’lum diapazon tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholg‘u asboblari sadosining sifati, ko‘pincha, muayyan cholg‘u asbobining shakli, umumiyligi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatilgan materialga bog‘liq. Musiqa cholg‘u asboblari qadimdan qamish, bambuk, yog‘och, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yong‘og‘i, qovoq va boshqalardan tayyorlangan. Sadolanish xususiyatini qo‘srimcha vositalar, ijrochilik uslublari (masalan, torli sozlarni tirkab-chertib chalish, flajolet va boshqalar), ba’zi musiqa bezaklari yordamida o‘zgartirish mumkin. Uning paydo bo‘lishi insoniyat tarixinining ilk davrlariga to’g‘ri keladi, mukammallanishi esa musiqa san’ati va ijrochilikning rivojlanishi hamda musiqa cholg‘u asboblarni ishlab chiqarish texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq.

Musiqa cholg‘u asboblari tovush manbalariga qarab guruhlarga, ijrochilik uslubi (yoki ishlatilgan mexanizmi)ga qarab guruhchalarga, o‘ziga xos qo‘srimcha belgilariiga qarab xillarga bo‘linadi. Musiqa cholg‘u asboblari, asosan, torli (xordofonlar), puflab chalinadigan (aerofonlar), teri qoplamlari (membranofonlar), tilchali (gemidiofonlar), plastinkali, elektron musiqa cholg‘ulari- idiofonlar guruhlariga bo‘linadi.

Torli cholg‘u asboblarning guruhchalari: kamonli sozlar (skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola, o‘zbek sozlaridan g‘ijjak, ko‘biz, sato va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (arfa, gusli, sitra, gitara, balalayka, dutor, tanbur, rubob, setor, do‘mbira va boshqalar), urib chalinadigan torli sozlar (chang, simbali va boshqalar), klavishli urib chalinadigan sozlar (klavikord, fortepiano, royal), klavishli chertib chalinadigan sozlar (klavesin va uning turlari).

Puflab chalinadigan cholg‘u asboblarning guruhchalari: tilchali sozlar (surnay, qo‘schnay, bo‘lamon, shoxnay, klarinet, goboy va boshqalar), tilchasisiz sozlar (naylar, fleytalar), mundshtukli sozlar (truba, valtorna, tuba, karnay va boshqalar), pnevmatik klavishli sozlar (organ va uning turlari).

Tilchali cholg‘u asboblarning bo‘linmalari: pnevmatik klavishli sozlar (fisgarmoniya, bayan, akkordeon va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (changko‘biz va uning turlari), urib chalinadigan sozlar (fleksatonlar). Teri qoplamali urib chalinadigan cholg‘u asboblarning guruhchalari: sozlanadigan (litavralar), sozlanmaydigan (nog‘ora, doira, baraban, tamburin va boshqalar) cholg‘u asboblar.

Plastinkali cholg‘u asboblarning guruhchalari: urib chalinadigan rezonatorsiz sozlar (ksilosfonlar va boshqalar), urib chalinadigan rezonatorli sozlar (ovoz beradigan plastinkalari ostida ma’lum hajmdagi rezonatorlar — trubkalar, bo‘sh idishlar va h. k. o‘rnatilgan metallofon, marimba, vibrafon va boshqalar), klavishli urib chalinadigan sozlar (chelesta va boshqalar).

Idiofonlarning guruhchalari: sozlanadigan (orquestr kolokoli, ko‘ng‘iroqchalar, gong va boshqalar), sozlanmaydigan (tarelkalar, tamtam, marakas, qayroq, qoshiq, safoil, likop, patnis, mislagan, zang va boshqalar) cholg‘u asboblar.

Cholg‘u o’rgatishda an’anaviy metodlardan cholg‘ular bilan avval ko’rsatib tanishtirish hisoblanadi. O’quvchilarni avvalo cholg‘u asbob bilan yaqindan tanishtirish va ularda qiziqish uyg‘otish lozim. Shundan so’ng chalinadigan musiqiy asar bilan tanishtiriladi va o’qituvchi tomonidan bir necha martta ijro qilinib beriladi. O’quvchilarda tushunchalar hosil qiliniadi. Avvaliga chapak, og’izda tovushlarni chiqarish yordamida kuyni taktlarga bo‘lib ijro qilinadi. Asta sekin musiqiy cholg‘u asbobida taktlarga bo‘lib o’rganiladi.

O’quvchilar qanchalik cholg‘u haqida ko’proq ma’lumotga ega bo’lsa, chalishni istagan yoki tanlangan cholg‘u asbobi haqidagi qiziqrarli ma’lumotlarni bilsa, cholg‘u asbobini chalgan insonlar hayoti va muvaffaqiyatlari haqida tushunchalarga ega bo’lsa, qiziqishi yanada ortadi va cholg‘u asbobini o’rganish davomidagi qiyinchiliklarga ham chidamli bo’ladi. Bugungi kunda o’quvchilarga an’anaviy metodlarga qo’shimcha zamona viy metodlardan ham foydalanib, zamon talablari bilan hamnafaslikda o’rgatilmoqda. Zamona viy metodlarda o’quvchilarga asbobni nafaqat jonli chalib balki multimedialar yordamida ham na’munalar ko’rsatish orqali ham

ifodalanmoqda.Bundan tashqari chalinadigan cholg‘uga zamonaviy usullar berish orqali qiziqtirilib o’rgatilmoqda.Shundan so’ng musiqiy asar bilan taishtirilib taktlarga bo’lib o’rgatilinadi.

Bolalar cholg‘u asboblarida jo’r bo’lish eng qiziqarli mashg’ulotdir,chunki bolalar cholg‘u asboblari jonli,tovushli o’yinchoqlar sifatida har bir o’quvchini qiziqtiradi.Bolalar cholg‘u asboblari bиринчи navbatda o’quvchilarda ijrochilik elementlar orqali ijodkorlik,musiqiy uquv qobilyatlarini rivojlantiradi.Musiqa madaniyati darslarida bolalar cholg‘u asboblaridan foydalanish yaxshi natija berish bilan birga,o’quvchilarni darsga intiluvchanligini,qiziqishini,musiqiy uquvini oshiradi.Musiqa darslarida qo’llaniladigan bolalar cholg‘u asboblari ikki turga bo’linadi:kuychan va kuychan bo’lmagan (shovqinli) cholg‘u asboblar.

1.Kuychan cholg‘u asboblarga: metalafon va kselafon kiradi.

2.Kuychan bo’lmagan cholg‘u asboblariga: doirachalar,oddiy cho’p qoshiqlar,kichik shiqildoqlar,barabanchalar,uchburchak,marakassa va rumbalar kiradi.

Bolalar cholg‘u asboblariga jo’r bo’lish turli metodlarda amalga oshiriladi:

-avval o’quvchilar kuyni tinglab,chapak chalishi,ritmik jo’r bo’lishi amalga oshiriladi

-musiqaga ritmik jo’r bo’lishni aniq bajarganlar,bolalar cholg‘u asboblarida jo’r bo’ladi

-keyinchalik esa,passiv bolalar ham tog’ri ijro etishga intilish maqsadida,jo’r bo’ladilar

-bolalar cholgu asboblarida jo’r bo’lish har gal,har xil cholg‘u asboblarida bajariladi

-o’quvchilarni 2 guruhga bo’lib: 1-guruh chapak va cholg’uda,2-guruh esa ovozda usul berish (bum-baka-baka-baka-bum) bilan amalga oshirilishi mumkin.Bolalar cholg‘u asboblarida ritmik jo’r bo’lish grafikda ko’rsatilgan ritmik tuzilmalarga qarab chalish ham o’quvchilar ijodkorligini oshiradi,faollashtiradi,ijrochilik malakalarini va musiqiy qobilyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

Har qanday metodni qo’llashda o’quvchilarni rag’batlantirish,ularni ishtiyoqini bir umrga so’ndirib qo’ymaslik kerak.O’qituvchi qaysi holatda qaysi metodni qo’llashni yaxshi bilsa,o’quvchilardan a’lo natijalarni olaveradi.Asosiy maqsadimiz ozod va farovon Vatanimizga fidokor va ma’nan yetuk va yurtimiz kelajagini yanada yuksaltirish uchun xizmat qiladigan shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.M.Sharipova,G.T.Tojiyeva Musiqa o’qitish metodikasi 131-bet

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyiliginini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

2. Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog’chasida musiqa T.: O’qituvchi. 1990. 26-bet
3. <https://fayllar.org/>
4. <https://uz.wikipedia.org/>
5. <https://goaravetisyan.ru/>

CHANG CHOLG'USINING YILLAR DAVOMIDA TAKOMILLASHTIRISH VA MUSIQIY TIZIMIDA IJROCHILIK TEXNIKALARI

Xurramova Diyora

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Professional ta'lim: Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi) ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi

K.Shermatov

Ilmiy rahbar : "Cholg'u ijrochiligi " kafedrasi
dotsenti

ANOTATSIYA

Mazkur maqolada chang cholg'usi tarixi, kelib chiqishi, takomillashishi ijro uslubi hamda ta'lim yo'nalishi, texnikalari, taniqli chang ijrochilar, uning imkoniyatlarini kengaytirishga bog'liq taklif va mulozalar

Kalit so'zlar: chang, arfa, tenor, bas, registr, oktava, prima, repertuar, cover, tor, dinamik, texnik.

ABSTRACT

This article provides suggestions and comments on the history of the dust instrument, its origin, development, method of performance and direction of training, techniques, well-known dust performers, the expansion of its capabilities

Keywords: chang, harp, tenor, bass, register, octave, prima, cover, tor, dynamic, technical

АНОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются история, происхождение, развитие инструмента, стиль исполнения и направления обучения, приемы известные дустовые исполнители, замечания по расширению его возможностей

Ключевые слова: чанг арфа ,тенор,бас, регистр, октава ,прима, репертуар, кавер ,тор ,динамический ,технический

"...bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima , degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat- bu ma'naviy jasorat , deb javob bersak , o'ylanmangki, yanglishmagan bo'lamiz."

I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.

Chang- o’zining jarangdor va shirali tovushi bilan ajralib turadi o’zbek xalqining sevimli cholg‘u asboblaridan biri.Yozma manbalarda 15,17 asrlardan boshlab “chang” so’zi musiqa hayotimizda ma’lum o’rin egallagay boshlagan.Ungacha esa ushbu ibora o’zbek hamda tojik musiqa madaniyatida butunlay o’zga soz,tirnalib chalinadigan zamonaviy yevropacha arfaning bizda keng ishlatilgan qadimiylar kichik hajmdagi namunasini anglatadi.Jumladan Alisher Navoiyning buyuk asari “Xamsa”ning “Sabbai sayyor “dostonidagi chang iborasi ham arfa tusidagi cholg‘u sozini aniqrog‘i qo’l arfasini anglatgan bo’lib, uning mohir ijrochisi sifatida Dilorom kabi ayol obrazlari tasvirlangani ham bejiz bo’lmagan. Ammo 17 asrlardan keyin bu qo’l arfasi ijrochilikdan chiqa boshlagan va o’z o’rnini – maxsus tayoqchalar bilan urib chalinadigan trapetsiya shaklida chang cholg‘u asbobi egallagan. Changdan qadimda va o’rta asrt sharq madaniyatida qo’llanilgan hozirgi O’zbekiston va Tojikiston hududida qadimgi changdan taxminan 17 asrgacha qo’llanilgan . O’rta asrlarda Noqus Changiy , Hofiz Changiy , Darveshali Changiy, Mavlono Mirek Changiy Buxoriy va boshqa chang ijrochilar tanilgan . Chang burchakli yoki yoysimon shaklda bo’lib, unga 13 va undan ortiq torlar o’rnataligan. Ko’pchilik xalqlarda chang turlicha nomlanadi bu changlar orasida muayyan farqlar ham bor. Fors mamlakatlarda tarqalgan turi **santur** deb nomlanadi. Changning chang- tenor , chang – bas turlari ham mavjud. Turli mamlakatlarda uchraydigan changsimon asboblar quyidagilardir: sinbal, santouri, santoor, santur , tiompan , salterio , tambal , khim. Hozirda changda o’zbek , tojik , uyg’ur xalqlarida keng foydalaniladi. O’zbekistonda teng ishlatiladigan hozirgi turi trapetsiya shaklidagi tovushxonaga ega . Tovushqator asosini 14 sim tashkil etadi . Sim torlari 2 xarak vositasida 2 guruhga bo’linadi: o’ng xarak ustidan o’tkazilgan simlar past registrda , chap xarak ustida o’tkazilganlari 1 va 1,5 oktava yuqori registrlarda ovoz chiqaradi. Changning diapazoni kattadir : katta oktava A bemoldan ikkinchi oktava E bemolga yetadi. Chang bambukdan ishlangan ikki cho’p yordamida urib chalinadi. 1930-yillarda yangi (xromatik tovushqatorga ega) turlari yaratildi (prima , tenor, bas) . Jarangdor tember , keng dinamik va texnik imkoniyatlar tufayli turli ansambl , xalq cholg‘ulari orkestri tarkibida ham yakkanavoz cholg‘u sifatida ijrochilar orasida keng tarqaldi. O’zbekistonda chang ijrochilaridan Matyusub va Fozil Xarratovlar, Ruzimatxon Isaboyev, Baxtiyor Aliyev, Faxriddin Sodiqov, Maxmudov, Axmad Odilov, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artistlar T.Otaboyev, F.Shukurova, T.Sobirov va boshqalar tanilgan.

Changning texnik va jarangdorligi betakrorligi tufayli O’zbekiston kompozitorlari hamda bastakorlaridan chang uchun maxsus asarlar,qo’llanmalar va konsert repertuarlari yaratishni talab qilmoqda.”Chang taronalari”to’plamichang uchun maxsus yozilgan musiqa asarlaridan tuzilib,konservatoriya hamda musiqa

bilim yurtlari uchun qo’llanma sifatida foydalaniladi.Chang cholg’usida nafaqat texnik balkim o’zbek maqom asarlarining betakror ijro etilishi insonlarni o’ziga jalg qiladi.Hozirgi kunda o’tgan yillarga nisbatan ushbu cholg’u ichrosiga qiziqayotgan yoshlar ko’paymoqda. Ammo ba’zi hollarda san’atga qiziqishi yo’qolgan yoshlarni ham uchratish mumkin.Lelin san’at insonni yaxshi va hayolot olamiga olib kiradi.Shuning uchun ham yosh avlodni bo’sh vaqtini mazmunli va samarali o’tkazish uchun ularni san’atga qiziqtirish kerak.Bu so’zlarga misol qilib Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “...**har bir maktab bitiruvchilari,o’quvchi yoshlar biror bir cholg’u asbobini o’rganishi**” to’g’risidagi qabul qilgan qarorini mazmunini keltirishimiz mumkin.Men yoshlarni hozirgi kunda zamon talabiga mos ravishda asarlar tanlab,ular hohishidan kelib chiqqan holda qulog’iga yaqin,sho’x,zamonaviy kuylar,asarlar berib ularni san’atga yanada qiziqtish uslubini qo’lash taklifini bergen bo’lardim.Chet el asarlarini o’zbekcha cover variantlarini ijro etish yosh avlodni san’atga qiziqtiradi bu zamon talabidan kelib chiqan holdagi taklifdir.Shuningdek chang cholg’usida ham chel el kompozitorlari asarlarini texnik imkoniyatlarni ochish mumkin. Masalan boshqa mamlakatlarda ham keng tarqalgan chang cholg’usi turlarida ijro etilgan asar variantlarini ham ijro etish bu chang imkoniyatlari qanchalik ko’p ekanligini ko’rsatib beradi.Chang cholg’usini o’tirib ham,turib ham ijro qilsa bo’ladi.Bu imkoniyatlarni san’at olamiga targ’ib etish va keng miqyosda qo’lashni ham taklif qilgan bo’lardim.

San’at bu hayot mazmunini rang-barang qilish, tasavvuf olamini yanada yaxshilash uchun yordam beradi.Shuning uchun san’at bilan hamnafas bo’lish inson uchun yaxshi yo’l.

Foydalanilgan adabiyot:

- 1.”Chang taronalari”, ”Chang darsligi”-Ahmad Odilov
- 2.”Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” –I.A.Karimov.159-bet
- 3.”Ko’hma cholg’ular tarixi”-O’.Toshmatov,S.Turatov

II SHO,VA

AMALIY MASHG,ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV

CHOLG,U IJROCHILIGIDA “SOLFEDJIO” FANINING O,RNI

Mullajonov Davlat Mavlonovich

O,zDSMI “Musiqiy-nazariy fanlar” kafedrasи dotsent v.b.,
san“atshunoslik fanlari nomzodi
mullajonovdavlat@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunda oliy ta’lim tizimining o,quv jarayonida Solfejio fanini o,rni, uning maqsad va vazifalari hamda shartlari xususida so,z yuritilgan. Shuningdek, maqolada Solfejio darslarida olingan bilim va ko,nikmalar talabalarga cholg,u ijrochiligi darslarida, shuningdek, badiiy yo,nalishning qo,shimcha umumiy rivojlantiruvchi dasturlarining boshqa fanlarini o,rganishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida bayon etilgan.

Kalit so,zlar: Musiqa, musiqa san“ati, musiqiy savodxonlik, umumkasbiy, musiqiy did, musiqiy xotira va tafakkur, musiqiy-estetik tarbiya, sintezator, mikrofon, stereo yozuvlar, kompyuter dasturlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль солфеджио в образовательном процессе системы высшего образования на сегодняшний ден, его сели, задачи и практическая значимост. Также в статье отражено, что знания и навики, полученные на занятиях по солфеджио, важни для учащихся на уроках инструментального исполнительства, а также при изучении других дисциплин дополняющих их гармоничного развивающих программ музыкального искусства.

Ключевые слова: Музыка и музыкальное искусство, музыкальная грамота, спектральные предметы, музыкальный вкус, музыкальная память и мышление, музыкально-эстетическое воспитание, синтезатор, микрофон, стереозаписи, компьютерные программы.

ABSTRACT

This article discusses the role of solfeggio in the educational process of the higher education system today, its goals, objectives and practical significance. The article also reflects that the knowledge and skills gained in solfeggio classes are important for students in instrumental performance lessons, as well as in the study of other disciplines that complement their harmonious developing programs of musical art.

Keywords: Music and musical art, musical literacy, special subjects, musical taste, musical memory and thinking, musical and aesthetic education, synthesizer, microphone, stereo recordings, computer programs.

Mustaqillik tufayli xalqimizning boy tarixigaadolatli baho berish, milliy qadriyatlarimizni e“zozlash, ezgulikka yo,g,rilgan an“analar, urf-odatlarimizni qayta tiklash, ularni rivojlantirish, jahondagi ijobiy tajriba va tendensiyalar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur o,rganish asosida madaniyat va san“at muassasalari faoliyatini samarali yo,lga qo,,yish, ularda faoliyat yuritayotgan ilmiy kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan ko,plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so,nggi besh yil mobaynida Oliy ta“lim tizimida chinakam inqilobiy o,zgarishlarga xizmat qiladigan muhim hujjatlar imzolandi. Xususan, O,zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta“lim muassasalarida ta“lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta“minlash bo,yicha qo,,shimcha chora-tadbirlar to,g,risida» [1.] 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son qarori ijrosi tufayli respublikamiz oliy ta“lim muassasalarida ilg,or jahon tajribalari asosida darslik va o,quv qo,,llanmalari, davriy nashrlar chop etildi. Bu borada O,zbekiston davlat san“at va madaniyat institutida ham davlat ta“lim standartlari, malaka talablari, o,quv reja va fan dasturlariga muvofiq talaygina o,quv adabiyotlari yaratildi va ulardan ta“lim tizimida faol qo,,llanilmoqda.

Ma“lumki, “Solfgio” fani musiqa san“ati “Xalq cholg,ulari” yo,nalishi bo,yicha umumkasbiy tarixiy va nazariy fanlar sohasiga taalluqlidir. Mazkur fan boshqa umumkasbiy fanlar kabi talabalarning estetik qarashlari, axloqiy munosabatlari va ehtiyojlarini shakllantirishga, shuningdek, ma“naviy qadriyatlar kesimida milliy san“at asarlarini idrok etishni tarbiyalaydi. Shu bois, ushbu fanni ayni paytda oliy ta“lim tizimida o,qitilishiga oid ayrim fikr-mulohazalarni bayon etishni maqsadga muvofiq deb hisobladi [5.].

Solfgio darslari talabalarda tinglash (eshitish), musiqiy xotira, ritm kabi bilim va ko,nikmalarni rivojlantiradi, ularning ijodiy rivojlanishiga yordam beradi va musiqa san“atining nazariy asoslari bilan yaqindan tanishtiradi. Ular boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda musiqiy dunyoqarashning kengayishiga, musiqiy didning

shakllanishiga, musiqaga muhabbat uyg‘onishiga katta hissa qo’shadi. Shu bilan birga, Solfedjio darslarida olingen bilim va ko’nikmalar o’quvchilarga cholg‘u ijrochiligi darslarida, shuningdek, badiiy yo’nalişning qo’shimcha umumiyligi rivojlantiruvchi dasturlarining boshqa fanlarini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim dasturi tarkibidagi barcha fanlar kabi Solfejio fanining maqsadi talabalarning musiqiy-estetik tarbiyasiga, ularning umumiyligi dunyoqarashini kengaytirish, musiqiy didini shakllantirish, tinglash, xotira va tafakkurini hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek, darslarda og’zaki tushuntirish, turli xil vizual ko’rgazmali jadvallar, darsliklar va ijodiy mashqlar kabilardan foydalangan holda talabalarning musiqiy qobiliyatini, tafakkurini va xotirasini maqsadli tizimli rivojlantirish, musiqani idrok etish asoslarini tarbiyalash, musiqa tilini o’rganishdagi qonuniyatlarni anglash, cholg‘uda musiqa asarini ijro etishda, musiqa yaratishning ijodiy shakllarida amaliy ko’nikmalar va ulardan foydalanish ko’nikmalarini shakllantirish hamda talabalarda tinglash (eshitish) qibiliyatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi [3.].

Alohiда qayd etish kerakki, Solfejio fanining maqsad va vazifalarini talabalar faoliyatini tashkil etishda lad ichidagi pog’onalarni yechilishiga asoslangan vokal-intonatsion mashqlarni kuylash, bir va ikki ovozli musiqiy misollarni, shu jumladan nota varag{idagi musiqa namunalarni kuylash, o’rganilayotganakkord va intervallarning berilgan tovushdan va tonallikda tuzib kuylash, musiqiy misollar va musiqiy til unsurlarini tinglab tahlil qilish, yakka tartibda va ansamblda metroritmik mashqlarni kuylash, murakkab bo’lmagan kuyni notada yozish (musiqiy diktant), musiqiy misolning bas ovozini, jo’rovazlikni tinglab fortepianoda ijro etish, berilgan musiqiy matnni yoki ritmik formulaning davomini yaratish, yodlangan misollarni transpozitsiya qilib kuylash kabi shakllardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Albatta ushbu dasturni amalga oshirishda ta’lim muassasasida talabalar uchun o’quv qo’llanmalar, uslubiy adabiyotlar mavjudligi, audio kutubxonaning mavjudligi, didaktik tarqatma materiallar mavjudligi, fanlararo faol aloqalarga rioya qilish, turli musiqa ta’lim muassasalari bilan tizimli hamkorlik, tajriba almashish, solfejioni o’qitishning yangi shakllari va usullarini faol izlash, o’qituvchining o’z-o’zini tarbiyalash muhim shartlardandir.

Yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalar va shartlarni amalga oshirishda eng avvalo talabalarda musiqa san’atini tushunish, kuy va garmoniya go’zalligini his qilish, kuylash yoki cholg‘uda ijro etishni sevish uchun musiqiy tinglash qobiliyatini bo’lishi kerak. Aslida musiqiy tinglash – bu musiqa tovushlarining balandligi va davomiyligini idrok etish va ovoz bilan yoki cholg‘uda ularni takrorlay olish

qobiliyatidir. Keng ma‘noda esa musiqiy tinglash qobiliyati yoki musiqiylik deganda musiqaning ma‘nosini, musiqiy taassurotlarni idrok etish qobiliyati tushuniladi.

Konsertlarga, operaga tashrif buyuradigan, xorda kuylaydigan, musiqiy cholg‘uda ijrochilik sirlarini o‘rganayotgan har bir talabaning musiqiy tinglash qobiliyati bo‘lishi kerak. Ammo musiqachi bo‘lishga qaror qilgan talaba uchun musiqiy tinglash qobiliyati kasbiy faoliyatning asosiy, muhim vositasidir. Talaba uchun musiqiy tinglash qobiliyati “tabiatan” bo‘lishi yetarli emas. Shunday ekan musiqiy qobiliyatni har bir ta’lim bosqichlarida rivojlantirish va o’stirish lozim. Har qanday qobiliyat singari, u ham sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin, tobora nozik va “sezgir” bo‘lib, yanada moslashuvchan va tartibli bo‘lishi mumkin.

Barchamizga ma‘lumki, musiqiy qobiliyatning asosiy unsurlari – ***lad*** va ***ritm*** hissidir. Lad hissi musiqa tovushlarining o‘zaro bog‘liqligini, ularning balandligi va ma‘nosini idrok etishga hamda musiqadagi tovushlarni o‘zaro bog‘liqligini ajratishga yordam beradi [4.].

Ritm hissi esa talabada musiqiy tovushlarning vaqtli qanday tashkil etilishini, qisqa tovushlarni uzundan, uziq va cho‘zilgan tovushlardan ajratishga, “musiqiy nutq”dagi urg‘ular orqali musiqiy tovushlarning har biriga ergashish tartibini his qilish va ularni tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir malakali pedagog o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda solfedjio fani mazmunli va talabalar uchun qiziqarli o‘tishiga urinishi kerak. Bu XXI asr solfejio fanni o‘qitishning muhim masalalardan biridir. Ushbu masalaga oid ayrim fikr-mulohazalarimizni bildiramiz.

Eng avvalo solfejio fanining mohiyatini soddalashtirmsandan, uni yangi avlod talabalari uchun qiziqarli qilish kerak. Bunda psixologiya fanining zamonaviy yutuqlari assosida solfedjio fanining o‘qitish metodikasini ishlab chiqish, fanning musiqiy bazasini, jumladan, XXI asrning zamonaviy musiqasini, shuningdek, folklor, jaz va ommabop musiqasi namunalari bilan boyitish, musiqachi-ijrochining o‘ziga xos ijro xususiyatlarini hisobga olgan holda solfejioni zamonaviy konsert amaliyotiga yaqinlashtirish va nihoyat o‘qitishni sintezatorlar, mikrofon stereo yozuvlari, kompyuter dasturlarida faol qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘s himcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son Qarori.

Cholg‘u ijrochiligidä musiqiy ta’lim uzviyiliginı ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

2. Abdullina G. V. Sistemicheskiy kurs zanyatiy po solfedjio: metodicheskoye posobiye dlya muzikalnix fakultetov pedagogicheskix vuzov / G. V. Abdullina. – Sankt-Peterburg: Kompozitor, 2004. – 115 s.
3. Bushina T. V. Osnovi formirovaniya i razvitiya garmonicheskogo sluxa: metodicheskaya razrabotka [Elektronniy resurs] URL: <http://ext.spb.ru/2011-03-29-09-03-14/118-additional-education/2691-2013-04-10-07-58-52.html> (24.01.2018).
4. Jukov S. V. Razvitiye ladogarmonicheskogo sluxa uchashixsyu podrostkovogo vozrasta sredstvami vokalnogo ansamblevogo ispolnitelstva // Vestnik kafedri YUNESKO «Muzikalnoye iskusstvo i obrazovaniye». – 2013. – № 1. [Elektronniy resurs]
5. Ibrohimov O.A., Yunusov R.Y. Solfedjio darsligi. The Aga Khan Trust for Culture T.: 2004 – 199 b.
6. Kazanseva N. A. Razvitiye garmonicheskogo sluxa u mladshix shkolnikov sredstvami muzikalno-didakticheskoy igri kak pedagogicheskaya problema / Kazanseva N.A., Moskvina I.V. // Vestnik Shadrinskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. – 2011. – № 3 (12). – S. 73-77.
7. Kak prepodavat solfedjio v XXI veke / sost. O. Berak, M. Karaseva. – Moskva: Klassika-XXI, 2016. – 220 s.

QASHQAR RUBOBIDA BOSHLANG‘ICH DARS JARAYONIDAGI TA’LIM MUAMMOLARI XUSUSIDA

Rajabov Xikmat Jumayevich

O,ζDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi professor v.b.

ANNOTATSIYA

Musiqa san“ati tushunchasida birinchi tasavvur etiladigani bu kuy, ya“ni ohangdir. Inson turli ifoda vositalari bilan o,ζ fikrlarini bayon etib, dilidagi his-tuyg,usi va mulohazasini boshqalarga yetkazuvchidir. Musiqa, kuyning yangrashi, albatta, musiqiy cholg‘ular yordamida amalga oshiriladi. Ana shunday cholg‘ulardan biri bu qashqar rubobidir. Rubob tarixi uzoq o,tmishlarga borib taqaladi.

Kalit so‘zlar: musiqa, san“at, mahorat, ijrochilik, uslub, tajriba.

ON THE PROBLEMS OF EDUCATION IN THE PRIMARY SCHOOL OF THE KASHGAR RUBAB

ABSTRACT

The first thing that comes to mind about the concept of musical art is melody. A person expresses his thoughts and feelings to others through various means of expression. Music, melody, is expressed using musical instruments. One of these instruments is the Kashgar rubab. The history of the Kashgar rubab is rooted in the distant past.

Keywords: music, art, skill, performance, style, experience.

Shunday qilib, rubob qadimiy cholg‘ulardan biri bo,lib, shu kunga qadar xalqimiz qo,ldan tushmay kelmoqda va ijro etish san“ati takomillashib bormoqda. Bu jarayonni yanada rivojlantirish uchun keljakda yetuk mutaxassislarini tayyorlashda, cholg‘u ijrochiligidida musiqiy ta’limning uzviyligi, o,quvchi-yosh talabalarga o,rgatishda, nazariy va amaliy bilimlarini egallashlari zarurligi, qashqar rubobini o,rganish chap qo,l barmoqlarini to,g,ri qo,yish ko,nikmasini shakllantirish, va mustahkamlash, pozitsiyalar almashinushi, shtrixlarni puxta egallashi, cholg‘u grifida notaning joylashini topa olishi, notani o,qish va tordan-torga o,tish kabi murakkab jarayonni diqqat bilan udallahshlar zarur bo,ldi.

Qashqar rubobida ijro mahorati, ijrochilik san“atining ko,pgina kopleks masalalarini o,ζ ichiga oladi.

Chap va o‘ng qo‘llardagi turli harakatlar hamda uslublarning shakllanish jarayoni ancha murakkabdir. Shuning uchun qashqar rubobida ijro etish texnikasi ustida ishlaganda har bir qo‘lni alohida-alohida, ikkala qo‘lni birga ma‘lum maqsad va vazifaga bo‘ysundirishga etishish lozim.

Ushbu maqola qashqar rubobining boshlang‘ich dars berish jarayonidagi ta’lim muammolari, musiqiy savodxonlik ta’lim asoslarini nazariy va amaliy masalalar yoritilgan bo‘lib, muallifning ko‘p yillik pedagogic tajribasi samarasidir.

Qashqar rubobida chalishni o‘rgatishni dastlabki vazifasi bo‘lib, qoida tariqasida, nimalarga diqqatni jamlash kerakli bo‘lgan bir qator tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi, Bunga quyidagilar kiradi: Eshitish qobiliyatini rivojlantirish, Rubobda ovoz chiqarish usullari va uslublarini shakllantirish, musiqiy savodxonlik asoslarini o‘rganish va boshqalar.

Lekin har doim talabalarda uchratib turiladigan kamchiliklardan biri bu Qashqar rubobni to‘g‘ri tutish (pastanovkasi), qanday qilib ovoz chiqarish kerakligini to‘g‘ri o‘rganish kerak. Shu munosabat bilan, Qashqar rubobini chalishda sozlashni, o‘zlashtirish davrini bir qator elementlarga ajratish kerak, ular ustida alohida mashq qilish kerak.

Shunday qilib, biz mashqni “belgilangan maqsadga erishish uchun talabaga taklif qilingan topshiriq” deb atashimiz mumkin.

Birinchi darslarda talaba uchun mashqlarni o‘qituvchi belgilaydi. Bulachevskiy va Fominlar “Qisqacha musiqiy lug‘ati”da mashqqa quyidagi ta‘rifni berishadi: “Ijrochining texnik tayyorgarligi uchun mo‘ljallangan turli xil ohanglar variattsiyalar va parchalar”. Bizning mavzumizda biz mashg‘ulotning dastlabki bos qichlarida bir-biridan farq qiladigan vazifani qo‘ydik.

Shu munosabat bilan Qashqar rubobini chalishni o‘rganishning dastlabki bosqichlarida talaba duch keladigan asosiy elementlarni aniqlash zaruriyati tug‘ildi.

Masalan: Agar talaba Rubob chalishda mediatorni qanday to‘g‘ri tutish va undan qanday foydalanish bo‘yicha mashqlarni bajarmasa, biz “Tremopo shtrixi-dagi davomiyligi davomida doimiy notalar cho‘zimini ijro eta olmaymiz.”

Simlardagi zarblarni qo‘lning sekin harakatlaridan boshlab, so‘ng ularni astasekin tez harakatlarga keltiring. Yana bir holat, agar talaba asbobni olib, uni chaladigan holatlarda ular o‘zlarining kuzatuvlaridan foydalangan holda qo‘lga olishadi. Ammo, u qo‘llarini professional tarzda qo‘yib, asbobga yo‘naltirilgan xolatni berishi bilanoiq, talabani yelkalari va qo‘l mushaklari bunday xarakatda ishlatilmagan yelkalarning, qo‘llarning mushaklari charchashi tabiiy xol.

Shuni yodda tutish kerakki, o‘qituvchi talabaning tayyorgarligini hisobga olgan holda mashqlarni izlashi kerak.

Qashqar rubobini o,rganishdagi dastlabki darslar davomida, ko,p yillik nazariy va amaliy izlanishlar, tajribaga tayanib rubob chalishni shakllantirishga ishtirok etadigan uchta muhim tarkibiy qismni ko,rib chiqish tavsiya etiladi:

1. Qashqar rubobining holati (pastanovka)
2. Ovoz chiqarishda vositachining roli. (mediator)
3. Chap va o,ng qo,l texnikasini rivojlantirish.

Bularni ko,rib chiqib, shaxsiy amaliy va pedagogik tajribaga asoslangan holda mashqlarni tavsiya etamiz. Qashqar rubobida pastanovka (rubobni to,g,ri ushslash), chalish holatiga siz quyidagilarni bajarishingiz kerak: Ijroni to,g,ri, erkin bajarish uchun, oyoqlaringizni yelkangizning kengligida qo,ying. Yelkalar pastga, bo,shashgan bo,lishi kerak.

Aqliy ravishda, asbobsiz, cha qo,lni tirsak qo,shimchasiga bukilgan holda ko,taring, shunda qo,l yelka darajasida bo,ladi. Bunday holda, chap qo,lning barmoqlari yarim doira shaklida egilgan bo,lishi kerak. Rubobning dasta qismi bosh barmog,inling yaqinida, ya,ni ostida bo,lib, dastadan uzoqda bo,lmasligi taklif qilinadi.

Tirsakni qo,shimchasida bukilgan o,ng qo,l ijrochining tanasiga bosilmasligi va taxminan 10 sm masofada yoki musht bo,lishi kerak.

Bunday holda rubob tanasini ya“ni dastani ushlab turganda uning uchta aloqa nuqtasi borligini tahlil qilish kerak – tirsak, yelka bo,g,jmlari va ko,krakning pastki qismiga bosilgan holda bo,lishi kerak.

Rubob bilan keyinchalik, ushbu mashqni takrorlashda, Rubobning dastasidagi chap qo,lning holatiga e“tibor berish kerak. Bu mashq talabaning jismoniy xususiyatlari bilan bog,liq bo,lishi kerak, albatta.

Bu barcha tayyorgarlik harakatlarini biz Qashqar rubobida chalishning shakllanishdagi dastlabki nashqlari deb atashimiz mumkin bo,ladi. Rubobni to,g,ri tutishning ushbu mahoratini rivojlantirishda o,quvchi-talabaning mushak charchoqlarini pasaytirish muhimdir. Shuning uchun, agar ushbu mashq bir necha marta takrorlanmasa, unda rubob chalishning dastlabki darslari qisqa muddatli bo,lishi mumkin.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib dars jarayonida mashq vaqtini shunday taqsimlash kerakki, dam olish daqiqalari ham bo,lisin.

Ijro jarayoni mahoratini ongli ravishda shakllantirish avvalombor, mediator bilan ishlash vazifasini to,g,ri bilish, rubobda tovush chiqarish sifatiga ta“sir qiluvchi bir qator omillarni tahlil qilish kerak.

Bunga quyidagilar kiradi: sifat, mediator nimadan yasalganligi, shakli, tovushni rubob simini qayerdan chiqarilishi, mediatorni to,g,ri tutilishi, harakat tezligining rivojlanishi, uni qaysi burchagidan tovush chiqarishni bilish kiradi.

Mediatordan foydalanishning dastlabki mashqlarini ko,rib chiqamiz (bu yerda, albatta, mediator barcha kerakli talablarga javob berishi nazarda tutamiz).



1-rasm

Mediatorni to,g,ri ushslash uchun o,ng qo,lning bosh barmoqning birinchi bo,g,ini oralig,jida ushlab turish kerak. Shunda mediatorni turish holati shunday bo,lishi kerakki, xuddi go,yo ko,rsatkich barmog,jining ikkinchi bo,g,inni davomi bo,lishi shart.



O‘ng qol 2-rasm O‘ng qo ‘l rubob bilan 3-rasm

Mediatorni to,g,ri ishlatish uchun siz quyidagi mashqlarni bajarishingiz kerak (2-3 rasmlarga qarang). Yuqorida yozilganidek, mediatorni o,ng qo,lga olib,qolgan barcha barmoqlar, yarim aylana shaklida egilgan holatda, ularni bir-biriga yaqinlashtiringki, shunda barmoqlar o,rtasida bo,sh joy qolmasin.

Plektor asboblarida, xususan, rubobda kontelina, ohangdor tovushni shakllantirish uchun tremolo texnikasi bilan chalish orqali amalga oshiriladi.

Qashqar rubobida o,ziga xos tartibga ko,ra, mediator bilan pastga chalish osonroq va bundan tashqari tovushlarni sifati, kuchli eshitilish jihatidan mediator bilan pastdan yuqoriga berilgan zarbadan biroz farq qiladi. Tremoloda chalish texnikasini ishlab chiqishda o,quvchi talabalarga rubob torlariga sekin chalib, so,ngra asta-asta tezlashtirishdan boshlashni tavsiya beramiz.

Talaba ham rubob dastasini to,liq o,zlashtirmagan bo,lsada tremolo texnikasini ochiq simlarda mashq qilishni boshlash maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda barcha torlarni bir xil qiyinchiliklar bilan chalish mumkin emasligi tajribada kuzatilmoque.

Cholg‘u ijrochiligidä musiqiy ta’lim uzviyiliginä ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

Bu birinchi sim – lya da chalish oson, ikkinchi – mi da biroz qiyinroq, uchinchisi da esa qiyinroq.

Bu uchchala simlarning har xil tarangligi va ularni joylashishi bilan bog,liq. Bunday holda, o,ng qo,l tovush chiqarishda qo,lning holatini o,zgartirish mumkin. Birinchi qatorda tremolo boshlash tavsiya etiladi:

Birinchi – lya simida. Masalan:




Ikkinci – mi simida. Masalan:



Uchinchi – si simida. Masalan:



Tremoloning bir tekis tovushini hosil qilishda juda muhim lahza bu tovushning boshlanishi yoki tovushni rivojlanib va uni tarqalib tugatish paytidir. Ko,pincha, ushbu ikki omil ustidan ijrochi nazorati mavjud bo,lmaganda, asossiz aktsentlar mavjud bo,ladi.



Bunday holda, albatta, mashq jarayonida aktsentga yo,l qo,ymaslik uchun mediatorni yuqoriga ko,tarish bilan simdan uzish kerak.

Qashqar rubobida ijro etish ko,nikmalarini rivojlantirish, ovoz chiqarishda vositachining o,rni bo,yicha biz rubobni chalish jarayonida chap va o,ng qo,llarning o,zaro ta“siri masalasiga mantiqiy yondashamiz.

Bu yerda talabaning ongi chap va o,ng qo,lning barmoqlari texnikasining muvofiqlashtirilgan harakatlarini rivojlantirishga faol yo,naltirilganligiga e,tibor qaratish lozim. Odatda, talaba barmoqlarini rubob simiga qo,yish vazifasi bilan duch kelganda, u barmoqlarini asbobning parda (ladiga yaqin) pog,onasiga, barmoq yostig,ini joylashishiga ishonch hosil qila boshlaydi. Shu bilan birga, o,ng qo,l bilan

rubob simiga zARBalar e‘tiborga olinmay qoladi. Demak, ko,pincha o,ng qo,l bilan zARBalar rubob simidan o,tib ketgani kuzatiladi.

Dastlab, talaba uchun bu vazifani bajarish qiyin, u ko,rish qobiliyatiga murojaat qilishni boshlaydi. Biroq, bir muncha vaqt o,tadi va talaba bir vaqtning o,zida kerakli ovozni ko,rishni boshlaydi. Ushbu jarayon avtomatlashtirish holatga kiradi.

Ijro jarayonidagi mahorat rivojlanib, oshib borishi harakatlarni estetik tomonlariga rioya qilish kerak, barmoqlar asbobning dasra qismidan baland ko,tar masdan va mediatorning zarbasidan chap qo,l rubob simlaridan uzoqlashmasligi kerak.

Bunday nazoratning ma‘nosi mutlaqo aniq va u ratsional harakatlardan saqlanish, balki ularni maqsadga muvofiq ravishda tuzatishdan iborat. Bunday holda quyidagi mashqlarni tavsiya etish mumkin:

Ammo zarblar kombinatsiyasi o,quvchini o,ng qo,lning ratsional harakatlariga rioya qilishga majbur qiladi. Amalda biz ishonamiz; chap qo,lning birinchi va ikkinchi barmoqlari uchinchi hamda to,rtinchi barmoqlarga qaraganda ko,proq rivojlangan ekanligini ko,rish mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, qashqar rubobini chalishdagi boshlang‘ich darslarni o‘rganishimiz va uning kamchiliklarini o‘rganib chiqishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Abu Nasr Forobi. Risolalar. Katta musiqa kitobidan. Toshkent, 1975.
2. Feoktist Nikiforovich Vasilev. Qashqar rubobi uchun gamma va arpedjio applikaturasi. Toshkent, 1978.

MUSIQA IJROCHILARINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA MUSIQIY-NAZARIY FANLARNING O‘RNI

Abduvahobov Abdushukur

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti: (cholg‘u ijrochiligi)

1-bosqich magistr talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent S.Turatov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqa ijrochilarining kasbiy mahoratini oshirishda musiqiy-nazariy fanlarning ahamiyati o‘rganib chiqilib, hozirgi kunda musiqaga ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan musiqa ijrochilarining bir qator kamchiliklari yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Madaniyat va san‘at, sharq allomalari, cholg‘u ijrochiligi, dars mashg‘ulotlari, musiqa nazariyasi, ritm, temp, dinamika, artikulyasiya, garmoniya, ijro texnikasi.

THE ROLE OF MUSIC-THEORETICAL SCIENCES IN IMPROVING THE PROFESSIONAL SKILLS OF MUSIC PERFORMERS

ABSTRACT

In this article, the importance of music-Theoretical Sciences in improving the professional skills of music performers has been studied and a number of shortcomings of music performers currently studying in specialized educational institutions of music have been highlighted.

Keywords: culture and art, Oriental scientists, Instrumental Performance, lesson classes, music theory, rhythm, tempo, dynamics, articulation, harmony, technique of execution.

Mustaqilligimizning ilk yillaridanoq barcha sohalar singari madaniyat va san‘at sohasi ham yildan-yilga ravnaq topib bormoqda. So,nggi yillarda madaniyat va san‘at ta’limida ko,plab yangi ta’lim muassasalari, yangi yo,nalishlar va ixtisosliklar ochilib soha mutaxassislari ko,lami kengayishda davom etmoqda. Xususan, yurtimiz tarixi, urf-odatlari, xalqimizga xos bo,lgan milliylik ruhini o,zida aks ettirib turuvchi xalq ijodiyoti, ya“ni, folklor, an“anaviy ijrochilik va qo,shiqchilik, xalq cholg‘ulari ijrochiligi kabi san‘at turlariga bo,layotgan e“tibor sohaga doir bir qator o,zgarishlarga misol bo,la oladi. Ammo yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan

qay darajada foydalana olayapmiz degan savol bugungi kunda dolzarb bo,lib bormoqda. Oliy va o,rtta maxsus ta’lim tizimida cholg,u ijrochiligi yo,nalishi bo,yicha ta’lim oluvchilarining soni yil sayin oshib borayotgani ayni haqiqat. Lekin ba”zi ta’lim oluvchilarining va yetishib chiqayotgan ayrim mutaxassislarining bilim nuqta”i nazaridan kamchiliklari yetarlicha. Nota savodxonligi, musiqiy-nazariy fanlarning to,liq o,zlashtirilmaganligi hamda ijro uslublarining bo,lajak o,qituvchi nomiga mos darajada emasligi, kelgusida yetishib chiqajak yosh cholg,u ijrochilarining nomutaxassis holiga kelishiga sabab bo,lmasmikin?

Shu o,rinda yana bir savol tug,uladi, musiqa ijrochilarining kasbiy tayyorgarliklarini oshirishda musiqiy-nazariy fanlarning o,rni nechog,liq yuksak?

Cholg,u ijrochiligi yo,nalishida o,qitish dars mashg,ulotlari shakllarining ko,p qirraliligi bilan ajralib turadi. Yakka dars, ansambl, orkestr, dirijorlik, cholg,ushunoslik, xalq cholg,ularini o,rganish, cholg,ulashtirish shular jumlasidan. Sanab o,tilgan dars shakllari bo,yicha talabalarning dars mashg,ulotlarini puxta egallashlarida musiqiy nazariy fanlarning o,rni muhim sanaladi. Mutaxassislik fanlarining har biri musiqiy-nazariy fanlar bilan chambarchas bog,liq tarzda olib boriladi. Faqatgina cholg,u ijrochiligi emas balki xalq ijodiyoti bilan bog,liq barcha san“at yo,nalishlarida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar ohang, ritm xususiyatlari, garmoniya, polifoniya va uning qismlari, tuzilishi, musiqiy asarning mazmuni, musiqiy harakter va obraz tushunchasi, musiqiy tasvirlarni yorita olish va asosiysi ijro texnikasiga ega bo,lishi lozim.

Musiqa ijrochiligi hamda musiqa ilmi haqida so,z borar ekan avvalo, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Sayfiuddin al-Urmaviy, Abdulqodir Marog,iy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi sharq allomalarining musiqaga oid risolalari hamda asarlari haqida aytib o,tish joiz. Ularning musiqa ilmiga oid asarlari va risolalarida sharq musiqa nazariyasining ilk negizlari namoyon bo,ladi. Shu bilan birga sharq allomalarining musiqa haqida yozilgan risolalari hamda asarlarida aynan musiqachining mahoratli ijrosi borasida ko,plab fikrlarni ko,rishimiz mumkin. Shu o,rinda Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye”sida keltirilgan quyidagi rivoyat musiqa ijrochisining mahoratini ulug,laydi: “Hazrati Dovud payg,ambardan keyin hech kim Hofiz Basirdek xonandalik qila olmas ekan. Shunisi ham mashhurki, uning xonandalik majlisida to,rt kishi vaj holida hushidan ketgan ekan”.¹

Shu bilan birga Amir Temur saroyida “saroy musiqachisi” Abdulqodir Marog,iy haqida ham shunday rivoyat mavjud: “U, bir vaqtning o,zida bir qo,li bilan ramalni (24 naqra), yana bir qo,li bilan xafifni (16 naqra), bir oyog,i bilan virshoni

¹ O. Ibrohimov – A.Navoiyning samo falsafasi.

(16 naqra), yana bir oyog,ı bilan foxitiyni (20 naqra) ijro etar edi”.² (Ramal, xafif, virsho, foxityi- urma-zarbli cholg,ular: “naqra”- zARB,taqillatish ma“nosida) Bunday mahorat ila musiqa ijro etishda albatta sozanda mukammal ijro texnikasi va musiqa ilmi, musiqa nazariyasini mukammal egallagan bo,lishi lozim.

Musiqa nazariyasi – musiqashunoslikning bir qismi bo,lib, etimologik jihatdan musiqani tafakkur qilish ma“nosida tushuniladi. Nazariya (ta“limot, qoidalar majmui) – voqealik qonuniyatları va undagi muhim aloqalar haqida butun tasavvur beradigan bilim shakli. Nazariya hamma vaqt amaliyot bilan uzviy bog,liq bo,lib, ladi va shundagina u harakat va rivojlanishning quroliga aylanadi.³ Musiqa nazariyasi musiqa ijrochilarining mukammal ijrosi uchun zarur bo,lgan barcha qonun qoida va tushunchalar ta“limoti hisoblanadi. Nota cho,zimlari, tonalliklar, alteratsiya belgilari, ritm, temp, dinamika, artikulyasiya, lad va nota yozuvini o,qish va ijro qilish davomida muhim bo,lgan belgi hamda tushunchalar musiqa asari ijrosi davomida professionalizmlikni ta“minlaydi. Xalq ijodiyoti yo,nalishida tahsil olayotgan ayrim talabalar, ayniqsa, an“anaviy ijrochilar va folklor yo,nalishida tahsil oluvchilarda musiqa nazariyasi bilimlarini egallah bo,yicha qator kamchiliklar mavjud.

Musiqiy ijro davomida eng oddiy tushuncha ritm hamda temp tushunchalari mavjud. Ular eng oddiy ammo eng asosiy tushunchalardan hisoblanadi. Aynan ushbu ikki tushuncha musiqa ijrochisining mahorati va qobiliyatini belgilab berish imkoniyatiga ega ekanligi shubhasiz. Ritm tushunchasi yunon tilidan olingan bo,lib “rhythmos” oqim, marom degan ma“nolarni anglatadi. Musiqiy ritm – bu metr hissalarini o,zaro uyushib kelishi va ularning izchilligidir⁴. Ritm musiqiy ifoda vositalaridan biri bo,lib, kuy tuzilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tovushlarning o,zaro metrik jihatidan to,g,ri taqsimlanishi natijasida ritmnинг ravonligi ta“minlanadi. Har bir kuchli va kuchsiz hissalarining o,zaro bir maromda kelishi ritmnинг asosiy mezonidir. Temp esa musiqa asarining belgilangan ijro sur“atini va tezligini ifodalaydi. Temp o,z o,rnida vazmin (largo, lento, adagio, grave va boshqalar), o,rtacha (andante, andantino, moderato, allegretto va boshqalar) va tez (allegro, vivo, vivace, presto, prestissimo va boshqalar) kabi turlarga bo,linadi. Musiqiy asar davomida belgilangan tempni bir maromda his qilish va ijro vaqtida uni qo,llay olish ijrochining qobiliyati va musiqiy savodini belgilab beradi. Ushbu ikki musiqiy tushuncha musiqa va san“at maktablarining boshlang,ich mavzulari hisoblanadi. Ammo, hozirgi kunda hatto oliygoh talabasi darajasidagi musiqa ijrochilarida ham ritm va tempni his qilish qobiliyatları rivojlanmaganligi, ritm va tempning bir maromda emasligi va shu kabi muammolar ko,zga tashlanadi. Musiqa va san“at maktablarida cholg,u ijrochiligi bo,yicha kirish imtihonlarida o,quvchining

² Shodmonov Nafas -Xoja Abdulqodir Marog,iy.- Toshkent, 2000. 22b

³ O,zbekiston milliy ensiklopediyasi 1-jild T.2000

⁴ Sposobin I.V- Elementar musiqa nazariyası

muayyan tempni his qila olishi birinchi navbatta tekshirilishi ham bejiz emas. Shu bilan birga musiqaning inson ongi va ruhiyatiga ta’sir etishida musiqa asarida qo’llanilgan dinamika, artikulyasiya va garmoniya ham muhim hisoblanadi.

Dinamika – musiqiy asarning nota yozuvida va uni bevosita ijro etishda tovushlar sadolanishining baland yoki pastligi va o,zgaruvchanligi, musiqiy ifodaning muhim vositalaridan biri bo,lib, xalq ijodiyoti hamda akademik ijrochilikda qadimdan qo,llanib kelingan. Ushbu atama ilk bor amaliyotda shvetsar musiqa o,qituvchisi X.Negeli tomonidan joriy etilgan.⁵ Dinamika kuchli (forte, fortissimi, metsoforte), kuchsiz (piano, metsopiano, pionissimo), o,zgaruvchan (crescendo, diminuendo va boshqalar) turlari mavjud. Musiqiy asar ijrosi davomida ijrochi dinamik belgilarni to,g,ri qo,llay olishi asar mazmunini tovushlarning baland yoki pastligi orqali ifodalab berishda xizmat qiladi. Asar xarakterini ijro uslublari orqali ifodalashda artikulyasiya belgilari, shtrixlar hamda “ornamental” usullar, bezak kabilar keng qo,llaniladi. Musiqiy asar xarakter jihatdan tinglovchiga ma’lum bir fikrni tasvirlaydi, fikr esa albatta iboralardan iborat, iboralar o,z navbatida so,zlarda qo,llanilgan artikulyasiya orqali hosil bo,ladi.

Artikulyasiya – lotincha “artikuo” so,zidan olingan bo,lib, bog,inlamoq, qismlarga bo,lib ijro qilmoq ma’nolarini anglatadi⁶. Artikulyasiyaning ligato, stakkato, markato, portamento, spikato va boshqa turlari mavjud bo,lib, musiqa asari ijrosida juda muhim belgilardan biri hisoblanadi. Bu borada nemis kompozitor Teodor Vimayer shunday deydi! – “Ibora bu og,zaki nutqdagi tinish belgilariga o,xshaydi, artikulyasiya esa alohida so,zlarning talaffuzi kabidir. Iboralar ichida so,zlar bog,lanmasi uchun artikulyasiya zarur”. Darhaqiqat, musiqa ham badiiy asar singari ma’lum bir fikrni eshituvchiga yetkazib berishni maqsad qiladi. Fikrning tinglovchiga to,g,ri va o,z mazmuniga mos tarzda yetib borishida musiqa ijrochisining artikulyasiya belgilarini o,zlashtirganlik darajasi muhim omil bo,lib xizmat qiladi. Har bir musiqa ijrochisi xonanda, cholg,u yoki vokal ijrochisi bo,lisidan qat’iy nazar, ijro qilinayotgan asar mazmunini tahlil qila olish, asar ichidagi asosiy motivni his qila olish va qo,llanilgan garmoniyalarni idrok qilish orqali asar kim tomonidan, kimga qarata, qay maqsadda yo,naltirilganligini tushuna olishi lozim. Ana shundagina mukammal ijroga erishish mumkin bo,ladi. Mukammal ijroning hosil bo,lisida albatta musiqiy asar davomida qo,llanilgan garmoniyalarni his qila olish hamda unga monand tarzda ijro etish musiqachidan a’lo darajadagi nazariy bilimlarni talab qiladi.

Garmoniya (yunoncha “harmonia” – bog,lanish, mutanosiblik) – bu ko,p ovozli musiqaning asosiy ifoda vositalaridan biridir. Bunda asar mazmuni kuy rivoji

⁵ Yu.V.Keldsh-Musiqa ensiklopediyasi 1973

⁶ Yu.V.Keldsh-Musiqa ensiklopediyasi 1973

bilangina emas, balki unga hamohang bo,lgan turliakkordlarning almashinuviyordamida ifodalanadi.⁷ Garmoniya muayyan lad va tonallikga oidakkordlarning sadolanish xususiyatlariga hamda ularning musiqa jarayonidagi turg,unligiyoki beqarorligiga asoslanadi. Odadta bosh melodiya yuqori ovozda bayon etilib, qolganovozlarda unga uzviy bog,liq bo,lgan kuy parchalari ham ma'lum garmoniya majmuini tashkil etishi mumkin. Garmoniya musiqa nazariyasidan keyingi bosqichda o,tiladigan fan sifatida musiqa musiqaga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarifan dasturiga kiritilgan. Bundan ko,zlangan maqsad ham aynan musiqa ijrochiligidaijro qilinayotgan asarga tahliliy yondashuvni shakllantirish va ijrochida garmoniya vasola uyg,unligini his qilish ko,nikmasini hosil qilish hisoblanadi. Umuman olganda musiqa ijrochiligi ta'limida musiqiy-nazariy fanlarning o,tilishi ijrochida musiqa va uning tarkibiy qismlari, uning tahlili va ijro uslublari bo,yicha mukammal tushunchalarga ega bo,lishi hamda musiqiy-nazariy fanlarni amaliyat bilan bog,lashko,nikmalarini hosil qiladi va bularning barchasi yakka dars mashg,ulotlarining samarali va mazmunli o,tishiga hissa qo,shadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa ham badiiy asar singari inson tarbiyasi va psixologiyasini ijobjiy yo,nalishga o,zgartirishda yordam beradi. Badiiy asarda harflar musiqada esa notalar ma'lum bir fikrni tinglovchiga yetkazish uchun xizmat qiladi. Har bir musiqiy asar negizida bir inson, millat yoki jamiyatning tarixi yashirin va u insonga tarbiyaviy ozuqa berish maqsadida bizga taqdim etiladi. Ijro qilinayotgan musiqiy asar xarakteridagi ma"no va mazmunni to,liq anglagan holda ijro qilish musiqa ijrochilarining asosiy vazifasi hisoblanadi, shunday ekan mutaxassislik fanlari bo,yicha imtihonlar jarayonida har bir ijro qilingan musiqa asarining tahlili, harakteri va asar davomida uchraydigan atamalar yuzasidan savol va topshiriqlar berilishi talabalar o,rtasida har bir asarni mukammal o,rganishga bo,lgan xohishni uyg,otadi va shu tariqa ijrochilarda nazariy bilimlar darajasi kengayib boraveradi. Musiqiy-nazariy fanlar musiqa ijrochilariga o,z ijro mahoratini oshirishlarida, xalqaro va respublika ko,rik-tanlovlarida ham g,alaba qozonishi, shu bilan birga kasbiytayyorgarligining oshishida asosiy omil bo,lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Sposobin I.V – Elementar musiqa nazariyasi. 1951-y.
2. Shodmonov Nafas-Xoja Abdulqodir Marog,ijy.- Toshkent, 2000-y.
3. Bershadskaya T.S – Musiqa nazariyasi. 2003-y.
4. Keldish Yu.V – Musiqa ensiklopediyasi. 1973-y.
5. O,zbekiston milliy ensiklopediyasi 1-jild T.2000-y.
6. O.Ibrohimov – A.Navoiyning samo falsafasi. Maqola.

⁷ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 1-jild T.2000y

MUSIQIY -NAZARIY FANLARNI TASHKIL QILISH. SOL’FEDJIO DARSLARIDA INTONATSION MASHQLARNING AHAMIYATI

Dilafruz Sultanxonovna Isakova

Farg’ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi “Musiqiy-nazariy fanlar” bo’limi
katta o’qituvchisi

Aripova Dilnoz Ne’matovna

Farg’ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi “Musiqiy-nazariy fanlar” bo’limi
Bosh o’qituvchi

ANNOTATSIYA

Sayyoramizda turli kelishmovchiliklar va qarama-qarshiliklar, urush va nizolar avj olgan taxlikali zamonda, odamzod tobora o’z dunyosiga o’ralib borayotgan bir sharoitda musiqa insonga insonligini eslatib, uning qalbida kelajakka umid va ishonch uyg’otdi.¹

Kalit so’zlar: Musiqiy, san’at soha, madaniyat, musiq, sol’fedjio, ixtisoslashgan san’at maktabi.

O’zbek xalqi musiqa san’atining badiiy-ma’naviy go’zalligi asrlar qa’ridan kelayotgan kuy-ohanglarda, ularning turfa ko’rinishlarida ajoyib, betakror ifodasini topgan. Bugungi kunda yurtimizda san’at va madaniyat xususan, musiqa san’atiga alohida e’tibor qaratilyapdi va soxa rivoji yo’lida bir qancha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bunga misol qilib san’at va madaniyat soxasini rivojlantirish to’g’risidagi bir qancha qaror va dasturlarni ko’rshimiz mumkin.

2019- yil 21- noyabr O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 940-sonli Maqom san’atini rivojlantirish va maqom maktablarini tashkil qilish to’g’risida, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2020 yildagi PF-6000 sonli “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o’rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldaggi PQ-112 sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori. Ushbu qaror va farmonlar musiqa va san’at sohasida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog, ijrochi va ijodkorlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga musiqa maktablari, to’garaklar, ixtisoslashtirilgan san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan litseylar dastlabki qadamlar

¹ Sh.Mirziyoyev “Sharq taronalari” 12-xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag’ishlangan tantanali marosimdagagi tabrik so’zidan.

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyilagini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance


hisoblanadi. Ushbu ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bilim salohiyatiga bir qancha soha kamchiliklari salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Birgina Musiqiy-nazariy fanlarni tashkil qilishdagi kamchiliklarni keltirsak;

1. Musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha yangi adabiyotlar, qo'llanmalarning kamligi va talab darajasida emasligi.

2. Musiqiy-nazariy va musiqiy- tarixiy fanlarni o'tishda zamonaviy pedagogik usullardan kam foydalanish

Musiqiy- nazariy fanlar musiqaning asl negizi bo'lib, asarning tarixi uning tuzilishi haqida tushunchaga ega bo'lмаган ijrochi yoki musiqashunos tinglovchiga uning asl mohiyatini yetkaza bera olmaydi.

Yurtimizda musiqaning rivojlanishi va musiqiy ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasida musiqiy ta'lim uch bosqichda amalga oshiriladi. Ular:



Musiqiy-nazariy fanlar o'quvchi musiqa maktabiga qadam qo'ygan kundan boshlab turli ko'rinish va nomlarda olib boriladi. 1-7 (milliy cholg'u ijrochiligidagi 1-5) sinflarda musiqa savodi yoki musiqaning elementar nazariyasifani va sol'fedjio, musiqa adabiyoti darslari olib boriladi.

Ixtisoslashtirilgan san'at maktablari, litsey, internatlarda ushbu fanlar chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi. Yuqoridagi fanlar qatoriga garmoniya, polifoniya, musiqa asarlar tahlili, maqom san'ati tarixi, bastakorlar ijodi, Sharq xalqlari musiqasi, musiqiy tanqid dastur asosida olib boriladi.

Sol'fedjio darslarida intonatsion mashqlarning ahamiyati

Musiqaning shaxsga yo’naltirilganlik g’oyasi bugungi kunda o’zining keng rivojini topmoqda. O’quvchi yoshlarning ongida milliy g’oya, san’atga muhabbat tuyg’ularini shakllantirish hozirgi zamon pedagoglarining muhim vazifasidir.

Professional musiqa ta’limining rivojlanish davrida musiqiy-nazariy fanlarning, xususan sol’fedjio fanining mavqeい o’zgarib kelgan. Dunyoqarashni shakllantiruvchi yordamchi fandan ular, muhimligi jihatidan birlamchi fanga aylandi. Yosh musiqachi asrlar davomida turli ijodiy uslub va yo’nalishlarning bir qator qonuniyatlarini muntazam ravishda tushunishi va o’zlashtirishi lozim. Sol’fedjio avvalambor amaliy fandir. Uning vazifasi- bir qator ko’nikmalarini orttirishdir. Sol’fedjio kursi o’z ichiga quyidagi ish shakllarini oladi:

- 1) Tinglab tahlil qilish
- 2) Diktant
- 3) Intonatsion mashqlar
- 4) Notadan o’qish

Eshitish qobiliyati va musiqiy qobiliyatni qonuniyatlarini aniqlash uchun akustika, psixologiya, fiziologiya, pedagogika, estetika kabi fanlardan foydalanish zarur. Ular musiqiy qobiliyatni har tomonlama rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Sol’fedjio fanining vazifalariga nafaqat bilim berish va ko’nikmalar tarbiyalash, balki musiqaga muhabbat uyg’otish, musiqiy didni tarbiyalash, musiqaga ijodiy yondashishni o’rgatishi lozim.

Didaktika qonunlari o’qituvchidan o’quv jarayonini maqsadli tashkil qilishni talab qiladi. Yakka va guruh bilan ishlash uslublari har bir o’quvchini bir tekisda va to’liq rivojlanishini ta’minlaydi. Musiqiy – ijodiy jarayon davrida musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirishda musiqaga muhabbatini tarbiyalashda eshitish qobiliyatining roli juda katta. Musiqiy eshitish qobiliyati ijrochilik apparatini boshqaradi harakatga keltiradi, tovushni yangrash sifatini nazorat qiladi va asarining badiiy obrazlarini shakllanishiga yordam beradi. Rivojlangan musiqiy qobiliyat insonga musiqani idrok etishi, his etishi, unga ongli yondashishiga imkon beradi. Yaxshi musiqiy qobiliyat tug’ma qobiliyat bo’libgina qolmay, balki, o’qitish, rivojlantirish, tarbiyalash natijasidir.

Musiqiy eshitish qobiliyati musiqachining asosiy quroli bo’lganligi sababli solfedjio fanining ahamiyati juda muhimdir. Rus musiqashunos olimi, kompozitor N.A.Rimskiy-Korsakov shunday yozadi: «Amaliyot-biror bir narsani o’rganishning asosiy vositasidir. San’atda hech qanday nazariya yo’q, faqat amaliyot. Amalyotning natijalari to’plami esa -nazariya deb ataladi».

Solfedjio – eshitish qobiliyatining «gimnastikasi». Ushbu «gimnastika» jarayonida eshitish qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish uchun bir qator usul va ko’nikmalar ishlab chiqariladi».

Musiqiy eshitish qobiliyati murakkab hodisa bo’lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat :

- 1) Balandlikni his etish
- 2) Ladni his etish
- 3) Metr va ritmni his etish
- 4) Garmoniyani his etish

Ladni his etish – eshitish qobiliyatining asosi hisoblanadi va tovushlar o’rtasidagi munosabatlarni emotsiyal darajada idrok etishni talab etadi.

Garmoniyani his etish-unsurlarni his etishdan alohida va ko’plikni birdaniga his etishgacha qobiliyatni o’z ichiga oladi.

Metr va ritmni his etish – musiqiy qobiliyatning eng oddiy va birlamchi xususiyatidir.

Ushbu musiqiy eshitish qobiliyatini tarkibiy qismlari hammada har xil bo’ladi. Masalan tovushlar balandligini yaxshi his qiladigan o’quvchi metr va ritmni yaxshi his qilmaydi va aksincha.

Musiqiy eshitish qobiliyatining sifati bir birini to’ldiradigan barcha qirralarining rivojlanganligi darajasiga qarab aniqlanadi.

Tovushlar balandligini aniq va tog’ri kuylash muntazam ravishda bajariladigan maxsus mashqlar yordamida shakllanadi va ishlab chiqiladi. Buning uchun bir qator ko’nikmalar orttirish zarur.

Solfedjio darslarida ushbu ko’nikmalarga alohida e’tibor beriladi.

Ko’nikma-ongli faoliyatning avtomatik tarkibiy qismlaridir, ya’ni, muntazam faoliyat jarayonida avtomatik, ammo ongli ravishda ishlab chiqilgan bilim va harakatlar. Mustahkam ko’nikmalariga ega bo’lish uchun o’qituvchi va o’quvchi maqsadli ish olib borishi lozim.

Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirishning yuqori pog’analarida eshitish tasavvurlari yanada yorqin va mustahkam bo’ladi.

Rivojlangan eshitish qibiliyatining uslubiy asoslari quyidagilar:

- 1) Lad va lad ichidagi, ya’ni pog’analar munosabatlarni xis etishni tarbiyalash.
 - 2) Musiqiy til unsurlari haqidagi tasavvurlarni o’rganish va mustahkamlash.
 - 3) To’g’ri kuylash ko’nikmalarini ishlab chiqish.
 - 4) Kuylash jarayonida musiqiy tasavvurlar va bilimlardan foydalanishni bilish.
 - 5) Kuylash sifatini eshitib, baholay olish.
- Ichki tasavvurlar, ularni yorqinligi va aniqligi ko’proq xotira bilan bog’liq. B.Teplov shunday yozadi: “Oldin eshitgan narsani yoki bajargan ishni, to’plangan tajribani saqlab qolish, keyinchalik uni tanib olish va namoyish eta olish xotira deyiladi”

Xotira-eslab qolish qobiliyati. Xotira sifati uning tezligi, mustahkamligi, aniqligi bilan belgilanadi.

Musiqiy xotira turlari quyidagicha bo’ladi:

1) Bevosita kuy, ohangni eslab qolish. Xotiraning ushbu turi taqlidga asoslanadi.

2) Mexanik xotira - cholg‘u asbobini chalishda harakat reflekslari bilan bog’liq.

3) Mantiqiy xotira – tushunishga asoslangan.

4) Ko’z xotirasi – nota matnini grafik yozuvini eslab qolish.

Odatda ushbu xotira turlari baravar ishlaydi.

Musiqiy eshitish qobiliyatining ko’rinishlaridan eng ahamiyatlisi – ichki tasavvurlar jarayoni, ya’ni to’g’ri fikrlash imkonini beradigan ichki eshitish qobiliyatidir. Musiqiy fikrlash ichki tasavvurlarini, tajribani xotirada saqlangan obrazlarini, oldin olingan bilimlarini umumlashtirishga yordam beradi, eshitilgan narsani tushinish va izohlash, musiqiy til unsurlarini tasavvur qilish va eshitish, nota matnini o’qish imkonini beradi.

Rivojlangan ichki eshitish qobiliyati musiqiy faoliyatni barcha turlari uchun o’ta ahamiyatlidir. Musiqiy eshitish qobiliyatining muhim takibiy qisimlaridan biri – intonatsion, ya’ni ohangni his etish qobiliyatidir. Uning vazifasi – turli balandlikdagi tovushlarni his etish, eslab qolish va ifoda eta olish. Sofedgio fanining maqsadi ham-tovushlararo aloqalarni o’rganish, kuyni his etish, eslab qolish va ifoda eta olish.

Intonatsiya – musiqiy mavzuviy tuzilmani toza va aniq kuylash. Tonalliklar haqida bilimlarni berishdan oldin turli balandlikda ladni his etish, balandlikni ushlab turishni, har xil pog’onalarni bemalol ifoda etishni o’rgatish lozim. Ladni his etish ustida butun o’qish jarayonida olib boriladi. Dastlab turli balandlikda diatonikani o’zlashtiriladi, keyin al’teratsiyani, so’ng berilgan tonallik chegarasida o’tkinchi va yordamchi tovushlarni o’zlashtirish lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, musiqiy eshitish qobiliyati haqida so’z borganda garmoniyaning roliga alohida urg’u berish lozim. Aynan garmoniya lad aloqalarini anglashga yordam beradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, eshitish qobiliyatini rivojlantirishda faqat a capella ijrosi bilan chegaralanib qolmay jo’qli kuylash uslubidan ham keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Intonatsion mashqlarning asosiy vazifasi mashqlarni to’g’ri kuylash, notadan o’qish uchun zamin yaratishdir.

Sol’fedgio darslari musiqani barcha sohalari ya’ni ijrochilik, musiqashunos, bastakorlik bo’limida tahsil oluvchilar uchun musiqiy- nazariy fanlarning eng muhimlaridan hisoblanadi. Har bir o’qituvchi darsda oldiga qo’ygan maqsadiga

erishishi uchun avvalo ushbu fanning muhim jihatlari haqida, uning yaxshi mutaxassis va ijrochi bo’lishida ahamiyati katta ekanligini singdirishi kerak.

REFERENCES

1. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi mualliflar K.Xoshimov, S.Ochil. T. O’qituvchi, 1999
2. B.Teplov Psixologiya muzikal’nix sposobnostey
3. Y.Davidova Metodika predpodovaniya sol’fedjio
4. V.Vaxromeyev Voprosi metodiki predpodavaniya sol’fedjio

**AKADEMIK CHOLG‘U IJROCHILIGIDA MUSIQIY-NAZARIY
FANLARNING AHAMIYATI**

Abdusalomov Fazliddin

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Kasb ta‘limi: Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi) ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent S.T.Turatov

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy-nazariy fanlarning ahamiyati va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, san‘at, nota, tizim, tabulatura, tanbur chizig‘i, musiqiy-nazariy fanlar, an‘anaviy, akademik cholg‘u ijrochiligi, shashmaqom, garmoniya, unison, ansambl, orkestr, cholg‘ulashdirish, cholg‘ushunoslik.

ABSTRACT

This article discusses the importance of music theory in instrumental performance and the connections between them.

Keywords: music, art, music, system, tabulation, tanbur line, music-theoretical sciences, traditional, academic instrument performance, shashmaqom, harmony, unison, ensemble, orchestra, instrumentation , instrumental.

Qo‘schiqchilik san‘at turlarining orasida eng qadimiyligi barchamizga ayondir. Ushbu sohaning asrlar davomida rivoj topishi cholg‘u musiqasining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Cholg‘ularining paydo bo‘lish tarixi eramizdan avvalgi XIII ming yillikka borib taqaladi. Qadimdan musiqani o‘qitishda ustoz-shogird an‘analaridan foydalanib kelingan va hali-hanuzgacha ushbu an‘ana davom etib kelmoqda. Qo‘schiq va kuylar dastlab aholining turli soha vakillari orasida rivoj topgan. Jumladan, dehqonlar va chorvadorlar o‘z mehnat faoliyati davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan kuy va qo‘schiqlarni kuylashgan. Kasbiy musiqaning tadriji musiqaning nazariy asoslari vujudga kelishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Bunga yaqqol misol sifatida musiqa matnini qog‘ozga tushirishga bo‘lgan harakatlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, tovushning yozuvdagagi ifodasi ya‘ni notalarning paydo bo‘lishidir. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek kasbiy musiqaning paydo bo‘lishi natijasida qo‘schiq yoki kuy matnini yodda saqlab qolish musiqachilar uchun qiyinchilik tug‘dira boshlaydi.

Buning birdan-bir yechimi musiqa matnini qog‘ozga tushirish edi. Bu masala yuzasidan ko,plab olimlar ish olib borishgan.

“Nota yozuvining ilk turi qadim Yunoniston (mill. Avv. III asrlarda) san‘atida paydo bo,lgan harfiy nota yozuvidir. Keyinchalik ya“ni IX asrga kelib tovushlarning nisbiy balandligini ko,rsatadigan nevma belgilaridan foydalanishgan. Hozirgi zamonaviy nota yozuviga esa XI asrda italiyalik musiqa nazariyotchisi Gvido d‘Aretssso tomonidan asos solingan.”

Sharqda esa Farobiy Yunonistonda ishlatilgan harfiy notalar tizimini ud cholq,usi uchun moslashtiradi. Undan tashqari Safiuddin al-Urmaviy (XIII asr) tomonidan ud cholq,u pardalariga mo,ljallab yaratilgan 2 xil tabulaturalar ma‘lum bo,lgan. Ular jadval shaklida bo,lib, tovushlar balandligi turli harflar bilan davomiyligini esa raqamlar (yoki nuqtalar) yordamida ifodalangan. XIX asr oxirlarida Xorazmda Komil Xorazmiy tomonidan “tanbur chizig,i” deb nomlangan tabulatura shaklidagi nota yozuvi joriy etilgan.

Tarixda mamlakatimizda musiqa san‘atiga bo,lgan e“tibor va qiziqish anchayin kuchli bo,lgan, mustaqillik yillariga kelib esa bu e“tibor yanada kuchaydi, bиргина oxirgi 5 yillikda bo,lgan o,zgarishlardan biri san‘at olıygohlariga kirish imtihonlari yuzasidan kiritilgan o,zgarishlar buning yorqin dalilidir. Chunki musiqa san‘ati alohida iqtidor talab etiladigan kasblar sirasiga kiradi va bu o,zgarishlar o,rinli bo,lganligidan dalolatdir. Bunday misollarni ko,plab keltirishimiz mumkin. Mamlakatimizda joriy qilingan uzluksiz ta‘lim tizimi tarmoqlaridan biri maktabdan tashqari ta‘lim tizimi doirasida ish yuritayotgan bolalar musiqa va san‘at maktablarida yosh musiqachilarga ilk kasbiy-musiqiy bilimlar berib boriladi. Ushbu dargoh misolida cholq,u ijrochiligin o,qitish holatlarini tahlil qilib ko,raylik. Dastlab o,quvchilarda biror-bir musiqa asarining mazmunini o,qiy olish, uni tushunib yetish hamda kuyning qanday tuzilganligini ko,rish uchun avvalo musiqiy fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Musiqa haqidagi nazariy ta‘lim tizimining boshlang,ich qismi – Musiqa elementar nazariyasi fanidir. Ushbu fan ilk musiqiy bilimlarni berishda tamal toshi vazifasini o,tovchi fan hisoblanadi. Ushbu fanni o,zlashtirishdan ko,zlangan maqsad musiqani idrok etish, uni tushunish, uning tabiat, imkoniyatlari va tinglovchilarga ta“sir qilish mexanizmini anglash, nota matnini o,qiy olishda nazariy va amaliy bilim olishga qaratilgandir. Sodda qilib aytganda “musiqa tili”dan xabardor qilishdir. Musiqa elementar nazariyasi kursi o,quvchilarga mustaqil musiqiy fikrlay olish ko,nikmasining rivojlanishiga yordam beradi. Bu degani biror musiqa asarini mustaqil tarzda lad, metr, ritm, temp, dinamika, intonatsiya va kuy jihatdan tahlil qilib ijro etish imkoniyatlari beradi.

Cholg,u ijrochligi ikki xil tushunchani anglatadi. Birinchisi, an‘anaviy cholq,u ijrochiligi va ikkinchisi akademik cholq,u ijrochiligi. An‘anaviy cholq,u ijrochiligi

asosan ustoz-shogird an“analari asosida o,qitilib kelinadi. Akademik cholg, u ijrochiligida ustoz-shogird an“analari tizimida o,qitilmaydi degani emas albatta. Milliy musiqani o,qitishda ustozning o,rni ya“ni ahamiyati akademik cholg, u ijrochiligini o,qitish jarayoniga nisbatan muhimroq sanaladi. Milliy musiqa merosimiz ajdoddan-avlodga o,tib kelayotganligi va uni kelajak avlodga o,rgatish jarayonidagi muhim vazifalardan biri uni asl holida yetkazish vazifasidir. Milliy musiqa merosimizda markaziy o,rin tutgan “Shashmaqom” og,zaki tarzda avloddan-avlodga ustoz-shogird an“analari asosida o,tib keldi. “Shashmaqom” ilk bor V.A.Uspenskiy tomonidan Ota Jalol va Ota G‘iyos ijrolaridan hozirgi nota yozuviga olib nashr ettirildi.”

Albatta, “Shashmaqom”ni notaga olishda bevosita musiqaning nazariy asoslaridan xabardor bo,lish kerak degan xulosaga kelish mumkin. Uni ijro etish uchun ham “musiqa tili”dan bohabar bo,lish zarur. Musiqa nazariyasi ilmiy va o,quv fanlarning majmuasi bo,lib, musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, musiqiy shakl, polifoniya, solfedjio, cholg,ulashtirish kabi fanlarni o,z ichiga oladi va musiqani nazariy nuqtayi nazardan o,rganadi. Musiqiy-nazariy fanlar sirasiga kiruvchi musiqa elementar nazariyasining mantiqiy davomi bo,lgan garmoniya fanining cholg, u ijrochiligida tutgan o,rni juda ham katta hisoblanadi.

“Garmoniya bu akkordlar haqida fandir. Tovushlarning ohangdosh bo,lib qo,shilishini va bu ohangdoshliklarning bir-biriga bog,lanib izchil kelishini o,rgatish garmoniya fanining asosiy maqsadlaridan biridir.” Qisqacha qilib aytganda, ko,p ovozli musiqa haqidagi fandir.

Cholg, u ijrochiligida ko,p ovozli musiqa orkestr va ba‘zi ko,p ovozli ansamblarda uchraydi. O,zbek xalq cholg,ularida jamoa ijrochiligi uzoq o,tmishga borib taqaladi. Dastlab an“anaviy ijrochilik ansambllarida qatnashuvchilarning soni bir nechta bo,lishiga qaramay, ularning barchasi bir xil ohangni ya“ni unison tarzida ijro etishar edilar.

O‘zbekiston hududida XX asrning 1-yarmida rus istilosidan so‘ng o‘zbek xalq cholg‘ularida ko‘p ovozli asarlarni ijro qilish davri boshlanadi. Shu bilan birga o‘zbek xalq cholg‘ularini takomillashtirish ishlari boshlanib yuboriladi. Manbalarda keltirilishicha “XX asrga kelib cholg, u ijrochiligi san“atida keng ommalashgan cholg,ularni o,rganish va tadqiq etish ishlari tobora kuchaydi. Bu ishni Abdurauf Fitrat boshlab bergen bo,lsa, undan so,ng musiqashunos olimlar V. Belyayev, F.Karomatov, T.Vizgo va A.Malkiyevalar bu ishni muvaffaqiyatli davom ettirdilar.

1930-yillarning boshlarida O,zbek xalq cholg,ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish ishlari boshlandi.”

Bevosita bu ishlarga A.I.Petrosyans rahbarlik qiladi. Natijada 1937-yilga kelib, N.Mironov rahbarligida o,zbek xalq cholg,ularidan tuzilgan va notaga asoslangan

orkestr tuzildi. Ushbu jamoaning dasturidan: qayta ishlangan ko,p ovozli o,zbek xalq kuylari bilan birga chet el kompozitorlarining klassik asarlari ham o,rin olgan edi. T.Jalilov va N.Mironov tuzgan orkestrlar, to,liq ko,p ovozli o,zbek xalq cholg,ulari orkestrining tuzilishi uchun katta rol o,ynadi. 1938-yili N.Mironov tuzgan orkestrga jamoat arbobi, dirijor, tashkilotchi va o,zbek xalq cholg,ularini takomillashtirishda bosh-qosh bo,lgan A.I.Petrosyans rahbar sifatida taklif etildi. O,sha davrlarda nota bilan ijro eta oladigan va shu orqali musiqiy fikrlay oladigan sozandalarni yetkazib chiqarish muammo bo,lganligi sababli, orkestrning asosiy dasturlarida, qayta ishlangan o,zbek va qo,shni Respublikalarning xalq kuylaridan “Rok Qashqarcha”, “Safti A“jam”, S.Alievning “Gulyor” va boshqa milliy musiqiy asarlarimiz o,rin olgan edi. A.Petrosyans asarlarni orkestrga cholg,ulashtirish jarayonida, har bir cholg,uchining ijro imkoniyatini inobatga olgan holda cholg,ulashtirgan. Buning birdan bir sababi esa sozandalar orasida hatto o,rtta maxsus ma“lumotga ega bo,lmagan ijrochilar mavjud edi. Orkestr sozandasini bo,lish uchun har bir sozanda nota o,qish, ko,p ovozli musiqani tinglay olish va dirijorning ko,rsatmalarini tushunib va shu ko,rsatmalarga mos ijro etish qobiliyatlariga ega bo,lishi zarur. Garmoniya fani esa aynan yuqorida ta“kidlanganimizdekakkordlarning to,g,ri qo,shilishi va qo,llanishi haqidagi bilimlarni beradi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, orkestr sozandasini garmoniya kursidan ham xabardor bo,lmog,i lozim. Bunday bog,liqliklarni ko,p misol qilib keltirishimiz mumkin. Cholg,ulashtirish fanining ham assosini aynan musiqa elementar nazariyasi, garmoniya va cholg“ushunoslik fani tashkil etadi. Bugungi kunda o,zbek xalq cholg,ularida ko,p ovozli musiqa ijrochiligi yaxshigina rivojlangan bo,lib, xalqimiz ko,nglidan yaxshi o,rin egallagani ayni haqiqat. Bu yutuqlar ortida 1936-yildan buyon malakali kadrlarni o,zbek musiqa san“atiga yetkazib berayotgan O“zbekiston davlat konservatoriysi (dastavval Toshkent davlat konservatoriysi deb nomlangan), 1974-yilda tashkil etilgan (Toshkent davlat madaniyat instituti) O,zbekiston davlat san“at va madaniyat institutining “Cholg‘u ijrochilik” kafedrasи, respublikamizdagи barcha musiqa va san“at maktablari, madaniyat va san“atga ixtisoslashgan maktablar va maxsus litseylarning xizmati beqiyosdir.

Xulosa o,rnida shuni ta“kidlab o,tish joizki, akademik cholg,u ijrochiligi sozandasini musiqiy-nazariy fanlar yuzasidan bilim va ko,nikmalarga ega bo,lmog,i darkor. Afsuski ayrim akademik cholg,u ijrochiligi sozandalari yevropa klassik musiqalarini mohirona ijro qilishlariga qaramay milliy musiqalarimiz ijrosiga kelganda biroz kamchiliklar seziladi. Buning sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o,tishimiz mumkin:

Musiqiy tovush qatorimizning Yevropa musiqasi tovush qatoriga (tempratsiyalangan soz) o,tkazilganligi va bu sozda qo,shni pog,onalalar oralig,idagi

eng kichik masofa 0,5 tonda ekanligi ba’zi musiqiy bezaklar ijrosini ta’minlash uchun noqulayliklar keltirib chiqardi ya’ni nimpardalarni ijro etish imkoniyatlari yo,qqa chiqdi. Xalq musiqalarida esa nimpardalarning o,rni e’tiborlidir.

Milliy musiqamizda qo,llaniladigan “ornamental” usullar – bezaklar: qochirimlar, kashish, nolish, molish, sayqallar va boshqa musiqiy bezaklarimiz hozirgi zamонавиу nota yozuvida to,liq aks ettirilmaganligi sababli an“anaviy ashula va cholg,ü ijrochilagini o,qitishda ustoz-shogird an“analarinining o,rni juda ham muhim hisoblanadi.

Taklif sifatida shuni kiritib o,tmoqchimanki, yuqorida nazarda tutilgan nola, qochirimlar va boshqa musiqiy bezaklarimizni hozirgi zamon nota yozuvida barcha cholg,ular uchun bir xilda ifodalay oladigan aniq belgilar tizimini bevosita musiqashunos olimlar bilan birgalikda qayta ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo,,lar edi.

Shunda akademik cholg,ü ijrochiligi va an,anaviy cholg,ü ijrochiligi bo,yicha tahsil olayotgan sozandalar hamda boshqa millat vakillarining o,zbek milliy musiqiy merosini o,zlashtirishlari uchun o,zbek milliy musiqa merosimizni nota orqali ijro qilish qulayliklari paydo bo,,lar edi. Bevosita milliy musiqa merosimizni targ,jib qilish imkoniyatlari yanada ortadi.

REFERENCES

1. Ibraximjanova G. Urmanova L. Xodjayeva M. Xalilov F. Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya. – T.: “O,zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.-9 b
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharq_nota_yozuvi
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom>
4. H.Mamajonova H. Muxsinova N. Garmoniya. – T.: “Ishonchli hamkor” 2021.-6 b
5. G‘ofurov M. Cholg,ü ijrochiligi. – T.: Xalq ijodiyoti (cholg,ü ijrochiligi) magistratura mutaxassisligi bo,yicha o,quv qo,llanma 2015.-6 b.
6. Toshmatov O,, Beknazarov X. Cholg,ushunoslik. – T.: Darslik 2015.-41
7. Shermatov K. Maxsus cholg,ü. – T.: Darslik 2019.
8. <https://uz.denemetr.com/docs/134/index-21452>
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalq_cholg%CA%BBulari_orquestri
10. Z. Turopov “Dutor bas”. – T.: O,quv qo,llanma 2004.
11. Xakimova F. Maxsus cholg,ü. – T.: “Navro,z” nashriyoti, 2019.

MUSIQA IJROCHILIGIDA MUSIQIY ESHITISH VA DIQQATNING O,RNI

Sami Elbek Aziz

O,zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: dotsent S.Turatov

ANNOTATSIYA

Maqolada cholg‘u ijrochilikda musiqiy eshitish qobiliyati, xotira va sezgilarni rivojlantirishdagi metodlar haqida so,z yuritiladi.

Kalit so“zlar: madaniyat, san“at, farmoyish, qaror, islohotlar, cholg‘u ijrochilik san“ati, musiqiy eshitish qobiliyati, diqqat, sezgi, idrok, xotira.

ABSTRACT

The article discusses the methods of developing musical ear, memory and perception in musical performance.

Key Words: culture, art, team, decision, reform, instrumental performing arts, ear for music, attention, intuition, perception, memory.

Bizni hamisha o,ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so,z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog,liq. “Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so,rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman. Bugun zamon shiddat bilan o,zgaryapti. Bu o,zgarishlarni hammadan ham ko,proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o,z davrining talablari bilan uyg,un bo,lsin. Lekin ayni paytda o,zligini ham unutmasligi kerak. Biz kimmiz, qanday ulug,, zotlarning avlodimiz degan da“vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o,zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan¹.

Shavkat Mirziyoyev

So,nggi yillarda madaniyat va san“at sohasiga juda katta e“tibor qaratilmoqda. O,zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san“at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo,shimcha chora-tadbirlar to,g,risida”gi PQ-112 sonli qarori, 2022-2026-yillarga mo,ljallangan Yangi O,zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug,lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat

¹ “Shavkat Mirziyoyev” ning hikmatlari sahifasi. <https://hikmatlar.uz/author/468>

dasturi ishlab chiqilib, bevosita ularda san‘atga oid yangi o‘zgarishlar va topshiriqlar belgilab berildi.

Jumladan, “2022-2023-o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste‘dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin”². Xususan, qarorda ko‘zda tutilgan bir qator vazifalar cholg‘u ijrochiligi san‘atining rivojlanishi yo‘lida qo‘yilgan katta qadamdir.

Ushbu qaror ijrosini ta‘minlashda albatta ta’lim muassasalari mutaxassislari va barcha musiqa ijrochiligi bilan shug‘ullanadigan yosh ijrochilar hamda professor-o‘qituvchilar birdamlikda harakatlanishi eng oliy fazilatdir. Yosh ijrochilarni tarbiyalashda dastavval ularni saralab olishda bolalar musiqa va san‘at maktabi o‘qituvchilaridan talab qilinadigan bir qancha omillar mavjud. Ulardan birinchisi Musiqiy eshitish qobiliyatidir. Yosh avlodni musiqa eshitishi – bu musiqa san‘atida asosiy vazifa hisoblanib, unda fiziologik jihatdan eshitish organlari orqali tovush tebranishlarini qabul qilish qobiliyatidir. Tovushlar tashqi quloq orqali eshitish nervlari vositasida o‘rta va ichki quloqdan o‘tib, bosh miyadagi eshitish analizatorlariga ya‘ni odam nerv tuzilmalarining murakkab tizimiga yetib boradi. Analizatorlar musiqa cholg‘ularini baland yoki past chalinishiga qarab, qolaversa, cholg‘ularning turiga qarab ham ovoz qabul qilish imkoniyatiga ega. Masalan: skripka, alt va damli cholg‘ular bosh miya suyagining kuchli tebratish hususiyatiga ega cholg‘ulardir³. Musiqiy eshitish qobiliyatini yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, ovoz past-balandligi, kuchi, tembri va davomiyligini yaxshi ilg‘aydi. Musiqiy eshitish qobiliyati quyidagi turlarga bo‘linadi: **mutlaq, nisbiy va ichki eshitish** qobiliyati.

Mutlaq eshitish – musiqiy tovushlarning mutlaq balandligini kamerton bilan solishtirmagan holda aniqlash qobiliyatidir, ya‘ni absolyut sulh. Bu qobiliyatdan buyuk musiqa namoyondalari Motsart, List, Beethoven, Skryabin kabi kompozitorlargina muvaffaqiyatli foydalanganlar⁴.

Nisbiy yoki interval eshitish – kuy, intervallar,akkordlardagi tovushlar balandligini sezish, aniqlash, ijro etish qobiliyatidir. Nisbiy eshitishda inson biror bir nota yokiakkordni aniqlashi, uni ijro etishi uchun hech bo‘lmasa bitta tovush haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Odam o‘z ovozi yoki kamerton (nem. Kammer – xona, ton – tovush) uchlari erkin tebranadigan qilib mahkamlangan ayrisimon metal tayoqcha shaklidagi tovush manbai)⁵ tovushining eng past yoki eng baland ovozini yodda tutadi va shunga tayanib, o‘zi eshitgan boshqa tovushlarni aniqlaydi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-112., 02.02.2022. Lex.uz

³ Б.М. Теплов. Способности и одаренность // Учен, записки Гос. НИИ психологии. Т. 2. М., 1941.

⁴ Петрушин В.И. Музыкальная психология. М., 1997

⁵ Musiqa ensiklopediyasi 2-T

Ichki eshitish – musiqaning butun tarkibiy qismini hayolan tasavvur qilish yoki notalarga qarab ham ichki his etish qobiliyatidir. Bu kabi qobiliyatlarni rivojlantiruvchi predmet – bu solfedgio darsidir. Masalan kuyni solfedjiolash jarayonida interval hissiga emas, balki lad hissiga ko,proq tayanib mo,ljal olinadi. Lad hissi negizida vengriyalik kompozitor va pedagog Zoltan Kodayning kuy hissini rivojlantirish tizimi ishlab chiqiladi. Bu tizim “nisbiy (relyativ) lad tizimi” deb nom olgan (tizimda turli belgilar va bo,g,in nomlari qo,llanadi). Kuyni yoki bir ovozlik musiqani his qilish qobiliyati ko,proq ashulachilar, torli va puflab chalinadigan cholg,u sozandalarida oson va tabiiy rivojlanadi. Fortepiano chalishni o,rganishda uslubiyotchilar mashq etilayotgan asar, kuy yo,llarining vokalizatsiyasini, kuylanishini yoki ularni bo,rttirib chalishni tavsiya etadilar. Rus kompozitori Rimskiy-Korsakov har xil ohanglar eshitilishini tabiatga xos bo,lgan ranglar koloritida qabul qilar edi. “Lya major ladi uning uchun bu yoshlik, bahor ladi, bahorning ham muzli, taqir yerli erta bahori emas, balki nastarin guli gullagan, butun o,tloq gullar bilan qoplangan paytdagi bahor. Unda tong biroz yorishgan, lekin butun sharq qirmizi va oltin rangga kirib ulgurgandagi tong shafaqining ladi” deya tasvirlaydi.

Yosh ijrochilarini saralashda ya“ni tanlab olishda ikkinchi ko,rsatma bu diqqatdir. O,zbekiston davlat konservatoriysi professori, pedagogika fanlari nomzodi, musiqashunos olim Rauf G,afurovich Qodirovning ta“kidlashicha: **diqqat** – bu o,quv jarayonidagi eng muhim tarkibiy bo,laklardan biridir. Haqiqatan ham, ma“lum paytda faoliyatning bir narsaga qaratilishi diqqatni yuzaga keltiradigan jarayondir. Musiqa san“atida musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog,liqdir. Ayniqsa, jamoa ijrochiligidä diqqat juda muhim sanaladi. Konsertdan avval dirijyorning ko,tarilgan qo,llari, auftaktni his qilish, yakkaxon va jo,rnavoz o,rtasidagi ishora va harakatlarning bir vaqtida sodir etilishi uchun ham diqqat talab etiladi. Masalan, Motsart ko,pchilik bo,lgan xonada hamda shovqinli tovushlar eshitilib turganda ham xotirjamlik bilan musiqa yoza olgan. Polshalik pianinochi va kompozitor I.Gofman maqsadga erishishning eng oson usuli nimada degan savolga: diqqatni jamlash – omad alifbosidagi birinchi harf, deb javob beradi⁶. Rus kompozitori N.Metner esa “ish boshlashdan avval yaxshilab diqqatni jamlash hamda samarali mashq usulini bilish, musiqachidan kamroq kuchni talab etadi va ijro vaqtida toliqmaydi. Kompozitor Gofman diqqatga yana boshqacha ta“rif beradi: “Ish qachonki, aqliy diqqat bir vaqtida jam bo,lganda bajarilganidagina serunum bo,ladi” deb aytadi. Bundan ko,rinib turibdiki, miqdor va sifat darajasi uzviy bog,liqlikda bo,lishi kerak, ya“ni, har yarim soatda tanaffus qilishni va hech qachon tanaffussiz bir yoki ikki soat mobaynida ishlamaslikni tavsiya qiladi.

⁶ Петрушин В.И. Музыкальная психология. М., 1997

Shuningdek, barcha musiqachilar diqqatning shakllanishida o,zini tashqaridan turib analiz qila olish qobiliyati g,oyat muhim hisoblanishini ta’kidlashadi. Haqiqatan ham bunga misol qilib oladigan bo,lsak, ustozlarimiz bizga dars berish jarayonida cholg,u sozining ijro uslublari bilan bir qatorda barmoqlar joylashuvi, ya“ni aplikatura holatlarini yanada takomillashtirish jarayonida o,z ustimizda to,g,ri ishlash va ma“suliyat bilan yondashishga yo,naltiradi. Biror kuyni ishlash vaqtida ijrochining mahoratini ko,rsatib beradigan texnikaviy qismi kutilgan natija bermasligi mumkin, shu paytda ustozlarimiz o,sha kuyning murakkab joyini qayta-qayta oyna oldida diqqatni bir joyga jamlab, sabr bilan juda sekin sur“atda mashg,ulot olib borishimizni ta’kidlab o,tishadi. Bu esa juda mashaqqatli ish. Lekin qunt bilan amal qilinsa, kutilgan muvaffaqiyat kalitini qo,ljimizga tutqazadi.

Narsa va hodisalarini sezgi a“zolari orqali his qilishning oddiy psixik jarayoni bu sezgi. Bizni o,rab turgan olamni sezgi organlarimiz va his qilish orqali bilamiz va kerakli axborotni olamiz. Musiqa san“atida eshitish, taktil (pypaslab), harakat va ritmik sezgilar katta ahamiyatga ega. Eshitish sezgisi asosida musiqachilarda ichki eshitish va musiqiy eshitish xususiyatlari rivojlanadi. Bizning hissiyotlarimiz moslashuvchanlik qobiliyatiga ega, ya“ni qo,zg,atuvchi ta“sirga ko,nika oladi. Uzoq muddat baland ovozdagi musiqani tinglagandan so,ng, biz “piano” yoki “messo-forte” ovoz kuchidagi nozik o,zgarishlarni kam his etamiz. Biroz vaqt sukunatda bo,lgach esa hatto o,rta kuchdagi ovozni ham baland ovozdek qabul qilamiz. Misol tariqasida aytadigan bo,lsak, Shopen kuyni hech qachon baland chalmagan. Lekin u piano, pianissimo, messo-forte kabi dinamik belgilarni o,z asarlarida mohirona qo,llab, tengsiz ijrochilik hisobiga ohangdorlikka erishgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor Valentin Ivanovich Petrushin ta“riflashicha: idrok - narsalar yoki hodisalarining sezgi a“zolariga bevosita ta“siri orqali ongimizda yetishib kelishidir. Sezgida hodisalarini alohida qismlar bilan his etilsa, idrokda esa predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. Masalan, musiqiy asarni eshitib, uning kuyi, ritmi, tembri, garmoniyasini alohida qabul qilmaymiz, aksincha, musiqani obrazli, umumlashgan holda yaxlitligicha anglab, idrok etamiz. Qabul qilish jarayonida qaysi analizator ustunlik qilishiga qarab, idrokni tasniflab chiqish mumkin. Musiqa san“ati uchun hid va ta“m bilishdan boshqa hamma analizatorlar katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, yuqorida ta’kidlab o,tganimizdek eshitish idroki bo,lishi katta ahamiyat kasb etadi. Musiqiy idrok aqliy jihatdan murakkab jarayondir. Oddiy eshitish qobiliyatiga ega bo,lgan har bir kishi musiqa qayerda eshitilishini va turli xil narsalar, mashinalardan chiqayotgan shovqinlar qayerda ekanligini aniqlay oladi. Lekin eng nozik kechinmalarning musiqa sadolarida aks etishini ham eshitishga qodir emas. Musiqa psixologiyasida ritm, tembr, lad, kuy, garmoniya, polifoniya, janr idroki masalalarini

ko,rib chiqish muhimdir. Musiqiy idrokning to,laqonliligi musiqiy qobiliyatning ya“ni musiqiy bilim, ko,nikmalar, malakaning rivojlanganligiga bog,liqdir.

Musiqiy ijrochilikda yoddan chalish musiqachining ijrochilik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bu bevosita xotira bilan bog,liq. Xotira – eslab qolish, to,plangan tajribaning saqlanishi va tiklanishidir. Shuningdek, xotiraning unutish xususiyatini ham nazarda tutish kerak. Bunda xotira mashqlari asosiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, musiqiy ijrochilikda katta hajmdagi musiqiy asarlarini eslab qolishga to,g,ri keladi. Bunda ijrochidan bosiqlik bilan kuyning harakterini mazmunan idrok etib, sekin sur“atda ijro etish talab etiladi. Musiqashunos olim A.D.Alekseyevning hisoblashicha, musiqiy xotira –eshitish, harakat, mantiqiy, ko,rish va boshqa xotira turlarini o,z ichiga olgan sintetik tushunchadir. Pedagog va pianinochi S.I.Savshinskiyning aytishicha, “Pianinochi xotirasi komplekslidir”. U ham eshitish, ham ko,rish hamda mushakli harakatlarni o,z ichiga oladi. Haqiqatan ham, pianino cholgi sozida tahsil oladigan o,quvchilarda xotira judayam katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ijro paytida diqqatni bevosita ikki qismga yo,naltirish kerak deb o,ylayman. Notani o,qish bilan bir vaqtida pianino klaviaturasini ham yoddan topa olish ijrochidan katta mehnat talab qiladi. Ko,plab musiqachilarning xatolaridan biri shuki, ular yangi musiqiy asarni o,rgana turib, uni ko,p bor takrorlash natijasida eslab qolishga urinishadi. O,rganishning bu usulida asosiy yuk harakatchan xotiraga tushadi. Biroq muammoni hal etishning bu usulini fransuz pianinochisi Margarita Long to,g,ri aytganidek: “Shubhali sodiqlikning yalqovlik bilan hal etilishidir, buning ustiga bu ish qimmatbaho vaqtning egovidir”. Ya“ni tez yodlashga qaratilgan besamar ijro ko,p talab qiladi, natijasi esa qisqa muddatda esdan chiqish holatini yuzaga keltiradi. Shuning uchun ustozlarimiz bizga ta‘kidlab kelganlaridek: “O,n soat besamar mashq qilgandan, bir soat samarali va unumli mashq qilgan afzal” deb uqtirishadi. Asarni eslab qolishda sekin tempdagи ijro katta foyda beradi. Motsart shunday deydi: “Yozilgan asarga bir qarashda xuddi odamning ajoyib suratiga qaragandek, ketma-ket emas, balki to,la-to,kis qalban nazar tashlay olaman”⁷. Yangi asar bilan tanishayotgan ijrochi kuyni boshidan-oxirigacha ko,z yogurtirib chiqishi maqsad muvofiq bo,ladi. O,sha jarayonda ko,rib, kuyni aqliy idrok etish hissi kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda musiqiy qobiliyatlarning barcha turlari nafaqat cholgi ijrochiligidagi, qolaversa, musiqaga oshno qalblar hissiy kechinmalarida yuzaga keladigan jarayondir. Ushbu qobiliyatlar bir-biri bilan uzviy bog,liqlikda ijrochining kasbiy tayyorgarligini yanada boyitib beradi. Ijrochi ritmni his etishi, ohangni to,la-to,kis ongiga singdirgan bo,lishi kerak. Bu esa ijrochidan o,z ustida ko,proq mehnatni talab etadi. Ana o,shandagina kutilgan natijaga erishiladi. Musiqa

⁷ R.G.,Qodirov “Musiqa psixologiyasi” O,zDK “Musiqa” nashriyoti 2005 y

ijrochiligidagi ushbu metodlar asosiy vazifa sifatida olinadi. Albatta, yosh bolajak sozanda avvalo biron-bir cholg‘uni organizatsiya istagida musiqa mакtabiga tashrif buyuradi. Bunda pedagogning mahorati bilan birgalikda, yosh sozandaning ham qiziqishlari inobatga olinadi. Musiqiy qobiliyatlarini tekshirib korediladi. Ko‘pgina yosh sozandalar boshlang‘ich darslarning ozida qiyinchiliklarga duch keladi. Bu vaziyatda pedagoglardan samarali yechim yozilini ishlab chiqish talab etiladi. Samarali yechim sifatida shaxsiy bir kichik taklifni kiritmoqchiman. Unda yosh ijrochilarining qizishiqishini inobatga olgan holda ustoz-shogird an‘analariga tayangan holda ustoz o‘z ijrosini oddiy asarlardan yoki yosh ijrochilarining qiziqishidan kelib chiqib ya‘ni ijtimoiy o‘scha davrdagi musiqalarni ijro qilib ko‘rsatishdir. Bunday hollarda bolani yana qayta qiziqishlarini uyg‘ota olish, uning imkoniyatlari judayam keng ekanligini uqtirish, faqatgina ozgina sabr va qanoat qilinsa muvaffaqiyatga erishish sirlarini o‘rgatmoq lozimdir. Ana shunday mashaqqatli vazifalar faqatgina o‘z sohasining chinakam professional pedagoglari zimmasidadir.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyevning hikmatlari sahifasi. <https://hikmatlar.uz/author/468>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-112., 02.02.2022. Lex.uz
3. Б.М.Теплов. Способности и одаренность // Учен, записки Гос. НИИ психологии. Т. 2. М., 1941.
4. Петрушин В.И. Музикальная психология. М., 1997Musiqa ensiklopediyasi 2-Т
5. R.G.,Qodirov. “Musiqa psixologiyasi” O‘zDK “Musiqa” nashriyoti 2005y

ALISHER NAVOIY VA MUSIQA

Abdumajidova Nozima Farhod qizi
O’zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti “Cholg’u ijrochiligi”
mutaxassisligi 2-kurs magistrani

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Alisher Navoiyning Musiqa bilan qanchalik aloqadorligi, musiqa haqida yozgan asarlari haqida.

Kalit so’zlar: Musiqa. Maqom. Cholg’u. San’at. Xamsa. Kuy. Bastakor. G’azal. Nay. Adabiyot.

АННОТАЦИИ

Эта статья о том, как Алишер Навои относится к музыке и что он пишет о музыке.

Ключевые слова: Музыка. Маком. Инструмент. Искусство. Хамса. Мелодия. Композитор. Най. Литература

ABSTRACT

This article is about how Alisher Navoi relates to music and what he writes about music

Keywords: Music. Makom. Instrument.Art. Xamsa. Melody, Composer. Nay. Literature.

Musiqa qalb kechinmalarini bildirishning go’zal ifodasidir. U orqali insonlar yuraklaridagi his tuyg’ularni aks ettiradi. Musiqa bilan qalblari pok insonlarga so’zlasha oladi. So’z mulkining sultonasi Alisher Navoiy musiqa ilmini ham juda chuqur egallagan. Uning boy merosi bo’lgan asarlaridan buni yaqqol bilishimiz mumkin. Navoiy Abu Nasr Forobiya va Abu Ali ibn Sino ilmiy-musiqiy qarashlarini rivojlantirib, musiqa ilmini o’rganishni asosan ikki qismga bo’ladi: ilmi ta’lif (kompozitsiya ilmi – musiqiy tovushlar-nag’malar tuzilishini o’rganuvchi fan) va ilmi iyqo (musiqiy ritm) hamda ikki yo’nalishda olib boradi: ilmi advor (o’n ikki maqomga oid ilm) va fanni musiqiy (musiqa san’ati).

Navoiyning o’zi ham musiqa amaliyotida ijod etgani ba’zi manbalarda yoziladi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da qayd etadiki: “(Alisherbek) yana musiqiyda yaxshi nimalar bog’labdur. Yaxshi naqshlari va

peshravlari bordir”¹. Ham vokal musiqa (naqsh) va ham cholg‘u musiqa (peshrav) bo‘yicha kuylar yaratgan deb ta’kidlanayotgan Navoiyning musiqa asarlaridan ba’zilari bizning davrga yetib kelgan, degan taxmin bor. Jumladan, Abdurauf Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobida “Qari Navo” yoki “Qari Navoiy” kuyi haqida yozadi: “Bu kuyning juda eski bir kuy ekani har tomonda so‘ylanib turur. Eshitganimizga ko‘ra, Farg‘onada ham “Qari Navoiy” ismli eski bir kuy bor. Toshkent musiqachilari bu kuyni “Qari Navo” derlar. Biroq, bu ism yanglishdir. Alar shul “Qari Navoiy” ismini buzib olg‘anlar. Buxoroning eski musiqashunoslarining orasida bu kuy Navoiy asari bo‘lg‘oni so‘ylanadir. Mana shu ma’lumotlardan so‘ng “Qari Navoiy” kuyining Alisher Navoiy asari bo‘lg‘ani ehtimoli kuchlanib qoladir”². Xulosa shuki, Toshkentda “Qari Navo” deb ataladigan kuyni Navoiy yaratgan bo‘lishligi joiz. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, Navoiy milliy cholg‘ularni yaxshi bilgan. Jumladan, Xondamir yozadi: “Hazratning o‘zлari qonunu udda zo‘r ta’lim olganlar. Binobarin, sozanda ahlining ko‘pchiligi hamisha oliyhazratning mulozamatida bo‘ladilar”.

Navoiy o‘zbek musiqa madaniyati rivojiga, og‘zaki an'anadagi o‘zbek ustozona musiqasi taraqqiyotiga beqiyos ulush qo‘sghan ulkan san’atkor ekanligi haqida o‘zbek musiqasining bilimdonlari Abdurauf Fitrat va Is’hoq Rajabovlarning zalvarli tadqiqotlarida dalillar bor³. Navoiyning o‘zi bu haqda “Sab’ai sayyor”da shunday yozadi:

*San’atim anda soz chalmoq ishi,
Bilmayin men kabi ishini kishi.
Ilmi advoru fanni musiqiy,
Medin ul ilm ahli tahqiqi.*

Xonandalar va bastakorlar tomonidan ashulalar to‘plami sifatida foydalanib kelinadigan bayozlarning asosiy qismini Navoiy g‘azallari tashkil etadi. Masalan, O‘z.R.F.A. Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kitob xazinalarida saqlanayotgan 43 bayozni tashkil etuvchi g‘azallarning aksariyati Navoiyga mansubdir, chunki, Navoiy she’riyatining qiymati, qo‘llagan she’riy usullar, vaznlar asrlar davomida buyuk musiqachilarning necha avlodni tomonidan yaratilgan maqom va maqom yo‘lidagi o‘zga musiqiy shakllar qiymatiga, ularda qo‘llanilgan usullar, ritmga mutanosibdir. Shuning uchun ham necha asrlardan beri, bizning kungacha Navoiy so‘zлari bilan ijro etilib kelinayotgan ashulalar maqom, suvorish yoki Toshkent – Farg‘ona maqom yo‘llaridagi: “Bayot – II”, “Ushshoq”, “Qo‘schinor”, “Qo‘schinor – II”, “Chorgoh – III” va boshqalar o‘zbek mumtoz musiqasining husnu tarovatini ko‘rsatuvchi asarlardir. Navoiy so‘zlariga kuy bastalash an’anasining

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnonma” 162 b.

² A.Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” 1993

³ Rajabov I. “Maqomlar”

asoschilarini uning zamondoshlari – Hoji Yusuf Burhon va Hoji Abdulloh Marvarid bo‘lsalar, yaqin o‘tmishda Hoji Abdulaziz, Mulla To‘ychi Hofiz, Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov bu an’ananing davomchilarini edilar, hozirda esa, Abduhoshim Ismoilov, Mahmudjon Tojiboyev singari bastakorlar Navoiy so‘zlariga kuy bastalash sharafiga musharraf bo‘lmoqdalar.

Zayniddin Vosify qayd etadiki: “Oliyhazrat amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar muallimi soniy Abu Nasr Forobi hayot bo‘lganlarida unga shogirdlik sirg‘asini qulog‘iga taqib olardi”. Abdurauf Fitrat yozadi: “Navoiyning o‘zi ham musiqiyda bir risola yozg‘on deb so‘ylanmakdir”. Afsuski, Navoiyning musiqiy risolasi hali topilgani yo‘q. Ammo, Navoiyning adabiy-badiiy va adabiy-ilmiy merosini o‘rganar ekanmiz, ko‘z oldimizda ulug‘ shoir, buyuk mutafakkir va ulkan musiqashunos siymosi gavdalananadi. Chunki, uning mazkur asarlarida musiqa nazariyasi va amaliyotiga oid turli masalalar keng, atroficha yoritilgan, o‘n ikki maqom tizimi davrlari, musiqiy cholg‘ular tasnifi va ta’rifi o‘z aksini topgan.

Navoiy hazratlari o‘zinig boy ijodiy merosida cholg‘ularning ilohiy va falsafiy jihatlaridan kelib chiqib tashbihlar ya’ni o‘xshatishlar asosida badiiy talqin etadi hamda musiqaning o‘ziga hos parda tizimlaridan bohabar holda ifodalaydi yoki cholg‘uning ohang xususiyatlariga alohida ta’rif beradi. Navoiy ijodining ayni cholg‘ushunoslik masalasi to‘g‘risida bir qator fikrlarni biz A. Fitratning “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida, I.Rajabovning “Maqomlar” monografiyasida o‘qishimiz mumkin. Navoiy o‘z asarlarida musiqiy cholg‘ularning shaklu shamoyili, ko‘rinishlaridan toki ijro mezoni, ohang tarannumi xususiyatigacha falsafiy qarashlari bilan ifodalaydi. Uning musiqiy iboralar bilan uyg‘unlashgan har bir satrlari chuqur ma’noli, musiqiy atamalarning asar g’oyasi bilan qorishib ketgani bilan alohida ajralib turadi. U o‘z g’azallarida cholg‘uga murojaat etsa, cholg‘u tabiatini har tomonlama o‘z aksini topadi . Jumladan , quyidagi baytda Navoiy nay cholg‘usini keltiradi:

*Otashin may birla, ey soqiy, qizitqil bazmni,
Mutribo, ul o’tni tez etmakka ol og’zingga nay.*

(“G’aroyib us-sig’ar”, 581)

Shunday qilib, Alisher Navoiy bizning adabiyotimizni boyitibgina qolmay, musiqa ilmida ham eng zarur manbaalarni qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy “Xamsa” 1986
2. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” 1989

3. A.Fitrat “O’zbek klassik musiqasi va unig tarixi” 1993
4. I.Rajabov “Maqomlar” 2006

DOIRA IJROCHILIGINI O‘RGANISHDA MUSIQIY-NAZARIY FANLARNING AHAMIYATI

Qurbanov Azizbek

Professional ta’lim: Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi) ta’lim yo, nalihi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Ozbekistonda xizmat ko, rsatgan artist, professor
Dilmurod Islomov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqiy ta’lim jarayonida doira sinfi o, quvchilariga musiqiy-nazariy fanlarni o’qitishning ahamiyati, hozirgi kunda ushbu sohadagi dolzarb muammolar haqida so, z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqiy ta’lim, metod, “Skarabey”, mnemonika, texnologiya, kvadrat, interval.

Musiqa – hech narsa bilan o‘lchab, solishtirib bo‘lmaydigan beqiyos ilohiy ta’sir kuchiga ega.

Sh.Mirziyoyev

Mustaqillikning 30 yillik davri mobaynida mamlakatimizda ko‘p sohalar qatori musiqa san’atida ham e’tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar so, nggi olti yillikda ham davom etib kelmoqda. Buning samarasi o, laroq, musiqa san’atini keng ko‘lamda rivojlantirish zarur shart-sharoitlar yaratildi. Yosh avlodga milliy va jahon mumtoz musiqalari asosida ta’lim-tarbiya berish yo‘lida muhim ishlar amalga oshirildi.

Ma’lumki, musiqa san’ati bevosa cholg‘ular bilan bog, liq. Manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga ko, ra, musiqa cholg‘ulari cholg‘ulari orasida dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Sababi, eng qadimgi mehnat qo’shiqlari, ovga chiqishlar usul (ritm) tuzilish jihatdan bevosa bir-biriga bog‘liq bo‘lgan. Keyinchalik shovqinli musiqa cholg‘ulari paydo bo‘ldi. O’zbek xalq cholg‘ularida ijro etish san’ati o‘z taraqqiyotining ko‘p asrlik an’analari meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. 1933-yildagi Ayratom shaxristoni arxeologik qazishmalarida topilgan madaniy boyliklar, qadimiy adabiy manbalar, turli musiqa cholg‘ulari mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. [4.B.4]

Musiqa cholg‘ulari va ularagi ijrochilik yillar davomida takomillashib bordi. Bugungi kunda cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyligini ta’minlash

dolzarb masalalardan hisoblanadi. Nazarimda cholg‘u ijrochilik sohasini qushning birinchi qanoti, musiqiy ta’limni esa ikkinchi qanoti deb ta’riflasak to‘g‘ri bo‘ladi. Boisi, bir qanotli qush osmonga ko‘tarila olmagani kabi cholg‘u ijrochiligidagi tahsil olayotgan talabalar ham musiqiy ta’limsiz o‘z sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan kerakli bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish jarayonida ko‘plab qiyinchiliklarga uchraydi.

Hozirda oliy ta’limda cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha tahsil olayotgan ayrim talabalari o‘zim ijro qiladigan cholg‘uni yaxshi bilsam yetarli, musiqiy-nazariy fanlarni chuqur bilishim shart emas, kelajakda bu fanlardan dars bermaymanku kabi fikrlar ham uchrab turadi. Bunday fikrlar bolalar musiqa va san’at maktablarining aksariyat musiqiy fan o‘qituvchilari o‘zlari o‘tadigan darslariga mas’uliyatsizlik bilan qarashlari va o‘quvchilarni o‘z darslariga yetarlicha qiziqtira olmaganliklari, dars jarayonida o‘quvchilarning individual qiziqishlarini inobatga olgan holda yakka tarzda ish olib borilmaganliklarida deb hisoblayman.

Ta’kidlash joizki, musiqa ijrochiligidan ta’lim berish o‘qituvchidan turli bilim, ko‘nikma va qobiliyat talab etadigan ishdir. O‘qituvchi uchun faqat sozanda bo‘lishning o‘zi yetarli bo‘lmay, undan pedagogik fikrlash, o‘quvchining ichki dunyosini ko‘ra bilish uning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi sifatlarga ega bo‘lish ham talab etiladi. Cholg‘u ijrochiligi va musiqiy fanlardan ta’lim beradigan o‘qituvchi yuqori pedagogik mahorat va psixologik bilimlar egasi bo‘lmog‘i lozim.

Bolalar musiqa va san’at maktabiga xalq cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishiga ta’lim olish uchun kelgan o‘quvchining tanlagan yo‘nalishini doira deb oladigan bo‘lsak, o‘qituvchi o‘quvchiga doira cholg‘usining tarixi, ustoz sozandalar hayot yo‘llari va bu sohaga qo‘sghan hissalari haqida tushuncha berib o‘tadi. O‘quvchiga doira cholg‘usida biror asar ijro qila olishi uchun doira cholg‘usining nota tizimi, nota cho‘zimlari tushintirib o‘tiladi. Tabiiyki bu holatda “Musiqa nazariyasi” fanining o‘rni juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, xalq cholg‘ularida o‘qish istagini bildirgan o‘quvchi doira cholg‘usi bilan bir qatorda ksilosfon cholg‘usini ham o‘rganishi kerak bo‘ladi.



Ksilofon urma zarbli musiqa cholg‘usi bo‘lib, Yevropada XV asrda paydo bo‘lgan. O‘quvchiga bu cholg‘u haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilganidan so‘ng, gamma beriladi. Bunda o,quvchi gammani ijro qilishi “Musiqa nazariyasi” fanini yaxshi o,zlashtirishi kerak bo‘ladi. Sababi berilgan gammada nechta belgi bor va uning uchtovushliklari kabi musiqiy elementlarni bilishi uchun bu fanning o‘rni muhim. Demak, musiqiy ta’lim nazariy bilim va ko‘nikmalar bersa, cholg‘u ijrochiligi ya“ni mutaxassislik fanlari amaliy ko‘nikma va tajribalarni o‘rganishda talabalarga o‘ziga xos tajriba bilimlar majmui bo‘lib xizmat qilar ekan.

Cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida ta’lim olayotgan yoshlarga musiqiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol ta’lim metodlaridan foydalanib dars tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan bo‘lib, darsda ijodiy muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash mulohaza yuritish, o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan darsni avvalida o‘tgan mavzuni takrorlash uchun “Blits so‘rov” metodidan yoki topqirlik mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Yana bir zamonaviy interfaol metodlardan biri “Skarabey” interfaol metodi bo‘lib, o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. “Skarabey” metodi o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan

Musiqiy ta’lim bilan uzviyiliginini ta’minlashda yangicha interfaol metodlar ishlab chiqilsa, bu o‘quvchilar va talablarga yana ham musiqiy fanlarning mohiyatlarini tushunishlari uchun yangi eshiklar ochilgan bo‘lar edi deb o‘ylayman. Masalan, men bolalar musiqa san’at va mifikta o‘quvchilar uchun “Musiqa nazariyasi” fanidan musiqiy atamalar va fanga oid qiyin mavzular va so‘zlarni tez eslab qolishlari uchun “Imagine and remember” ma’nosini “Tassavur qiling va eslang” bu metod “mnemonika” ya“ni eslab qolish san’ati bilan bog‘liq. Bu metodni amaliyotga joriy qilish tartibi quyidagicha: bu metoddan o‘quvchilar musiqa nazariyasi fanidan musiqiy atamalarni eslab qolishlari kerak. Masalan: son miqdoridagi intervallar 8 ta 1-Prima, 2-sekunda, 3-tersiya, 4-kvarta, 5-kvinta, 6-seksta, 7-septima, 8-oktava. O‘quvchilar bularni tartib bilan yod olish kerak. Deylik bunda o‘quvchilar birinchi navbatda o‘zlarining fikrlashlaridan kelib chiqqan holda intervallarni har birlariga obraz berib chiqadilar va ularni bir biriga bog‘lab eslab qolishga harakat qilishadi. Masalan: prima intervaliga biz obraz sifatida (piramida)so‘zini olishimiz mumkin endi piramida bilan primani

umumlashtiramiz: piramidalar har yili 1 yoshga ulg‘ayganliklarini bir joyga to‘planib nishonlashar ekan. O‘quvchilar iloji boricha obrazlarni birlashtirish jarayonida iloji boricha oddiylikdan qochgan holda insonning hayoliga ham kelmagan narsalar bilan bog‘lasalar eslab qolishlari ikki barobar osonroq bo‘ladi.

Yana misol qilib 4- intervalimiz Kvarta intervalini oladigan bo‘lsak kvarta (kvadrat) 4 ta qizil rangdagi fillar kvadrat bo‘lib 4 tomga qarab sakrab ketishdi. Bu yerda birinchi navbatda inson ongiga notanish bo‘lgan obraz bu qizil rangdagi fil chunki bunday hodisani inson avval hech o‘ylab ko‘rmagan va hayoliga ham keltirmagan agar biz kvadrat tomonlari teng bo‘lgan to‘g‘ri burchakli to‘rtburchak deb tasavvur qilsak, miyamizda bu oddiy holdek qabul qilinib, eslab qolish ancha past natija ko‘rsatgan bo‘lar edi. Bu kabi metodlarni Cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida musiqiy ta’lim uzviyiligini ta’minlash borasida yana ko‘plab shunga o‘xshash metod ishlab chiqilib amaliyatga tatbiq etilsa o‘ylaymanki, o‘quvchi yoshlar uchun musiqaga va cholg‘u ijrochiligiga bo‘lgan munosabatlari va bu sohani rivojlantirishga yana ham keng yo‘l ochiladi.

Shu o‘rinda yana bir taklifimni aytib o‘tmoxchiman. Musiqiy ta’lim jarayonida o‘quvchi yoshlarga va talabalarga bilim berib kelayotgan o‘qituvchi hamda ustozlarga hozirgi globallashuv zamonida musiqachilarning kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalari bilan bir qatorda musiqa sohasida axborot texnologiyalari cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishi tahsil olayotgan talabalar uchun kompyuter dasturlari ishlab chiqilib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini zamon talabiga javob bera oladigan darajada rivojlantira olishsa, bu sohada rivojlanish uchun dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi. Masalan: Rossiyaning ayrim universitetlarida musiqa bilan bog‘liq elektron texnologiyalar o‘quv rejasining predmeti sifatida o‘rganiladi. Shunga o‘xshash ta’lim muassasalarida kompyuter tizimlari “tovushli lug‘atlar” ishlab chiqilmoqda. Kompyuter dasturlari cholg‘u ijo qilishni o‘rgatish, cholg‘u diapazonini, zarblar va dinamik belgilar ijrosi va hokazolarni aniqlash imkonini beradi.

Demak biz ham bu sohadagi chet el tajribalarini o‘rganib, amaliyatga qo‘llagan holda cholg‘u ijrochiligi va musiqiy ta’lim sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda kompyuter dasturlari ishlab chiqishimiz kerak. Bunda cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishidagi o‘quvchilar uchun o‘zlarining mutaxassislik cholg‘usi haqida tizimli va amaliy dasturiy ta‘minot ishlab chiqish kerak. Dastur o‘z ichiga cholg‘u bo‘yicha barcha ma’lumotlarni jamlagan holda o‘ziga xos baza yaratiladi. Mazkur bazada cholg‘u ijrochiligiga hissa qo‘sghan buyuk ustozlarning ijod yo‘llari haqida ma’lumotlar, ularning uy muzeylariga, basatakorlarning muzey-kvartiralariga virtual ekskursiyalar, cholg‘ular ijo texnikasi bo‘yicha video va audio darslar joylashtiriladi. O‘quvchilar cholg‘uni

virtual ijro etishlari uchun qiziqarli o‘yinlar va turli xil test savollarini o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talaba yoshlar uchun ular o‘rganayotgan asarlari va bu yo‘nalishdagi o‘quv adabiyotlarni zamon talabiga mos ravishda QR-kodlash zamon talabi hisoblanadi. Bu orqali talaba va o‘quvchilar o‘zlarining qo‘l telefonlari yordamida o‘zlari ijro qilmoqchi bo‘lgan asar haqida kerakli ma’lumotlarni bilishlari mumkin bo‘ladi. QR-kod bu maxsus tarzda kodlangan ma’lum bir ma’lumotning kvadrat ko‘rinishidagi tasviri. Hozirgi kunda kameraga ega zamonaviy telefonlar kvadrat ko‘rinishidagi tasvir ostida yashiringan ma’lumotlarni oson o‘qish imkonini beradi. Buning uchun bor yo‘g‘i telefon kamerasini QR-kodga yaqinlashtirilib undan kodlangan ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. Musiqa adabiyoti va musiqa darslaridan musiqa Esiklopediyalar dasturini ishlab chiqish lozim. Chet el tajribalariga yuzlanadigan bo‘lsak “Kiril va Metyusning mashhur musiqa ensiklopediyasi” unda deyarli barcha zamonaviy guruhlar va ijrochilar, musiqiy albomlar haqida ma’lumotlar mavjud. Ushbu ensiklopediya yordamida har qanday guruhnинг rivojlanish tarixi, turli mamlakatlarda rok, jazz, pop musiqasining shakllanishi haqida ma’lumot olishimiz, yozuvni tinglash yoki videoklip tomosha qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

O‘quvchi yoshlarni cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyiliginini ta’minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir qator muhim vazifalarni hal qila oladi. Bular:

- talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish;
- talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatga qiziqishini rivojlantirish;
- talabalarning ijodiy salohiyatini oshirish;
- o‘quvchilarning musiqa madaniyatiga qizishini oshirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki cholg‘u ijrochiligi sohasini katta uy deb ta’rif bersak, musiqiy ta’limni uyning kaliti deb olishimiz mumkin. Kalitsiz uyni ichiga kirish va uyning ichida nimalar borligini ko‘rib bo‘lmasligi kabi cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’limning qanchalik kerakli ekanligini tushuntirish hozir kunda yoshlarga musiqa ta’limidan bilim berib kelayotgan har bir pedagogning vazifasidir.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyevning “Sharq taronalari” o‘n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи tabrik so‘zi. Manba: Xalq so‘zi gazetasi. 2019-yil, 27-avgust.
2. G‘afurov M “Cholg‘u ijrochiligi” Toshkent: 2015-y.1-bob

3. Odilov A “Cholg‘ushunoslik” Samarqand: 2012-y.
4. Rahimov Sh, Yusupov Sh. “Cholg‘u ijrochiligi”. “Musiqa” nashriyoti, T. 2011-y.
5. <https://hozir.org/interfaol-talim-metodlari.html>
6. Musiqachining kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalari. Musiqa sohasida axborot texnologiyalari. Musiqa o‘rganish uchun dasturiy ta’minot <https://torrentfile.ru/uz/programmy/novye-informacionnye-tehnologii-v-professionalnoi-deyatelnosti-muzykanta.html>
7. http://yorituvchi.ucoz.net/news/qr_kod_nima/2017-04-12-46
8. Ibrohimov O, Xudoyev G“Musiqa tarixi”. “Barkamol fayz media” nashriyoti. Toshkent: 2018-y.
9. Yusupova N “Musiqa savodi metodikasi va ritmika” Toshkent: 2017-y.
10. Musabekova S “Musiqa tarbiyasi” Toshkent:1973-y.

**DUTOR CHOLG‘USIDA IJROCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH
BOSQICHLARI**
(Bolalar musiqa va san’at mакtablari misolida)

Nigina Zoxiddin qizi Xolmirzayeva

Kasb ta’limi: Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi) ta’lim yo,nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: o,qituvchi J.Turatov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalar musiqa va san’at maktablarining dutor sinfida tahlil olayotgan o,quvchilarga dutor ijrochiligining umumiy qoidalari hamda cholg‘uni o,rgatish bo,yicha kerakli tavsiyalar keltirib o,tilgan.

Kalit so‘zlari: Musiqa, cholg‘u ijrochiligi, nota yozuvi, uslub, aplikatura, mashqlar.

ABSTRACT

This article provides general instructions for playing the dutar and recommendations for teaching the students of the dutar class of children's music and art schools to play the instrument.

Keywords: Music, instrumental performance, music, style, application, exercises.

Tarixdan ma’lumki, o,zbek xalq cholg‘ulari musiqaning barcha tarmoqlariga mos shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Milliy cholg‘ular tarixi va ularning hozirgi kungacha bosqichma-bosqich rivojlanib kelayotganligini ajdodlarimizning musiqa madaniyatiga oid eng qadimiy ma’lumotlarida, xususan hududimizdagи qoyatoshlarda chizilgan tasvirlarda, arxeologik qazilmalar paytida topilgan ashyolarda qolaversa, turli bosma nashrlarga ishlangan rasm va miniatyura shaklida berilgan tasvirlarda ko,rishimiz mumkin.

O,zbek milliy cholg‘ularida ijrochilik tarixini o,rganishda o,rta asrlar musiqa ilmiga oid asarlar asosiy manbalardan hisoblanadi. Milliy cholg‘ularimizning tarixiy jarayonini bilish aynan o,sha davrda yashab ijod qilgan olimlarning asarlarida keltirilgan.

Ana shunday qadimiy-tarixiy cholg‘u sozlaridan biri bu dutor cholg‘usidir. Dutor cholg‘usi xususidagi dastlabki ma’lumotlarni Mavlono Zaynulobidin al Xusayniyning Alisher Navoiyga bag,ishlangan “Musiqiyl ilm va amaliyot qonuni”

risolasida uchratamiz. XV asrning ikkinchi yarmida bitilgan bu risolada o,sha zamonda kvarta intervali oralig,ida sozlanuvchi, o,n bir pardaga ega bo,lgan dutor tavsiflanadi.

Bizga ma’lumki, o,zbek musiqa ijrochiligi, boshqa sharq xalqlari musiqalari kabi o,ziga xos sayqallarga boy, dardli va tarovatli ohanglar tarannum etishga asoslangandir. Cholg,u sozini ijrochi qo,lida ushslash holatidan, toki mukammal ovozlar talqinigacha bo,lgan jarayonlarni bolalar musiqa va san“at mакtablarida o,rgatilib kelinadi.

Maktab yoshidagi bolalarning o,zbek xalq cholg,ularida o,qishga bo,lgan ehtiyojlarni nazarda tutib, Respublika musiqa maktablarida turli cholg,ulari qatorida dutor sinfi ham tashkil qilingan. Shuni nazarda tutish kerakki, ommalashgan o,zbek xalq cholg,ularidan dutor cholg,usi tuzilish jihatdan katta bo,lib, musiqa mакtabi o,quvchisi bu cholg,uni o,rganayotganda ancha qiynaladilar.

Oxirgi yillarda dutor sinfida o,qitish tajribasi o,quv yurtlarida, xususan bolalar musiqa va san“at mакtablarida dutor-pirima, dutor alt va dutor-tenor (an“anaviy) ommalashib bormoqda. Buning natijasi yosh avlodlarimizni dutorgan bo,lgan ishtiyoqlari tobora kuchayib bormoqda. Bolalar musiqa va san“at mакtablarining besh yillik ta’lim yo,nalishiga mo,ljallangan bo,lib, bu davr ichida o,quvchi imkonи boricha musiqa ijrochiligining professional mahoratini egallashi va notaga qarab ijro etish malakasini hosil etishi ko,zda tutilgan.

Mutaxassislik sinfi darslarining ta’limiy jarayonini amalga oshirish shakli yakka tartibda o,tiladi. 1-4-sinflarda xar bir o,quvchi uchun xafatasiga 2 akademik soatdan 5-sinflar (bitiruvchi) uchun 3 akademik soatdan o,tilishi ko,zda tutilgan.

Amaliyotda dutorning ko,plab ijrochilik namunalari shakllangan. Asosan har bir cholg,uda bo,lgani kabi dutor cholg,usida ham o,ziga xos ijro uslublar mavjud. Mana shunday ijro uslubini tashkil etishda avvalo dutor haqida nazariy bilimlarga ega bo,lishimiz lozim. Ana undan keyin cho,ljg,uda to,g,ri o,tirish ya’ni pastanofkani to,g,ri qo,ya bilishimiz, bu esa ijrochining o,zi ijro etayotgan asarini mohirlik bilan ijro etishini ta’minlaydi.

O,quvchilarimizga dars mobaynida belgilangan majburiy ijro dasturi hisoblangan asarlar bilan cheklanib qolmay, o,z dunyo qarashini muntazam kengaytirib borishi uchun boshqa vazifalarni ham bajarish lozim. Reyting nazoratlari yoki konsertda tinglovchi-tomoshabinlar oldida ijro qilish uchun ma’lum bir bastakorlar tomonidan yaratilgan asar ijrochisini o,zlashtirayotgan davrda ushbu muallifning shu janrdagi boshqa asarlarini ham o,rganishimiz kerak. Bunday mustaqil izlanish ustozlar uslubini chuqurroq singdirib olishga katta yordam beradi.

Birinchi marta bolalar musiqa va san“at mакtabiga kelgan o,quvchilar uchun albatta cholg,uning kelib chiqish tarixini qisqacha gapirib tushuntirishimiz lozim.

Dutor sinfi o,qituvchisi o,quvchiga avvalo dutorning tuzilishi (bosh qismi, dastasi, kosasi, qopqog,i, quloqlari, pardalari, xarragi, simlari), qismlari va ulardan foydalanish (chertib chalish), dutor torlarining nomi va ularning sozlanishi haqida tushuncha beradi. Dutorni ushlab o,tirish holatini, uining kosa qismi va dastasini tegishli o,rnida tutishni o,quvchiga o,rgatib mashq qildiradi.


Dutor alt – sozi ikki tordan iborat bo,lib ijro etilayotgan asarga qarab kvarta (1-oktava mi-lya) yoki kvinta (1-oktava re-lya) soziga sozlanadi.

O,quvchi dutor chalayotganida qo,l muskullarini taranglashtirmay o,ng qo,l bilagini va chap qo,l barmoqlarini erkin harakat qildirishi kerak. Ijro paytida bukchaymasligi uning yelkalari esa bir xil balandlikda bo,lishi alohida ahamiyatga ega.

Mashg,ulot davomida o,quvchining qo,llari tolmasligi va qattiq charchamasligiga e’tibor beriladi.

Dutorda ijro etayotganda o,quvchi musiqa asarlarini fortepiano jo,rligida ijro etishi muhim ahamiyatga ega. Fortepiano jo,rligida dutor chalish, o,quvchilarni ansamblida ijro etishga o,rgatadi. Bu esa o,quvchilarning garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantiradi.

Keyingi bosqichda pazitsiya va applikaturani qo,yish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Cholg,uda tovush chiqarish va zarblar haqida ma”lumot. Bularni puxta egallagandan so,ng albatta musiqiy asarlar bilan ishlashga o,tiladi. Mustaqil o,z ustida ishlash orqali o,quvchi mahoratini oshirib boradi.



Dutor chalishning umumiyligi qoidalarini ham o,quvchiga amaliy tarzda ko,rsatish lozim. O,tirganda stulning bir chekkasiga o,tirib, gavdani erkin va to,g,ri tutish kerak. O,ng oyoqni chap oyoq ustiga qo,yish lozim. Dutor kosasi o,ng oyoq ustiga qo,yilib, o,ng qo,l tirsagi bilan biroz siqib turiladi dutor-tenor.

Chap qo,l tirsagi bukilgan bo,lib, tanaga yopishmasdan turishi kerak; dutor dastasining yuqori qismi chap qo,l bilan ushlab turilishi lozim. Dutor dastasi ko,rsatkich barmoqning uchinchi bo,g,inidan biroz pastda va bosh barmoq asosida

turishi kerak. Chap qo,lı kafti dutor dastasiga tegmasligi kerak. Chap qo,lıning bosh barmog,idan boshqa hamma barmoqlari doira shaklida bo,lib ular dastaga, bo,g,jin yaqiniga qo,yiladi. Dutor jarangining sofligi barmoqlarni pardalarga to,g,ri qo,yish va torni qanday kuch bilan bosishga bog,liqdir. Chap qo,lı barmoqlarining tartib raqamlari:

- 1 – ko,rsatkich barmoq
- 2 – o,rta barmoq
- 3 – yon barmoq
- 4 – jimjiloq

Bosh barmoq “b” harfi bilan belgilanadi. Dutor chalishda bu barmoq faqat ikkinchi torni bosishda ishlatiladi.

O,ng qo,lı bilagining o,rta sida dutor kosasining chekkasiga qo,yiladi. Qo,lı panjasini torlar ustida bukilgan holda erkin ushlab, torlarga qalqon ustida zarb tashlash kerak. Barmoqlar bir joyga yig,ilib, kaft ichiga yarim bukilgan holda erkin turishi kerak.[3:33]

Dutor ovozi asosan o,ng qo,lı panjası bilan torlarni pastga va urish bilan hosil qilinadi. Barmoqlar erkin va bir maromda harakatlanishi kerak. Pastga ko,rsatkich barmoq bilan va yuqoriga bosh barmoq bilan zarb beriladi, bu ikki barmoq bir-biri bilan biroz yopishganbo,lib, yuqoriga qarab urganda bosh barmoq ko,rsatkich barmoqdan biro z chap tomonga qochadi. Bunday chalish usuli yakka zarb deb ataladi va quyidagi belgilar bilan ifodalanadi:

- Π – panja va o,ng qo,lıning ko,rsatkich barmog,i bilan pastga qarab chiqish.
V – panja va o,ng qo,lıning bosh barmog,i bilan yuqori qarab chalish.

Notalar dutorga joylashuvini urganib olib, turli cho,zimga ega bo,lgan notalar, takt o,lchovlari va sanoq bilan tanishib chiqqach, birinchi mashqni bajarishga o,tish mumkin.

Dutor cholg,usida usullarning (shtrixlarning) zarb yo,nalishlari belgilari:

- Π - yuqoridan pastga zarb urish;
V - pastdan yuqoriga zarb urish;

Dutor cholg,usida usullarning harfiy belgilari;

K – ko,rsatkich barmoq bilan zarb urish;

BZ – bilak zarb- bilak bilan zarb urish;

B – bosh barmoq bilan zrab uriah;

Rizz – pitsikato (chertma zarb);

Tr – tremolo (rez) ko,rsatkich barmoq bilan uzliksiz chertish barmoq bilan uzliksiz;

J - jimjiloq bilan zarb urish;

Asarlarni murakkab zarblar orqali chalinishi quyidagicha;

VVP PVV P B K. K B B K.

Uslubiy qism orqali teskari zarblar ko,rsatilishi

P—pastka, B—bosh barmoq yuqoriga, K—ko,rsatkich barmoq yuqoriga

B K B K P V V, P V V.

Uslubiy qism orqali terma zarblar belgilanishi:

K - ko,rsatkich pastga; B - bosh barmoq pastga; B –bosh barmoq yuqoriga;

K - ko,rsatkich barmoq yuqoriga;;

K B B K K B B K P P V V P P V V.

Uslubiy qismning bu ko,rinishi pirrang, ya“ni rez usulida chalinadi. Musiqa cholg,uda tovush chiqarish usuli shtrix deyiladi. Chalish vaqtida qanday shtrix tanlab olish pyesaga turlicha xarakter va joziba beradi.

REFERENCES

1. Rasuloyev J.K. “O,zbek dutor ijrochiligi” Toshkent.: 1997 y. 6-bet.
2. F.Rasulova “Bolalar musiqa va san“at maktablari uchun o,quv dasturi” Toshkent -2019 y.
3. Qilicheva Hayotxon Inoyatovna “Dutor cholg,usida o,qitish uslibiyoti” Toshkent-2017 y.
4. G.Muhammedova “Dutor darsligi” 2005 y.
5. M.A.Asilov, F.N.Vasilev “Dutor darsligi”-T-1977 y.
6. G.Qochqarov “Dutor sadolari”, 1-kitob, T-1987 y. Dutor ijrosi uchun moslashtiruvchi hamda toplovchi

**Ш.УМАРОВНИНГ ДУТОР ВА ОРКЕСТР УЧУН “ШАРҚОНА РАҚС”
АСАРИНИНГ ИЖРОЧИЛИК ТАҲЛИЛИ**

Б.Қодиров

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
Халқ ижодиёти: “Чолғу ижрочилиги” 1-босқич магистранти

Ш.Умаров

Илмий раҳбар доцент

Асар 2017 йилда “Наврўз” ХЧКО учун маҳсус ёзилган. Унинг илк ижрочилари “Халқ чолғуларида ижрочилик” кафедраси катта ўқитувчилари Хайдаралиева Дурдона ва Набиева Малоҳатлардир. Улар профессионал ижроси орқали: асарнинг томошабинлар томонидан катта олқишлиар билан кутиб олиниши, шунингдек, дуторчи созандалар репертуаридан мустаҳкам ўрин эгаллашида ўзларининг улкан ҳиссаларини қўшган.

Асар халқона оҳангда, чиройли ва турли зарбларга бой бўлиб, каденциялари хам маҳоратли ижрога мослаб ёзилган.

Асар таҳлили. Уч қисмли (кириш ва сода қисмлари бор).
Халқона оҳангларда ва куплет шаклида ёзилган. 16 та рақам билан рақамланган. Асар 4/4 ва 2/4 ўлчовларида ёзилган, e-moll, **Rubato**, 5 такт оркестр (яъни фортепиано) бошлайди, 5-такт *rit.* 1-рақамда (цифра) **Alegretto** (*Salobat bilan*) 2-такт фортепиано усулидан сўнг дутор ижроси *p* (пиано) билан бошланади. Жумлалар 4 тактли тузилмага эга. Оғир, вазмин, салобатли ижро этиш лозим.

Хар бир жумлалар юқори пардаларга чиқиб, яна бошланишдаги товушларга қайтиб, репризалар билан давом этади. Шу тариқа ижро 6 рақамгача давом этиб, сўнги тактда rit. Қилиб, 1 такт 3/4 ўлчовга, 7- рақамдан *Allegro* (хотиржам) 6/8 ўлчовга ўтилади.

The musical score consists of five staves. The top staff is for 'Dufor' (oboe), which has a treble clef and a key signature of one sharp. The second staff is for 'Double Bass' (double bass), with a bass clef and a key signature of one sharp. The third staff is for 'Duet Solo' (two solo voices), also with a treble clef and one sharp. The fourth staff is for 'Daira' (cymbals), indicated by a cymbal icon. The bottom staff is for 'Shiq-oq' (triangle), indicated by a triangle icon. The score shows various musical notes and rests across the staves, with a vertical bar line indicating a section change.

Оркестр 4 такт ижро этади, 8-рақамдан дутор ижрога тушади 8 такт реприза ижро этилиб, 9-рақамда зарблар ўзгариши, динамик белгилар алмашуви бажарилади. 10-11 рақамда яна хотиржамлик билан ижро этиш талаб этилади, бундан кейин келадиган каденцияга тайёргарлик сифатида маҳоратни кўрсатиш учун куч сақлаш лозим. 12-рақамда **CADENZA** 2/4 ўлчовда бўлиб, (84 тактдан - 124 тактга қадар) созанда – ижрочи ўзининг маҳоратини ҳар томонлама кўрсатиши белгиланган.

Largo Rubato (CADAENZA)

9

Largo Rubato (CADAENZA)

MUTA INTABLA

10-рақамдан **Vivace** (жонланиб, тез). 2/4 ўлчовида. Оркестр гурухлари ва якканавоз созанда орасида ижрочилик мусобақалари кўрсатилган. Шиддатли характерда.

15 – рақамдан **Сода** қисми бошланади. Бунда якканавозга штрихли техник ижро ва оркестрда тугатиш учун алоҳида мавзу берилган. Урма зарбли

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyiliginini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

чолгулар (литавра, тарелка, бубен ва tabla) асарнинг тугалловчи қисмидаги шиддатни ошишига ёрдам беради. Асар **f** динамикасида тугайди.

The musical score page 16 shows eight staves of music. The top five staves are labeled: R.prima, Q.rubob, A.rubob, D.uzor, and D.bub. The bottom three staves are labeled: D.uzor Solo, D.uzor, and Shiq-oq. The score consists of two systems of music. The first system ends with a double bar line and repeat dots, indicating a return to a previous section. The second system begins with a measure number 16. The music is written in common time with various note heads and stems. The instrumentation includes R.prima (likely a large drum), Q.rubob (a bowed instrument like a rubab), A.rubob, D.uzor (a bowed instrument like a dutar), D.bub (a large drum), D.uzor Solo (a solo part for the dutar), D.uzor, and Shiq-oq (a small instrument like a shiqoq).

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BOLALAR FOLKLOR IJODINI SHAKLLANTIRISHNING PEDADOGIK YO’NALISHLARI

Xatamova Irodaxon

Sirdaryo viloyati Guliston tumani 15-maktabning musiqa madaniyati fani
o,qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada musiqa madaniyati darslari orqali ma“naviyatimizni, madaniyatimizni yanada boyitish, bolalar folklor ijodini rivojlantirish yo“llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, musiqa madaniyati, alla, maktab, o“quvchi

ABSTRACT

The article describes the ways of further enrichment of our spirituality and culture through the lessons of musical culture, the development of children's folklore.

Keywords: folklore, musical culture, alla, school.

Folklor hamma zamonalarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham, insoniyat alla, qo“shiqlar, afsonalar, ertaklar va dostonlarda o“zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqiyu kurashlarini ifodalagan. Xalq og“zaki ijodi o“zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g“oyalar bilan yo“g“rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog“liqligi bilan ham g“oyatda e“tiborlidir.

Bolalar folklori ko“pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba“zi hollarda bolalar o“z o“yinchoqlari asosida o“zlar ham alla, qo“shiq va ovutmachoqlar to“qiydilar. Bularning hammasi bir bo“lib faqat yaxshi tarbiyani targ“ib qiladi. Bolalar xalq og“zaki ijodining pedagogika bilan bog“lanishi alladan boshlanadi.

Alla - onajonlarimizning jajji farzandlariga, xotin-qizlarning o“z bolalari, singil yoki ukalarini uhlatish uchun beshik yoki belanchakni tebratib aytadigan qo“shig“i. Alla aytish odatda xotin-qizlarga xos, o“zbek bastakorlari va kompozitorlari bir talay yangi allalar yaratdilar. Ba“zan cholg“u allalar ham uchraydi.

Taniqli o“zbek musiqashunosi Ilyos Akbarovning “Musiqa lug“ati” (1987) kitobidan bejizga misol keltirmadik. Alla haqida so“z yuritar ekanmiz, eng avvalo ko“z o“ngimizda mo“tabar, munis, mehribon onalarimiz siymosi gavdalananadi.

Farzandlarni tarbiyalashda, ona allani faqat chaqaloqning orom olishi uchun aytmaydi, balki uning ta“sirida bolaning ichki dunyosiga milliy ruh kiradi. Urf-

odatlarimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, chaqaloq tug‘ilganda qulog‘iga azon aytildi keyin esa har bir ona o‘zi bilgancha alla aytadi.

Ona allasi zamirida milliy madaniyat, milliy mafkura, milliy ma‘naviyat yotadi, chaqaloq ruhiga u asta-sekin singdirib boriladi.

Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Al-Farobiy, Ibn-Sino, Al-Beruniy singari buyuk allomalar ham onajonlarimizning allalaridan bahramand bo‘lganlar. Tarixchilarning yozib qoldirishlaricha o‘sha davrda onalar allalari quyidagicha aytilgan:

Jonimga darmon bolam,
Alla qilgin jonim bolam,
Allayo alla.

Farzand onaning dilbandi, jigarbandidur. Dunyoga kelgan birinchi kundan boshlab ota-onsa uning odobli, ahloqli va mehnatsevar bo‘lishini istaydi.

Donishmandlar ta‘biri bilan aytganda: Ota-onaning muqaddas burchi farzandlarining dunyoga keltirganligi emas, balki yaxshi fazilatlarni singdirib, yaxshi farzand tarbiyalay olganligidadir. Xalq pedagogikasida onalik eng yuksak ijtimoiy qadriyat, inson zotining voyaga erishishida bo‘lgan tabiiy ehtiyoj sifatida ulug‘langan.

Onalar insoniyatning bosh me‘moridir. Bolalar bog‘chalariga borsangiz, jippi qizaloqlarning qo‘g‘irchoqlariga alla aytayotganini ko‘rasiz.

Katta yoshdagi, ya‘ni erta-indin turmushga chiqadigan qizlarimizning ko‘pchiligi esa hali alla aytolmaydilar. Shuni onajonlarimiz e‘tiborga olib qo‘yishsa yomon bo‘lmaydi.

Umumta‘lim maktablari musiqa darslarida olib borilgan tajriba-sinovlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar orasida alla aytishni biladiganlari ozchilikni tashkil etar ekan. Dars jarayonida o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

- 1.Onangizning uka-singillaringizga aytga allasini tinglaganmisiz?
- 2.O‘zingiz alla aytishni bilasizmi?

Ushbu savollarga o‘quvchilardan to‘liq javob olmadik. So‘ngra o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida onalaridan alla o‘rganib kelishini topshirdik. Onalari alla o‘rgata olmagan ba‘zi o‘quvchilarimiz o‘zlari quyidagi allalarni yozib kelishdi.

Alla aytadi oyim
Qo‘shiplari muloyim
Alla bolam deydilar
Guli lolam deydilar.
Alla jonim singlim-a
Orom olgin alla.
Kipriklaring namlik-a

Uxlay qolgin alla
Oyim kelar uxbab tursang
Jonim singlim-alla
Shirinliklar olib kelar
Uxlab tursang alla
Allayo alla, allayo alla.
Yoki Alla bolam, alla
Jonim bolam alla
Ikki ko“zim alla
Shirin so“zim alla
Alla bolam bazti bor
Har narsaning, vaqtি bor
Jonim bolam alla
Shirin bolam alla
Ikki ko“zim alla
Uxlay qolgin alla
Yoki: Yot bolam, uxla qo“zim
Uylarda o“chdi chiroq
Uxlar asalarilar
Uxlar baliqlar tinchroq
Ko“kda oy yarqiraydi
Derazadan qaraydi
Ko“zlarining yumgin qo“zim
Yot quvonchim qunduzim
Alla, alla, alla-yo
Uxlab qolgin bola-yo

Xulosa qilib aytganda, yetuklik balog“at arafasida turgan qizlarimizni, bo‘lg‘usi onalarni alla aytishga undash foydadan holi emas. Oliy va o‘rta ta’lim muassasalari o“quvchi qizlari orasida “Alla” ko“rik tanlovlari o“tkazilib borilishi maqsadga muvofiq. Ma“naviyatimiz, madaniyatimizni yanada boyitishda, yosh qizlar tarbiyasida alla qo“shiqlarining o“z o“rni bor, bu bilan kichkintoylarni ham odobli, axloqli, el-yurtiga sadoqatli qilib voyaga yetkazish, oldimizga qo“yilgan maqsadlarni amalga oshirishda muhim deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. O. Ibrohimov 4-sinf musiqa darsligi 2015-yil
2. A.Mansurov. D.Karimova. 5-sinf darsligi 2015-yil
3. M.Jumaboyev.”Bolalar adabiyoti” Toshkent.”O“qituvchi”.1994-yil 7-9 betlar.

4. R. Qodirov «Musiqa pedagogikasi»-T.»Musiqa» 2009 y.
5. Tolipov U.K., Usmonboeva M., Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari. T., «Fan» 2006

**РУСТАМ АБДУЛЛАЕВНИНГ “ЭРТАКЛАР” ТУРКУМИНИНГ
ТАХЛИЛИ**

Абдуразақова Умида Бахтиёр қизи
ЎзДК “Мусиқа санъати” бўлими 2-курс магистранти
umidabaxtiyorovna94@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Р. Абдуллаевнинг “Эртаклар” туркуми алоҳида номларга эга бўлган бешта пьесани ўз ичига олади. Асарларни яратишда биринчи навбатда мавзувий бирлиликка катта эътибор бераб, уларни маънавий томондан ҳикоялар асосида умумлаштирган. Мусиқий томондан эса композитор асосан табиий ладларга, фактурага, аккордика ва уларнинг функционал алоқаларига, мавзу ва образларнинг интанацион тузилмаларига катта эътибор қаратган.

Калит сўзлар: табиий ладлар, аккорд, учтовушликлар, септаккордлар, фактура, шакл.

ABSTRACT

R. Abdullayev's "Fairy Tales" series includes five plays with the special names. During creating the works, first of all he paid great attention to thematic unity and generalized them with spiritual stories. On the view of musical aspect, the composer emphasized with special attention to natural melodies, musical forms, chords and their functional connections, intonational structures of themes and characters.

Keywords: natural tones, chords, trinities, seventh chords, musical forms, shape.

Композитор ижодиётининг эътиборли ютуқларидан бири – болалар учун бағишлиб яратилган асарларда кузатилади. Болалар учун бағишлиб яратилган фортепиано асарларида композиторлар кўпроқ дастурийликка интилган. Рустам Абдуллаев ижоди давомида фортепиано учун ёзилган турли жанрлардаги кичик хажмли, мураккаб бўлмаган болалар пьесаларидан тортиб катта хажмли, йирик асарларгача яратган. Биз шулардан “Эртаклар” номли туркумига алоҳида эътибор қаратамиз.

Туркум 2008-йилда яратилган бўлиб, ҳар бири қизиқарли воқеани ўзида намоён этувчи бешта пьесадан иборат. Дастурнинг номида мужассамланган

бадий ғоя ижрочининг ижодий фантазияси учун шароит яратиб беради. Бешта эртак сокин, тинч, осойишта суръатларда акс эттирилган.

Туркумдаги биринчи эртак воқеа – “Эртакчининг хикояси” (“Рассказ сказочника”) бунда таъсирчан баён қилувчи меҳрибон ҳикоячининг қиёфасини акс эттиришда оддий уч қисмли шаклдан (ABA) фойдаланган. Композитор тингловчини эркин ривожланувчи воситалар орқали майин мусиқийлик, ифодавий таъсирлар билан, замонавий гармоник тузилмалар ва пухта ишланган фактура ёрдамида эртаклар оламига етаклайди. Ўз эртагини тун қоронғусида бошлаган эртакчи тингловчини эртаклар оламининг сехрли дунёсига олиб кетади.

Ёқимли, нафис “Гуллар рақси” (“Танец цветов”) деб номланувчи 2-эртак ўта таъсирчандир. Композиторнинг айтишича бу асар X.К.Андерсенning “Идага аталган гуллар” эртаги таъсирида яратилган. Бу асарда даврага гулдаста бўлиб йифилган, кумушранг ой шуласи ва жарангдор атиргуллар барги хидига тўла эртакли гуллар базмининг кўринишидир. Гуллар рақсининг мусиқаси шарқ гўзалларининг латофатли рақсини тасвирловчи қиёфа билан бирга мусиқада уларнинг харакатини нозик холда кўрсатади. Бундай рақсона характерни ифодалаб беришда композитор оддий ики қисмли шаклни (AA₁BA₁) қўллаган.

“Карвон” (“Караван”) – учинчи эртак. Чексиз қумли чўлда шошмай бораётган савдогарлар араваси ва туялар карвони кўринишини мураккаб уч қисмли шаклда (A(ав) B(ав) A(ав)) тасвирланган. Мусиқада квартал оҳангдошининг қисқа форшлаг юқори регистрда олиниши қўнфироқчалар товушига тақлид бўлиб, туяларнинг тебраниб кетаётгани яққол акс этади. Пьесанинг ўрта қисмида композитор саёҳатчилар ҳаёлчанлиги, поёнсиз, чексиз чўлда кўринган сехрли, сирли, номаълум сароб кўринишини тасвирлаган.

Тўртинчи эртак – “Бургутлар рақси” (“Танец орлов”) да куч-куввати қанотларида бўлган эркесвар қушлар тимсоли яратилади. Маълумки композиторнинг қушлар образига мурожаати ҳаёт мазмuni муаммоларини, афсонавий ўйлар, ҳаёлот олами кенг образлилик билан боғлиқ. Бу асар мураккаб уч қисмли шаклда (A(ав) B(ава) A(ав)) ёзилган бўлиб, пьесанинг драматургияси сехрли кўринишини ифодаловчи, яъни мазмуни ҳақидаги ўйлар ифодаланган 1-ҳолига қайтувчи сокин ҳолатдан ғоят эхтиросли даражадаги парвозгача бадий фикр ифодаланишининг ривожланиши асосида ташқи ва ички ривожланиш мутаносиблигига тузилган.

Бешинчи эртак – “Сабо” (“Утренний ветерок”) инсонни уйқудан, эртакона тушлардан уйғонишини кўрсатувчи нафис, романтик тонглар билан туркумни якунлайди. Композитор бу қисмда вариация шакли орқали тонгги соғ ҳавонинг gox кучайиб, gox пасайишини, янги ҳаёт бошланишини, тонгги

табиатни ва умидни ифодалаган. Бу пъесада кўпроқ рангли бўёқ, тонгги шабада нафаси билан ифодаланиб, буларнинг барчасини композитор жарангдор трел ва tremolo, майда фигурацион пассаж, ранг-баранг тембрлар орқали ифодалаган.

Рустам Абдуллаев “Эртаклар” туркумини яратишда биринчи навбатда мавзувий бирлилкка катта эътибор бериб, ҳар бир асарни маънавий томондан ҳикоялар асосида умумлаштирган. Мусиқий томондан эса уларни турли мусиқий воситалар умумлаштиради. Масалан: мусиқада ғоя, образ, драматургик имкониятларни ифода этишда ладларнинг ўрни бекиёсдир. Чунки лад асоси ҳар қандай композиторлик техникаси, мусиқий услуг ёки маълум бир ёналиш мусиқасида муҳим аҳамиятга эга бўлган тизим ҳисобланади. Бундан ташқари, ладлар ўзига ҳос миллий колорит баҳш этишда муҳим восита сифатида иштирок этади. Композитор Р. Абдуллаев ижодиётида табиий ладлар миллийликни ташкил қиласидан таянч каби қўлланилади. Масалан: анъанавий ва ҳалқ мусиқасида кўп ишлатиладиган эолий ва фригий ладлари композиторнинг ушбу “Эртаклар” асарида ҳам кўп ишлатилган. Табиий ладларни ички структураси жиҳатидан – тетрахорд ва пентахордларга бўлинган кўринишида қўлланилиши ўзбек мусиқасига ҳосдир.

Шу билан бирга туркумда қўлланилган барча вертикал тузилмаларнинг иккита катта гурухларга: терциявий ва терциясиз тузилишдаги аккордларга бўлинганлигини кўриб чиқдик. Рустам Абдуллаев кўпроқ терциявий аккордларга мурожат қиласидан. Яъни шуни таъкидлаш жоизки, терциявий тузилиш гармоник тилнинг асоси ҳисобланади. Ўз асарларида композитор шу терциявий тузилишларнинг нихоятда ўзига ҳос ички тузилишини ташкил қиласидан интервалларга эътибор қаратган. Шу ўринда асарда кўпроқ квинтани бўрттириб қўрсатган. Камроқ холларда эса уч товушликларнинг терциясиз, секстали кўринишиларидан ҳам фойдаланилган. Мана шу аккордларнинг ички тузилишининг аҳамияти септаккордларнинг қўлланишида ҳам аниқ кўриниб туради. Асосан эътибор – септаккордларнинг тўлиқсиз яъни K3 + K7 тузилишига, кварт ва квинтаккордларга бўлинган кўринишиларига қаратилган. Шу септаккордлар қаторида анъанавий септаккордлар ҳам ишлатилган. Лекин бу септаккордларнинг ишлатилиш таркиби ўзгача. Яъни фактуравий тузилиши бўйича квинталарни бўрттириб қўрсатган. Доминантсептаккорд ва унинг барча кўринишиларининг ечилиш қонуниятларига эмас, балки жаранглашига эътибор берган. Р. Абдуллаевнинг “Эртаклар” туркумидаги доминанта функцияси аккордларининг яъни, мажор учтовушликлари, минор учтовушликлари ва доминантсептаккордининг терциясиз, квинтасиз каби нотулиқ кўринишиларининг ҳар ҳил йўллар билан тоникага ечилиши ва функционал эркинлик йўллари билан бошқа аккордларга

ўтиш услублари (S, VI, III, VII) кутилмас функционал ва бўёқ эфектларини тутдирган. Ушбу туркумда субдоминанта групхи аккордлари нисбатан бўёқдор ва бой кўрсатилган. Бу албатта, ўзбек халқ мусиқасининг плагал табиати билан боғлиқдир. Асарларда мураккаб структуралар ишлатилмаган. Вертикалда кўпи билан тўрт товушликлар қўлланилиб, кўп холатларда ушбу аккордлар фактура ёрдамида бўлинган. Умуман, Рустам Абдулаевнинг шу асардаги фактураси жуда енгил, тиник ва ўзгарувчанлиги болалар учун ёзилган асарларга ҳосдир.

Келтирилган мисолларнинг ҳаммаси миллий колоритнинг замонавий фактура усуллари билан бойитилган бетакор намуналариdir. Фортепиано чолғуси орқали бошқа чолғулар тембрларини вужудга келтириб, уларни эртакона янграши болалар учун янада қизиқарли туюлади. Рустам Абдулаев “Эртаклар” туркуми орқали ўзбек халқ миллий оҳангларини болалар онгига сингдиришни мақсад қилиб қўйган десак муболаға бўлмайди.

REFERENCES

- 1) Алексеев А. История фортепианного искусства. М., 1988.
- 2) Асафьев Б. Музикальная форма как процесс. Л., 1971.
- 3) Азимова А., Ибрагимова Ш. Замонавий гармония. Т., 2015.
- 4) Абдиқаюмова Г. Ўзбекистон композиторлари ижодида фактура. Т., 2015.
- 5) Гуляницкая Н. Введение в современную гармонию. М., 1984.
- 6) Кон. Ю. Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и ее гармонизации. Т., 1979.
- 7) Нуридинова Х. Ўзбекистон композиторлари ижодида модаллик. Т., 2016.
- 8) Холопова В. Музикальные формы. М., 2003.

MUMTOZ QO’SHIQLAR KUYCHISI

Azizov Zuhriddin Nuriddinovich

O’zbekiston Davlat Konservatoriysi Xalq cholg’ulari
yo’nalishi magistraturasining 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada el suygan san’atkor, O’zbekiston xalq hofizi O’lmas Saidjonovning hayoti va ijod yo’li, u kuylagan mumtoz qo’shiqlar yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyashda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida yetarli ma’lumotlar to’plangan.

Kalit so’zlar: Kuy va qo’shiq, shirali ovoz, hofiz, san’atkor, madaniy tadbir, konserst dasturi, ko’rik tanlov, xushovoz xonanda, mumtoz qo’shiqlar.

Qadimiy va navqiron o’lka Qashqadaryo o’zining boy tarixiga ega. Atrofi tog’lar bilan o’ralgan Kitob tumani ham ushbu Qashqa vohasida joylashgan bo’lib qadimiy obidalari, zamonaviy binolari, go’zal bog’-rog’lari-yu, salqin havosi bilan ajralib turadi. Xalq sevgan hofiz O’lmas Saidjonov ana shu vohaning eng ko’zga ko’ringan san’atkorlaridan biri edi.

O’lmas Saidjonov 1951 yil 10 yanvar kuni Kitob tumanida tavallud topdi. U Abdulla Qahhor nomidagi 48-o’rta maktabda tahsil oldi. O’lmas Saidjonovning san’atga kirib kelishi ham barcha qishloq bolalariga xos edi. U yoshligidan kuy va qo’shiqqa o’ch edi. Shunga yarasha olloh unga betakror, jarangdor kuchli va shirali ovoz ato etgan edi. Bolaligidayoq ona mehridan judo bo’lgan O’lmas qo’liga cho’p olib, tog’ yonbag’irlariga chiqib armonlarini xirgoyi qilib yurardi. Qishlog’ida bo’ladigan to’y-hashamlarga va sayillarga borib, u yerda kuylangan qo’shiqlarni butun vujudi bilan tinglar, uyga kelgach, bir necha kungacha esida qolgan qo’shiq misralarini o’zicha kuylab yurardi. Bora-bora qo’shiq aytish uning hayotiy ehtiyojiga aylandi. Shu tariqa ko’ngil rozini qo’shiqlariga ko’chirdi. Barcha san’atkorlar qatori O’lmas Saidjonov ham Ma’murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Quvondiq Iskandarov, Jumanazar Bekjonov, Faxriddin Umarov, Fattohxon Mamadaliyev, Jo’raxon Sultonov singari ulug’ hofizlar, o’lmas san’atkorlar mакtabida tarbiya topdi. Ularni ijodlarini o’rgandi.

1970 yilda O’lmas Saidjonov Qarshi Davlat pedagogika institutiga o’qishga kirdi. Talabalik yillarda oliygohda o’tkazilgan birorta tadbir uning ishtirokisiz o’tmasdi. Shu tariqa san’atkor sifatida nomi tilga tushdi. 1974 yilda institutni bitirib viloyat suv xo’jaligi tizimida ishladi. 1981 yilda ishdan ajralmagan holda Toshkent

Irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash institutiga qarashli Qarshi bo’limining gidromelioratsiya fakultetini tamomladi. 20 yil davomida suv boshqarmasiga qarashli tashkilotlarning turli lavozimlarida ishladi. O’tgan shu davrda O’lmas Saidjonov bir daqiqa ham san’attan uzoqlashmadı. U vaqt topdi deguncha torini olib yangi-yangi qo’shiqlarni o’rganar edi. Viloyat va Respublikamizda o’tkazilgan madaniy tadbirda faol ishtirok etardi. 1972 yili “Marhabo talantlar” ko’rik tanlovida qatnashib, g’olib va jarangdor ovoz sohibi sifatida muhlislari dilidan joy oldi. Viloyatda o’tkaziladigan birorta tadbir uning ishtirokisiz o’tmas edi. 1974 yili Moskvada yosh xonandalar o’rtasida bo’lib o’tgan “Biz vatanparvar yoshlarmiz” konkursida qatnashib 1-o’rinni olishga muvaffaq bo’lgan.

O’zbekiston mustaqillikka erishgach O’lmas Saidjonov o’zbek milliy san’atini rivojlantirishga, uning dovrug’ini jahonga yoyishga bel bog’ladi. Mumtoz qo’shiqlarning maqom yo’lini qiyinchiliklaridan cho’chimay, ustozlar uslublarini davom ettiradi.

U “O’zbeknavo”: Ustozlar, yulduzlar, shogirdlar” kitobida berilgan savollarga shunday deydi: - “Meni O’lmas Saidjonov qilgan haqiqiy ustozim Ma’murjon Uzoqovdir. Afsuski u buyuk siymoni tirikligida ko’rmaganman... U kishining xotirasini abadiylashtirish yo’lida xizmat qilayotgan kishilar qatorida borligimdan baxtiyorman” (1,38 -b.).

O’lmas Saidjonov Mustaqillik, Navro’z bayramlarida qatnashib el nazariga tushdi va san’atimiz darg’alari safidan joy oldi. Poytaxtga borib san’at sohasida faoliyat yurita boshladi.

1994 yilda Muhiddin Qoriyoqubov nomidagi O’zbek Davlat filarmoniyasining direktori, 1996 yildan esa “O’zbeknavo” rahbarining o’rinbosari lavozimlarida ishlab keldi.

O’zbekistonning barcha viloyatlarida va Turkiya, Fransiya, Yaponiya, Bel’giya singari xorij mamlakatlarida konsert gastrolida bo’lib o’zbek san’atini yuqori cho’qqilarga ko’tardi.

1999 yili Samarqand shahrida o’tkazilgan “Sharq taronalari” festivalida qatnashib, YUNESKO ning diplomi va maxsus sovringa sazovor bo’lgan.

O’lmas Saidjonov jamoat ishlarida ishtirok etib qolmay yangi asarlar yaratishga ham vaqt topardi. U ustozlari Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Abduhoshim Ismoilov, Raxmatjon Tursunov, Sayfi Jalil, Qahramon Komilov, Muhammadjon Mirzayev kabi iste’dodli san’atkorlar bilan hamkorlik qilib 70 dan ortiq Vatan,ona va ishq-muhabbat haqida go’zal qo’shiqlarni xalqimizga taqdim etdi. Jumladan: Furqat fazali bilan “Fig’onkim”, “Yor istab”, Navoiy g’azali bilan “Ey sabo”, “O’lmasun”, Abdulla Oripov she’ri bilan “Furqat nidosi”, Xaziniy g’azaliga mansub “Farg’ona tong otguncha”, Ogahiyning “Feruz”, Atoiyning “Visoling

bo’lmasa”, qo’shiqlari xalqimizning ko’ngil mulkiga aylangan. San’atkor qay darajaga erishmasin dastlab kimningdir yo’lidan boradi va o’z yo’lini topadi. Durdona asarlarni ustozlarning o’ziday maromiga yetkazib aytish ham, katta kuch, mahorat talab etadi.

O’lmas Saidjonov qo’shiqchilik sohasida olib borgan izlanishlari natijasida o’zi ham o’z ovozi va soziga ega bo’lgan mahoratlari xonanda bo’lib yetishdi

U Respublikamizning turli viloyatlarida va “Turkiston” sanat saroyida bir necha marotaba o’zining yakka konsert dasturini namoyish etgan va muxlislarining olqishiga sazovor bo’lgan. Uning “Surating”, “Oshiq bo’libman”, “Guluzorim”, “Jonon bo’laman deb” kabi ko’plab qo’shiqlari san’at muxlislari qalbidan joy olgan.

O’lmas Saidjonov oilaviy jihatdan ham namunali inson, 6 ta farzandni turmush o’rtog’I Saidaxon bilan birgalikda tarbiyaladilar. U ishdan bo’sh vaqtlarida farzandlari davrasida suhbat qurib o’tirishni yaxshi ko’rardi. Hozirda uning farzandlari turli sohalarda mehnat qilib vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo’shmoqdalar.

So’ngi yillarda O’zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligiga qarashli Badiiy jamoalar ijodiy birlashmasi rahbari bo’lib ishlagan. O’lmas Saidjonov 2016 yil 14 fevralda og’ir xastalikdan so’ng vafot etdi.

Uning xizmatlari hukumatimiz tomonidan yuqori baholangan. 1993 yilda “O’zbekiston xalq hofizi” unvoni, 1995 yilda Qozog’iston Respublikasining Faxriy yorlig’i, hamda 1998 yilda Batanimizning “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlangan.

1997 yildan buyon har ikki yilda bir marta Ma’murjon Uzoqov nomidagi Respublika ko’rik tanlovi muntazam o’tkazilib kelinmoqda. O’lmas Saidjonov hayotlik vaqtlarida ushbu tanlovni o’tkazilishida katta hissa qo’shdi. Uning rahbarligida yangi-yangi yosh xushovoz xonandalar kashf etildi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak O’lmas Saidjonov o’zining shirali ovozi, yaratgan mumtoz qo’shiqlari bilan milliy madaniyatimiz rivojiga munosib hissa qo’shdi. U ijro etgan qo’shiqlar мусиқа маданиятимиз, таълим-тарбия ва yosh avlodni маънавий-ахлоқий ривожланишида катта аҳамиятга эга.

REFERENCES

1. Jabborov A., Boyqo’ziyev A. “O’zbeknavo”: Ustozlar, yulduzlar, shogirdlar. Toshkent. “Cho’lpon” nashriyoti 2000 yil, 38-bet.
2. To’xtamishev I. Bu gulshan sahnida I-jild. Toshkent.”Yangi asr avlod” nashriyoti 2006 yil.
3. To’xtamishev I. Bu gulshan sahnida II-jild. Toshkent.”Yoris nashriyot” 2010 yil.

Cholg‘u ijrochiligidä musiqiy ta’lim uzviyiliginä ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

4. Hamidova M.A. Xonandalik san’ati “San’at” jurnali nashriyoti. Toshkent 2009yil. -320 b.

CHOLG'U IJROCHILIGINI O'RGANISHDA MUSIQIY- NAZARIY FANLARNING O'RNI

Karimov Dilshod Mashrab o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 1-bosqich magistranti

E-mail: dilshod3288882@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola cholg'u ijrochisi ham nazariy ham amaliy bilimlarga ega bo'lish kerakligi to'g'risidadir. Undan tashqari maqolada bugungi kundagi musiqa o'qituvchilarining o'quvchilarga dars o'tishda nimalarga alohida e'tibor berishlari kerakligi to'g'risida yozilgan. Har doim nazariyot va amaliyot yonma-yon yuradi. Nazariyot bilimlarga ega bo'lмаган kishi nafaqat musiqa sohasida balki, boshqa sohalarda ham juda qiynaladi. Shuning uchun o'quvchi va o'qituvchilar nazariyot hamda amaliyotni bir-biriga bog'liq ravishda o'rgatishlari va o'rganishlari lozim. O'yaymanki, ushbu maqola o'rganuvchi va o'rgatuvchilarga yordam beradi.

Kalit so'zlar: nazariya, cholg'u ijrochiligi, prima rubob cholg'usi, amaliyot

РОЛЬ МУЗЫКИ И ТЕОРЕТИЧЕСКИХ НАУК В ИЗУЧЕНИИ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ИСПОЛНЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Эта статья о том, что инструменталист должен обладать как теоретическими, так и практическими знаниями. Также в статье рассматривается, на что современные учителя музыки должны обращать особое внимание при обучении студентов Теория и практика всегда идут рука об руку. Человеку, не имеющему теоретических знаний, очень трудно не только в области музыки, но и в других областях. Таким образом, студенты и преподаватели должны преподавать и изучать теорию и практику взаимозависимым образом. Я думаю, что эта статья поможет учащимся и преподавателям.

Ключевые слова: теория, инструментальное исполнительство, первоклассный инструмент, практика.

THE ROLE OF MUSIC AND THEORETICAL SCIENCES IN THE STUDY OF INSTRUMENT PERFORMANCE

ABSTRACT

This article is about the fact that an instrumentalist must have both theoretical and practical knowledge. The article also discusses what music teachers today should pay special attention to when teaching students. Theory and practice always go hand in hand. A person who does not have theoretical knowledge finds it very difficult not only in the field of music but also in other fields. Therefore, students and teachers need to teach and learn theory and practice in an interdependent way. I think this article will help learners and educators.

Keywords: theory, instrumental performance, prima rubob instrument, practice

Cholg‘u ijrochiligini o’rganishda musiqiy- nazariy fanlarning o’rni. Musiqa san’ati qadim-qadimdan jamiyat hayotining ajralmas bo’lagi sifatida shakllanib kelgan. Musiqa insonni tarbiyalashda, ma’naviy yetuklikka yetishtirishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilib kelgan. Bugungi musiqa ta’limining ham eng muhim maqsad va vazifalaridan biri o’quvchi yoshlarda musiqiy savodxonlikni oshirish, ularni ma’naviy va ruhiy tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat hissini shakllantirish, o’z milliy musiqalarimiz, milliy an’analarimizni singdirishdan iborat. Ushbu vazifalar esa albatta malakali o’qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Musiqa bilim yurtlarining asosiy vazifasi esa ham nazariy ham amaliy jihatdan bilimli, iqtidorli, ijodkor mutaxassislarni tayyorlashdir. Bu vazifa esa bosqichma-bosqich amalga oshirilishini yaxshi bilamiz. Buning uchun avvalo poydevorimizni mustahkam qilishimiz lozim. Chunki uy devorni o’zidan yoki tomidan boshlab emas balki, poydevordan boshlab quriladi. Poydevori mustahkam uy ko’p yillar bizga xizmat qiladi albatta. Bu poydevorni nafaqat musiqaga ixtisoslashtirilgan san’at mакtablarida balki, umumiy o’rta ta’lim maktablari hamda maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab mustahkamlash kerak nazarimda. Yurtboshimizning “Madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar” PQ-112-qarorlari aynan shu poydevorni mustahkamlash to’g’risida. Bu qarorga ko’ra har bir mакtab o’quvchisi kamida bitta milliy cholg‘uda chalishi, dars o’tayotgan o’qituvchi esa kamida uchta cholg‘uda ijro mahoratiga ega bo’lishi lozim. Bu cholg‘ularni chalishni o’rganish uchun esa albatta musiqiy savodxonlik zarur. Maktabga ilk marotaba kelgan bolaga kitobni tez o’qib berish talab etilmaganidek, musiqani bilmagan bolani qo’liga ham biror- bir asbobni tutqazib chaldirish ahmoqlik nazarimda. Maktabga kelgan bolakaylarga avvalo “Alifbe” kitobida harflar tanishtiriladi so’ngra, harflarni sekin-sekin yozish o’rgatiladi. Musiqa darsida ham xuddi shunday. Musiqamizning ham atiga yettita harfi bo’lishiga qaramay, harflardan keyingi yoki oldingi tinish belgilar musiqa nazariyasi fanida o’tiladi. O’quvchilar bu fanni qanchalik yaxshi o’zlashtirsalar cholg‘udagi ijroni ham o’rganish shuncha oson

kechadi. Shu o'rinda yana savol tug'ilishi mumkin. Musiqa nazariyasi fanining cholg'u ijrochiligi bilan bog'liqligi nimada? Boya aytib o'tganimday bu fanda o'quvchi birinchi bo'lib musiqadagi kalitlar, musiqa alifbosi bo'lgan yettita nota ya'ni, C (do), D (re), E (mi), F (fa), G (sol), A (lya), H (si) notalarni, musiqadagi barcha terminlarni, oktavalar, intervallar, ladlar va shu kabi kerakli bo'lgan musiqiy iboralarni o'rganadi.

Musiqiy cholg'ular turli xil oktavadagi turli xil notalarga sozlanadi. Cholg'u ijrochisi esa o'z cholg'usini qaysi oktavadagi qaysi notaga sozlanishini yaxshi bilishi lozim. Chalayotgan cholg'usining ovoz diapazoni, ijro etayotgan asarining tonalligi, asarning muallifi kelib chiqish tarixi hammasini cholg'u ijrochisi bilishi lozim. Ushbu ma'lumotlarni esa nazariy fanlardan olish mumkin. Har doim nazariya va amaliyot yonma-yon yurgan. Biz nazariy o'rganganlarmizni amaliyotda qo'llaymiz. Keling so'z isboti bilan diyishadi hozir bir cholg'u sozini nazariya bilan bog'laymiz.

Har bir sozning kib chiqish tarixi bor bo'lib, rubob prima cholg'usining kelib chiqish tarixi quyidagichadir:.1943-yilda San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti qoshida o'zbek xalq cholg'u so'zlarini takomillashtirish uchun mo'ljallangan tajriba laboratoriyasi ochildi. Unga 1943-1948-yillarda I.Akbarov—direktor, V.Uspenskiy—mudir va A.Petrosyans—ustaxona mudiri etib tayinlandi. Natijada professor A.I.Petrosyans rahbarligida ko'pgina cholg'ular takomillashtirilib qayta ishlandi, cholg'ular oilasi, ularning yangi turlari, shu jumladan ruboblar oilasi ham tajriba sifatida yaratildi. Ya'ni rubob cholg'usi asosida ushbu cholg'uning rubob prima, metsso soprano va alt turlari paydo bo'ldi.

Sozgar usta S.E.Didenko tomonidan ishlangan rubob prima cholg'usi yuqori registrdagи tovushlarga, katta tovush diapazoniga va keng ijrochilik imkoniyatlariga ega bo'lib, mizrob bilan chalinadigan sozlar sirasiga kiradi. Har bir cholg'u ijrochisi o'z cholg'usining kelib chiqish tarixini bilishi lozim deb o'ylayman va cholg'u sozini o'rgatayorgan o'qituvchi ham bunga alohida e'tibor berishi joiz. Cholg'u tarixi o'rganilgandan so'ng uning tuzilishi o'rganiladi. Hozir rubob prima cholg'usining tuzilishi bilan tanishamiz.

Rubob prima cholg'usining dastasi yigirma to'rtta metall plastinkalar bilan bo'lingan bo'lib, ular orasidagi o'zaro masofa—parda deb yuritiladi. Pardalar sozning bosh qismidan kosasiga qarab sanaladi. 2, 5, 7, 10, 12, 14 raqamli pardalarga o'ziga xos bo'lgan turli ko'rinishdagi plastmassa yoki sadafdan ishlangan bezak- belgilar o'rnatilgan bo'lib, ular soz dastasida notalar joylashishini aniqlashda yordam beradi.Rubob prima to'rtta torli cholg'u bo'lib, birinchi va ikkinchi torlar po'latdan silliq yasalsa, uchinchi va to'rtinchi torlar po'lat torga o'ralgan holatda tayyorlanadi. Amaliyotda birinchi tor—0.24mm; ikkinchi tor—0.28mm; uchinchi tor asosi—0.30mm, o'ralgani— 0.70mm; to'rtinchi tor asosi—0.45mm, o'ralgani—0.95mm qalinlikda

tayyorlanadi. Cholg‘u sozining tuzilishini o’rganish ikkinchi qadamlar bo’lsa, uning sozlanishi uchinchi qadamdir. Rubob prima cholg’usi quyidagicha sozlanadi:

Rubob prima cholg’usi kvinta intervali bo'yicha sozlanadi.

1-tor ikkinchi oktava Mi notasiga;

2-tor ikkinchi oktava Lya notasiga;

3-tor birinchi oktava Re notasiga;

4-tor kichik oktava Sol notasiga sozlanadi.

Guvohi bo’lib turganingizdek, nazariya va amaliyat bir-biriga chambarchas bog’liq. Ushbu o’rganganlarmiz nazariyaning boshlanishi hisoblanadi. Bundan tashqari o’rganuvchi musiqa nazariyasini ham bilishi zarur. Musiqa nazariyasini bilmay turib, cholg’uda biror bir asar ijro qilib bo’lmaydi. Hozirgi kunda o’qituvchilardan nazariya va amaliyotni birga o’rgatish lozimligi talab etilyapti xolos. Buning uchun esa ta’kidlab o’tilganidek, ushbu metodikani qo’llashni poydevorlarimizdan boshlashimiz lozim.

Xulosa o’mida shuni ayta olamanki, o’quvchilarining amaliy va nazariy bilimlarini egallashida o’qituvchi juda muhim ahamiyat kasb etadi. O’qituvchi qanchalik darsni nazariyaga bog’lab qiziqarli o’tsa, o’quvchilarda amaliy ko’nikmalar ko’proq shakllanadi. Bunday metodikani qo’llab darslarni olib borsak, yurtimizda san’at va madaniyat sohasi yanada gullab yashnayveradi albatta.

References:

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on additional measures for further development of culture and arts PQ-112
- 2.A.Petrosyans “Cholgushunoslik” 3rd edition T. 1990
- 3.A.Tashmatova “Catalog of the Museum of Musical Instruments” “Science” T. 2006
- 4.O.Akbarov. “Pedagogical practice” “Istiqlol” T. 2005
- 5.A.Gochbakarov “Rubob prima instrumental performance” Music “T. 2015.

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyiliginini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

Назаров Одилжон		
1	ИЖРО МАҲОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МАШҚ, ГАММА ВА ЭТЮДЛАРНИНГ ЎРНИ	4-9
Allanbayev Rudakiy		
2	DONI ZOKIROV NOMIDAGI “O”ZBEK XALQ CHOLG,,ULARI ORKESTRI” FAOLIYATINING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O’RNI VA AHAMIYATI	10-14
Шарипова А.Р.		
3	ИННОВАЦИОННАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ ПРОГРАММА «КЛУДЖ» И ЕЕ РОЛЬ В ОБРАЗОВАНИИ МУЗЫКАНТОВ- ИСПОЛНИТЕЛЕЙ XXI ВЕКА	15-19
Қодиров Хасан Кидирбоевич		
4	РУБОБИ ЧОЛҒУСИ ИЖРОЧИЛИГИДА ТАЪЛИМНИНГ УЗЛУКСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ	20-24
Рахимов Б		
5	ЎЗБЕК ВА ОЗАРБАЙЖОН ЧОЛҒУ СОЗЛАРИНИНГ МУШТАРАКЛИГИ	25-30
Turatov Sobirjon Turdibekovich		
6	YOSH DIRIJORLARNI TARBIYALASHDA PEDAGOGIK TAVSIYALAR	31-34
Xurshid Beknazarov		
7	O, ZBEK XALQ CHOLG,,ULARINI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA O,RGANILISHI	35-40
F. Xakimova		
8	YOSH AVLODNI MILLIY MUSIQA VOSITASIDA TARBIYALASH	41-43
Islamov Dilmurod Muxutovich		
9	SAN”ATGA E”TIBOR – MILLATGA E”TIBOR	44-47
Qudratilla Qobilqoriyev		
10	DOIRA IJROCHILIGI RIVOJIDA TA’LIM BOSQICHLARI O,,RTASIDAGI UZVIYLIKNI TA”MINLASH	48-52
Татьяна Седых		
11	АБДУВАХИД МУБОРАКОВ – ИСПОЛНИТЕЛЬ НА РУБАБЕ- ПРИМЕ (к 70 – летию со дня рождения)	53-57
Умаров Шерзод		
12	ИСЛАМ О МУЗЫКЕ	58-62
Niyozov Qurbonali Nuraliyevich		
13	CHOLG,,U IJROCHILIGI TA’LIMIDA UZVIYLIK MASALALARI	63-66
Azamjonovich Berdiyev Bobomurod		
14	HARBIY MUSIQA LITSEYI O’QUVCHILARINI KASBIY-RUHIY TAYYORGARLIGIDA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH MASALALARI	67-71
Раджабова Зарина Алимовна		
15	ПОЗНАВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОПЕРЫ « ПЕРВЫЙ ИМПЕРАТОР» ТАН ДУНА В ОЗНАКОМЛЕНИИ УЧАЩИХСЯ С КИТАЙСКИМИ ТРАДИЦИОННЫМИ МУЗЫКАЛЬНЫМИ ИНСТРУМЕНТАМИ	72-75
Mamasoliyeva Dildora Valijon qizi		
16	XALQ CHOLG,,ULARI VA ULARDA IJRO ETISH MASALALARI XUSUSIDA	76-79

17	Malika Ismoil qizi Kaynarova CHANG MUSIQA CHOLG,,USINING TARIXIY BOSQICHLARI	80-82
18	Zuhriddin Abdujabbor o'g'li Abdullayev “MUSIQIY TA’LIM UZVIYLIGINI TAMINLASH MASALALARI VA YECHIMLARI (DOIRA IJROCHILIGI MISOLIDA)”	83-86
19	Alekeev Nesipbay Tursinbaevich ALAMOYNAQ DUWTAR, QOBÍZ SAZ ÁSPABÍ TARIYXÍ HÁM BIRINSHI ATQARÍWSHÍLARÍ	87-91
20	Xolmo'minova Saodat Muzaffar qizi BOLALAR MUSIQA VA SAN"AT MAKTABLARIDA AN"ANAVIY IJROCHILIK YO,,LINI O,RGATILISHI (DUTOR CHOLG,,USI MISOLIDA)	92-95
21	Mamirjonova Feruzabonu Abdullajon qizi DUTOR BAS CHOLG,,U IJROCHILIK SAN"ATI TARIXI	96-101
22	Мустафаева Эльмаз Шакировна ИСТОРИЧЕСКИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ СТАНОВЛЕНИЯ ЭТНОСОЛЬФЕДЖИО В УЗБЕКИСТАНЕ	102-107
23	Дадажонова Юлдуз Атабековна ЭСТРАДА-ЖАЗ ИЖРОЧИЛИК ТАЪЛИМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИГА БИР НАЗАР	108-112
24	Latofat Nuriddin qizi Mo'minova DUTOR ANSAMBLARI UCHUN O'QUV USLUBIY QO"LLANMALARI VA DARSLIKLARI TANQISLIGI MUAMMOSI, ADABIYOTLAR TAHLILI	113-117
25	Qilichov Otamurod Zokirovich CHOLG,,U IJROCHILIGIDA MUSIQIY TA’LIM UZVIYLIGINI TA’MINLASH MASALALARI VA YECHIMLARI	118-122
26	Shukurjonova Xusnora Farhod qizi MUSIQA TA’LIMIDA CHOLG,,U IJROCHILIGINING UZVIYLIK MASALALARI	123-129
27	Jonibekov Saidbek BOSHLANG,JCH MUSIQIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA HAMKORLIK MASALALARI	130-133
28	Mohinabonu Asqarova CHOLG,,U IJROCHILIGIDA MUSIQIY TA’LIM UZVIYLIGINI TA’MINLASH MASALALARI VA YECHIMLARI	134-140
29	Panjiyev Umidjon MUSIQIY TA’LIMDA DUTOR BAS IJROCHILIGINI O,RGATISH MASALALARI	141-144
30	Kozimjonova Moxigul SINF VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQA TARBIYASI TIZIMI	145-147
31	Aripova Gulnoza Tulkunovna STUDY OF MUSIC TERMS IN COMPIILING A DICTIONARY	148-152
32	Xakimov Orifjon Boboramazonovich AMALIY MASHG"ULOTLARDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH	153-159
33	Vohidov Yusufjon Qodirovich NAY IJROCHILIGI XUSUSIDA USLUBIY KO'RSATMALAR	160-163
34	A'zamjonova Nozima Yusufovna	164-168

MUSIQIY-NAZARIY FANLARNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV		
Voxidov Qobil Qodirovich		
35 MUSIQA TA’LIMINI O“QITISHDA INTEGRATSİYALASHGAN METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	169-171	
B. M. Закирова		
36 MUZYKAL’NO-KRITICHESKOE MYSHLENIE KAK FUNDAMENT PROFESSIONALIZACII SOVREMENNOGO MUZYKANTA	172-177	
Xudoyqulova Nilufar Xo‘jamurod qizi		
37 CHOLG,,IJROCHILIGIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O,,RNI	178-182	
J. G’. Turatov		
38 AMALIY DARSLARDA ART PEDAGOGIKANING O,,RNI	183-187	
Sadullayev Nodirbek Allamberdiyevich		
39 TINGLOVCHILAR ORASIDA O’ZBEK MILLIY CHOLG’ULAR ORKESTRI VA ANSAMBL IJROCHILIGI TARG’IBOTI MASALALARI	188-191	
Сайдакулова Гулшона Одилжон қизи		
40 ЗАМОНАВИЙ ИЖРОЧИЛИККА ЭТЬИБОР	192-199	
Yo’ldashov Dilmurod Yusufjon o‘g’li		
41 DOIRA IJROCHILIGINI O’RGATISHDA AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY METODLAR	200-206	
Mo‘ydinov Fozilxon Nosirxon o‘g’li		
42 MILLIY MUSIQA CHOLG,,ULARI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI	207-210	
Mashrabboyeva Farhunda Osimovna		
43 CHOLG“U IJROCHILIGINI O“RGANISHDA AN“ANAVIY VA ZAMONAVIY METODLAR	211-215	
Xurramova Diyora		
44 CHANG CHOLG“USINING YILLAR DAVOMIDA TAKOMILLASHTIRISH VA MUSIQIY TIZIMIDA IJROCHILIK TEXNIKALARI	216-218	
Mullajonov Davlat Mavlonovich		
45 CHOLG,,U IJROCHILIGIDA “SOLFEDJIO” FANINING O,,RNI	219-223	
Rajabov Xikmat Jumayevich		
46 QASHQAR RUBOBIDA BOSHLANG,ICH DARS JARAYONIDAGI TA’LIM MUAMMOLARI XUSUSIDA	224-229	
Abduvahobov Abdushukur		
47 MUSIQA IJROCHILARINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA MUSIQIY-NAZARIY FANLARNING O,,RNI	230-234	
Dilafruz Sultanxonovna Isakova		
48 MUSIQIY -NAZARIY FANLARNI TASHKIL QILISH. SOL’FEDJIO DARSLARIDA INTONATSION MASHQLARNING AHAMIYATI	235-240	
Abdusalomov Fazliddin		
49 AKADEMİK CHOLG,,U IJROCHILIGIDA MUSIQIY-NAZARIY FANLARNING AHAMIYATI	241-245	
Sami Elbek Aziz		
50 MUSIQA IJROCHILIGIDA MUSIQIY ESHITISH VA	246-251	

Cholg‘u ijrochiligidagi musiqiy ta’lim uzviyiliginini ta’minlash
Providing the integrity of music education in instrumental performance

DIQQATNING ORNI		
51	Abdumajidova Nozima Farhod qizi ALISHER NAVOIY VA MUSIQA	252-255
52	Qurbanov Azizbek DOIRA IJROCHILIGINI O’RGANISHDA MUSIQIY-NAZARIY FANLARNING AHAMIYATI	256-261
53	Nigina Zoxidin qizi Xolmirzayeva DUTOR CHOLG „USIDA IJROCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI	262-266
54	Б.Қодиров Ш.УМАРОВНИНГ ДУТОР ВА ОРКЕСТР УЧУН “ШАРҚОНА РАҚС” АСАРИНИНГ ИЖРОЧИЛИК ТАҲЛИЛИ	267-270
55	Xatamova Irodaxon MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BOLALAR FOLKLOR IJODINI SHAKLLANTIRISHNING PEDADOGIK YO“NALISHLARI	271-274
56	Абдуразақова Умида Бахтиёр қизи РУСТАМ АБДУЛЛАЕВНИНГ “ЭРТАКЛАР” ТУРКУМИНИНГ ТАҲЛИЛИ	275-278
57	Azizov Zuhriddin Nuriddinovich MUMTOZ QO“SHIQLAR KUYCHISI	279-282
58	Karimov Dilshod Mashrab o’g’li CHOLG“U IJROCHILIGINI O’RGANISHDA MUSIQIY- NAZARIY FANLARNING O’RNI	283-286